



Toshkent davlat yuridik universiteti  
huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro  
standartlar bo'yicha professional o'qitish  
markazi

## O'QUV-USLUBIY MAJMUA

# YURISPRUDENSIYA

FUQAROLIK VA  
JINOYAT-HUQUQIY  
FANLARNING  
DOLZARB  
MASALALARI

2  
0  
2  
5



71 233-22-14  
[t.me/centertsul](https://t.me/centertsul)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YURIDIK KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA  
PROFESSIONAL O'QITISH MARKAZI**

## **YURISPRUDENSIYA**

qayta tayyorlash va malaka oshirish  
yo'nalishi

**“FUQAROLIK VA JINOYAT-HUQUQIY  
FANLARNING DOLZARB MASALALARI”**

moduli bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv  
rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

<b>Tuzuvchilar:</b>		
	Q.Mehmonov	– TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasи professori, y.f.n.
	Sh.Xaydarov	– TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasи professor v.b., y.f.n.
	S.Uralov	– TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasи o‘qituvchisi

<b>Taqrizchilar:</b>		
	D.Bazarova	– TDYU Jinoyat-protsessual huquqi va kriminalistika kafedrasи mudiri, y.f.d.
	N.Imomov	– TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasи mudiri, y.f.d.
	A.Otajonov	– Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasи mudiri, y.f.d., professor

*O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining  
202\_\_-yil \_\_\_\_-dagi \_\_\_\_-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## **MUNDARIJA:**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	5
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	17
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	25
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	152
<b>V. KEYSLAR BANKI .....</b>	167
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	201
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	214
<b>VIII. TAQRIZLAR.....</b>	219

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son, 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-73-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagagi 415-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va

malakalarini o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

## **Modulning maqsad va vazifalari**

Jamiyatni demokratlashtirish sharoitida fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlar to'g'risida qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarining bilimlarini takomillashtirish, ushbu soha muammolarini aniqlash, tahlil etish va baholash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning asosiy masalalari yuzasidan chuqur bilim olishni ta'minlash hamda pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzlucksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirilishini ta'minlash, o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda o'quv jarayonini fan va amaliyot bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish fanning maqsadi va vazifalarini tashkil etadi.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

"Fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari" modulini o'zlashtirish jarayonida:

#### **Tinglovchi:**

- fanning nazariyasi, qonuniyatları va asosiy tamoyillarini;
- yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilishni;
- fuqarolik huquqida bitimlar va yangi shartnomalarning huquqiy konstruksiyalarini;
- xususiy mulkka bo'lgan huquqlarning kafolatlari va himoya usullarini;
- fuqarolik-huquqiy faoliyat sohalariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;
- fuqarolik-huquqiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos jihatlariga, ushbu fanlar bo'yicha modulli o'qitish tizimi va uning qismlariga, ma'ruza o'qishning interfaol usullarini ushbu fanlar bo'yicha ma'ruza o'qishda qo'llashni, keys-stadi asosida dars o'tishni;
- jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlarini;
- jinoyat-huquqiy faoliyat sohasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;

- jinoiy javobgarlikni liberallashtirish sohasidagi jinoyat-huquqiy siyosatni;
- giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar va ularning mazmun-mohiyatini;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog'liq huquqiy masalalarni;
- surishtiruv va dastlabki tergovning umumiyligi shartlarini;
- jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishning umumiyligi masalalarini;
- huquqiy fanlar bo'yicha innovatsiyalarni, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublarini;
- o'quv jarayonida nazariy tayyorgarlikni huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'lashni;
- huquqiy axborot tizimlarini qo'llash metod va vositalarini **bilishi** kerak.

### **Tinglovchi:**

- fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarga tegishli fanlarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va tahlil qilish;
- fuqarolik va jinoyat-huquqiy faoliyat sohalariga oid qonunchilik normalarini, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni o'quv jarayonida qo'llay olish;
- fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlar faoliyat sohalariga tegishli fanlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiq etish va huquqiy fanlarni o'qitishda ta'lim berishning modulli tizimidan kengroq foylanish;
- huquqiy fanlarga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash, tahlil qilish va huquqiy fanlarni o'qitishda amaliyat materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;
- respublikamizdag'i va xorijiy davlatlardagi huquqiy fanlarga tegishli ilmiy yutuqlarni, maxsus adabiyotlarni va boshqa axborotlarni o'rganish;
- fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlar doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'limni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish;
- fuqarolik va jinoiy huquqiy faoliyat sohalariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- sud hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini moddiy huquq nuqtai nazaridani tahlil qila olish;
- huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunish, tadbiq etish va o‘quvchilarga munosib yetkazib berish;

- fuqarolik va jinoiy huquqiy faoliyat sohalariga oid xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qila olish;

- kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun bo‘lgan huquqiy axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishslash va uzatish vositalaridan foydalana olish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- fuqarolik va jinoiy huquqiy faoliyat hamda yuridik ta’limning boshqa ustuvor sohalari bo‘yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta’minlash;

- o‘quv jarayonini nazariy tayyorgarlikning huquqni qo‘llash faoliyati bilan uzviy bog‘liqligini, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo‘llashni ta’minlaydigan o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiyaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

- huquqni qo‘llash amaliyotiga, o‘quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish;

- o‘quv jarayonida ta’lim berishning modulli tizimini qo‘llagan holda talabalarda tizimli mushohada yuritish, vaziyatni baholay bilish, optimal qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek ularda yuridik faoliyatning tegishli sohalarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- maxsus fanlarni o‘qitishda kazus va muammoli savollar tuzish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida multimediya va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, kolokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli o‘quv rejadagi “Davlat-huquqiy fanlarning dolzarb masalalari” moduli bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlar sohasidagi dolzarb masalalarni, mazkur tizimdagi muammolarni aniqlash, ularni tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Umumiy o‘quv yuklamasi soatlari</b>			
		<b>Jami</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
			<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy</b>	<b>Ko‘chma mashg‘ulot</b>
1.	Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqining o‘rnini aniqlash. Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish	2	2		
2.	Fuqarolik huquqida bitimlar va yangi shartnomalarning huquqiy konstruksiyalari	2		2	
3.	Delikt munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning zamonaviy muammolari. Xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarning kafolatlari va himoya usullari	2		2	
4.	Intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari.	4	2	2	

	Fuqarolik huquqida meros masalalari va huquqiy vorislik bitimlari				
5.	Bugungi islohotlar bosqichida jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlari. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish sohasidagi jinoyat-huquqiy siyosat	2	2		
6.	Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog’liq huquqiy masalalar	4	2	2	
7.	Surishtiruv va dastlabki tergovning umumiy shartlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish	2		2	
8.	Birinchi instansiya sudida ish yuritishning umumiy shartlari	6	2		4
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>4</b>

## **BAHOLASH MEZONI**

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqining o‘rnini aniqlash. Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

Zamonaviy sivistika va xususiy huquqda fuqarolik huquqining o‘rnini va ahamiyatiga oid yondashuvlar. O‘zbekistonda sivistika maktabining shakllanishi va rivojlanishi. Xususiy huquqqa oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yo‘nalishlari. Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi va turlarini misollar bilan tushuntirish. Fuqarolik kodeksi va maxsus qonunlarda tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllaridagi

nomuvofiqliklarni tahlil qilish, shunga oid kazuslarni keltirish. Yangi Fuqarolik kodeksida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalarini ko‘paytirish va kam tuziladigan tashkiliy-huquqiy shakllarni optimallashtirish masalalarini jadval ko‘rinishida aks ettirish.

## **2-mavzu. Fuqarolik huquqida bitimlar va yangi shartnomalarning huquqiy konstruksiyalari**

Fuqarolik huquqida bitimlar tushunchasini tahlil qilish. Qonunchilikda ko‘rsatilmagan yangi shartnomalar shakllarinining umumiy qoidalarni bayon etish. Yangi shartnomalarning vujudga kelishi hamda mazkur shartnomalarning turlari va tarkibini tahlil qilish. Yangi shartnomalarning zamonaviy turlariga nisbatan qonunchilikning o‘xshashlik tamoyilini qo‘llash. Fuqarolik huquqining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Yangi shartnomalarni yuridik jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirish.

## **3-mavzu. Delikt munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning zamonaviy muammolari. Xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarning kafolatlari va himoya usullari**

Delikt tushunchasi, Delikt uchun javobgarlik tushunchasi va deliktga doir asosiy talablarni taqdimot ko‘rinishida namoyish etish. Delikt munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar sharhini tanqidiy tahlil etish. Delikt munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni rivojlanishini qiyosiy jadval shaklida taqdim etish. Xususiy mulk tushunchasi, tijoratchi yuridik shaxslarning xususiy mulki tushunchasi. Xususiy mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallahuv darajasini oshirish borasidagi huquqiy mezonlarini tahlil qilish. Mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvni cheklashning maxsus huquqiy institutlarni qonunchilikda va yuridik amaliyotda qo‘llash usullarini o‘rganish.

## **4-mavzu. Intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari. Fuqarolik huquqida meros masalalari va huquqiy vorislik bitimlari**

Intellektual mulk huquqi tushunchasi va uning tuzilishi, Eksklyuziv huquq tushunchasi, mazmuni va himoyasi, Intellektual mulk huquqi obyektlari tushunchasi, Shaxsiy nomulkiy va boshqa intellektual huquqlarni Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish sohasida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asoslarini tushuntirish. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini va ularning mahsulotlari (ishlari, xizmatlari)ni individuallashtirish vositalariga bo‘lgan huquqlarning mazmunini takomillashtirish masalalarini muhokama qilish. Merosni ochish tushunchasi va asoslari. Huquqiy vorislik bitimlari tushunchasi. Merosni qabul qilish tartibining huquqiy asoslarini tahlil qilish.

Merosxo‘rlar o‘rtasidagi kelishuv bo‘yicha merosning bo‘linishi mezonlarini tahlil qilish. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarida hamda ishlab chiqarish kooperativlarda kabi yuridik shaxslar tugatilgan taqdirda boshqarish bilan bog‘liq huquqlarni meros qilib olish, shuningdek merosni himoya qilish choralarini, ularni qabul qilish asoslarini tahlil qilish.

**5-mavzu. Bugungi islohotlar bosqichida jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlari. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish sohasidagi jinoyat-huquqiy siyosat**

Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish tushunchasi va ahamiyati. Dekriminalizatsiya – jinoyat qonunini liberallashtirish usuli sifatida. Alovida turdagji jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish masalalari.

**6-mavzu. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog‘liq huquqiy masalalar.**

Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar mazmun-mohiyati. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallah, ushbu moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish, giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallah, saqlash va boshqa harakatlar uchun javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog‘liq huquqiy masalalar

**7-mavzu. Surishtiruv va dastlabki tergovning umumiyligi shartlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

Surishtiruv va dastlabki tergovga xos asosiy qoidalar tahlili. Jinoyatlarni tergov qilish mavzusini o‘qitishda sohadagi tajribali mutaxassislar faoliyatini tahlil qilish. Savollar tuzishda manbalardan foydalanish metodikasi. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tushunchasi. Jinoyat protsessida himoyachining ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlarni manbalar asosida tahlil qilish. Protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni o‘rgatishda rolli o‘yinlar metodidan foydalanish.

**8-mavzu. Birinchi instansiya sudida ish yuritishning umumiyligi shartlari**

Sudda jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish. Mavzuni o‘qitishda tajribali amaliyotchilarni jalgan etishdan foydalanish.

Muammoli vaziyatni muhokama qilishning asosiy mezonlari. Muammoli vaziyat asosida talabaning bilimini aniqlash.

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

Fuqarolik va jinoyat-huquqiy fanlarning dolzARB masalalari fanida jinoyat sudi materiallaridan foydalanish, sud protsesslarida qatnashish, jinoyat qonunchiligi va protsessiga oid amaliy materiallari bilan amaliyotda tanishish, sohaga oid amaliy materiallaridan foydalanish va ular bilan bevosita sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda tanishish ko‘chma mashg‘ulotning mazmunini tashkil etadi.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- devorsiz maktab;
- online ma’ruza;
- trening, videotrening;
- ma’ruzalar va suhbatlar;
- aqliy hujum va bumerang, tanishuv usuli;
- dalil va argumentlar asosida fikrini asoslash, tinglash va eshitishga moslashish;
- kichik guruhlarda idrok xaritasida ishlash (hamkorlikda ishlashga o‘rganiladi).

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. B – 48.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017. – 102 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-ton.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-ton.

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvardagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1931443>.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/2006789>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PF-5464-som Farmoyishi // [lex.uz](http://lex.uz).

8. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagи “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://www.lex.uz/docs/4737511>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini

yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-son Farmoni//  
<https://lex.uz/docs/4838762>.

10. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2022-y., 03/22/794/0939-son

11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

12. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T.: Adolat, 2018.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag‘i “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldag‘i “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6034-son Farmoni.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism / Mualliflar jamoasi. Prof. O.Oqyulovning umumiylahri ostida. – Toshkent: TDYU, 2016. 312 b.

2. Imomov N. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar). – Toshkent: TDYU, 2017. 150 b.

3. Tadbirkorlik (Biznes huquqi). Mas’ul muharrir H.Azizov. –Toshkent: TDYU, 2018. 238 b.

4. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 684 b.

5. Catherine Elliott & Frances Quinn. Contract law. Longman (2011). (Elliott & Quinn series).

6. Cees van Dam. European tort law. Oxford University Press (2013) Second Edition published in 2013.

7.R.Kabulov, A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik/ Mas’ul muharrir Sh.T.Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2014. – 824 b.

8.Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati. O‘quv qo‘llanma T.: TDYuI, 2016. – 379 b.

9.Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi (Umumiylahri qism). Darslik. – T.: Yangi asr avlod, 2010. – 662 b.

10. Базарова Д. Адвокат как участник в досудебных стадиусах головного процесса: монография / Д.Б.Базарова; Рецензенты: Б.Б.Хидоуатов, Рец.Д.М.Миразов; ТГЮИ.-Т.: Extremum press, 2011. - 192 с.

#### **IV. Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>
5. <http://www.parliament.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>
7. <http://www.sud.uz>

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### Materialni og'zaki bayon qilish metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'yash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining tinglovchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, tinglovchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

### Suhbat metodi

Tinglovchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jaraèni: ular e'tiboriga havola etilaètgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'yash va savollarga to'g'ri javob tayèrlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoèn bo'ladi. Suhbat metodi èrdamida bilimlarni o'zlashtirishda tinglovchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar. 3. Darslik (umuman, kitob) bilan

### "SWOT-tahlil" metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	<ul style="list-style-type: none"><li>• Kuchli tomonlari</li></ul>
W- (Weakness)	<ul style="list-style-type: none"><li>• Zaif kuchsiz tomonlari</li></ul>
O- (opportunity)	<ul style="list-style-type: none"><li>• Imkoniyatlari</li></ul>
T-(Threat)	<ul style="list-style-type: none"><li>• To'siqlar</li></ul>

## **“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.


### **Metodni amalga oshirish tartibi**

- 
- 1 • Trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi
  - 2 • Trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirishgach, har bir guruh umumiy muammoni tahlil qilishlari zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materallarni tarqating;
  - 3 • Har bir guruh o‘ziga berilan muammosini atroficha tahlil qilib o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
  - 4 • Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqsimotlarini o‘tkazadilar, Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruruiy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yuklanadi

## **“Keys-stadi” metodi**

**“Keys-stadi”** - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who),

Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).




### **“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uya vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.



### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bўlgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:
  - ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, tinglovchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izoh-lanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar,

tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruqlik tartibda);

- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlarni o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqorida pastga qarab qo‘sib

chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **“Munozara” metodi**

Ta’lim tizimida tizimlarda nutq o‘qitish, o‘z fikrini mustaqil va asosli bayon qilib, xulosalar chiqarish vositasi sifatida g‘oya muhim o‘rin egallaydi. Bu bajariladigan ishning bir turi bo‘lib, o‘zaro tortishish jarayonini keltirib chiqaradi va unga aniqlik kiritadi. Tinglovchilar tomonidan “o‘z so‘zi” o‘ziga xos uslub asosida izchil, savol fikr yuritiladi.

Munozara vaqtida tinglovchilar o‘zlariga ishongan holda savollarni munozara qilishadi. Munozara uchun shunday sharoit yaratishi kerakki, unda tinglovchilar o‘z fikrlarini ishonch bilan ochiq aytish, kamchiliklari uchun aybga qo‘ymasliklariga ishongan holda bayon etishlari lozim.

**Masalan: Ma’muriy ixtiyoriylik ma’muriy hujjat qabul qilishga qanday ta’sir qiladi?**

#### **Munozara usulida quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:**

- ❖ Yangi bilimlarni shakllantirish
- ❖ O‘g‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish
- ❖ Mavzu yuzasidan fikr almashish asosida tegishli bilimlarga ega bo‘lish

### **“Pinbord” metodi**

Pinbord inglizchadan: pin – mustahkamlash, board –doska ma’nosini bildiradi. Bu usulda munozara yoki suhbat amaliy usul bi-lan bog‘lanib ketadi. Metod maqsadi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazi-fasini bajarish. Bunda tinglovchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi,

o‘z fikrini nafaqat og‘zaki, balki yozma ra-vishda bayon etish mahorati, mushohada qilish va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

### “Portfolio”metodi

“Portfolio” – ( ital. rortfolio – portfel, ingl.hujjatlar uchun pap-ka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘in-disi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshi-rish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglov-chilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

### Muammoli metod

Muammoli metodning mohiyati mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo‘lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo‘li shu bilan birga o‘quv yo‘li hamdir.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu: Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqining o‘rnini aniqlash.  
Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

Reja:

- 1.Xususiy huquq tushunchasi va unda fuqarolik huquqining o‘rni.
- 2.Xususiy huquq tizimida biznes huquqining o‘rni.
- 3.O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari tahlili.
- 4.Yangi Fuqarolik kodeksida yangi tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalarini ko‘paytirish va kam tuziladigan tashkiliy-huquqiy shakllarni optimallashtirish masalalari.

**Tayanch iboralar:** xususiy huquq, fuqarolik huquqi, biznes huquqi, fuqarolik huquqi predmeti, yuridik shaxs tushunchasi, tashkiliy-huquqiy shakl tushunchasi, xo‘jalik jamiyatlari, xo‘jalik shirkatlari, oilaviy korxona, xususiy korxona.

*Dars mashg‘ulotlarini quyidagi ma’lumotlar asosida o‘tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. Dars mashg‘uloti uchun manbalar izlashda tayanish lozim bo‘lgan ma’lumotlar;
2. Tijoratchi yuridik shaxslar turlari farqini aks ettiruvchi savollar tuzish;
3. MDH mamlakatlari Fuqarolik kodekslarini bo‘yicha tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari haqida taqdimot tayyorlash.
4. Yangi Fuqarolik kodeksidagi yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari haqida qiyosiy jadval tayyorlash.

Xususiy huquq — umumiyl manfaatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi ommaviy huquqdan farqli ravishda shaxsiy manfaatlar, shaxsiy munosabatlar va mulkiy faoliyatda fuqarolar va yuridik shaxslarning mustaqilligi va tashabbuskorligini tartibga soluvchi huquq sohalari yig‘indisini anglatuvchi tushuncha. Xususiy huquq yadrosini mulkiy va u bilan bog‘liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqi, shuningdek savdo huquqi (u amal qiladigan davlatlarda) tashkil etadi. Xususiy huquq — bu sohalar majmui — amal qilayotgan huquqning tarkibi qismi. Xususiy huquq fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Xususiy-huquqiy munosabatlar bir qator muhim belgilari bilan ajralib turadi. Birinchidan, bunday munosabatlar ular ishtirokchilari xohish-irodasiga muvofiq

vujudga keladi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi faqat taraflarning ikki tomonlama erkin harakatlariga ko‘ra yuridik kuchga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, xususiy-huquqiy munosabatlар ishtirokchilarning yuridik tengligiga asoslangan. Uchinchidan, bunday munosabatlар gorizontal xarakterga ega, ya’ni ular bevosita davlat hokimiyati organlari va ularning bo‘ysunuviga bog‘liq emas.

Zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari fuqarolik huquqi tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, yuridik shaxslarning an'anaviy tashkiliy-huquqiy shakllarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida blokcheyn texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi yangi turdagи kompaniyalar paydo bo‘lmoqda. Bu esa mavjud huquqiy normalarni yangilash va yangi huquqiy institutlarni shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda kriptokompaniyalar va blokcheyn korporatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi aniq huquqiy mexanizmlar shakllantirilishi lozim.

Kriptokompaniyalar - bu raqamli aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi, kriptovalyutalar va tokenlar chiqaruvchi, blokcheyn texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslardir. Ularning asosiy xususiyati shundaki, ular an'anaviy bank va moliya institutlaridan farqli ravishda, markazlashtirilmagan tizimda ishlaydi. Kriptokompaniyalarning huquqiy maqomini belgilashda ularning faoliyat yo‘nalishi, aktivlarining xususiyatlari, boshqaruv tizimi va javobgarlik masalalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, kriptokompaniyalar tomonidan mijozlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini ham joriy etish lozim.

Blokcheyn korporatsiyalar - bu blokcheyn texnologiyalari asosida tashkil etilgan va boshqariladigan yuridik shaxslardir. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, kompaniya faoliyatiga oid barcha muhim qarorlar smart-kontraktlar orqali qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Blokcheyn korporatsiyalarda aksiyadorlar huquqlari tokenlar ko‘rinishida rasmiylashtiriladi, dividendlar avtomatik tarzda taqsimlanadi. Bu esa kompaniya boshqaruvini yanada shaffof va samarali qilish imkonini beradi. Bunday korporatsiyalar faoliyatini tartibga solishda yangicha yondashuvlar talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuridik shaxslarning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan birga, ularning huquqiy munosabatlarga kirishish usullari ham o‘zgarmoqda. Masalan, smart-kontraktlar orqali shartnomalar tuzish, kriptovalyutalar orqali to’lovlarни amalga oshirish, tokenlar orqali mulkiy huquqlarni rasmiylashtirishning yangi mexanizmlari shakllanmoqda. Bu esa fuqarolik qonunchiligidagi elektron bitimlar, raqamli aktivlar va ularning huquqiy rejimini tartibga soluvchi yangi normalarni joriy etishni taqozo etadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari yuridik shaxslar faoliyatining turli jahbalariga tatbiq etilmoqda. Masalan, kompaniya boshqaruvida qarorlar qabul

qilish, moliyaviy tahlil, mijozlar bilan munosabatlarni yuritish va boshqa ko'plab jarayonlar sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilmoqda. Bu esa yuridik shaxslarning javobgarlik masalasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik, sun'iy intellektning qarorlari ustidan nazorat mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Yangi turdag'i yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solishda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar o'z qonunchiligidagi kriptokompaniyalar va blokcheyn korporatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus normalarni joriy etmoqda. Malta, Singapur, Shveysariya kabi davlatlar bu borada ilg'or tajribaga ega. Ularning tajribasini o'rganish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning yangi shakllari faoliyatini tartibga solishda soliq, bank va qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilik normalarini ham takomillashtirish zarur. Chunki kriptokompaniyalar va blokcheyn korporatsiyalar faoliyati an'anaviy moliyaviy tizim doirasidan chetga chiqadi. Shuning uchun soliq solish, hisobot yuritish, moliyaviy nazorat mexanizmlarini yangi sharoitlarga moslashtirish, raqamli aktivlar va kriptovalyutalar bilan operatsiyalarni tartibga solish zarur.

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi natijasida yuridik shaxslarning yangi shakllari paydo bo'lishi fuqarolik huquqining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu jarayonda qonunchilikni takomillashtirish, yangi huquqiy institutlarni shakllantirish, xalqaro tajribani o'rganish va milliy huquq tizimiga implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yuridik shaxslarning yangi shakllarini tartibga solishda muvozanatli yondashuv zarur - bir tomonidan innovatsiyalarni rag'batlantirish, boshqa tomonidan esa xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash lozim.

Fuqarolik huquqi qit'a huquq tizimida alohida va mustaqil huquq sohasi bo'lib, a'anaviy tarzda ishtirokchilarning tengligiga asoslanadigan hamda mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabat deb ataladigan shartli guruhlarga jamlangan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi.

Fuqarolik huquqining huquq sohasi sifatida funksiyasida ham asosiy va bosh o'rinni huquqiy tartibga solish egallaydi. Shu bilan birga fuqarolik huquqining funksiyasi sifatida mutaxassislar bir qator jihatlarni sanab o'tadilar. Masalan, Belaruslik mutaxassislar fuqarolik huquqining quyidagi funksiyalarini sanab o'tishadi:

- tartibga solish – fuqarolik huquqining normal amal qilayotgan munosabatlar taraflariga huquq va majburiyatlar yuklash yo'li bilan ta'sirini ta'minlaydi;

- muhofaza qiluvchi – fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining qonuniy huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplashini, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan shaxsiy nomulkiy huquqlarini tiklashni ta'minlaydi;

- axloqiy-tarbiyaviy funksiya ishtirokchilarining qonunchilikka rioya etishlari va fuqarolik-huquqiy munosabatlar buzmasliklariga, jamiyatning ma'naviy prinsiplarini hurmat qilishlariga undaydi.

Ayrim mutaxassislar fuqarolik huquqi bu faqat davlatning erkini ifodalaydigan qonun hujjatlari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat emas. Bunda shaxslarning muayyan ijtimoiy munosabatlarni o'zлari tartibga solish hamda shartnomalar erkinligini nazarda tutish zarur. Fuqarolik huquqi sub'ektlarining o'zлari ishtirok etayotgan ijtimoiy munosabatlarni o'zлari tartibga solishlari xususiy huquqning majburiy jihat bo'lib, ayni paytda u tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini, xususiy huquqning metodlari va tamoyillarini to'liq ifodalash imkonini beradi.

Fikrimizcha, fuqarolik huquqining funksiyasi nafaqat tartibga solish va muhofaza qilish, balki huquqiy holat va muayyan xulq-atvor qoidalarini hamda huquqiy tartibotni belgilashni ham qamrab oladi. Bu o'rinda "huquqiy qoidalarni belgilash" funksiyasi xususida shuni aytish lozimki, bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqining mazkur funksiyasi ijtimoiy munosabatlarni faqat davlat tomonidan qabul qilingan qonun normalari orqali tartibga solish doktrinasi ustuvor bo'lgan sobiq ittifoq davridagi tubdan farq qilishiga hamda ishtirokchilariga keng erkinlik va imtiyoz berilishi hamda fuqarolik huquqining dispozitiv yo'naltirilganligiga asoslanadi. Fuqarolik huquqining "huquqiy qoidalarni belgilash" funksiyasi sub'ektlar uchun o'xshatish mumkin bo'lsa "mo'ljal" vazifasini o'taydi va ular muayyan vaziyatda o'zlarini qanday tutish lozimligini, ijtimoiy munosabatlarda harakatlanishlari uchun qanday imkoniyatlar mavjudligini bilib olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, FKning 18-moddasi birinchi qismida fuqarolar ega bo'lishi mumkin bo'lgan huquqlar doirasi sanab ko'rsatilib, uning ikkinchi qismida fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkinligi belgilangan. Mazkur norma fuqarolik huquqining tartibga solish yoki muhofaza qilish funksiyalariga mos kelmaydi. Chunki, uning mazmunida aniq qoida nazarda tutilmagan va gap qanday huquqlar haqida ketayotganligi ham mavhum. Shu sababli FKning 18-moddasi ikkinchi qismini faqat "huquqiy qoidaini belgilash" funksiyasiga mos deb hisoblash mumkin. Binobarin, kelajakda fuqaroning yana qanday huquqlariga ega bo'lish oldindan noma'lum, lekin uning muayyan huquqlarga ega bo'lishi cheklanmaydi.

Ijtimoiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish vositasi sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, ish muomalasi odatlari, mahalliy urf-odatlar,

shartnomalar e'tirof etiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasi birinchi qismida fuqarolik qonun hujjatlari nimani belgilashi va nimani tartibga solishi nazarda tutilgan. Uning mazmunidan anglashilishicha, fuqarolik qonun hujjatlari:

1) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

2) shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksida yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli tushunchasi ta'rif berilmagan. Biroq bir qator tashkiliy-huquqiy shakllar konstruksiyalari keltirib o'tilgan.

FKning 39-moddasiga ko'ra, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'limgan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Ulushlarga (qo'shilgan hissalarga) yoki muassislarning (ishtirokchilarining) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

FKning 60-moddasiga asosan, ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to‘liq shirkatning ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

FKning 61-moddasiga asosan, shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlarining butun mol-mulkular bilan javob beradigan ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar doirasida javobgar bo‘ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo‘shuvchi, kommanditchi) mavjud bo‘lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkatda qatnashayotgan to‘liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi ushbu Kodeksning qoidalari bilan belgilanadi.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘lishi mumkin.

To‘liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘la olmaydi.

Kommandit shirkatdagi to‘liq sherik o‘sha shirkatning o‘zida hissa qo‘shuvchi va boshqa to‘liq shirkatda ishtirokchi bo‘lishi mumkin emas.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilarini uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilarini jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilarini uning majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulkular bilan qo‘shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo‘lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta’sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa ishtirokchilar o‘rtasida ularning qo‘shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

FKning 64-moddasiga asosan, ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyatini hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilarini (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va

jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

FKning 67-moddasiga ko'ra, agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lган holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

FKning 68-moddasiga muvofiq, xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning (ulushning) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarning (ishtirokchilarning) mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo'yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Fuqarolik kodeksining 70-moddasiga muvofiq, o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxona xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning ustavida Fuqarolik kodeksining 43-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari korxona ustav fondining miqdori to'g'risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir.

Fuqarolik kodeksida nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, xususiy korxona va oilaviy korxona kabi tashkiliy-huquqiy shakllar qonunlarda nazarda tutilgan.

Yangi Fuqarolik kodeksi loyihasida konseptual jihatdan yana bir noto‘g‘ri yondashuv yuridik shaxslar ro‘yxatining yopiq qilib qo‘yilganidir. Bunda eng bahsli masala ro‘yxatning tijorat yuridik shaxs lari, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari doirasida cheklab qo‘yilganidir. sivilist olimlarning ko‘pchiligi bundan taajjubga tushmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida katta yukni ko‘tarib turgan xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklarini tugatish va ularni MChJga aylantirish (chunki qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyat ishtirokchilari bir-birlari uchun ham solidar, subsidiar javobgar bo‘lishi ko‘pchilikni bunday yuridik shaxsni tashkil etishdan cho‘chitadi) tushunarsiz hol. Iqtisodiy tizimda tijoriy yuridik shaxslarni qayta tashkil etishlar iziga tushguncha uch-to‘rt yil o‘tadi. Bu esa ularning faoliyatini samarali amalga oshirishga, ularni boshqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek xususiy huquqida yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari, ayniqsa tijoratchi yuridik shaxslar shakllari bozor munosabatlari rivojlanishi bilan takomillashib borishi lozim.

Ayni vaqtda fuqarolik qonunchiligi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kapital va shaxslarni birlashtiruvchi asosiy ushbu shakllarni taklif etadi:

### **Korporativ tashkiliy-huquqiy shakllar**

**1. Xo‘jalik jamiyatlari** – aksiyadorlik va mas’uliyati cheklangan jamiyatlari. Ular shaxslarning kapitalini birlashtirib, qulay boshqaruv mexanizmiga ega. Ishtirokchilar javobgarligi cheklangan.

Mazkur yuridik shaxslar (korporatsiya), ayniqsa MChJ shakli tadbirkorlik faoliyatida eng keng tarqalgan.

**2. Xo‘jalik shirkatlari** (to‘liq va kommandit shirkat) – ishtirokchilarning o‘zi va ular kapitalini birlashtiruvchi korporatsiyalar. Bunda ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) shirkat majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik oladilar. Tijoratchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘liq ishtirokchisi bo‘la oladi.

Kommandit sherik, ya’ni shirkat majburiyatlari bo‘yicha faqatgina o‘zi kiritgan hissalari doirasida javobgar bo‘ladigan ishtirokchi mavjud bo‘lsa bunday shirkat kommandit shirkat deb ataladi.

## **Unitar tashkiliy-huquqiy shakllar**

**Xususiy korxona, fermer xo‘jaligi, unitar korxona** – bular faqatgina yagona shaxs (yagona jismoniy shaxs – mulkdor ta’sis etsa xususiy korxona, yuridik shaxs tashkil etsa – unitar korxona, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida yagona jismoniy shaxs tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilsa – fermer xo‘jaligi). Ushbu yuridik shaxs shakllari unitar tashkiliy-huquqiy shakllardir. Ya’ni ular bir necha shaxslar kapitalini birlashtirish imkonini bermaydi. Ayrimlari (FX, XK) o‘z mohiyatiga ko‘ra rivojlangan huquq-tartibotlardagi yakka tartibdagi tadbirkor shaklini takrorlaydi, biroq yuridik shaxsiyat ularga tatbiq etiladi.

### **Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishda ko‘rib chiqilishi tavsiya etilayotgan tashkiliy-huquqy shakllar: rivojlangan huquq-tartibotlar korporatsiyalari shakllari**

**1. Xo‘jalik shirkatlarini isloh qilish,** ular ishtirokchilarini 2 marta soliq to‘lashini bartaraf etish. Bu esa shirkatlarni yuridik shaxs layoqatidan mahrum qilishni nazarda tutadi. Germaniya, Italiya, Niderlandiyada, shuningdek ingliz huquq-tartibotlarida shirkatlar (ingliz huquqidagi partnership) yuridik shaxs hisoblanmaydi, lekin tadbirkorlik faoliyati sub’ekti sifatida ishtirok etadi (bu ushbu mamlakatlarda tarixan savdo huquqi shakllangani bilan bog‘liq). Bu esa ularning yuridik shaxs sifatida korporativ soliq to‘lovchisi bo‘lishdan saqlaydi.

Natijada ushbu eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyati shakli birgalikdagi investitsiya va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay bo‘ladi va rivojlanadi. Hozirda xo‘jalik shirkatlari soni 186 tani tashkil etmoqda.

**2. Aksiyadorlik kommanditasi shaklini kiritish.** Bu Germaniya, Fransiya kabi huquq-tartibotlarda keng tarqalgan shakl bo‘lib, kommandit shirkat va aksiyadorlik jamiyati qorishmasi hisoblanadi. Bu asosiy aksiyadorning (to‘liq sherik) cheklanmagan javobgarligi ostida (bu tabiiyki fuqarolik muomalasi ishtirokchilari uchun foydali, kreditorlar manfaatlariga xizmat qiladi cheklanmagan javobgarlik) kommandit sheriklarning investitsiyalarini jalg qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan shirkat aksiyalar shaklida kommandit investorlar jalg qila oladi.

**3. Javobgarligi cheklangan kompaniya – Limited liability company LLC.**

Ushbu shakl ingliz huquqi, ayniqsa AQSh huquqida juda keng qo‘llanadi. Ushbu kompaniya shirkat partnership va korporatsiya (bizdagi xo‘jalik jamiyati)

qorishmasi bo‘lib, ingliz huquqida yuridik shaxs hisoblanmaydi (ya’ni, ushbu huquq bo‘yicha korporatsiya hisoblanmaydi). Natijada kompaniya korporativ soliq to‘lamaydi (mustaqil yuridik shaxs sifatida mutlaqo soliqqa tortilmaydi), faqatgina uning ishtirokchilari o‘z foydalarini olishda tegishli foyda yoki daromad solig‘iga tortiladi (pass-through tax).

Lekin bunda Rossiya Federatsiyasida yo‘l qo‘yilgan xatoni takrorlamaslik lozim. RF ayn ushbu tashkiliy-huquqiy shaklni retsepsiya qilishda ayrim o‘ziga xos o‘zgarishlar qilib, xo‘jalik sherikchilik – xozyaystvennoe partnerstvo konstruksiyasini joriy qildi. Biroq bu yuqoridagi **LLC** kabi xususiyatlarga ega bo‘lmadi va amaliyotda muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

**4. Soddalashtirilgan aksiyadorlik jamiyati - Société par actions simplifiée, SAS** (fr), o‘zgaruvchan kapitalli investitsiya jamiyati (Investmentgesellschaft mit variablem Kapital, nazыvaemoe takje Société d’Investissement à Capital Variable, **SIKAV**) (AJ shaklida tashkil etilib, ayrim opsiyalar beriladi).

Mazkur shakl Fransiya huquqida keng tarqalgan (bu shakl 2001 yildagi qonun bilan kiritilgan).

**5. Shuningdek, notijorat yuridik shaxs shakllarini qayta ko‘rib** chiqish lozim. Ayniqsa muassasa (**Anstalt**) shaklini avtonomligi va o‘ziga berilgan mulkka bo‘lgan huquqlarini kengaytirish. Zero bugungi muassasalar tarixan shakllangan muassasalardan (**Anstalt**) farqli o‘laroq o‘ziga berilgan mol-mulk mulkdori bo‘lmaydi.

Rivojlangan huquq-tartibotlarda (masalan, Germaniya) notijorat uniart yuridik shaxslar muassasalar:

**Anstalt** – muassasa – yagona mulkdor tomonidan ta’sis etilib, uning o‘zi yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan boshqariladi, muassasa o‘ziga berilgan mulkning mulkdori bo‘ladi, yoki

**Stiftung** – fond – mulkdor tomonidan ta’sis etilib, uning boshqaruvida ishtirok etmaydi, fonda boshqaruv organiga yuklatiladi. Ta’sichi boshqaruvdan butunlay mahrum bo‘ladi. Fond mol-mulkiga nisbatan fondda mulk huquqi mavjud bo‘ladi.

## **Nazorat savollari:**

- 1.** Xususiy huquq tushunchasi va u bilan tartibga solinadigan munosabatlarni tavsiflang.
- 2.** Fuqarolik huquqining umumiyligi tavsifini keltiring.
- 3.** Fuqarolik huquqi qanday munosabatlarni tartibga soladi?
- 4.** Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqining o‘rniga izoh bering?
- 5.** Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari tushunchasiga ta’rif bering?
- 6.** Tijoratchi tashkilotlar turlarini sanang.
- 7.** Yangi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar konstruksiyalari haqida fikr yuriting.
- 8.** Qaysi tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslarni FKda ortiqcha deb o‘ylaysiz?
- 9.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuridik shaxslarning yangi tashkiliy-huquqiy shakllari (criptokompaniyalar, blokcheyn korporatsiyalar).

## **2-mavzu: Fuqarolik huquqida bitimlar va yangi shartnomalarning huquqiy konstruksiyalari**

Reja:

1. Bitimlar tushunchasi va turlari.
2. Bitimlar haqiqiy emasligi to‘g‘risidagi umumiyligini qoidalar.
3. Nizoli bitim va uning turlari.
4. Bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish istiqbollari.
5. Smart-shartnomalarning fuqarolik-huquqiy konstruksiyalari.

**Tayanch iboralar:** *bitim tushunchasi, bitim turlari, bitimlar haqiqiy emasligi, o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar, nizoli bitimlar, Smart-shartnomalar.*

*Dars mashg‘ulotlarini quyidagi ma’lumotlar asosida o‘tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

1. *Fuqarolik sudlari amaliyotidan o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar bilan bog‘liq hal qiluv qarorlarini tahliliy o‘rganish;*
2. *Iqtisodiy sudlar faoliyatida nizoli bitimlar haqidagi FK normalari qo‘llanilishini uslubiy jihatdan o‘rganish;*
3. *Taqdimot tayyorlashda tayanish lozim bo‘lgan materiallar.*

Bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi (FK 101-modda).

Bitim fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan hisoblanadi. Bitim instituti - bitimlarni tuzish tartibi va shakllarini, ularning turlari va mazmunini, haqiqiy emas deb hisoblash shartlarini, ularni haqiqiy emasligini tan olinishining huquqiy oqibatlarini belgilab beruvchi fuqarolik-huquqiy normalari yig‘indisidan iborat.

Bitim shaxslarning erki bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo‘lganligi tufayli, bitimda ifodalangan erk izhor qilinishi, ya’ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitimning mazmunini quyidagi belgilar tashkil etadi:

1. Bitim–erk–irodani ifodalovchi hujjat;
2. Haqiqiy harakat natijasida yuzaga keladi;
3. Bitim fuqarolik-huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga maxsus yo‘naltirilgan bo‘ladi;
4. Bitim fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinuvchi huquqiy munosabatni yuzaga keltiradi.

Bitimlar uchun quyidagi shartlarning bo‘lishi muhimdir:

- a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanishi;
- b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo‘lishi va bu erk ma’lum huquqiy oqibatlar tug‘dirishga qaratilgan bo‘lishi;
- v) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o‘zining tashqi ifodasini topishi lozimligi, ya’ni ma’lum shaklda izhor qilingan bo‘lishi kerak.

Bitimlar o‘zlarining belgilari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi (klassifikatsiya qilinadi):

1. Bir, ikki va ko‘p tomonlama bitimlar FKning 102-moddasida belgilangan bo‘lib, unda bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p taraflama (shartnomalar) bo‘lishi mumkinligi, bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo‘lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanishi, shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p taraf (ko‘p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo‘lishi kerakligi belgilangan.

Har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham, har qanday bitim shartnoma bo‘la olmaydi. Aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi mumkin. Shu sababli shartnomaga aksariyat hollarda bitim qoidalari qo‘llaniladi.

Shartnomaga odatdagidek bitimning bir turi sifatida qaramaslik lozim. Shartnoma bitim turlaridan faqatgina bittasi hisoblanmaydi, u yuridik hujjat bo‘lib, uning vositasida fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning ishtirokidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy munosabatlar tartibga solib boriladi.

### 2. Haq baravariga va tekinga tuziladigan bitimlar.

Haq baravariga tuziladigan bitimlar bo‘yicha tomonlardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyan bir mulkni topshirish, pul to‘lash, ishni bajarish, biror bir xizmat ko‘rsatish singari harakatlarni qilish majburiyatini oladi.

Tekin, ya’ni haq to‘lanmay tuziladigan bitimlar asosida tomonlardan birigina ikkinchi tomon foydasiga biror-bir harakat qilish majburiyatini oladi. Bu yerda qarshi (muqobil) ijro yo‘q. Masalan, hadya, foizsiz qarz, mulkdan tekin foydalanish (ssuda) to‘g‘risidagi shartnomalarni ko‘rsatish mumkin.

### 3. Konsensual va real bitimlar.

Konsensual bitim deb, huquq va majburiyatlarni o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytda vujudga keltiradigan bitimga aytildi. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitim hisoblanadi.

Real bitim deb, o‘zaro kelishuvga muvofiq, ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytildi. Real bitimlarga qarz, omonat, yuk tashish shartnomalarini misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi.

4. Bitimlar asosining mohiyati va ularning amal qilishiga ko‘ra kauzal va abstrakt (mavhum) bitimlarga bo‘linadi.

5. Fidustiar bitimlar. Bunday bitimlar o‘zaro ishonchga asoslanadi. Topshiriq, vositachilik, mol-mulkni ishonchli boshqaruvga berish kabi bitimlar tomonlarning shaxsiy ishonchi bilan bog‘liqdir.

### **Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar.**

Huquq subyektlari o‘rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi va bekor bo‘ladi.

Agar bitimda huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi yoki bekor bo‘lishi vaqtini ko‘rsatilgan bo‘lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha:

- a) ma’lum kun, oy, yil bilan (masalan, 2015-yil 15-sentabr);
- b) ma’lum vaqtning o‘tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o‘tishini ko‘rsatish);
- v) ma’lum bir voqeа yuz berishi (masalan, daryo orqali yuk tashish–muz erishi) bilan belgilanadi.

Agar bitimda uning ijro etilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday bitim muddatsiz hisoblanadi.

Huquq va majburiyatlarning kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan holatning yuz berishi yoki bermasligi hisobga olingan holda tuzilgan bitimlar shartli bitimlar deyiladi.

Shartli bitim deb, taraflar o‘rtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor bo‘lishi, biror-bir shartga bog‘lab qo‘yilishiga aytildi. Shartli bitimlar ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

- a) sharti kechiktirilgan;
- b) bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitimlar.

Agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishining yuz berishi yoki bermasligi noma’lum bo‘lgan holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bitim sharti kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi

Agar tarafning huquq va burchlari bekor bo‘lishining yuz berishi yoki bermasligi noma’lum holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bunday bitim bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi.

### **Bitim shakllari.**

Bitim shakli - erkni bayon etish usulidan iborat. Erk og‘zaki, yozma va boshqa usullarda bayon etilishi mumkin. Shunga ko‘ra bitim ham tegishli shakllardan iborat. Bitimni shakli uni haqiqiy deb hisoblash (FKning 354, 366-m.), taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, ularning huquq va burchlarini isbotlash uchun yuridik ahamiyatga ega.

Jeton, patta yoki odatda, qabul qilingan boshqa belgi berish bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan

bo‘lmasa, og‘zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi. Yozma shaklda tuzilgan shartnoma bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizning qadimdan mavjud “sukut – rozilik alomati” qoidasi amal qiladi.

Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:

- a) oddiy yozma;
- b) notarial idoralarda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo‘linadi.

Oddiy yozma bitim bitimning shartlarini o‘z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga aytildi. Bitimlar quyidagi hollarda oddiy yozma shaklda tuziladi:

1) yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan tuziladigan bitimlari (chunki yuridik shaxslar mavzusida aytganimizdek, yuridik shaxslarning mulki va mablag‘lari uning balansida aks ettirilishi kerak).

2) fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat’i nazar boshqa bitimlar.

Tashkilotlar tomonidan tuziladigan yozma bitimlarda mazkur tashkilot rahbarining imzosi va muhri bo‘lishi lozim.

### **Bitimning haqiqiy sanalish shartlari.**

Bitimlar haqiqiy sanalishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi:

birinchidan, bitimlarning mazmuni qonunga va qonun asosida chiqarilgan aktlarga, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi;

ikkinchidan, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo‘lishlari;

uchinchidan, bitimlar ko‘rinish uchungina tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat tug‘dirish maqsadida tuzilgan bo‘lishi;

to‘rtinchidan, notarial guvohlantirishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan bitimlar haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Mutlaq haqiqiy sanalmaydigan bitimlar jumlasiga qonun talablariga muvofiq bo‘lмаган (FK 116-modda), O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda tuzilgan (O‘zbekiston Respublikasi JKning 175-moddasi), o‘n to‘rt yoshga to‘lмаган shaxs tomonidan tuzilgan (FK 117-modda), qalbaki va ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimlar (FK 124-modda) o‘z o‘zidan haqiqiy sanalmaydi.

Nizoli bitimlar jumlasiga o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomoni dan tuzilgan (FK

121-modda) yanglilihish ta'sirida tuzilgan (FK 122-modda), aldash, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan (FK 123-modda), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK 120-modda), yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FK 125-modda) kiradi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksining 113-moddasiga ko'ra, bitim ushbu Kodeksda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lman bitim).

Nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan shaxslar qo'yishlari mumkin.

O'z-o'zidan haqiqiy bo'lman bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo'llanish to'g'risidagi talabni har qanday manfaatdor shaxs qo'yishi mumkin. Sud bunday oqibatlarni o'z tashabbusi bilan qo'llashga haqli.

Haqiqiy bo'lman bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lga oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir.

Bitim haqiqiy bo'lmanida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmanida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart.

Basharti qonun yoki majburiyatlarning ayrim turlarini tartibga soluvchi FK normalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talablar bo'yicha umumiyligi da'vo muddati – uch yil.

Bunda FKning 160-moddasi talabiga muvofiq da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi haqidagi FKning 156, 157, 159-moddalari qoidalari, agarda qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, majburiyatlarning ayrim turlariga ham taalluqlidir.

Bitimlarga oid nizolarni ko'rishda shartnomani haqiqiy emas deb topish va shartnomani bekor qilish tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. O'zbekiston Respublikasi FKning 9-bobi 113-126-moddalarida ko'zda tutilgan bitimlarning haqiqiy emasligini tartibga soluvchi normalarda bayon etilgan asoslar bo'yicha shartnomalarni haqiqiy emas deb topilishiga yo'l qo'yiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi FKning 114-moddasi 1-qismiga muvofiq haqiqiy bo'lman bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lga oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarni vujudga keltirmaydi va u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas deb

hisoblanadi. Shartnomani bekor qilish esa to‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomani va uning oqibatida vujudga kelgan taraflarning huquq va majburiyatlarini kelgusida bekor qilishga qaratilgan harakatdir.

Shartnomaning haqiqiy emasligi va shartnomani bekor qilishning o‘zaro farqi:

a) bitimning haqiqiy emasligiga asos uning noqonuniyligidir. Bekor qilishga esa — uning qonuniyligi nizolashilmasdan shartnomani bekor qilishga sabab bo‘ladigan holatlarning yuzaga kelishi asos bo‘ladi;

b) shartnomani bekor qilish u amalda bo‘lgan vaqtdagi o‘zaro huquq va majburiyatlarga ta’sir etmasdan, faqatgina kelgusidagi huquq va majburiyatlarga taalluqlidir.

Bitimlarni haqiqiy emas deb topish haqidagi talabdan farqli ravishda shartnomani bekor qilish haqidagi talabda da’vo muddati cheklanmagan bo‘ladi va bunday da’vo bilan murojaat qilishga shartnomada bo‘lgan butun davr mobaynida yo‘l qo‘yiladi.

Bir tomonlama bitimlarning haqiqiy emasligi FKning 9-bobida belgilangan umumiy qoidalar bilan, uni bekor qilish shartlari esa aynan shu turkumdagи bitimlarga oid qoidalar bilan tartibga solinadi (masalan, ishonchnoma va vasiyatnomani bekor qilish FK 141, 142, 1127-moddalari).

FKning 9-bobida qayd etilgan qoidalar bitimlarni haqiqiy emas deb topishning qat’iy asoslari hisoblanadi.

Ayrim toifadagi bitimlarni tuzish tartibi va shartlari majburiyatlarning ayrim turlari to‘g‘risidagi FK qoidalari va maxsus qonunlar bilan tartibga solinishini hisobga olib, sudlar shuni nazarda tutishlari kerakki, bitim shakli va tuzilishi tartibi qoidalariga rioya qilmaslik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun qoidalarida va qonunchilik aktlarida ko‘rsatilgan holatlardagina FKning 115-116-moddalari asosida bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 114-moddasi 2-qismiga muvofiq, bitim haqiqiy bo‘limganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo‘yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha qaytarib berish mumkin bo‘limganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning qiymatini pul bilan to‘lashi shart. Bunda «bitim bo‘yicha olingan narsa»ni aniqlashda haqiqiy emas deb topilgan shartnomada shartlaridan kelib chiqib, shuni nazarda tutishlari lozimki, bitim haqiqiyligi nizolashilganda taraflarning bitim shartlari doirasidan tashqaridagi munosabatlari huquqiy ahamiyatga ega emas.

Agar bitim Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topilsa, bunday bitim nizoli bitim hisoblanadi. O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim; yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim; aldash, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim; yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimga nizoli bitim turlar hisoblanadi.

FKning 122-123-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi nizolarni ko'rishda sudlar yanglishish ta'sirida, aldash, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitim tushunchalarini bir-biridan farqlashlari lozim.

Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim deb, bitim yuzasidan kelib chiquvchi taraflarning huquq va majburiyatları to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish, ya'ni taraflarning haqiqiy xohish-irodasini aks ettirmasdan, bitim tuzilgan vaqtida taraflar tomonidan nazarda tutilmagan huquqiy oqibatlarga olib kelgan bitim tushuniladi. Yanglishish har xil holatlarda ko'rinishi mumkin, masalan, muzokara vaqtida taraflar bir-birlarini tushunmaganliklari, qonunlarni noto'g'ri talqin qilganliklari, bitimning haqiqiy oqibatlarini noto'g'ri tasavvur etganliklari va boshqalar. Shu bilan birga qonunni bilmaslik bitimning ushbu asos bilan haqiqiy emasligini keltirib chiqarmaydi.

Aldash bu bir tarafning bitim tuzilishida nazarda tutilgan holatlarning yuzaga kelmasligini bila turib, atayin ikkinchi tarafni bitim tuzishga undashga qaratilgan aybli harakatidir. Aldash bitimning elementlariga, uning doirasidan tashqaridagi holatlarga, shuningdek, bitimni amalga oshirish yuzasidan bitim ishtirokchisi xohish-irodasini shakllantirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan sabab va motivlarga qaratilgan bo'ladi.

Zo'rlik deb, bitim ishtirokchisiga (uning yaqin kishilariga) jismoniy yoki ruhiy azob berish natijasida bitim tuzishga majbur qilish tushuniladi. Zo'rlik noqonuniy xatti-harakat bo'lib, jinoiy javobgarlikka tortish shart bo'limgan harakatlarda ham ko'rinishi mumkin. Masalan, xizmat vakolatidan foydalangan holda shartnomaga yuzasidan majburiyat oluvchining erkiga ta'sir qilish.

Qo'rqtish deb, bitim ishtirokchisining erkiga ruhiy ta'sir ko'rsatish natijasida uning uchun noqulay bo'lgan bitim tuzishga majburlash tushuniladi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, qayd etilgan asos bo'yicha bitimni haqiqiy emas deb topishning zarur shartlaridan biri qo'rqtishning realligi hisoblanadi.

Bir taraf vakilining ikkinchi taraf vakili bilan yomon niyatda kelishuvi deb, vakilning boshqa taraf bilan vakolat beruvchi manfaatlariga zid shartlar asosida kelishuvi tushuniladi.

Og‘ir holatlarning yuz berishi ta’sirida tuzilgan bitim deganda, bir tarafning o‘zi uchun o‘ta noqulay shartlar asosida bitim tuzayotganligini anglashi (bu yerda yanglishish ham, aldash ham bo‘lmaydi), lekin uni tuzishga majbur bo‘lishi tushuniladi.

Bunda quyidagi ikki shartning mavjud bo‘lishi bitimni og‘ir holatlar yuz berishi ta’sirida tuzilganligi uchun haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladi:

a) og‘ir holatlar yuz berishi tufayli bir tarafning o‘zi uchun o‘ta noqulay shartlar bilan bitim tuzishga majbur bo‘lishi;

b) ikkinchi tarafning bunday holatdan foydalanib, bitim tuzishga qaratilgan harakatining mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan asoslari bo‘yicha bitimlarning haqiqiy emasligini isbotlash majburiyati da’vogarga yuklatiladi.

O‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi bo‘yicha nizolashilganda, sudlar isbotlash vositalariga yo‘l qo‘yilishi haqidagi FPK 74-moddasi qoidalaridan kelib chiqib, ish bo‘yicha tegishli (psixologik)ekspertiza tayinlash masalasini muhokama qilishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi F-5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida bitimlar institutini takomillashtirish, jumladan bitimlarni majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va notarial tasdiqlashni, bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari va holatlarini aniqlashtirishni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish vazifasi qo‘yilgan. Mazkur hujjat asosida ishlab chiqilayotgan yangi Fuqarolik kodeksi loyihasida huquq-tartibot yoki axloq asoslariga qarshi maqsadlarda tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi haqida, yanglishish ta’sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi haqida, haqiqiy bo‘lmagan bitimlar bo‘yicha da’vo muddati haqida yangi moddalar, yanglishish ta’sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq yangi qoidalar aks ettirilmoqda.

Smart-shartnomalarning huquqiy tabiatini murakkab bo‘lib, ularni fuqarolik huquqining mavjud institutlari doirasida to‘liq qamrab olish qiyin. Bir tomondan, ular an’anaviy shartnomalarga xos bo‘lgan asosiy elementlarga ega: taraflarning kelishuvi, muayyan shakl va mazmun, huquqiy oqibatlar keltirib chiqarish maqsadi. Boshqa tomondan esa, smart-shartnomalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega: dasturiy kod ko‘rinishida mavjud bo‘lishi, avtomatik ijro etilishi, o‘zgartirib bo‘lmasligi va bekor qilib bo‘lmasligi kabi. Bu xususiyatlar ularni mustaqil fuqarolik-huquqiy institut sifatida e’tirof etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Smart-shartnomalar huquqiy munosabatlarning yangi shaklini ifoda etuvchi raqamlı texnologiyalar mahsuli hisoblanadi. Ular blokcheyn texnologiyasi

asosida ishlaydigan, o‘z-o‘zini bajaradigan raqamli shartnomalar bo‘lib, tomonlarning huquq va majburiyatlarini avtomatik tarzda amalga oshiradi. Smart-shartnomalar an’anaviy shartnomalardan farqli o‘laroq, uchinchi shaxslar ishtirokisiz bevosita taraflar o‘rtasida tuziladi va bajariladi. Bu esa o‘z navbatida tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va shartnoma bajarilishining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Smart-shartnomalarning huquqiy konstruksiyasi quyidagi asosiy elementlardan iborat: taraflar (shartnoma ishtirokchilari), predmet (shartnoma obyekti), shartnoma shartlari (dasturiy kod ko‘rinishida), shartnomani tuzish tartibi (blokcheyn platformasida ro‘yxatdan o’tkazish) va ijro etish mexanizmi (avtomatik ravishda amalga oshirish). Har bir element o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri smart-shartnomaning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnoma predmeti sifatida raqamli aktivlar, kriptovalyutalar va boshqa turdagи raqamli mulk obyektlari namoyon bo‘lishi mumkin.

Smart-shartnomalarni tartibga solishning huquqiy asoslari hali to‘liq shakllanmagan. Ko‘pgina davlatlarda smart-shartnomalarning huquqiy maqomi, ularni tuzish va ijro etish tartibi, taraflarning huquq va majburiyatları, javobgarlik masalalari qonunchilik darajasida tartibga solinmagan. Bu esa o‘z navbatida smart-shartnomalardan foydalanishda muayyan huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, smart-shartnomalarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish, ularning huquqiy rejimini aniq belgilash zarurati mavjud.

### **Nazorat savollari:**

1. Nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimni qanday farqlaysiz?
2. Shartnomani va bitimni haqiqiy emas deb topishning qanday farqlari bor?
3. Yangi Fuqarolik kodeksida bitimlarning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq qanday yangi normalar aks ettirilmoqda?
4. Sudlar amaliyotidan nizoli bitimga misol keltiring?
5. Smart-kontraktlarning an’anaviy shartnomalardan qanday farqli jihatlari mavjud?
6. Smart-kontrakt tuzishda verifikatsiya jarayoni qanday amalga oshiriladi?
7. Smart-kontraktlarning yuridik kuchini belgilovchi qanday huquqiy asoslar mavjud?
8. Smart-kontraktlar orqali amalga oshirilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish asoslari qanday?
9. Blokcheyn tizimida tuzilgan smart-kontraktlarning huquqiy oqibatlari qanday?

10. Smart-kontraktlarda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilash tartibi qanday?
11. Smart-kontraktlarni ijro etishda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish mexanizmi qanday?
12. Elektron bitimlar va smart-kontraktlarning o‘xshash va farqli jihatlari nimalardan iborat?
13. Smart-kontraktlarda majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari qanday?
14. Smart-kontraktlarning fuqarolik huquqiy muomalada qo‘llanilish doirasi qanday?
15. Smart-shartnomalar mazmunini tushuntiring.

### **3-mavzu. Delikt munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning zamonaviy muammolari. Xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarning kafolatlari va himoya usullari**

Reja:

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar to‘g‘risida umumiyl tushuncha.
2. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning vujudga kelish asoslari. Bosh delikt tamoyili.
3. Maxsus deliktlar.
4. Kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy masalalari.
5. Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.
6. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari.

**Tayanch iboralar:** zarar, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat asosi va sharti, delikt, bosh delikt tamoyili, alohida deliktlar, Kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zarar, asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari.

*Dars mashg‘ulotlarini quyidagi ma’lumotlar asosida o’tish tavsiya etiladi. Pedagogik texnologiya nuqtai nazardan quyidagilar qamrab oladi:*

5. Dars mashg‘uloti uchun manbalar izlashda tayanish lozim bo‘lgan ma’lumotlar;
6. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat asosi va shartini aks ettiruvchi savollar tuzish;
7. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat haqida taqdimot tayyorlash.
8. Yangi Fuqarolik kodeksidagi zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat qiyosiy jadval tayyorlash.
9. Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini aniqlash.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat tushunchasiga fuqarolik qonunchiligidagi ta’rif berilmagan. Biroq, mazkur tushuncha bevosita, g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda

qoplanishi lozimligi tarzda FKning 985-moddasida o‘z ifodasini topgan. Mazkur normadan zarar yetkazgan shaxsning yetkazilgan zararni to‘liq qoplash majburiyati hamda jabrlanuvchining yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqi mavjudligini anglash mumkin. Bu esa o‘z navbatida majburiyatning an’anaviy tuzilishi (konstruksiyasi) – kreditor va qarzdor munosabatlari mavjudligini bildiradi. Mazkur holatda zarar yetkazuvchi - qarzdor hisoblansa, jabrlanuvchi (mulkiga, hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetgan shaxs) – kreditor hisoblanadi. Shu bilan birga zarar yetkazilganda jabrlanuvchining talab qilishi huquqi zarar yetkazuvchi uchun majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning hayoti va sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan shaxs yetkazilgan zarar to‘liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa o‘ziga yetkazilgan zarar qoplashni talab qilishi huquqiga ega bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, kishilarning bir-biri bilan doimiy ravishda o‘zaro munosabatlarida ba’zan ularning moddiy yoki nomoddiy manfaatlariga zarar yetish oqibatlari kelib chiqadi. Bu zararlar turli tasodiflar, ehtiyojsizlik, qasd orqali, tabiy ofatlar natijasida yuzaga keladi<sup>1</sup>. Shunday holatda yetkazilgan zarar kim tomonidan to‘lanishi (zarar yetkazilgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxslar tomonidan) masalasi yuzaga keladi. Hozirgi vaqtida yuridik va jismoniy shaxslar kutilmagan zararlardan himoyalanish maqsadida sug‘urta xizmatidan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Ammo har doim ham vaqtida sug‘urta xizmatidan foydalanishining iloji bo‘lavermaydi. Natijada kutilmagan zarar kelib chiqadi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, sug‘urta toponi har doim ham yetkazilgan zararni to‘la qoplay olmaydi. Shu sababli yetkazilgan zararni bir huquqiy institut yordamida tartibga solishning iloji yo‘q<sup>2</sup>. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat instituti asosiy o‘ringa ega bo‘ladi. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bu turi delikt majburiyatlar – deb ham ataladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning vujudga kelish asoslari. Bosh delikt tamoyili. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning boshqa turlari kabi muayyachn yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Mazkur majburiyat vujudga kelishi uchun asos bo‘ladigan qonun hujjatlaridan ko‘zda tutilgan yuridik faktlar – zarar yetkazish fakti, delikt hisoblanadi.

Biroq, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o‘z mazmunida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham qonun delikt majburiyatlarini vujudga kelish asoslari va shartlari bilan birga zarar uchun javobgarlik asoslari va shartlari masalasini ham hal qiladi. Boshqacha

<sup>1</sup> Гражданское Право.Учебник.Часть II/Под.ред.А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. -М.:Проспект.1998.-694 с.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (II-qism).-T.:Adolat.1999.-335 b.

aytganda, delikt majburiyatlarining vujudga kelish shartlari va yetkazilgan zarar uchun javobgarlik shartlari bir-biriga mos keladi.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlik choralarini belgilashda qonun umumiy tamoyillarga tayanadi. Huquqiy adabiyotlarda bu tamoyil «bosh delikt tamoyili» - deb yuritiladi. Mazkur tamoyilga binoan, bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning mavjudligiyoq, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatning g‘ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi. Zarar yetkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor – deb «hisoblanadi». Shu munosabat bilan zarar yetkazuvchi javobgarlikdan faqatgina o‘z harakatlari huquqqa xilof emasligini va aybdor emasligini isbotlagandagina ozod etiladi. Bosh delikt tamoyil Fransiya grajdaniq kodeksining 1382-moddasida to‘liq o‘z ifodasini topgan deb hisoblanadi, unga ko‘ra, boshqa shaxsga ziyon yetkazgan insonning har qanday harakati, aybli harakat natijasida yetkazilgan ziyonni qoplashni keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligidan ham boshdelikt tamoyili o‘z ifodasini topgan. Zero, FKning 985-moddasida fuqarolik huquqi sub’ektiga yetkazilgan zarar zarar yetkazuvchi tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi nazarda tutilgan. Albatta bosh delikt tamoyiliga muvofiq, zarar yetkazilganligining o‘ziyoq uni qoplash lozimligini anglatmaydi. Buni uchun qonuda belgilagan bir qator shartlar mavjud bo‘lishi lozim. Mazkur shartlarning mavjud bo‘lmasi esa, zararni qpolanmasligini anglatadi. Fuqarolik qonunchiligidan «bosh delikt» tamoyilinig mazmunini tashkil etuvchi yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy shartlari belgilangan, bo‘lib ular jumlasiga zarar yetkazuvchi harakatning huquqqa xilofligi, huquqqa xilof harakat va zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, ayb kiradi.

Fuqarolik qonunchiligidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy shartlarini belgilovchi bosh delikt bilan birga bir qator vaziyatlarni nazarda tutiladiki, ularning har birida maxsus qoidalar qo‘llaniladi va alohida deliktlar deb yuritiladi. Masalan, oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 999-modasi), voyaga yetmagan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 993-modasi) va boshqlar.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlik asosi va shartlari. Zarar yetkazilganda fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanishi uchun zararning mavjud bo‘lishi bilan birga, qonun hujjalarda belgilangan shartlar ham mavjud bo‘lishi talab etiladi. Bunday shartlar bosh delikt tamoyilidan kelib chiqadi va qonun hujjalarda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, zarar yetkazishning barcha holatlari uchun tatbiq etiladi. Delikt javobgarligi (zarar yetkazganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik)ning shartlari – bu huquqbuzarga tegishli

javobgarlik chorasi – sanksiyani belgilashda, ya’ni, uni zararni qoplash majburiyatini bajarishga majbur qilishda amal qilinishi lozim bo‘lgan umum majburiy talablardir.

Delikt majburiyatlar va ulardan kelib chiqadigan delikt javobgarlik quyidagi shartlar asosida vujudga keladi:

- zarar yetkazgan shaxs xatti-harakati huquqqa xilofligi;
- zarar yetkazuvchining huquqqa xilof hatti-harakati va yetkazilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish;
- zarar yetkazgan shaxsning aybi.

Delikt javobgarligining sharti hisoblangan aybning umumiyligi asoslari bilan birga FKning 985-moddasi 4-qismi uni istisno etuvchi holtani ham belgilaydi: qonunda zarar yetkazgan shaxsning aybi bo‘lmagan taqdirda ham zararni to‘lash nazarda tutilishi mumkin. Bunday istisno maxsus deliktlar haqidagi qoidalarda belgilangan. Masalan, oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 999-moddasi), surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga hilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik (FKning 991-moddasi) da aybsiz javobgarlik holatlari belgilangan.

Delikt huquqida aybning turli shakllari mavjud: qasd, ehtiyyot-sizlik, qo‘pol ehtiyyotsizlik va boshqalar. Biroq jinoyat huquqidan farq qilib fuqarolik-huquqida aybning darajalari javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e’tirof etilmaydi va aybning darajasi zararni qoplash miqdorini aniqlashda ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Delikt munosabatlari ishtirokchilarining aybi darajasi yetkazilgan zararni qoplashga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos istisno holat fuqarolik qonunchiligidagi o‘z ifodasini topganda. Masalan, jabrlanuvchi o‘zining qo‘pol ehtiyyotsizligi tufayli zararning yuzaga kelishiga yoki ortishiga ko‘maklashgan bo‘lsa, unda jabrlanuvchining va zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab tovon miqdori kamaytirilishi lozim (FKning 1004-moddasi). Agar mazkur vaziyatda jabrlanuvchining harakatlari yengil (odatdagi) ehtiyyotsizlik bo‘lganida edi, yetkazilgan zarar uchun to‘lanadigan tovon miqdori kamaytirilmas edi.

Zarar yetkazishni oldini olishdan kelib chiqadigan majburiyatlar. Delikt majburiyatları mavjud va vujudga kelgan haqiqiy zararlarni qoplashni nazarda tutadi. Shu bilan birga hayotda shaxsga hali zarar yetkazilmagan bo‘lsada, zarar yetish xavfi mavjud bo‘lgan holatlari ko‘p uchraydi. Bunday holatlari odatda energiyaning turli shakllari va zamонавий texnologiyadan foydalanib amal oshiriladigan ishlab chiqarish faoliyatida ko‘p uchraydi. Masalan, tuman hoki-miyatining qaroriga ko‘ra, aholi yashaydigan punktidan uzoq bo‘lmagan joyda axlat kuydirishga mo‘ljallangan kuchli peslar qurilishi rejalashtirildi. Ekolog mutaxassislar, vrachlarning xulosasiga ko‘ra, mazkur inshootning qurilishi hududda istiqomat qilayotgan aholi salomatligini yomonlashuviga, turli

yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelar ekan. Aynan mana shunday misolni kimyo va sement zavodlariga nisbatan ham aytish mumkin. Tojikistonda joylashgan Tursunzoda Aluminiy zavod ham o'sha hududda yashayotgan aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi fikrimizning dalilidir.

Zamonaviy dunyoda kiber hujumlar tobora ko'payib bormoqda va bu holat fuqarolik huquqida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kiber hujumlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalasi delikt munosabatlarining yangi ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday zararlar nafaqat moddiy, balki nomoddiy xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, moliyaviy ma'lumotlarning yo'qotilishi, intellektual mulk huquqlarining buzilishi kabi holatlar jabrlanuvchiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu esa o'z navbatida huquqiy munosabatlarda yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Kiber hujumlar natijasida yetkazilgan zararni aniqlash va baholash jarayoni murakkab xususiyatga ega. Bunda zararning haqiqiy hajmini aniqlash uchun maxsus texnik bilimlar va ekspertiza talab etiladi. Zararni baholashda nafaqat bevosita yo'qotilgan ma'lumotlar yoki aktivlarning qiymati, balki biznes faoliyatining to'xtashi, obro'ga yetkazilgan zarar, ma'lumotlarni tiklash xarajatlari va boshqa bilvosita xarajatlar ham hisobga olinishi kerak. Shuningdek, kiber sug'urta institutining rivojlanishi ham zararni qoplash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Huquqiy javobgarlik masalasi kiber hujumlar kontekstida alohida e'tiborni talab qiladi. Zarar yetkazuvchini aniqlash va uning aybini isbotlash an'anaviy delikt munosabatlariga qaraganda ancha murakkab. Ko'pincha kiber hujumlar bir necha davlat hududida sodir etilishi va hujum qiluvchilarining identifikatsiyasi qiyin bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda qaysi davlat qonunchiligi qo'llanilishi, qaysi sud organi vakolatli ekanligi kabi xalqaro xususiy huquq masalalari ham ko'ndalang bo'ladi.

Zararni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish uchun milliy va xalqaro darajada bir qator chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Jumladan, kiber xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, maxsus sug'urta mahsulotlarini yaratish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish shular jumlasidandir. Ayniqsa, kiber xavfsizlik bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, xavfsizlik protokollariga rioya qilish va xodimlarni o'qitish kabi preventiv choralar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida kompaniyalar uchun qo'shimcha xarajatlarni talab qilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan kiber hujumlarning yangi turlari paydo bo'lmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, blokcheyn tizimlari, bulutli texnologiyalar kabi yangi sohalarda sodir etilayotgan huquqbazarliklar yangi turdag'i zararlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa huquqiy

tartibga solish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat tomonidan kiber jinoyatchilikka qarshi kurashish va zararlarni qoplash bo'yicha yagona standartlarni ishlab chiqish zarurati tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Kiber hujumlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalasida davlat organlarining roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat nafaqat huquqiy baza yaratish, balki zararni qoplash mexanizmlarini amalga oshirish uchun maxsus davlat fondlarini tashkil etish, kiber xavfsizlik sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi yo'naliishlarda faol ishtirok etishi lozim. Shuningdek, kiber hujumlardan jabrlanganlarga huquqiy va texnik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

**Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar.** O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligining kodifikatsiya qilinishi natijasida, uning tizimining tarkibiy qismi bo'lgan majburiy huquq institutlaridagi o'zgarishlar asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlarda vujudga keldi.

Shu munosabat bilan, asossiz orttirilgan boylik majburiyatları instituti rivojlanishi tendensiyalarini; uning iqtisodiy muomaladagi ahamiyatini, shakllari va usullarini, asossiz orttirilgan boylik, yoki asossiz tejalgan mulk majburiyatlarining muqobil huquq institutlari bilan mutanosibligini aniqlash lozim.

Majburiyatlarning amaldagi ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1023 moddasining 1-bandida o'z ifodasini topgan: qonun hujjalarda yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo'lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolning mol-mulkni (asossiz orttirilgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart.

Ta'rifdan kelib chiqishiga ko'ra, asossiz orttirilgan yoki tejab qolning boylik bo'yicha majburiyatlarning subyekti bo'lib, asossiz orttirilgan yoki tejab qolning mol-mulkni qo'lga kiritgan qarzdor va bu mulkni talab kilish huquqi ega bo'lgan haqiqiy mulkdor (kreditor) bo'lishi mumkin. Bunda qarzdor va kreditor bo'lib fuqarolar, jumladan, muomalaga layoqatsiz shaxslar ham, huquq sub'ektliligi xarakteridan kati nazar, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Asossiz orttirilgan yoki tejab qolning boylik majburiyatlarning obyekti bo'lib, asossiz boylik orttirgan shaxsning asossiz orttirilgan yoki tejab qolning boylikni kreditorga qaytarishi bo'yicha qiladigan harakatlari hisoblanadi. Asossiz orttirilgan boylikni talab qiluvchi kreditor mavjud bo'limgan hollarda mulk davlat budgetiga yoki qonunga muvofiq tegishli muassasaga o'tkaziladi. Bunday majburiyatlarning mazmuni jabrlanuvchining asossiz orttirilgan boylikni asl

holida yoki pul summasida asossiz boylik orttirgan shaxsdan talab qilish huquqi va bu qarzdorning asossiz orttirilgan boylikni jabrlanuvchiga qaytarish majburiyatidan iboratdir.

Qonun talabidan ko‘rinib turibdiki, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati vujudga kelishi uchun, birinchidan, bir shaxs ikkinchi shaxs hisobiga asossiz boylik orttirishi, ikkinchidan, bunday boylik orttirishga hech qanday qonuniy asos bo‘lmasligi shart, uchinchidan, mulk, asosan, yanglishish, xatolik bilan olinadi yoki tejaladi.

Ammo ba’zi hollarda mulkning yanglishmasdan, atayin qasddan asossiz olinish hollari ro‘y berishi mumkin. G‘ayriqonuniy yoki davlat manfaatlariiga zid qilingan xatti - harakatlar tufayli o‘zgalar hisobiga asossiz boylik orttirgan shaxs asossiz olingan mulkni qonunda nazarda tutilgan hollardan boshqa holatlarda davlat daromadiga o‘tkazishi lozim, yani haqiqiy bo‘lmagan bitimlar tuzish yo‘li bilan olingan asossiz boyliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat daromadiga o‘tkaziladi.

Asossiz orttirilgan boylikdan kelib chiqqan majburiyatlarning funksional belgilanishi nafaqatgina jabrlanuvchining mulkiy doirasini qo‘lga kirituvchi tomonidan qayta tiklash, balki jabrlanuvchiga asossiz egallab olingan yoki tejab qolning mol-mulkni qaytarib berishdan iborat bo‘ladi.

Asossiz orttirilgan boylik majburiyatları turli yuridik faktlar asosida vujudga kelishiga qaramay, ushbu majburiyatlar shartnomadan tashqari tuzilgan bitimlar doirasiga kirib, subyektlarning mulk huquqi va boshqa huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil institut sifatida ko‘rinishda bo‘ladi.

Asossiz orttirilgan boylikdan kelib chiquvchi majburiyatlarning tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- a) bir shaxs boshqa shaxsning hisobidan mol-mulkka ega bo‘ladi;
- b) mol-mulk asossiz qonunda, boshqa huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilmagan yo‘llar bilan qo‘lga qiritiladi yoki tejab olinadi;

Bir shaxsning boshqa shaxs hisobidan mol-mulkka egalik qilish natijasida mulk hajmining oshishiga va ikkinchi tarafning mulkini kamayishiga olib keladi.

Qo‘lga kiritilgan mulk, uning miqdorining ko‘payishi, qo‘lga kirituvchining qo‘sishimcha xarajatlarisiz uning qiymatini oshishiga, masalan, bir shaxs boshqa shaxsning iltimosiga ko‘ra, ishonib topshirgan qarzini boshqa shaxsga topshirsa; tashkilot uning nomiga olingan tovarlarga qaytadan pul to‘lasa va hokazo.

Mulkni tejash deganda, shaxs o‘z mablag‘larini sarf qilishi lozimligi, lekin sarf qilmaganligi yoki boshqa shaxsning xarajatlari qoplanmaganligi, yoki boshqa shaxsga mukofot to‘lanmasligi tushuniladi. Masalan, shirkatning to‘lov shartnomasiga ko‘ra, bank adashib boshqa shirkat hisobidan mablag‘ni chiqarib tashlasa, bitta shirkatning mablag‘i oshishi, boshqasinkining kamayishiga olib

keladi. Agar shaxs, mulkdorning rozilgisiz unga mukofot to‘lamasdan mulkdan foydalansa, mukofot to‘lanmasligi evaziga tejash kelib chiqadi.

Asossiz boyishning eng ko‘p tarqalgan turi qo‘lga kirituvchining o‘ziga tegishli bo‘lmagan mulkka ega bo‘lishi tushuniladi. Bu shaklning asosiy turi – jabrlanuvchining qo‘lga kirituvchiga mulkiy foydaning berilishidir. Chunki taqdim etish asosida yotuvchi bitim yoki boshqa huquqiy asos bo‘lmagan, yoki e’tirof etilmagan.

Rivojlangan tovar muomalasi sharoitida mualliflik, patent va boshqa huquqlarga daxl qilishlar kuzatilmoqda. Bunday xatoliklarga yo‘l qo‘yilganda noqonuniy foydalanuvchida ixtirolardan foydalanish, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, o‘zganining xizmat va tijorat siri, mualliflik va muqobil huquqlarga mukofot to‘lamaslik uchun litsenziya to‘lovlarni amalga oshirmaganligi natijasida asossiz tejash paydo bo‘ladi.

**Xususiy mulknini himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari.** Mulk huquqi va boshqa ashayoviy huquqlarni himoya qilishda qo‘llaniladigan choralar va vositalar yig‘indisi himoya qilish usullari tizimini tashkil etadi. Mulk huquqini himoya qilish usullari tizimi to‘rta turga bo‘linadi: ashayoviy-huquqiy usullar, majburiyat huquqiy usullar, fuqarolik huquqining turli institutlarida belgilangan usullar, davlat organlari va boshqa organlar, ular mansabdor shaxslarning noqonuniy hatti-harakatlaridan himoyalanish usullari. Shuningdek mulk huquqi va boshqa ashayoviy huquqlarni himoya qilishda yurisdiksion va noyurisdiksion usullar ham qo‘llaniladi.

Mulk huquqi va boshqa ashayoviy huquqlarni fuqarolik-huquqiy himoya qilish deganda – bu huquqlarga qarshi qilingan buzilishlarni bartaraf etish, mulkdorning mulkiy manfaatlarini tiklash va himoya qilishga qaratilgan fuqarolik qonunchiligidagi belgilangan vositalar yig‘indisi tushuniladi.

Mulk huquqini uchinchi shaxslar tomonidan buzilishining xarakteri va mazmuniga qarab mulk huquqini himoya qilish turli usullarga turkumlanadi. Mulk huquqi va boshqa ashayoviy huquqlarni himoya qilish quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Mulk huquqini ashayoviy huquqlar bilan himoya qilish. Bu usul mulk huquqini mutlaq subyektiv huquq sifatida himoyalab hech qanday aniq majburiyatga bog‘liq bo‘lmagan holatda mulkdorning o‘ziga tegishli bo‘lgan ashayoga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqini tiklash yoki bu huquqlarni amalga oshirishga to‘sinqlik qiladigan holatlarni bartaraf etish tushuniladi. Ashayoviy-huquqiy usullarga mol-mulknini birovning qonunsiz egaligidan talab qilish da’vosi (vindikason da’vo), egalik qilish huquqining bekor qilinishi bilan bog‘liq bo‘lmagan huquqbuzarliklarni bartaraf etishni talab qilish da’vosi (negator da’vo), mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi da’volar kiradi.

Aniqroq qilib aytganda, mulk huquqi aniq subyektiv huquq sifatida faqat ashyoviy-huquqiy usullar bilan himoya qilinadi.

2. Majburiyat-huquqiy usullar bilan himoya qilish. Bu usullarga mulkdorga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz orttirilgan mol-mulkni qaytarish, shartnoma bo‘yicha olingan ashyoni, agar shartnoma bo‘yicha ashyo ma’lum muddatga foydalanishga berilgan bo‘lsa qaytarish kabi mulk huquqini himoyalovchi usullar misol bo‘ladi. Ushbu usullarning barchasi uchun ularning asosini tashkil etuvchi omillar mulk huquqiga ega bo‘lmay, balki boshqa huquqiy institatlarga tegishli subyektiv huquqlar xosdir. Masalan, mulkdor o‘ziga tegishli mulknini ijaraga berib, ijara muddati tugagandan so‘ng, ijaraga oluvchi mulknini mulkdorga qaytarmasa, mulkdorning huquqi mulk huquqi normalari bilan emas, shartnoma huquqi normalari bilan himoya qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, majburiyat-huquqiy usullar mulk huquqini bevosita emas, balki so‘nggi natijaga bog‘liq holatda himoya qiladi hamda majburiyat bajarilmasligi oqibatida mulk huquqini buzilishidan himoyalanish orqali namoyon bo‘ladi. Bir qator holatlarda, jumladan, mulk nobud bo‘lganda mulk huquqi o‘z-o‘zidan bekor bo‘ladi. Bunda majburiyat-huquqiy usullar mulk huquqini himoya qilishga emas, mulkdorning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi.

3. Fuqarolik huquqining turli institatlari bilan himoya qilish. Bu guruhga mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilishning shunday usullari kiradiki, ular ashyoviy huquq va majburiyat-huquqiy munosabatlarga aloqador bo‘lmasdan, fuqarolik huquqining turli institutlaridan kelib chiqadi. Bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning qaytib kelishi natijasida, uning mulkiy huquqlarini himoya qilish haqidagi normalar, bitim haqiqiy emas deb topilganda; taraflarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, garov saqllovchining javobgarligi haqidagi, meros qilib qoldirilgan mol-mulkni saqllovchi yoki vasiyga berilgan vasiylik ostidagi shaxsning mol-mulkini nobud bo‘lishi va yo‘qolishi haqidagi qoidalar fikrimizni isbotlaydi.

Bu himoya usuli orqali mulk huquqi bilvosita himoya qilinadi.

4. Mulk huquqining bekor bo‘lishini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda himoya qilish. Mazkur maxsus usul bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy usullarga, bevosita mulk huquqi bekor bo‘lishi oqibatida yuzaga keladigan huquq buzilishlarini fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar orqali himoyalash usullari kiradi. Bunga, xususan, davlat tomonidan shaxslar mulkinining davlat ixtiyoriga noqonuniy o‘tkazilishidan himoyalovchi kafolatlar kiradi.

## **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan mulkiy islohotlar, xususiy mulkni himoya qilish sohasida milliy qonunchilikka kiritilgan yangi usul va vositalar nimalardan iborat?
2. Mulkdor bo‘lman eganing huquqlari va mulkdor huquqlari to‘qnash kelgandagi mulkka nisbatan huquq va majburiyatlarining nisbatini tahlil qiling.
3. Mulk huquqi obyekti sifatida “yer” va “yer uchastkalari”, yer uchastkalarini fuqarolik muomalasining alohida obyekti ekanligi borasida amaldagi qonunchilik normalaridan kelib chiqib tahlilni amalga oshiring.
4. Zamonaviy sivilistikadagi inson ta’na a’zolari fuqarolik muomalasining obyekti bo‘lish yoki bo‘la olmasligi borasidagi yondashuvni tahlil qiling.
5. Xususiy mulk evolyusiyasi va xususiy mulkni tushunish borasidagi qarashlar va tasavvurlar o‘rtasidagi farqlarni izohlang.
6. Muassasaning o‘zi ishlab topgan daromadiga nisbatan huquqi doirasi va uni amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qiling?
7. Ko‘chmas mulkning huquqiy rejimidagi o‘ziga xoslik va muayyan moddiy ne’matning ko‘chmas mulk sifatida e’tirof etilishidagi zaruriy shartlar va talablarni nazariya va amaldagi qonunchilik normalari asosida yoriting?
8. Servitut, uzufrukt, superfitsiy, emfitevzis atamalarining mohiyati, o‘zaro nisbati va amaldagi qonunchilikda ifodalanishini tahlil qiling?
9. Xususiylashtirish va bu borada belgilangan kafolatlar mexanizmini tahlil qiling?
10. Sivilistikada umumiy mulk huquqini amalga oshirish va himoya qilish muammolarini amaldagi qonunchilik asosiy tahlil qiling?
11. Kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy masalalari nima?
12. Mulk huquqini fuqarolik-huquqiy, jinoiy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy himoya qilishning o‘zaro aloqadorligi va farqli xususiyatlari yoriting?
13. Mulk huquqini himoya qilishning yurisdiksion va noyurisdiksion usullari tizimini tahlil qiling va ularning o‘zaro nisbatini ochib bering?
14. Yuridik kategoriya sifatida ommaviy mulkning zaruriyati, ahamiyati va turlarini tahlil qiling?
15. Mulkdorlar sinfini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari va mavjud ilmiy-amaliy muammolar borasidagi fikrlaringizni izohlang?
16. Fuqarolik huquqida cheklangan ashyoviy huquqlar kategoriyasi va ularni qo‘llashning o‘ziga xos jihatlarini ochib bering.

#### **4-mavzu: Intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari. Fuqarolik huquqida meros masalalari va huquqiy vorislik bitimlari**

Reja:

1. Intellektual mulk.
2. Mualliflik huquqi.
3. Turdosh huquqlar.
4. Vorislik huquqi.
5. Vorislik asoslari.
6. Merosni egallah.

**Tayanch iboralar:** *Intellektual mulk, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, sanoat mulk huquqi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, huquqiy muhofaza hujjati, vorislik huquqi, vorislik asoslari, vasiyatnoma, qonun bo'yicha vorislik, merosni egallah.*

Intellektual mulk obyektlari o'ziga xos belgilari bilan odatdagi ashyolardan farq qiladi. Bunday belgilar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- intellektual mulk obyektlarida g'oya, bilim birlamchi uning moddiy mujassami esa ikkilamchi bo'ladi;
- intellektual mulk obyektlari g'oya, bilim ko'rinishida bo'lganligi sababli ularni odatdagi ashyolarni egallaganday kabi egallab bo'lmaydi;
- intellektual mulk obyektlaridan bir vaqtning o'zida cheklanmagan miqdordagi shaxslar foydalanishi mumkin;
- g'oya, bilim ko'rinishida bo'lganligi uchun intellektual mulk obyektlariga nisbatan mol-mulkni qonunsiz egallovchidan talab qilish to'g'risidagi da'veni (vindikatsion da'vo) tatbiq etish mumkin emas;
- muayyan muddat o'tgach intellektual mulk obyektiga nisbatan mulkiy huquqlar barham topadi va u umuminsoniy boylikka aylanadi. Masalan, mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyin u vafot etgan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan e'tiboran ellik yil davomida amal qiladi (FKning 1065-moddasi).

Intellektual mulk obyektlari quyidagilarga ko'ra huquqiy muhofaza etiladi:

1. Yaratilish faktiga ko'ra;
2. Vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida;
3. Oshkor etilmagan axborotlarga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlariga ko'ra (FKning 1032-moddasi). Oshkor etilmagan axborotlar (nou-xau) quyidagi shartlar mavjud bo'lganda huquqiy muhofaza etiladi:

- xizmat yoki tijorat siri bo‘lgan axborot uchinchi shaxslarga noma’lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qimmatiga ega bo‘lishi lozim;
- uchinchi shaxslar qonun yo‘li bilan undan erkin bahramand bo‘lish mumkin bo‘lmasligi kerak;
- axborot egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralar ko‘rgan bo‘lishi zarur (FKning 98-moddasi).

Fuqarolik huquqi boshqa huquq sohalaridan (masalan, jinoyat huquqidan) farqli ravishda muhofaza qilinadigan huquqiy munosabat buzilganda «ishga tushmasdan» balki, teng huquqli subyektlar o‘rtasidagi normal ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va uning ishtirokchilari o‘z manfaatlarini ko‘zlab fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi. Biroq, bu fuqarolik huquq va manfaatlarini himoya qilish zarurati yo‘q degan noto‘g‘ri tasavvurga olib kelmaydi. Zero, normal fuqarolik huquqiy munosabat nafaqat muayyan fuqarolik huquq va manfaatlarini tan olish, hurmat qilishni balki uning mukammal va ishonchli huquqiy himoyasini ta’minalashni ham taqazo etadi.

Fuqarolik huquqida keng ma’noda olganda subyektiv huquqlarni amalga oshirish uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga qaratilgan fuqarolik huquqlarini muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa shakllardagi choralar mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Tor ma’noda esa, huquqlar buzilganda yoki bu borada nizolashilganda fuqarolik huquqlari va manfaatlarini tiklanishi va tan olishinishiga qaratilgan qonuniy choralarini qamrab oladi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish himoya shakli, usullari va vositalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Huquqlarni himoya qilishning ikkita – yuridik va no yuridik shakli farqlanadi .

Huquqni himoya qilishning yuridik shakli vakolatli organlar (umumi yurisdiksiya sndlari, xo‘jalik sndlari, hakamlik sndlari) tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolik huquqlarini sud himoya vositasi sifatida da’vo, ariza, shikoyatlar nazarda tutiladi. Fuqarolik huquqini himoya qilishning no yuridik shakli davlat va boshqa vakolatli organlarga murojaat qilmasdan amalga oshiriladi.

Qonun chiqaruvchi huquqlarni himoya qilishning moddiy, protsessual va protsedual vositalar arsenali (vositalari)ni taqdim qilgan. Ular qatorida tezkor ta’sir chorasini qo‘llashning yuridik va faktik harakatlarni amalga oshirish, e’tiroz, da’vo, qarshi e’tiroz, tushuntirish, shikoyat, ariza berish va subyektiv fuqarolik huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa huquqini kiritish mumkin.

**Intellektual mulk** – intellektual mulk (lotincha intellect-aql intelligence property-intellektual malk) inson ijodiy faoliyatning moddiy yoki g‘oyaviy ko‘rinishdagi natijalari va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mulk hisoblanadi.

**Intellektual faoliyat natijalari** - 1) intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot va san'at asarlari; ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau); 2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar: firma nomlari; tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari); tovarlar chiqarilgan joy nomi; 3) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar (FKning 1031-moddasi).

**Butunjahon intellektual mulk Tashkiloti** – 1967-yilda Stokgolmda, Butunjahon intellektual mulk Tashkiloti.

**Litsenziya shartnomasi** - Litsenziya shartnomasi bo'yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziyatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnomaga beradi, litsenziyat esa tegishli obyektdan foydalanganligi uchun litsenziarga haq to'laydi. (FKning 1036-moddasi)

**Litsenziar** - Litsenziar litsenziya shartnomasining bir tarafi bo'lib, intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq sohibi, jismoniy yoki yuridik shaxs. (FKning 1036-moddasi)

**Litsenziyat** - Litsenziyat litsenziya shartnomasining bir tarafi bo'lib, intellektual mulk obyektini haq evaziga foydalanishga ruxsat olgan yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat. (FKning 1036-moddasi)

**Mualliflik huquqi** - Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. (FKning 60-bobi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun).

**Muallif** - ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs. (FKning 1046-moddasi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun)

**Asar muallifi** - Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi. (FKning 1046-moddasi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun)

**Turdosh huquqlar obyektlari** - Turdosh huquqlar obyektlari jumlasiga ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi. (FKning 61-bobi., Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonun).

Rossiya Federatsiyasining Grajdaniq kodeksi «subyektiv fuqarolik huquqlarini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy vositalari» iborasidan foydalanmaydi, va ushbu ibora sivilistikada «fuqarolik huquqbazarliklarini oldini olish, huquqni himoya qiluvchi subyektlarga huquqni muhofaza qiluvchi huquqiy munosabat doirasida huquqiy himoya xususiyatiga ega bo‘lgan faktik va yuridik harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi buzilgan subyektiv fuqarolik huquqlarini tiklash, fuqarolik qonunchilik manbalarida nazarda tutilgan vositalar tizimi» sifatida talqin qilinadi.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositalari (keng ma’noda) – huquqbuzarning huquqqa xilof harakatlarini oldini olish, buzilgan subyektiv fuqarolik huquqlarini tiklashga qaratilgan usullar, institutlar va huquq subyektlarining ularni qo‘llash va foydalanish bo‘yicha faoliyati bo‘lib, davlat tomonidan ta’milanadigan harakat yoki harakatsizlik shaklida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning vositalari (tor ma’noda) – bu fuqarolik huquqiy munosabat subyektlarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish tartibi va usullari, majburiyatlarni bajarilishini ta’minalash usullari, choralar, shakllaridan tarkib topgan elementlar tizimidir.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari deganda qonunda mustahkamlangan majburlov xususiyatiga ega bo‘lgan moddiy-huquqiy choralar tushunilib, ular yordamida buzilgan huquqlar tiklanadi va huquqbuzarga nisbatan ta’sir ko‘rsatiladi. Bunday choralarining umumiy ro‘yxati Fuqarolik kodeksining 11-moddasida ko‘rsatilgan bo‘lib, umumiy holatda bevosita kompyute dasturlariga nisbatan huquqlarni himoya qilishda ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, mualliflik huquqi buzilgan hollarda kompyuter dasturining mualliflik huquqini tan olinishi. Ushbu choralarini qo‘llash bir qarashda kompyuter dasturi kabi obyektga nisbatan qo‘llash murakkab bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Masalan, kompyuter dasturi (Windows XP amaliyot tizimi)ning osilib qolishi, funksional vazifalarni bajarmasligi, amaliyot tizimiga virus tushishi va hokazo natijasida kompyuter dasturidan foydalanuvchi uchun zarar keltirib chiqarishi mumkin. Fuqarolik sud ishlarini yuritish xususiyati shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik huquqini himoya qiluvchi taraf u yoki bu obyektga zarar (masalan, virus vositasida yoki g‘araz niyatli boshqa shaxslar tomonidan) yetganligini isbotlash murakkab kechadi.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Fuqarolik koedksining

1040-moddasiga ko‘ra mutloq huquqlarni himoya qilish mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo‘lsa, o‘sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo‘yish shuningdek yo‘l qo‘yilgan buzish haqidagi ma’lumotni majburiy suratda e’lon qilib, unga

buzilgan huquq kimga tegishliliги тоғ‘рисидаги ма’лумотларни киритиш орқали орқали амалга оширилishi mumkin.

O.Oqyulovning fikricha, TRIPS (Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, TRIPS) Bitimi talablariga qonunlarimizni moslashtirmog‘имиз lozim. Bu Bitim negizida mutloq huquqlarni himoya qilish usullarini takomillashtirish va samarali mexanizm yaratish г‘оялари yotadi. Shu sababli xam ushbu muammolar kelgusi boblarda alohida tadqiq etiladi. Ayni vaktda FKda muallif-ijodkorlarni shaxsiy-nomulkiy huquqlarini huquqiy muhofaza qilish ham aniq-ravshan o‘z ifodasini topmaganligini ko‘rsatib, FKda bu masalaga ham alohida modda bag‘ishlanishi maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Bu borada muallifning fikriga qo‘shilgan holda kompyuter dasturiga nisbatan muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini, ushbu huquqlarni himoya qilish choralari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi mazmuniga singdirilishi lozim.

N.I.Fedoskina fikricha, fuqarolik huquqiy himoya usullarini qanday turdagи mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilishga va qo‘llashga ko‘ra muayyan guruhlarga bo‘ladi. Jumladan:

- har qanday huquqlarni buzilishida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan usullar (huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish, bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash, zararni to‘lash, davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo‘llamasligi);

- faqat mutloq huquqlar buzilganda qo‘llanadigan himoya usullari (huquq buzilganligi haqidagi sudning qarorini e’lon qilish, himoyaning texnik usullaridan foydalanish);

- faqat shaxsiy nomulkiy mualliflik yoki turdosh huquqlar buzilganda qo‘llaniladigan usullar (ma’naviy zararni qoplash);

- faqat mutloq huquqlarni himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar (mutloq huquqni buzganlik uchun tovon to‘lash, kontrafakt moddiy eltuvchi nusxalarni olib qo‘yish, qurilma, asbob-uskunalar va materiallarni olib qo‘yish, yuridik shaxsni tugatish, yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini tugatish);

- faqat nisbiy mualliflik huquqlarini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar (burchni asl holida bajarishga majbur qilish, o‘zganing pul mablag‘laridan foydalanganlik uchun foiz undirish).

N.I.Fedoskina tomonidan taklif qilingan fuqarolik-huquqiy himoya usullari guruhlarga bo‘lingan, umladan har qanday huquqlarni buzishda, mutloq huquqlarni buzishda, mualliflik shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzishda qo‘llaniladigan usullar shuningdek, nisbiy mualliflik huquqlarini himoya qilishda qo‘llaniladigan usullar bir muncha shartli hisoblanadi. Chunki mualliflik va

turdosh huquqlar mutloq huquqlar hisoblanadi. Mutloq huquq (absolyut huquq) kategoriyasi mohiyatan mulk huquqi kategoriyasiga nisbatan qo'llaniladi. Muallif qo'llaniladigan usullarni guruhlarga bo'lishda mualliflik va turdosh huquqlar turlariga qarab faqat mualliflik va turdosh huquq subyektlari nuqtai nazaridan yondashgan. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarining turlariga qarab huquqiy himoya qilish shaklini guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini kompyuter dasturlariga nisbatan qo'llash.

Fikrimizcha, bu o'rinda huquqiy himoya mualliflar yoki huquq egalarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilinishiga ko'ra ham tasniflanishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, ko'plab usullar nisbatan qulay va mos ravishda huquq egalari tomonidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishda samarali qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan ayrim usullar, jumladan yuridik shaxsni tugatish, yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini tugatish garchi AQSh va boshqa xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi mavjud bo'lsada O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilmagan.

S.N.Bikov ta'kidlashicha, kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilish tizimi elementlari sifatida fuqarolik-huquqiy vositalarni quyidagicha tasniflaydi.

- maqsadli yo'naltirilganligiga ko'ra (huquq sub'ektligi asosidagi fuqarolik-huquqiy vositalar, bitimli asosdagи fuqarolik-huquqiy vositalar, himoya asosidagi fuqarolik-huquqiy vositalar);

- hududiy tartibga solish darajasiga ko'ra (kompyuter dasturlarini muhofaza qilishning xalqaro vositalari, kompyuter dasturlarini Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi milliy qonunchiligidagi muhofaza qiluvchi fuqarolik-huquqiy vositalar va xorijiy fuqarolik-huquqiy vositalar);

- huquqiy tartibga solish darajasiga ko'ra (kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishning dastlabki vositalari, kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishning institutsional vositalari (huquqiy shakllar darajasi), kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishning amaliy vositalari).

B.Axmadjonovning fikricha, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquq va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 63-moddasiga huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, kontrakt nusxalarni musodara qilish, huquq egasining haqiqiy egasi haqida ma'lumotlarni e'lon qilish haqidagi talablarni kiritish lozim<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Axmadjonov B.U. Fuqarolik huquqida mutlaq huquqlar mazmuni va ularni amalga oshirish muammolari. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDYuI, 2011. 20 b.

Biroq, taklif qilinayotgan normalar ushbu qonunlarda mavjud. Masalan, ushbu qonunning 66-moddasida asarlarning va turdosh huquqlar ob'ektlarining kontrafakt nusxalari, shuningdek ularni tayyorlash va takrorlashda foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar hamda sodir etilgan huquqbazarlikning boshqa vositalari qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida musodara qilinadi deb belgilangan. Haqiqiy huquq egasi haqidagi ma'lumotlar esa mualliflik huquqini tan olish va fuqarolik shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish bilan bir xildir. Bu o'rinda muallifning intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan mutloq huquqlarni himoya qilishda "Anton Piller ordeni", "Marevaning sud ta'qiqi", "Norvich Farmakl vositasi" kabi usullarni implementatsiya qilishga doir g'oyalarni qo'llab-quvvatlash mumkin<sup>4</sup>.

Bu o'rinda huquqiy tizimlar o'rtasidagi o'ziga xoslik hamda intellektual mulk ob'ektlarining xususiyatlari e'tibor qaratish lozim. Intellektual mulknini himoya qilish mexanizmi, ularni tijorat muomalasiga kiritish u yoki bu huquqiy himoya choralarini implementatsiya qilishga doir qoidalarga nisbatan alohida e'tiborni, zehnni talab qiladi.

Masalan, Angliya huquq tizimida Anton Piller Ordeni (*Anton Piller order*) mavjud bo'lib, oldindan ogohlantirmagan holda dalillarni olib qo'yishga huquq beradi va kompyuter dasturi egalari huquqlari buzilganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu holat shu jumladan mualliflik yoki patent huquqlari buzilgan hollarda tegishli dalillarni yo'q bo'lib ketishini oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu tartib 1975-yilda Anton Piller KG va Manufacturing Processes Limited o'rtasidagi nizo yuzasidan nomlangan bo'lib, unda tijorat sirlari o'g'irlanganligi yuzasidan sud jarayoni bo'lib o'tgan. Ushbu usulni umumi ravishda qo'llash 1997-yilda umumi fuqarolik sudlari to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi munosabati bilan ma'lum darajada siqib chiqarilgan.

Anton Piller Orderining asosiy ustunligi shundaki, ushbu sud buyrug'i javobgarga murojaat qilmagan holda sud tomonidan berilishi mumkin. Umumi qoidaga ko'ra sud buyrug'i taraflar tomonidan boshlangan sud jarayoni davomida beriladi. Bu holat ikkinchi tarafga oldindan da'vogar tomonidan sud orqali sud buyrug'ini olish istagi borligini ma'lum qilib qo'yadi. Bu holat da'vogarning zarur dalillarni topishga doir barcha hatti-harakatlarini, urinishlarini yo'qqa chiqaradi. Chunki javobgarda dalillarni yo'q qilish uchun vaqt bemalol yetarli bo'ladi<sup>5</sup>.

S.N.Bikov tomonidan taklif qilingan kompyuter dasturlarini huquqiy muhofaza qilishning tasniflari ko'proq nazariy jihatlarga ega bo'lib, muallif

<sup>4</sup> Axmadjonov B.U. 17-18 b.

<sup>5</sup> Романов А.К. Правовая система Англии. –Москва: Дело, 2000. -126 6.

asosan xalqaro huquqiy vositalarni nazarda tutadi. Fikrimizcha, kompyuter dasturlariga nisbatan huquq egalarini huquqlarini himoya qilishning amaliy jihatdan nisbatan qulay va samarali vositalarini topishimiz zarur. Zero, faqatgina barqaror va samarali normalar ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni mualif va o‘zga huquq egalariga:

- huquqlari tan olinishini;
- huquq buzilishiga qadar mavjud bo‘lgan holat tiklanishini va huquqni buzayotgan yoki uning buzilishi xavfini tug‘dirayotgan xatti-harakatlar to‘xtatilishini;
- yetkazilgan zarar uning miqdoriga huquqbuzar tomonidan g‘ayriqonuniy olingan daromad summasini qo‘sghan holda qoplanishini;
- foyda ko‘rgan huquqbuzardan yetkazilgan zarar qoplanishi o‘rniga eng kam oylik ish haqining tegishli sud qarori bilan belgilanadigan yigirma barobaridan ming barobarigacha bo‘lgan miqdorida tovon to‘lanishini;
- ularning huquqlari muhofaza qilinishi bilan bog‘liq qonunlarda nazarda tutilgan o‘zga choralar ko‘rinishini talab qilishga imkon beradi.

**Vorislik huquqi** - deb, fuqaroning vafot etganidan so‘ng mulkinining boshqa shaxslarga (vorislarga) o‘tkazilishida vujudga keladigan munosabatlarning tartibga soladigan huquqiy normalar yig‘indisiga aytildi.

**Vorislik** - bu ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi hisoblanib, mol-mulkni yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarni bir shaxsdan (meros qoldiruvchidan) ikkinchi shaxsga (merosxo‘rlarga) o‘tishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham u hammadan avval, iqtisodiy hodisa sifatida va vafot etgan shaxsning mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o‘tish tartibini belgilaydi (FKning 112-moddasi).

**Meros** - vafot etgan shaxsning mol-mulki, mulkka bo‘lgan huquqi, boshqalardan talab qilish huquqi, boshqalar oldidagi majburiyatlari va qarzlaridir (FKning 1113-moddasi).

**Meros huquqi** - bu fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarining bevosita qabul qilib olishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

**Voris deganda**, qonunda belgilab qo‘yilgan meros qoldiruvchining qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘langan avlod va ajdodlari, uning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz boqimlari (qonun bo‘yicha vorislar), shuningdek, qonunda belgilangan tartibda va shartlarga rioya qilib, meros qoldiruvchi tomonidan tayinlangan, uning huquq va majburiyatlari olingach,

merosning o‘tishi lozim bo‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslar (vasiyat bo‘yicha vorislar) tushuniladi.

### **Vorislik huquqining muhim jihatlari:**

-Vorislik vasiyat va qonun bo‘yicha amalga oshiriladi (FKning 112-moddasi);

-Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi (FKning 1113-moddasi);

-Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi oqibatida ochiladi (FKning 116-moddasi).

-Meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi hisoblanadi(FKning 117-moddasi).;

-Meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin; (FKning 118-moddasi).

-Meros ochilgan joydagi notarius merosxo‘rning iltimosiga ko‘ra unga merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida guvohnoma berishi shart, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e’tiboran olti oy o‘tganidan keyin beriladi.

**Vasiyatnomaning sir saqlanishi** - notarius, vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdor shaxs, shuningdek vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaro meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuniga, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas (FKning 1128-moddasi).

Zamonaviy dunyoda intellektual mulk huquqini himoya qilish masalalari nafaqat milliy qonunchilik darajasida, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi, sun‘iy intellekt imkoniyatlarining kengayishi va virtual aktivlarning ko‘payishi natijasida an‘anaviy huquqiy mexanizmlar yangi muhitga moslashtirilishini talab qilmoqda. Bu o‘zgarishlar intellektual mulk huquqini himoya qilishning yangi usullarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Internet tarmog‘ining rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida intellektual mulk huquqini buzish holatlari ham ko‘paymoqda. Piratlik, noqonuniy nusxa ko‘chirish, plagiat kabi holatlar keng tarqalmoqda. Bu esa intellektual mulk huquqini himoya qilishning yanada samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar, virtual mulklar va raqamli aktivlarga nisbatan huquqiy himoyaning o‘ziga xos jihatlari mavjud.

Bugungi kunda intellektual multk huquqini himoya qilish nafaqat huquqiy, balki texnologik vositalar yordamida ham amalga oshirilmoqda. Raqamli suv belgisi, kriptografik himoya, blokcheyn texnologiyalari kabi innovatsion usullar intellektual multk huquqini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa huquqshunos mutaxassislardan nafaqat huquqiy bilimlarni, balki zamonaviy texnologiyalarni ham chuqur o'zlashtirishni talab qilmoqda.

Intellektual multkni himoya qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun, "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Konstitutsiyaning 42-moddasida har bir shaxsning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi kafolatlangan. Bu konstitutsiyaviy norma intellektual multk huquqini himoya qilishning asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda intellektual multkni himoya qilish Butunjahon intellektual multk tashkiloti (WIPO) doirasida qabul qilingan konvensiyalar, shartnomalar va bitimlar asosida amalga oshiriladi. Bern konvensiyasi, Sanoat multkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi, Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnama (PCT) kabi xalqaro hujjatlar intellektual multk huquqini himoya qilishning asosiy manbalari hisoblanadi. O'zbekiston ko'plab xalqaro shartnomalar va bitimlarga qo'shilgan bo'lib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha izchil islohotlarni amalga oshirmoqda.

Intellektual multkni himoya qilishning protsessual jihatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks va boshqa protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Sud amaliyoti intellektual multk huquqini himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Sudlar tomonidan ko'rib chiqilayotgan intellektual multk bilan bog'liq nizolar soni yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa ushbu sohadagi huquqbazarliklarning ko'payishidan dalolat beradi.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar, ixtiolar va boshqa obyektlarga nisbatan mualliflik huquqining kimga tegishli ekanligi masalasi zamonaviy huquqning eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. An'anaviy yondashuv bo'yicha mualliflik huquqi faqat jismoniy shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin. Biroq sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan bu yondashuvni qo'llash muammoli hisoblanadi, chunki sun'iy intellekt jismoniy shaxs maqomiga ega emas.

Sun'iy intellekt yaratgan obyektlarga nisbatan mualliflik huquqi masalasida turli yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuv bo'yicha, mualliflik huquqi sun'iy intellekti yaratgan kompaniya yoki dasturchilar jamoasiga tegishli bo'lishi kerak. Ikkinci yondashuv bo'yicha, sun'iy intellektning o'zi muallif

sifatida tan olinishi va unga mualliflik huquqining berilishi taklif etilmoqda. Uchinchi yondashuv bo'yicha esa, sun'iy intellekt yaratgan asarlar jamoat mulki (public domain) sifatida tan olinishi va ularga nisbatan mualliflik huquqi o'rnatilmasligi kerak.

Bu masala bo'yicha xalqaro amaliyot ham turlicha. Ayrim mamlakatlar sun'iy intellekt yaratgan asarlarga nisbatan mualliflik huquqini tan olishdan bosh tortmoqda. Masalan, AQSh Mualliflik huquqi bo'yicha boshqarmasi (US Copyright Office) sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik guvohnomasini bermaslik to'g'risida qaror qabul qilgan. Boshqa mamlakatlar esa bu masalada yangi yondashuvlarni ishlab chiqmoqda va sun'iy intellekt yaratgan asarlarni himoya qilishning o'ziga xos mexanizmlarini joriy etmoqda.

Meros huquqi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining beshinchi bo'limida bat afsil tartibga solingan. Meros - bu meros qoldiruvchining vafotidan keyin uning mol-mulki, huquq va majburiyatlarining boshqa shaxslarga o'tishi. Meros huquqiy vorislik asosida o'tadi va merosxo'rlar doirasi qonun bilan belgilanadi. Meros qonun bo'yicha yoki vasiyatnoma asosida vorislik tartibida o'tadi.

Vasiyatnoma bo'yicha meros qoldiruvchi o'z mulkini istalgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga qoldirish huquqiga ega. Vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va notarial tasdiqlangan bo'lishi shart. Vasiyatnomada meros qoldiruvchi o'z mulkini bir yoki bir necha shaxsga, shuningdek davlat organlariga, jamoat tashkilotlariga va boshqa yuridik shaxslarga qoldirishi mumkin. Vasiyatnoma tuzishda meros qoldiruvchi majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini hisobga olishi kerak.

Qonun bo'yicha meros vasiyatnoma bo'limgan taqdirda yoki vasiyatnoma to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilgan hollarda vujudga keladi. Qonun bo'yicha merosxo'rlar navbat tartibida merosga chaqiriladilar. Birinchi navbatdagi merosxo'rlar - meros qoldiruvchining farzandlari, eri (xotini) va ota-onasi. Ikkinci navbatdagi merosxo'rlar - meros qoldiruvchining aka-ukalari, opasingillari va boshqalar. Har bir keyingi navbatdagi merosxo'rlar oldingi navbatdagi merosxo'rlar bo'limgan, merosdan voz kechgan yoki merosdan chetlashtirilgan taqdirda merosga chaqiriladilar.

Meros shartnomasi - bu meros qoldiruvchi va merosxo'r o'rtasida tuziladigan, meros qoldiruvchining vafotidan keyin uning mol-mulki merosxo'rga o'tishini nazarda tutuvchi kelishuv. Bu institut Germaniya, Shveytsariya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Meros shartnomasi vasiyatnomadan farqli ravishda ikki tomonlama bitim hisoblanadi va uni bir tomonlama bekor qilish mumkin emas. Shuning uchun ham u merosxo'rning huquqlarini yanada mustahkamroq himoya qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston qonunchiligidagi meros shartnomasi instituti hali to'liq shakllanmagan. Huquqshunos olimlar bu institutni milliy qonunchilikka joriy etish masalasini o'rganmoqda. Meros shartnomasi merosni rejalashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi, oilaviy biznesni avloddan-avlodga o'tkazishni ta'minlashi va merosxo'rlearning huquqlarini yanada samarali himoya qilish imkoniyatini berishi mumkin.

Meros shartnomasi institutini joriy etish uchun Fuqarolik kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, shartnomaning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablarni, uni tuzish va bekor qilish tartibini, taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash zarur. Shuningdek, meros shartnomasi bo'yicha nizolarni hal etishning protsessual jihatlari ham ishlab chiqilishi kerak.

Raqamli aktivlar va akkauntlarga nisbatan meros huquqi masalalari zamonaviy huquqning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar, elektron pochta manzillari, kriptovalyutalar, onlayn-o'yinlardagi virtual mulklar va boshqa raqamli aktivlarning huquqiy maqomi to'liq aniqlanmagan. Ko'pchilik ijtimoiy tarmoqlar va raqamli xizmatlar foydalanish shartlarida akkauntlarni meros sifatida o'tkazish imkoniyatini nazarda tutmaydi yoki bu jarayonni murakkablashtiradi.

Raqamli aktivlarga nisbatan meros huquqini tartibga solishning asosiy muammolaridan biri - bu aktivlarning moddiy ko'rinishga ega emasligi va ularni an'anaviy mulk sifatida baholash qiyinligi hisoblanadi. Shuningdek, raqamli aktivlarga kirish imkoniyati parollar va kirish kodlari bilan himoyalangan bo'lib, meros qoldiruvchining vafotidan keyin bu ma'lumotlarni olish muammoli bo'lishi mumkin. Bu esa merosxo'rlearning huquqlarini amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Ayrim mamlakatlar raqamli aktivlarga nisbatan meros huquqini tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilgan. Masalan, AQShning ko'plab shtatlarida "Raqamli aktivlarga nisbatan yagona kirish huquqi to'g'risida"gi qonun (Uniform Fiduciary Access to Digital Assets Act) qabul qilingan. Bu qonun merosxo'rlargacha qoldiruvchining raqamli aktivlariga kirish huquqini beradi. O'zbekistonda ham raqamli aktivlarga nisbatan meros huquqini tartibga soluvchi maxsus huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

### **Nazorat savollari:**

1. Vasiyatnama shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablar.
2. Notarial tasdiqlangan va unga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.
3. Vasiyatnomani ijro etish va undagi noaniqliklarni talqin qilish masalalari.
4. Vasiyatnomani bekor qilish va o'zgartirish tartibi.

5. Qonuniy vorislik asoslari va vorislar guruhlari. Taqdim etish huquqi bo'yicha vorislik.

6. Merosni egallash. Meros guvohnomasi. Merosdan voz kechish huquqi va uni cheklanishi.

7. Vasiyat majburiyati va uni yuklash shartlari

8. Vasiyat majburiyatidan voz kechish va uning huquqiy oqibatlari.

9. Meros ulushlarining oshishi. Meros mol-mulkiga qaratiladigan xarajatlar va qarzlar.

10. AI tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan mualliflik huquqi kimga tegishli bo'ladi?

11. Sun'iy intellekt ijdodiga nisbatan huquqiy himoyaning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

12. Raqamli platformalardagi shaxsiy akkauntlar meroxo'r larga qanday tartibda o'tkaziladi?

13. Ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarni mero qilib qoldirish imkoniyatlari qanday?

14. Kriptovalyuta hamyonlari va raqamli aktivlarni mero qilib qoldirish tartibi qanday?

15. Sun'iy intellekt yaratgan ixtirolarni patentlash imkoniyatlari mavjudmi?

16. Raqamli mero rasmiylashtirish va uni taqsimlashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

17. Meros shartnomasi tuzishda taraflarning huquq va majburiyatlari qanday?

18. Meros shartnomasini bekor qilish va o'zgartirish asoslari nimalardan iborat?

19. Raqamli platformalardagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va merosga o'tkazish muammolari qanday?

20. Intellektual mulk obyektlarini mero qilib qoldirish va ulardan foydalanish huquqini o'tkazish tartibi qanday?

21. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi qanday?

22. Onlayn-banking akkauntlari va elektron to'lov tizimlardagi hisoblarni merosga o'tkazish tartibi qanday?

**5-mavzu. Bugungi islohotlar bosqichida jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlari. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish sohasidagi jinoyat-huquqiy siyosat**

Reja:

1. Jinoyat-huquqiy siyosat tushunchasi va uning shakllanishi.

2. Jinoyat-ijroiya qonunchiliginin takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi amalga oshirilgan jinoyat-huquqiy siyosat tavsifi.
4. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish tushunchasi va ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** Siyosat, jinoyat-huquqiy siyosat, davlat jinoyat-huquqiy siyosati, sud hokimiyati, liberallashtirish, jinoiy javobgarlikni liberallashtirish, jinoiy jazolarni liberallashtirilish, dekriminalizatsiya.

Davlat paydo bo‘lib, o‘zining ichki va tashqi funksiyalarini bajarishni boshlagan davrlardan jinoyat, jazo va javobgarlik masalalari qo‘llanilgan bo‘lib, aynan shu davrdan boshlab davlatning jinoyat-huquqiy siyosat yuritishi boshlangan. O‘zbekiston Respublikasi hududida ilk davlatchilik Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i hamda shu daryolar tevarak atroflari bilan bog‘lanadi. Mintaqamizda ilk davlatchilik elementlari miloddan avvalgi IV – III ming yilliklar bilan belgilanadi. Aynan shu davrdan jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati yuritilib, ilk qonun hujjatlari to‘plamlarida aks ettirila boshlagan.

Siyosat tushunchasi Aristotel davridan tadqiq qilinadigan tushuncha bo‘lib, ushbu tushuncha qator milliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelinadi.

Siyosat — davlatni boshqarish san’ati bo‘lib, siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liqdir. Siyosat mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma’noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashki faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi. Shunga ko‘raadolatli vaadolatsiz, xolis va noxolis, insonparvar yoki inson manfaatlariiga zid siyosat, demokratik va avtoritar siyosat ko‘rinishlarini boshkaruvda kuzatish mumkin.

Siyosat o‘z ta’sir etish obektiga ko‘ra ikkiga: ichki va tashqi siyosatga bo‘linadi. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayoti sohalari: iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy-texnikaviy, ekologik, madaniy, harbiy, jinoyat-huquqiy va boshqa sohalarni qamrab oladi. Shu tarzda iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, demografik siyosat, agrar siyosat, texnikaviy siyosat, ekologik siyosat, madaniy siyosat, kadrlar siyosati, harbiy siyosat, jinoyat-huquqiy siyosat va boshqa yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Siyosat sub’ektlari ko‘ra ham tasniflanadi: davlat siyosati, partiyalar, jamoat birlashmalari va harakatlari siyosati va h. k.

Har bir davlat ijtimoiyadolat, qonuniylik va insonparvarlikni ta’minalash maqsadida mustaqil jinoyat-huquqiy siyosat yuritadi. Davlat siyosatida u yoki bu masalani konseptual tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirilib, bunda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ustunligi ta’minalanadi.

Jinoyat-huquqiy siyosat – bu davlatning ichki siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, u boshqa sohalardan vazifasi, metodlari va predmetiga ko‘ra farqlanadi. Jinoyat-huquqiy siyosat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zgarishi jinoyat-huquqiy siyosatni o‘zgarishini talab qiladi. Jinoyat-huquqiy siyosat jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar rivojlanish darajasini prognozlash orqali kutilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida davlatning munosabat bildirishi faoliyati hisoblanadi. Davlat vakolatli organlari timsolida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qilinishi mumkin bo‘lgan jinoiy tajovuzlarni oldini olishning samarali choralarini ishlab chiqilishi, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi prognozlaridan kelib chiqib, ayrim turdagи qilmishlarni kriminalizatsiya yoki dekriminalzatsiya qilish, ayrim turdagи jazolarni penalizatsiya yoki depanalizatsiya qilish,adolatni ta’minlashga qaratilgan jinoyat-huquqiy siyosat yuritish faoliyatini amalga oshiradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat – bu davlat faoliyat turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Davlat o‘z vakolatli organlari timsolida jinoyat-huquqiy siyosatni yuritadi. Davlatning bu faoliyat turi normativ huquqiy hujjatilar ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Jinoyat huquqi fanida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi davlat siyosatini ifodalashda “jinoyat-huquqiy siyosat”, “jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosat” kabi atamalardan foydalaniladi. Ushbu masalada olimlarning nuqtai nazari turlicha bo‘lib, ko‘pchilik jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi ijtimoiy siyosat va jinoyat-huquqiy siyosat boshqa-boshqa tushuncha degan fikrda.

Jumladan, A.Korobeevning fikricha, birinchisi ijtimoiy siyosat bo‘lib, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunlarini shakllantirish yo‘li bilan jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatish vositalari va maqsadini belgilovchi, ularni qo‘llash amaliyotini tartibga soluvchi, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish choralarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olsa, jinoyat-huquqiy siyosatda jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatishning asosiy vazifalari, yo‘nalish va maqsadlari, ularga erishish yo‘llari belgilanib, u jinoyat huquqi normalarida, Jinoyat kodeksiga sharhlarda va ularni qo‘llash amaliyotida namoyon bo‘ladi. N.Lopashenko<sup>6</sup> jinoyat-huquqiy siyosat o‘z ichiga jinoyat-protsessual yoki jinoyat-ijroiya huquqi sohasidagi siyosatni olmasligini ta’kidlaydi. S.Bosxolov<sup>7</sup> fikricha, so‘nggi ikkitasi davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining alohida mustaqil qismlari hisoblanadi.

M.X.Rustambaev, Q.R.Abdurasulova va B.J.Axrarovlarning fikricha davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati deganda, jinoyatchilikka qarshi, shuningdek, jinoyatchilikning o‘ta xavfli turlarini kamaytirish, salbiy ta’sirini bartaraf etish, huqujni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, qonunlar hamda boshqa normativ aktlarni qo‘llash samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar yig‘indisini tushunish lozim. Jinoyat-

<sup>6</sup> Лопашенко Н.А. Уголовная политика. – М.: Волтерс Клувер, 2009. –с. 5-7.

<sup>7</sup> Босхолов С.С. Основы уголовной политики. Конституционный, криминологический, уголовно-правовой и информационный аспекты. Монография. Издание 2-е, переработанное. — М.: Центр ЮрИнфоП, 2004. — 7 с.

huquqiy, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya va kriminologiya sohasidagi siyosat ushbu siyosatning tarkibiy qismlaridir<sup>8</sup>.

Shuningdek, M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova va B.J.Axrarovlarning fikricha jinoyat-huquqiy siyosat davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining alohida qismi bo‘lib, u biz tilga olgan olimlarning fikridan farqli ravishda, jinoyat-protsessual, jinoiy jazoni ijro qilish sohasidagi siyosatni o‘z ichiga olmaydi. Jinoyat-huquqiy siyosat asosida jinoyat-ijroiya, jinoyat-protsessual va kriminologiya sohasidagi siyosatning asosiy yo‘nalishlari shakllantiriladi, jinoyat-huquqiy siyosatning ustuvorligi, uning doirasida har bir davlat uchun nihoyatda muhim bo‘lgan jinoiy javobgarlik masalalarini belgilash, jinoiy qilmishlar doirasi, jazo turlari, shuningdek, boshqa jinoyat-huquqiy xususiyatdagi choralarini belgilash bilan bog‘liq muammolar hal qilinadi.<sup>9</sup>

Jinoyat-huquqiy siyosat tizimi haqida keltirilgan qarashlar ayrimlari bilan kelishib bo‘lmaydi. Jumladan, jinoyat-huquqiy siyosat jinoyat-protsessual, jinoiy jazoni ijro qilish sohasidagi siyosatni qamrab olmaydi, bu sohalar davlat siyosatining alohida tarmog‘ini tashkil etadi degan fikrlarga qo‘silib bo‘lmaydi. Bunday fikrlar asosi fan tarmoqlarining moddiy huquqiy va protsessual huquqiy bo‘limiga asoslangan deb o‘ylaymiz. Davlat siyosati yagona yo‘nalishda, tizimli olib borilishi, shuningdek davlat siyosatini huquq sohalari bo‘yicha emas, balki davlat funksiyalari va faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilishdan kelib chiqib, jinoyat huquqi va turdosh huquq sohalarida olib boriladigan siyosat jinoyat-huquqiy siyosat mazmunini aks ettiradi desak, nazarimizda o‘rinli bo‘ladi.

Nazarimizda jinoyat-huquqiy siyosat davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olish, jinoiy ta’qib, surishtiruv va dastlabki tergov, odil sudlov, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir choralarini qo‘llanilishi bilan bog‘liq faoliyati, qolaversa mazkur faoliyatning huquqiy asoslarini yaratishdagi qonun ijodkorligi jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat hisoblanadi. Shu sababli, jinoyat-huquqiy siyosat o‘zida kriminologiya, jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, jinoyat ijroiya huquqi va korrupsiyaga qarshi kurashish sohalarini mujassamlashtiradi. Bugungi kunda o‘zini davlat siyosatida mustaqil soha sifatida o‘rnini mustahkamlab borayotgan tezkor qidiruv faoliyat va ma’muriy javobgarlik sohalari ham jinoyat-huquqiy siyosat doirasiga kiradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat davlat faoliyat turi sifatida quyidagi belgilarga ega bo‘ladi:

- ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi, o‘zgarishi va boshqa jihatlari prognozlari inobatga olinadi;
- bunda xalq va davlat manfaatlari ifodalanib, jamiyatning barcha qatlamlari manfaati kafolati ta’milanadi;
- bu jarayon oshkora amalga oshiriladi;

<sup>8</sup> M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova, B.J.Axrarov. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi Konsepsiysi va doktrinasini rivojlantirish muammolari. BV-F7-007-016 raqamli davlat granti asosida chop etilgan.–T.: TDYuI nashriyoti, 2011. -9 bet.

<sup>9</sup> O‘sha joyda.

- bunda eng avvalo barcha subyektlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy bazani yaratish ustuvorlik kasb etib, hokimiyat vakolatlari asosida ushbu ustuvorlik ta'minlanadi, xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori qonunchilik tashabbusiga ega bo'ladi;

- u murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, aniq faoliyatning maqsad va mazmuni boshqa sohalarning rivojlanishi va faoliyatga bog'liq bo'ladi;

- jinoyat-huquqiy siyosat jamiyat va davlat manfaatlari bilan mushtarak bo'lgan holda siyosiy partiyalar yoki alohida shaxslar manfaatlardan mustaqil bo'ladi.

Jinoyat-huquqiy siyosat tushunchasi **ilk marotaba** nemis kriminalist olimi Anselma Feyerbaxning<sup>10</sup> asarlarida qo'llanilgan bo'lib, ushbu atama keyinchalik Avstriya va Germaniya huquq maktabi nomoyondasi, jinoyat huquqi va xalqaro huquq bo'yicha mutaxassis, yuridik fanlar doktori Frans Fon List (nem. Franz von Liszt; 1851-yil 2-mart, Vena, Avstriya - 1919-yil 21-iyun, Zexaym, Gessen, Germaniya) ning "Jinoiy siyosatning vazifalari" asarida atroflicha yoritib berilgan.

#### **Unga ko'ra jinoyat-huquqiy siyosat uchta ma'noda tushuniladi:**

**Birinchisi**, jinoyatchilikka qarshi kurashishning maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini belgilab beradigan normativ huquqiy hujjatlarda ifodalanadigan davlatning faoliyati;

**Ikkinchisi**, jinoyatchilikka qarshi kurashishning maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining maxsus turi (sud va HMQO organlar faoliyati);

**Uchinchisi**, jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi va taktikasini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy faoliyat.

Respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson huquq va manfaatlari kafolatlangan qonunlarning ijrosini ta'minlashdan iboratdir.

**Jinoyat-huquqiy siyosat fan tarmog'i** sifatida shakllanishi O'zbekiston mustaqillikka erishishi va o'zining jinoyat qonunchiliginish ishlab chiqishi bilan bog'liq hisoblanadi. Mustaqillikka qadar O'zbekiston amalda mustaqil jinoyat-huquqiy siyosat yuritish huquqiga ega bo'lmagan. Aytish joizki, jinoyat huquqiy siyosatga bag'ishlangan ilmiy asarlar juda kam bo'lib, M.X.Rustambaev, Q.R.Abdurasulova va B.J.Axrarovlarning "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi Konsepsiysi va doktrinasini rivojlantirish muammolari" nomli asar shular jumlasidan hisoblanadi. Jinoyat-huquqiy siyosatni rivojlantirishga bag'ishlangan normativ baza nisbatan boy bo'lib, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi asosida 2010-yil

<sup>10</sup> Чубинский М.П. Очерки уголовной политики: понятие, история и основные проблемы уголовной политики как составного элемента науки уголовного права. С.55-56; Лесников Г.Ю. Уголовная политика РФ (проблемы теории и практики). М., 2004. С.3.

12-noyabrdagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi” sohadagi ilk muhim hujjat bo‘ldi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son qarori asosida tasdiqlangan “2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi” shular jumlasidan.

Jinoyat-huquqiy siyosat fan sifatida o‘z predmeti, prinsiplari, vazifalari va metadalogiyasiga ega. Har qanday bilim sohasi predmeti voqelikning u yoki bu tomonini ilmiy anglash chegaralarini belgilaydi.

Jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasining predmeti umumiyligi jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat. Jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasi jinoyatchilikka qarshi kurashishning barcha ilmiy asoslari, yo‘nalishlarining asosidir, u barcha jinoyat-huquqiy fanlarini rivojlantirishning umumiyligi nazariy va uslubiy asosidir.

Jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasi jinoyatchilik, unga qarshi kurashish bilan bog‘liq barcha qonunchilik majmuini, shuningdek, unga qarshi kurashuvchi sub’ektlarning o‘rni va rolini belgilaydigan qonunchilikni o‘rganadi.

Jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasi turli jinoiy huquqiy sohalarda (jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi va kriminologiya) davlat siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarining mazmunini o‘rganadi. Jinoyat-huquqiy siyosatning nazariy qoidalari jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha amaliyotni umumlashtirish jarayonida yaratiladi, shu asosda jinoyat, jinoyat protsessual, jinoyat ijroiya hamda jinoyatchilikni oldini olish sohalarida yangi qonun normalari yaratiladi, mavjudlari takomillashtirilib boriladi. Shuningdek, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan qarorlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinadi.

Jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi tajribasini o‘rganadi va umumlashtiradi, undan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Shuningdek, jinoyat-huquqiy siyosat jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro hamkorlik muammolarini, ushbu sohadagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni, turli mamlakatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik faoliyati tajribasini, ushbu hamkorlik natijalarini umumlashtirish va ulardan qonun ijodkorligida hamda amaliyotda foydalanishni, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlarini muvofiqlashtirib borishni o‘rganadi va tahlil qilini amalga oshiradi.

**Davlat jinoyat-huquqiy siyosati maqsadi** davlatning ustuvor maqsadlari bilan mushtarak bo‘lib, milliy xavfsizlikni ta’minalash, huquqiy demokratik davlat qurish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minalash maqsadlarini ko‘zlaydi. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida davlat qilmishni jinoyat deb topadi, jinoiy javobgarlik belgilaydi, jinoyatchilikni oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshiradi, odil sudlovni, sud tomonidan tayinlangan jazolarni insonparvarlik

tamoyili asosida o‘talishini ta’minlaydi, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarni manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qiladi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi davlatning faoliyati jinoiy-huquqiy siyosatning mohiyatini tashkil etadi.

**Jinoyat-huquqiy siyosat vazifalari** shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, jinoyatlarni oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Jinoyat-huquqiy siyosat vazifalarini shartli ravishda quyidagilarga ajratish mukin:

- muxofaza qilish;
- jinoyatlarni oldini olish;
- javobgarlikni muqarrarligi ta’minalash orqali fuqarolarni qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash;
- qonuniylikni ta’minalash;
- samarali qonun ijodkorligini ta’minalash.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, falsafa barcha fanlar otasi bo‘lganidek, jinoyat huquqiy siyosat fani jinoiy-huquqiy fanlar (kriminologiya, jinoyat huquqi, jinoyat protsessual huquqi, jinoyat ijroiya huquqi, ma’muriy javobgarlik, tezkor qidiruv faoliyati) uchun metodologik asos bo‘lib, ushbu fanlarning istiqbollarini hamda asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat metodlari uning predmeti bilan chambarchas bog‘liqdir. Jinoyat-huquqiy siyosatning predmeti u nimani o‘rganadi degan savolga javob bersa, metod (usul)lari esa qanday o‘rganilishi haqidagi savolga javob beradi.<sup>11</sup>

Jinoyat-huquqiy siyosatni o‘rganishda eng umumiy metodlar (metafizik va dialektik), umumilmiy metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tizimli, funksional va boshqalar), xususiy metodlar (sotsiologik, qiyoslash, statistik, mantiqiy va boshqalar) va xususiy-huquqiy metodlarlardan foydalaniladi.

Jinoyat-huquqiy siyosatni o‘rganishda va ushbu fanni rivojlanishida yuqorida keltirilgan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, boshqa huquq sohalari, shuningdek fanlar bilan o‘zaro aloqalarini tahlil qilish orqali jinoyat-huquqiy siyosat mazmunini anglash osonroq kechadi.

Jinoyat-huquqiy siyosatni davlat faoliyati sifatida o‘rganish davlat va huquq nazariyasi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Bevosita davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning umumiy qonuniyatlarini, davlat siyosati yo‘nalishini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari jinoyat-huquqiy siyosat jinoyatchilik, uning sabablari va oldini olish choralarini o‘rganadigan kriminologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, krminologiyada jinoyatchilikni oldini olishning nazariy asoslari ishlab chiqiladi.

<sup>11</sup> Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYuU, 2018. – 12 b.

Jinoyat-huquqiy siyosat uning huquqiy asosini tashkil etuvchi jinoyat huquqi, jinoyat protsessual, jinoyat ijroiya huquqi va korrupsiyaga qarshi kurashish fanlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Davlat jinoyat-huquqiy siyosat vektorlarini belgilab berishi ayrim hollarda huquqi, jinoyat protsessual, jinoyat ijroiya huquqi va korrupsiyaga qarshi kurashish fanlariga yangi institutlarni kirib kelishiga asos bo‘ladi. Masalan, jinoyat huquqiga yarashuv institutini kirib kelishi, jinoyat-protsessual huquqiga xabes korpus akti elementlari bilan bog‘liq institutlarni kirib kelishi, probatsiya institutining jinoyat-ijroiya huquqiga kirib kelishi jinoyat-huquqiy siyosat maxsulidir.

Shuningdek, jinoyat-huquqiy siyosat nazariyasi uchun pedagogika va psixologiya qoidalari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki jinoyat-huquqiy siyosat odamlarning ongiga, irodasiga va xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Bunda ham individual, ham jamoaviy ta’sir qilish uchun mazkur fanlar institutlaridan foydalaniladi<sup>12</sup>. Psixologiya va pedagogikaning bir qator tamoyillari, nazariy asoslari jinoyat-huquqiy siyosat va uni amaliyatga tadbiq etishda keng qo‘llaniladi.

Jinoyat-huquqiy siyosat fan sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda turdosh jinoyat-huquqiy fanlarning rivojlantirish konsepsiyalari shakllantirib boriladi. Jamiyat rivojlanishda davom etar ekan, ilm-fan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, kelajakda kutilishi mumkin bo‘lgan har qanday o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi, har qanday muammoga ilmiy asoslantirilgan yechim taklif qilishga qodir bo‘lishi talab etiladi. Aynan shu maqsadda ilmiy izlanishlar olib boriladi, tadqiqotlar o‘tkaziladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat-huquqiy siyosat shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy jajovuzlardan qo‘riqlash bo‘yicha davlat faoliyatining qonuniyatları va xususiyatlari to‘g‘risida g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar (nazariyalar) majmuini ishlab chiqadi, nazariya va amaliyotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi konsepsiylar va doktrinalar asosini yaratish, jinoyat-huquqiy siyosat gnoseologik<sup>13</sup> asoslarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Jinoyat-huquqiy siyosatni shakllantirish uchun uning prinsiplari katta ahamiyatga ega. Jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari – fundamental g‘oyalar, qonunchilik asoslari va universal qoidalar majmuidan iborat bo‘lib, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qonuniyatlarini asoslarini hamda axloqiy va huquqiy qarashlarni o‘zida aks ettiradi.

---

<sup>12</sup> Уголовная политика Российской Федерации: в 2-х ч.: учебник / под ред. заслуженного юриста Рос. Федерации, д-ра юрид. наук, проф. Л. И. Беляевой. – М.: Академия управления МВД России, 2018. – Ч. 1. – 184 с.

<sup>13</sup> Гносеология или гнозеология // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб, 1890—1907.

Jinoyat-huquqiy siyosatni samarali amalga oshirish ushbu sohada paydo bo‘lgan yetakchi g‘oyalarni chuqur va har tomonlama bilishni talab qiladi. Prinsiplar to‘g‘ri belgilab olinishi maqsaddan kelib chiqadi hamda vazifalarni to‘g‘ri belgilab olish imkonini beradi. Prinsiplar odatda qonun hujjatlari bilan belgilanadi hamda shu sohadagi barcha keyingi qabul qilinadigan normativ hujjatlar shu prinsiplarga muvofiq bo‘lishi talab qilinadi. Prinsiplarni to‘g‘ri belgilanishi huquqiy madaniyat va huquqiy ongni rivojlantirishga, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi roman-german huquq tizimi oilasiga mansub bo‘lib, normativ hujjatlar qat’iy ierarxiya asosida yuridik kuchiga ko‘ra tizimlashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni 5-moddasidada normativ-huquqiy hujjatlarning turlari tizimi:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;  
O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;  
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;  
vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;  
mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlaridan iboratligi belgilangan.

Ushbu tizim ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, o‘zida davlatning asosiy maqsad va vazifalarini ifodalovchi prinsiplar majmuini aks ettiradi.

Jinoyat-huquqiy siyosat o‘zida jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat protsessual huquqi, tezkor qidiruv faoliyati, jinoyat-ijroiya huquqi, korrupsiyaga qarshi kurashish fanlarini qamrab oladi. Shu sababli, jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari ushbu sohalar qonunchiligi hamda fan tarmog‘i prinsiplarini qamrab olib, umumiy jihatlarini o‘zida aks ettirishi lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda, jinoyat-huquqiy siyosat bir necha shakllarda o‘z ifodasini topganidan kelib chiqish kerak. Bular qonun ijodkorligi(Oliy Majlis faoliyati), huquqni muhofaza qilish (boshqaruv, HMQO va sud faoliyati), huquqni o‘qitish (huquqiy ta’lim). Tabiiyki, jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari qonun ijodkorligi, huquqni muhofaza qilish va huquqiy ta’lim prinsiplarini belgilab beradi. Shundan ko‘rish mumkinki, “davlat siyosati har doim yagona”<sup>14</sup> degan g‘oya haqiqatda amalda o‘z ifodasini topadi. Davlat faoliyat sohalarida olib boriladigan siyosat davlat siyosati doirasida bo‘lib, tartibga solish sohasiga ko‘ra prinsiplar xususiy

<sup>14</sup> Стручков Н. А. Советское исправительно-трудовое право. М., 1963. С. 13–16; Мацкевич И. М. Новая уголовная политика // Российский криминологический взгляд. 2012. № 3. С. 168–169.

ahamiyat kasb etishi mumkin, ammo davlat siyosatiga qarshi yoki davlat siyosati mazmuni doirasidan o‘zgacha bo‘lmaydi.

Jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari yagona normativ-huquqiy hujjat doirasida berilmagan bo‘lsada, Konstitutsiyamiz va sohaga oid qonun hujjatlari mazmunidan kelib chiqib, jinoyat-huquqiy siyosatning umumiy jihatlari quyidagi umumiy belgilarni o‘zida mujassamlashtiradi:

**birinchidan**, o‘zida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan asosiy g‘oyalarni mujassamlashtiradi;

**ikkinchidan**, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish jinoyat-huquqiy siyosat tartibga soladigan fan tarmoqlari (qonunchilik) maqsad va vazifalarida o‘z ifodasini topgan bo‘ladi;

**uchinchidan**, ular o‘zida qilmishni kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya qilishning umumiy mezonlarini ifodalaydi hamda qonun ijodkorligida aynan shu mezonlarga rioya qilinadi;

**to‘rtinchidan**, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafolatini o‘zida aks ettruvchi qoidalar keltiriladi;

**beshinchidan**, ular huquqni qo‘llash amaliyotiga qonuniylik: bular qilmishni to‘g‘ri malakalash, javobgarlik asoslari, jazoni ijro etish bosqichida qonuniylikka qat’iy rioya etish;

**oltinchidan**, ular vakolatli davlat organlarining jinoyatchilikni oldini olish, fosh etish, ularni oldini olish va tergov qilish bilan bog‘liq faoliyatini tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatadi;

**yettinchidan**, mazmuni Konstitutsiyaviy prinsiplar mazmuni doirasida bo‘lib, o‘zida moddiy va protsessual huquq elementlarini ifodalaydi.

Jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari sohani tartibga solishning umumiy asoslarini aks ettirib, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va davlat siyosati ustuvor yo‘nalishidagi o‘zgarishlardan kelib chiqib o‘zgarishi, ayrimlari bekor bo‘lishi va yangilanib borishi mumkin.

Qonun hujjatlarimiz mazmuni tahlili natijasidan hamda dunyodagi huquqiy siyosat sohasidagi umumiy qonuniyatlarlar mazmunidan kelib chiqib jinoyat-huquqiy siyosat prinsiplari quyidagilardandan iborat:

- inson huquqlari kafolati ustunligi (insonparvarlik);
- qonuniylik;
- odillik;
- demokratizm;
- tenglik;
- ahloqiylik;
- ilmiylik;
- qarorlarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslantirilganligi;

- oqilona muddat prinsipi.

## **O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi amalga oshirilgan jinoyat-huquqiy siyosat tavsifi.**

Sud-huquq sohasi islohotlari va liberallashtirish amaliyoti insonparvar demokratik huquqiy davlatda “Adolat” tamoyili ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda sud idoralarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarni shartli ravishda quyidagi olti bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

**Birinchi bosqichda** (1991-1995-yillar) sud-huquq tizimini isloh qilishning **milliy strategiyasi belgilab olindi** va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyatiga maxsus bob bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Sud hokimiyati”ning mohiyati sud tizimining tashkil etilishi va sudlar faoliyatining tamoyillarini qamrab oladigan qator qoidalar orqali ochib berildi.

Bundan tashqari, jahon tajribasi hisobga olingan holda, birinchi marta mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud tashkil etildi.

**Ikkinci bosqichda** (1996-1999-yillar) mavjud tajriba va qonunchilikni tahlil qilish asosida sud-huquq tizimi islohotlarini churqurlashtirish, odil sudlov tizimini demokratlashtirish, sud jarayonida ayblov va himoyaning amalda tengligini ta’minlash maqsadida advokatura mavqeini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**Uchinchi bosqichda** (2000-2004-yillar) **sudlarni ixtisoslashtirish, jinoiy jazolarni liberallashtirish**, odil sudlov sifatini oshirish, ishlarni ko‘rish muddatlarini qisqartirish, fuqarolik va jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishning apellyatsiya tartibini joriy etish, kassatsiya tartibini isloh qilish, sud qarorlari ijrosini ta’minlashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi.

**To‘rtinchi bosqichning** (2005-2010-yillar) asosiy vazifalari mustaqillik yillarida to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini, insonning yashash huquqini va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash, sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish va aniq chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagи **“O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi** PF-3641-sonli Farmonida o‘lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida bekor qilindi, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi kiritilishi nazarda tutildi. O‘zbekiston Respublikasida 2008 yilning 1 yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o‘lim jazosi bekor qilindi, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etildi.

**Beshinchi bosqichda** (2010-2015-yillar) vazifalar islohotlar mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi negizi asosida amalga oshirildi. Bunda sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boshlandi, tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish choralari ko‘rildi.

**Oltinchi bosqich** (2016-yildan keyin). Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2020 yilda sud-huquq sohasida hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi islohotlar izchil davom ettirildi. Prezident ta’kidlaganidek, bu yil sudlangan shaxslarning **74 foiziga** nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlandi.

Jazo muddatini o‘tayotgan va tuzalish yo‘liga qat’iy kirgan **616 nafar** fuqaro afv etildi. Sudlar mustaqilligi ta’minlanishi natijasida joriy yilning o‘zida **719 nafar** fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagи “**Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi** PF-6034-sonli Farmoniga asosan sud tizimida raqamlashtirishni yanada kengaytirilish nazarda tutildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi “**Sud hokimiyyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ-4818-sonli qaroriga ko‘ra, bugungi kunda sudlarda ishlarni ko‘rishda **30** ga yaqin vazirlik va idoralar bilan ma’lumot almashinuvi ularning axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish va qog‘oz shaklida ishlarni olib borishga chek qo‘yish nazarda tutildi. Bundan tashqari, sudlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish talab etiladi. Endilikda fuqarolarimizga sudga kelmasdan, **onlayn** tartibda murojaat qilish imkoniyati yaratilishi ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, fuqarolar o‘z arizalarini ko‘rib chiqish jarayonini masofadan turib kuzatib borishi mumkin bo‘ladi (*1-rasm*).

**O‘zbekistonda inson omilining ustuvorligi** jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyilini keng qo‘llash borasidagi ishlar davom ettirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jazoni ijro etish muassasalarini qisqartirish, ya’ni manzil-koloniyalarning 25 tasini qisqartirish bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ustuvor ish bo‘ladi. Shu bilan birga, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish va shartli ozod qilish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish vakolati jazoni ijro etish muassasalaridan yangi tashkil etiladigan **insonparvarlik komissiyalariga**

o'tkaziladi. Probatsiya nazorati qator Yevropa mamlakatlari - **Daniya, Norvegiya, Shvesiya, Germaniyada** qo'llanilib kelinmoqda.



*I-rasm. Inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar.*

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi.*

Tezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zaruriyat, fuqarolarning sohadagi jiddiy kamchiliklar mavjudligi bo'yicha murojaatlari hamda e'tirozlaridan kelib chiqdi. Bu holat mamlakatimizning xalqaro nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha dunyodagi **50 ta** yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta'minlash maqsadi Inson huquqlari bo'yicha **O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida** mustahkamlandi. Jumladan, shaxslarga nisbatan qiynoqlarning oldini olish bo'yicha institutsional mexanizmlarni takomillashtirish choralari ko'rilmoxda. O'zbekiston Respublikasi BMTning **Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi Fakultativ protokoliga** qo'shilish masalasi ijobiy hal etilmoqda.

2021-yilga bag'ishlangan Prezident Murojaatnomasida Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalasi ko'tarildi. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga **"monitoring tashriflari"** tizimi yo'lga qo'yilishi ta'kidlandi. Bu amaliyot dunyoda kam uchraydigan va O'zbekistonning o'ziga xos nou-xousi hisoblanadi. Bundan keyin Oliy Majlis palatalari har yili Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish bo'yicha ma'ruzasini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yiladigan bo'ldi.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini berish masalasida inson huquq va erkinliklarining kafolati sifatida bir qancha yengilliklar joriy etildi. 2020-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

2005-yilgacha  
mamlakatimizga kelib doimiy  
yashayotgan, fuqaroligi  
bo‘limgan shaxslarga ham  
to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston  
fuqaroligini bersak, nima  
deysizlar?

*Shavkat MIRZIYOYEV*

Xususan, Qonunda yangilik sifatida (6-moddasi) Fuqaroligi bo‘limgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish tartibi belgilandi. **1995-yil 1-yanvarga** qadar O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgan va doimiy propiskadan o‘tgan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan hamda ushbu Qonun kuchga kирguniga qadar fuqaroligi bo‘limgan shaxsga O‘zbekiston

Respublikasida yashash guvohnomasi asosida yashab turgan shaxs istak bildirgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi. Shuningdek, ota-onasi (yolg‘iz otasi yoki onasi) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari deb tan olingan bola ham O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi asoslari ko‘rsatildi. Bu bilan **50 ming** nafardan ortiq shaxslarga fuqarolik olish imkoniyati yaratildi.



2-rasm. Inson huquq va erkinliklarini kafolatlari himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga xalqiga Murojaatnomasi.

Prezidentimiz Murojaatnomada ta’kidlaganidek, 2021-yilda ham ushbu ishlar davom etiladi. Xususan, 2005-yilgacha mamlakatimizga kelib doimiy yashayotgan, fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston fuqaroligini berish tartibini qonunchilikda belgilash bu boradagi islohotlarimizning mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qiladi. Bu bilan

mamlakatimizda muqim yashayotgan va O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lmagan yana **20 ming** kishi O'zbekiston fuqarosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, yurtimizda **15 yil** davomida muqim yashagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston fuqaroligini berishning doimiy tartibi joriy qilinishiga urg'u berildi (*2-rasm*).

Xulosa qilib aytganda, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lidagi yuqoridagi say-harakatlar yangi O'zbekiston fuqarolarining farovon turmush kechirishiga yanada kengroq sharoitlar yaratadi.

Davlatning jinoyat-huquqiy siyosatini liberallashtirishga mustaqillikni ilk kunlaridan e'tibor berila boshlandi, uning asosiy maqsadi sifatidaadolat va insonparvarlik prinsiplarini ta'minlash, jinoiy jazo tizimidagi jazolash funksiyalarining toraytirish yo'lidan borish belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasida jinoyat-huquqiy siyosat liberallashtirish yo'lida bo'lib, liberallashtirish mohiyatini to'g'ri anglash uchun uni genezisini tahlil qilish lozim bo'ladi.

Insoniyat tarixida jamiyat rivojlanishi, huquqiy ong va madaniyatni ommalashuvi natijasida jinoyat-huquqiy siyosat liberallashuvi jadallahshdi. Jinoyat-huquqiy siyosat liberallashuviga turlicha ta'rif keltirilgan bo'lsada, umumiylazmun jinoiy ta'qib, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari, ularni ijro etish jarayoni hamda jinoyatchilikni oldini olish faoliyati odillik va insonparvarlik prinsiplariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga monand bo'lishi lozimligini anglatadi.

Boshqacha qilib aytganda, jinoyat-huquqiy siyosatda liberallashtirish – bu jinoyat qonunchiligi, jinoiy ta'qib, dastlabki tergov, sud muhokamasi jarayonida jazo tayinlashda (uning turlarini tanlashda) va jazoni ijro etish shartlari, shuningdek jinoyatchilikni oldini olish jarayonlari bilan ifodalangan amaldagi jinoyat qonunchiligini insonparvarlashtirish jarayonidir.

Sud-huquq tizimini isloh qilishning muhim vazifalaridan biri Jinoyat, Jinoyat-protsessual qonun hujatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

Ushbu islohotlar jinoyat kodeksiga jinoiy jazolarni liberallashtirish masalalariga oid o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunlarda o'z aksini topdi.

Sud-huquq islohotlari davrida 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni liberallashtirish siyosatining muhim tarkibiy jarayonlarini boshlab berdi.

Mazkur Qonun olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni liberallashtirishning natijasi bo‘lib, uni amaldagi Jinoyat kodeksining isloh qilinishi, deb baholash ham mumkin.

Ushbu Qonun bilan amaldagi Jinoyat kodeksining 105 ta moddasiga jinoiy jazolarning liberallashtirilishi yuzasidan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi. Ular quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topdi.

Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlar tasnifi tubdan o‘zgardi. Xususan, og‘ir va o‘ta og‘ir toifadagi jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga o‘tkazildi, jinoiy jazo tizimidan ayrim jazo turlari chiqarilib, jazo tizimi yanada liberallashtirildi, jinoyat qonunchiligidagi yarashuv instituti joriy etildi, jazoni o‘tash muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun belgilangan muddatlar qisqartirildi.

Qonunga asosan Jinoyat kodeksinig 13 ta moddasiga muhim o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

2007-yil 11-iyulda “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish borasida tub burilish yasadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, ilgari sud-huquq sohasida bunday islohot olib borilmagandi. Buni xorijlik mutaxassislar ham ko‘p bora e’tirof etmoqda.

2008-yil 10-apreldagi "Jarima tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etish tartibini takomillashtirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Qonun jarima jazosining ijrosini ta’minalashga qaratilgan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad, jinoyat sodir etgan shaxsga, iloji boricha, jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llashdan iboratdir.

Shuningdek, 2010-yil 18-mayda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida"gi Qonunga asosan Jinoyat kodeksi yangi norma, ya’ni aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida jazo tayinlash (57<sup>1</sup>-modda) bo‘yicha alohida qoidalar belgilandi.

2012-yil 29-dekabrdagi "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Qonunga asosan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar mamlakatimizda sud-huquq sohasi va jinoiy jazo tizimini liberallashtirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarning izchil davomi bo‘ldi.

Ushbu Qonun bilan kiritilgan o‘zgartishlar, eng avvalo, iqtisodiyot sohasidagi idoralar xodimlari javobgarligini liberallashtirishda o‘z ifodasini topdi, Jinoyat kodeksiga sudlanganlikning olib tashlanishini liberallashtirish bo‘yicha

yangi norma va shuningdek, ancha, ko‘p, ko‘p bo‘lмаган, juda ko‘p miqdor tushunchalariga o‘згартishlar kiritildi.

Jinoyat protsessual kodeksiga yangi norma 242<sup>1</sup>-modda "Uy qamog‘i" ehtiyyot chorasi protsessual majburlov chorasi sifatida kiritildi. Mazkur norma ham inson huquq va manfaatlarini dastlabki tergov bosqichida himoya qilishning vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. "Uy qamog‘i" gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida uning yoshini, sog‘-lig‘ini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq, deb topilgan taqdirda qo‘llanilishi belgilandi.

Yuqorida qayd qilingan liberallashtirish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar nafaqat jinoiy jazolarni, balki mamlakatimizdagi jinoyat qonunchiligi, sud-huquq sohasi liberallashtirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu keltirilgan liberallashtirish jarayonlarini yanada kengroq tahlil qilamiz.

Mustaqillik yillarda ushbu sohada amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilinar ekan, mamlakatimiz rahbari quyidagilarga alohida e’tibor berdi: "...jinoyatlarning tasnifi o‘згартirildi. Buning natijasida og‘ir va o‘ta og‘ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган va uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar toifasiga o‘тkazildi". Darhaqiqat, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2001-yil 29-avgustda kiritilgan o‘згартirish va qo‘srimchalarga ko‘ra jinoyatlarning tasnifi tubdan qayta ko‘rib chiqilib, ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган va uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar doirasi bir muncha kengaytirildi. Ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiritilgan bo‘lsa, uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiritildi. Hozirgi vaqtida JKda 490 dan ortiq jinoyat tarkibi mavjud bo‘lib, shulardan 45,7% ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyatlar, 23,9% – uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyatlar, 19,4% – og‘ir jinoyatlar va 11% – o‘ta og‘ir jinoyatlardir.

"Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo‘yicha ozodlikdan mahrum etish jazolari o‘rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo‘llash imkoniyati ancha kengaytirildi... Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo

qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi". O'tkazilayotgan islohotlar natijasida, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan moddiy zarar qoplanganligi uchun aybdor shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lman jazolar tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Jamiyat rivojlanib borar ekan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar, yangicha andozalar vujudga keladi. Shular qatorida davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati va jinoyat qonunida ham bu o'zgarishlar, yangilanishlar o'z aksini topib boradi. Albatta, qonunchilik o'zgaruvchan, ta'sirchan hodisa bo'lib, jamiyatdagi ijobjiy o'zgarishlar birinchi navbatda qonun hujjalardan o'z ifodasini topishi lozim bo'ladi. Aks holda, qonunlar jamiyat hayotini tartibga soluvchi ahamiyatini yo'qotib, uning rivoji uchun to'siq bo'lib qoladi.

Aytish mumkinki, 2001, 2016-2021-yillarda sud-huquq islohotlari, shu jumladan, jinoyat qonuning takomillashuvi, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatining rivoji uchun tub o'zgarishlar yasalgan davr bo'ldi.

Eng ahamiyatlisi, 2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi<sup>15</sup>.

Birinchi navbatda, rivojlangan demokratik mamlakatlarda qo'llanib kelinayotgan tamoyillar va talablarga javob beradigan mezonlar asosida huquqbuzarlik va jazo tizimini qayta ko'rmb chiqishimiz zarurligi asoslab berildi<sup>16</sup>.

Ushbu vazifani bajarish jarayonida asosiy e'tibor iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan normalarga qaratildi.

Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan qonun hujjalari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi natijasida jinoiy qilmishlarni dekriminalizatsiya qilish borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi.

Mazkur qonunning mohiyati inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, unda avvalambor shaxsni jazolash emas, balki tarbiyalash nazarda tutiladi. Bu qonun xalqaro huquq normalariga mosligi bilan ham ahamiyatlidir<sup>17</sup>.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001 yil. №9-10. 165-modda.

<sup>16</sup> Karimov I.A. Adolat - qonun ustuvorligida. // Xalq so'zi gazetasi, 2001 yil 30 avgust.

<sup>17</sup> Rustamboyev M.H. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga ko'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga sharhlari. – Toshkent, 2001. –B.6.

Ushbu qonunga binoan 110 turdag'i uncha og'ir bo'lman jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyatlar toifasiga o'tkazildi va ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyatlar soni 196 taga yetdi. Bu Jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan jami 460 ta jinoyat tarkibining 42,8 foizini tashkil etdi.

Jinoiy jazolar liberallashtirilgandan so'ng ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyatlar toifasiga quyidagi uch turkumga kiruvchi qilmishlar kiritildi:

1) jinoyat qonunida ozodlikdan mahrum qilishdan ko'ra yengilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar;

2) qasddan sodir qilganligi uchun qonunda uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar;

3) ehtiyyotsizlikdan qilingan jinoyat uchun qonunda besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyatlar doirasining kengaytirilishi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan ozod qilinishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi ham ancha kengaydi.

Liberallashtirish munosabati bilan o'n ikki turdag'i jinoyatlar og'ir toifadan uncha og'ir bo'lman jinoyatlar toifasiga, yetti turdag'i o'ta og'ir jinoyatlar esa og'ir toifadagi jinoyatlar turkumiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi uncha og'ir bo'lman jinoyatlar doirasi qat'iy qilib belgilab qo'yildi. Qonunga o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng qasddan sodir etilib, jinoyat qonunida uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lman muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan, bundan tashqari ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlar uncha og'ir bo'lman jinoyatlar toifasiga kiritildi.

Qilmishni uncha og'ir bo'lman jinoyat deb hisoblash uchun, sodir etilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lman jinoyatlar turkumi doirasida bo'lsa, sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi muddatining ahamiyati yo'q. Ikki yoki undan ortiq uncha og'ir bo'lman qasddan qilingan jinoyatlar uchun hukm qilinib, tayinlangan jazo muddati besh yildan oshib ketgan taqdirda ham aybdorga nisbatan uncha og'ir bo'lman jinoyat sodir qilganlik uchun qo'llaniladigan barcha qoidalar tatbiq etiladi<sup>18</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatini buzishga oid 182-moddasiga, soliq va boshqa to'lovlarini to'lashdan bosh tortish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan 184-moddasiga o'zgartirish kiritilib, ma'muriy preyuditsiya o'rnatildi. Endi mazkur harakatlarni og'irlashtiruvchi holatlarsiz birinchi marta sodir etgan shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

<sup>18</sup> Rustamboyev M.H. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga sharhlari. – Toshkent, 2001. –B.9.

Yuqoridagilardan tashqari, JKning 167, 168, 170, 175, 184, 202-moddalariga jinoyat oqibatida yetkazilgan zararlar tegishli tartibda aybdor tomonidan qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jazo turi qo‘llanilmasligi haqidagi qoida kiritildi. Ushbu qoida o‘zining quyidagi ijobiy xususiyatlariga ega:

- a) jinoyat qonuni Maxsus qismi moddalariga ilk marotaba jabrlanuvchiga jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni o‘z vaqtida qoplanishini ta’minlashga karatilgan qoida kiritildi;
- b) aybdor shaxs ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga tortilmaslik maqsadida sodir etgan jinoyatining oqibatdarini ixtiyoriy ravishda bartaraf etishga harakat qiladi va bu holat uning to‘g‘ri xulosa chiqarib olishi uchun yaxshigina imkoniyat yaratadi;
- v) residiv jinoyatlarning oldini olishga ham samarali ta’sir etadi;
- g) jinoyatchilikning umumiy profilaktikasida ham shu turdagи jinoyatni sodir etishga moyil shaxslar uchun ijobiy ogohlantiruvchi vazifasini bajaradi;
- d) yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan fuqarolik da’vosi berilishi va sud tomonidan ko‘rilishi uchun, ijro harakatlari uchun qilinadigan qo‘shimcha harajatlarning oldi olinadi.

Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan qabul qilingan qonunga ko‘ra JKning terrorizm uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan 155-moddasi quyidagi rag‘batlantiruvchi norma - to‘rtinchи qism bilan to‘ldirildi: “Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsnинг harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi”.

Qayd etilganlardan tashqari, jinoyat qonuniga ilk marotaba yarashuv instituti kiritilganligi (JKning 66<sup>1</sup>-moddasi) va uning 26 turdagи jinoyatlarga nisbatan tatbiq etilayotganligi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur yarashuv instituti rivojlangan xorijiy davlatlar sud-tergov amaliyotida samarali qo‘llanilmoqda. Masalan, Amerika Yuristlar Uyushmasining ma’lumot berishicha, AQSh davlatida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan sud-tergov ishlarining qariyb 90 % mana shu jarayon bilan yakunlanadi. Albatta, yarashuv instituti jinoiy qilmishlarni dekriminalizatsiya qilishning tarkibiga kirmasada, lekin depenalizatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida kelajakda dekriminalizatsiyani amalga oshirish uchun muhim sharoit yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun to‘rtta shartning mavjudligi talab qilinadi. Ular quyidagilardir:

- 1) shaxsnинг O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 66<sup>1</sup>-moddasida

sanab o‘tilgan jinoyat turini birinchi marta sodir etganligi;

- 2) jinoyat sodir qilgan shaxsning o‘z aybiga iqrorligi;
- 3) jabrlanuvchi bilan yarashganligi;
- 4) yetkazilgan zararning qoplanganligi.

Shuni e’tiborga olish lozimki, agar shaxs bir nechta jinoyat sodir etgan bo‘lib, ulardan biri Jinoyat kodeksining 66<sup>1</sup>-moddasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ishning shu qismiga nisbatan yarashuv institutini qo‘llash mumkin. Albatta, yarashuv instituti jinoyat qonunchiligiga yangilik sifatida endi kiritildi va unda ayrim kamchiliklar mavjud bo‘lishi tabiiy holdir. O‘ylaymizki, ushbu kamchiliklar xorijiy davlatlar tajribasini o‘rgangan holatda va yarashuvning amaliyotda qo‘llanishini tadqiq etgan holda bartaraf etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yarashuv institutini kiritilishi o‘zining quyidagi ijobiy xususiyatlariga ega:

a) yarashuv instituti o‘zida ko‘proq erkin demokratik jamiyat belgilarini mujassam etadi;

b) sodir etilgan jinoyatning tezroq fosh etilishi va ijtimoiy xavfli oqibatlarining bartaraf etilishida ayblanuvchi shaxsning faolligini oshiradi. Bu esa uning xulqiga ijobiy, tarbiyaviy ta’sir etib, kelajakda yangi jinoyatlar sodir etishining oldini oladi;

v) jinoyatning tezda fosh etilib, yetkazilgan zararning o‘z vaqtida qoplanishi fuqarolarda qonun ustuvorligi va qonunning kuchiga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlaydi;

g) jinoyat ishlarini yuritish jarayoniga o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda jamoatchilikning ishtirok etishini ta’minlab, ularning jinoyatchilik oldini olishdagi rolini oshiradi.

Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi bilan amalga oshirilgan yangiliklardan yana biri jinoyat qonuniga o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligi haqidagi qoidaning kiritilishi hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan bo‘lsa, uning qilmishi jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinib, har ikkala jinoyati uchun qat’iy jazo tayinlangan taqdirda, sud tomonidan tayinlangan jazo muddati uch yildan oshganda ham ularga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmaydi<sup>19</sup>.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi”ning “Fuqarolar huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini amalda va ishonchli

<sup>19</sup> Rustamboyev M.H. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga sharhlari. – Toshkent, 2001. –B.22.

himoya qilishni ta'minlash” yo‘nalishida asosiy vazifa sifatida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmanan jinoyatlarning alohida tarkibini bosqichma-bosqich jinoiy yurisdiksiyadan chiqarish siyosatini davom ettirish lozimligi belgilangan bo‘lib, mazkur jarayon dekriminalizatsiya davlat jinoyat-huquqiy siyosatining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishini anglatadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Davlat siyosatida jinoyat-huquqiy siyosat ahamiyati, mohiyati va o‘rnini tahlil qiling.
2. Jinoyat-huquqiy siyosat predmeti va vazifalarini tahlil qiling.
3. Jinoyat-huquqiy siyosat fani metodlarini hamda jinoyat-huquqiy siyosat fanining jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-ijroiya huquqi va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiling.
4. Jinoyat-huquqiy siyosat davlat faoliyat turi sifatida qanday belgilarga ega bo‘lishi lozimligini amaliy misollarda tahlil qiling.
5. Jinoyat-huquqiy siyosatni fan tarmog‘i sifatida ahamiyati va mohiyatini ochib bering
6. O‘zbekiston Respublikasida jinoyat-huquqiy siyosatning shakllanish tarixi hamda rivojlanishini tahlil qiling.
7. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi amalga oshirilgan jinoyat-huquqiy siyosat tavsifini tahlil qiling.
8. Jinoyat-huquqiy siyosatning ahloqiylik prinsipi mazmunini tahlil qiling.
9. Jinoyat-huquqiy siyosatning ilmiylik prinsipini ahamiyati va mohiyatini ochib bering.
10. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qiling.
11. Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qiling.
12. Huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qiling.
13. 2018-yil 14-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3723-son qarorini jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
14. 2018-yil 11-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “**Mamlakatda jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurash holati to‘g‘risida**”gi Qo‘shma qarorini huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
15. Huquqbazarlik nima?

16. Jinoyat-huquqiy siyosat tushunchasi qachondan boshlab qo'llanila boshlagan?
17. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarni shartli ravishda necha bosqichga bo'linadi?

**6-mavzu: Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog'liq huquqiy masalalar**

Reja:

1. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar mazmun-mohiyati.

2. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallahash, ushbu moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish jinoyatini yuridik tahlili.

3. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallahash, saqlash va boshqa harakatlar uchun javobgarlik masalalari.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog'liq huquqiy masalalar.

**Tayanch iboralar:** giyohvandlik vositalari, psixotrop modda, prekursorlar, o'tkazish maqsadini ko'zlab, o'tkazish maqsadini ko'zlamay, korrupsiya, jamoatchilik nazorati, xalqaro reyting

### **Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish jinoyatining yuridik tahlili. (JK 270-moddasi)**

Jinoyatning bevosita ob'ekti sifatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatning assiy turlariga va avvalo muomalada bo'lishi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lган o'simliklarni yetishtirishga bo'lган davlat monopoliyasini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar amal qiladi. Jinoyatning qo'shimcha ob'ekti sifatida aholi salomatligi xavfsizligi amal qilishi mumkin.

Ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bo'lган ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirish JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning predmeti hisoblanadi.

JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomonini taqiqlangan ekinlarni, ya'ni ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lган

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lган ekin yoki psixotrop ekinlar yoki o'simliklarni qonunga xilof ravishda yetishtirayotganligini anglaydi va mazkur harakatlarni amalga oshirishni xohlaydi.

Jinoyatni sodir etish maqsadi aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Jinoyatning motivlari ham har xil bo'lishi mumkin va qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

O'n olti yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs JK 270-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sub'ekti bo'lishi mumkin. Bu xususiy shaxs bo'lishi ham, mansabdar shaxs bo'lishi ham (masalan, qishloq xo'jalik tashkilotlari, korxonalarining rahbarlari) mumkin.

JK 270-moddasining 2-qismida:

- a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'rtacha kattalikdagi ekin maydonida sodir etilgan taqiqlangan ekinlarni yetishtirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 270-moddasining 3-qismida:

- a) o'ta xavfli residivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- v) katta ekin maydonida sodir etilgan taqiqlangan ekinlarni yetishtirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Uyushgan guruh tomonidan taqiqlangan ekinlarni yetishtishrish jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi, chunki rejalashtirilgan qilmishni samarali amalga oshirish va ayni vaqtda shaxs, jamiyat va davlatga zarar yetkazish imkoniyatini oshiradi.

### **Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash jinoyatining yuridik tahlili. (JK 171-moddasi)**

Ayni holda jinoyatning bevosita asosiy obyektini giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bevosita qo'shimcha obyekt sifatida mulkiy manfaatlar, mazkur jinoyat talonchilik yoki bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan taqdirda esa – jabrlanuvchining jismoniy daxlsizligi, uning sog'lig'i amal qiladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar jinoyatning predmeti sifatida e'tirof etiladi. Mazkur vositalar va moddalar qonuniy muomalada bo'lishi ham (tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan dori preparatlari), qo'l bola usulda tayyorlangan va narxi belgilanmagan bo'lishi ham mumkin.

Ko'rsatilgan vositalar va moddalarni firibgarlik bilan qonunga xilof ravishda egallash aybdor aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'z tasarrufiga olgan paytdan e'tiboran tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ko'rib chiqilayotgan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni egallashni qonunga xilof ravishda amalga oshirayotganini anglaydi va shu tarzda ish ko'rishni istaydi.

O'n to'rt yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat subyekti bo'lishi mumkin.

JK 271-moddasi 2-qismida:

- a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan;
- g) talonchilik yo'li bilan;
- d) mansab mavqeini suiiste'mol qilib;
- ye) tamagirlilik yo'li bilan;
- j) ko'p miqdorda sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallahash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallahash aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan jinoyat predmetlarini aybdor ularni o'z foydasiga aylantirish maqsadida o'zlashtirgan (qonunga xilof ravishda o'zida olib qolgan) paytdan e'tiboran yoki aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar rastrata qilingan (sotilgan, iste'mol qilingan, o'zga shaxs foydasiga boshqa har qanday tarzda o'tkazilgan) paytdan e'tiboran tugallangan jinoyat deb e'tirof etiladi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tovlamachilik yo'li bilan qonunga xilof ravishda egallahash jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqtib o'zgadan bu vositalarni (moddalarni) topshirishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini bu vositalarni (moddalarni) berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish amalga oshirilgan paytdan e'tiboran tugallangan jinoyat deb e'tirof etiladi.

JK 271-moddasi 3-qismida:

- a) o'ta xavfli residivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- v) bosqinchilik yo'li bilan sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallahash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

**Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish jinoyatining yuridik tahlili.** (JK 273-moddasi)

Jinoyatning asosiy bevosita obyekti sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar amal qiladi. Qo‘sishma obyekt – aholining sog‘lig‘i.

Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishi – xalqaro-huquqiy darajada va davlat doirasida nazorat ostiga olingan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy xavfli va g‘ayriqonuniy qilmishlar majmui.

Jinoyatning predmeti giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, shuningdek prekursorlardir. Mazkur jinoyatning predmeti haqida batafsilroq JK 270-moddasining tahliliga qarang.

JK 273-moddasini 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek ularni ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o‘tkazishda aks etadi.

Tayyorlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning foydalanish uchun tayyor bo‘lgan hech bo‘lmasa bitta dozasi yaratilgan paytdan e’tiboran tugallangan deb e’tirof etiladi.

JK 273-moddasini 1-qismi ma’nosida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olish deb sotib olishni, boshqa narsa va buyumlarga almashtirishni, qarzga yoki hadyaga olishni, qarzi evaziga olishni, topib olingan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘zlashtirishni, aybdor olgan moddalari narkotik ekanligini bilgan bo‘lsa, yovvoyi holda o‘sayoggan nasha va ko‘knor o‘simliklarini yoki ularning bo‘laklarini, shuningdek tarkibda narkotik bo‘lgan o‘simlik ekinlarining qo‘riqlanmayotgan qoldiqlarini yig‘ib-terib olishni hisoblamoq kerak.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar aybdorning ixtiyoriga amalda o‘tgan paytdan e’tiboran olish tugallangan jinoyat deb hisoblanishi lozim.

Jo‘natish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar har qanday usulda bir joydan ikkinchi joyga yuborilgan paytdan e’tiboran tugallangan jinoyat deb e’tirof etiladi.

O‘tkazish giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar o‘zga shaxs ixtiyoriga amalda o‘tgan paytdan e’tiboran tugallangan jinoyat deb e’tirof etiladi. Bunda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘zga shaxsga topshirish shakli qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar niqobi ostida aybdorga ayon bo‘lgan holda biron-bir o‘zga moddalar o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday harakatlar firibgarlik sifatida JK 168-moddasini bilan, oluvchining harakatlari esa – giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olishga

suiqasd qilish sifatida (JK 25-moddasi 2-qismi va 273-moddasi) kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 273-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat sub'ektiv tomondan to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlayotgani, olayotgani, saqlayotgani va boshqa harakatlar qilayotgani yoki ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazayotganini anglaydi va shunday qilishni istaydi.

O‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat subyekti bo‘lishi mumkin.

JK 273-moddasi 2-qismida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ozginadan ko‘proq miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek ularni ko‘p bo‘lmagan miqdorda qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun javobgarlik belgilangan.

JK 273-moddasi 3-qismida ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash joylarida;
- g) o‘quv yurtlarida yoki o‘quvchilar, studentlar o‘quv, sport va jamoat tadbirlarini o‘tkazadigan boshqa joylarda sodir etilgani uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 273-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni:

1) giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o‘zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishslashda;

2) bunday vositalarni iste’mol qilish yoki tarqatish uchun bangixona-lar tashkil qilish yoki saqlashda;

3) ushbu moddaning ikkinchi yoki uchinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) o‘ta xavfli residivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilganida aks etadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o‘zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishslashdan iborat bo‘lgan jinoyat giyohvandlik vositalari yoki psixotrop

moddalarning foydalanish uchun tayyor bo‘lgan hech bo‘lmasa bitta dozasi yaratilgan paytdan e’tiboran tugallangan deb e’tirof etiladi.

JK 273-moddasi 4-qismi ma’nosida bangixonona deganda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish yoki tarqatish uchun foydalaniluvchi turar joy yoki noturar joy binosi yoki xonasi tushunilishi lozim.

Mazkur jinoyat bangixonani tashkil qilishga bevosita qaratilgan harakatlar boshlangan paytdan e’tiboran, u faoliyat ko‘rsata boshlagan-boshlamaganidan qat’i nazar, tugallangan deb e’tirof etiladi.

Bangixonani saqlash giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish uchun maxsus sharoit yaratilgan xonalarni uchinchi shaxslarga bunday vositalar (moddalar)ni iste’mol qilish yoki tarqatish uchun muntazam ravishda berib turishda namoyon bo‘ladi. Masalan, giyohvandlarni qabul qilish, ularni shprislar hamda giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish uchun boshqa moslamalar bilan ta’minlash va sh.k.

Bangixonani saqlash aybdor bangixonani saqlashga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirgan paytdan e’tiboran tugallangan deb e’tirof etiladi.

JK 273-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyat sub’ektiv tomondan to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlayotgani yoki qayta ishlayotganini yoinki bunday vositalarni iste’mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilayotgani yoki saqlayotganini anglaydi va bunday qilishni istaydi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda sotishdan iborat harakatlar JK 273-moddasi 5-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Sotish deganda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni haq evaziga realizatsiya qilish tushuniladi. JK 273-moddasi 5-qismida nazarda tutilgan jinoyatning tarkibi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar qonunga xilof ravishda sotish kshp miqdorda amalga oshirilgan holdagina vujudga keladi (jinoyat tugallangan deb e’tirof etiladi).

Subyektiv tomondan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda qonunga xilof ravishda sotish ham to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

JK 273-moddasi 6-qismida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar uchun jazodan ozod qilish sharti belgilangan: agar uni sodir etgan shaxs o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi.

**Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishga jalb etish jinoyatining yuridik tahlili.** (JK 274-moddasi)

Jinoyatning asosiy bevosita obyekti sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar bilan muomalada bo'lishning belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar amal qiladi. Qo'shimcha obyekt – jamoat xavfsizligi, aholining sog'lig'i sohasidagi munosabatlar.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatda predmet mavjud emas, chunki jinoyat ob'ekti sifatida amal qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tarkibiga giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar kirmaydi. Giyohvandlik vositalari va qonunda aytilgan boshqa moddalar shunday bir vositalar sifatida amal qiladiki, shaxs ulardan foydalanib muayyan natijaga erishishga – ularni iste'mol qilishga o'zga shaxslarni jalg etishga va shu tariqa ularga qaramlikni rivojlantirishga harakat qiladi.

JK 274-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etishda namoyon bo'ladi.

Subyektiv tomondan JK 274-moddasida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o'zga shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga unatish, aldash, ruhiy yoki jismoniy zo'rlik ishlatish yo'li bilan yoki boshqacha usulda jalb etayotganini anglaydi va ko'rsatilgan shaxs bunday vositalar yoki moddalarni iste'mol qilishini istaydi.

Maqsad va motivlar jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

O'n olti yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs jinoyat subyekti bo'lishi mumkin.

Voyaga yetgan shaxs giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan taqdirda qilmish JK 127-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

O'n olti yoshga to'limgan bir voyaga yetmagan shaxs boshqa voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-idrokka ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etgani JK 274-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinmog'i darkor.

Motiv va maqsad aybning mazmunini belgilaydi, ya'ni o'tkazuvchi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazar ekan, shu tariqa ularni iste'mol qilishga o'zga shaxsni jalb etishni emas, balki ko'rsatilgan vositalar yoki moddalarni realizatsiya qilishni va bundan moddiy foyda olishni ko'zlaydi. Ammo jalb etish haq evaziga o'tkazish bilan birga amalga oshirilgan taqdirda jinoyatlar majmui mavjud bo'ladi. Giyohvandlik vositalarini o'zga shaxsga

mehmon qilish tariqasida tekinga berish (o'tkazish) yuz bergan va bu vaqt jihatidan ularni iste'mol qilishga ishontirish yoki majburlash (jalb etish) bilan mos kelgan taqdirda ham qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 274-moddasi 2-qismida:

- a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida;
- v) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

**Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish jinoyatining yuridik tahlili.** (JK 275-moddasi)

Jinoyatning asosiy bevosita ob'ekti sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni ishlab chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi davlat korxonalari, tashkilotlar, muassasalarining normal faoliyatini ta'minlash sohasidagi munosabatlар amal qiladi.

Qo'shimcha obyekt – aholi sog'lig'i xavfsizligi.

Jinoyatning predmeti giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardir.

JK 275-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalarini buzish bilan tavsiflanadi.

Jinoyat giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalari buzilgan paytdan e'tiboran, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergani yoki yuz berish xavfi yaratilgani (masalan, bu moddalar qonunga xilof muomalaga kiritilgani) dan qat'i nazar, tugallangan deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomonidan bu jinoyat qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalarini buzgan shaxs faqat u mavjud Qoidalar bilan tanish bo'lgan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi.

O'ziga topshirilgan ish yuzasidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning belgilangan qoidalariga rioya etishga majbur bo'lgan, o'n olti

yoshga to‘lgan mansabdar va o‘zga shaxslar ko‘rib chiqilayotgan jinoyat sub’ekti bo‘lishi mumkin.

**Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallahash, saqlash va boshqa harakatlar jinoyatining yuridik tahlili.** (JK 276-moddasi)

Jinoyatning asosiy bevosita obyekti sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi sohasidagi ijtimiy munosabatlar amal qiladi. Qo‘sishimcha obyekt – aholi sog‘lig‘i xavfsizligi.

Jinoyatning predmeti giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardir.

Mazkur tushunchalar mazmuni haqida batafsilroq JK 270-moddasi tahliliga qarang.

JK 276-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning ob’ektiv tomonini giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallahash, tashish yoki jo‘natish tashkil etadi.

Bu qilmishlar tushunchasining mazmuni JK 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining tahlilida yoritilgan.

Sub’ektiv tomondan mazkur jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs o‘zi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallahash, tashish yoki jo‘natishni amalga oshirayotganini anglaydi va bunday qilishni istaydi.

O‘n olti yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat sub’ekti bo‘lishi mumkin.

JK 276-moddasi 2-qismida:

a) ko‘p miqdorda;

b) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallahash, tashish yoki jo‘natish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 276-moddasi 3-qismida quyidagi mazmundagi rag‘batlantiruvchi norma mustahkamlangan: “Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi”.

## **Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog‘liq huquqiy masalalar**

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobjiy obro‘sini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini xolis va xaqqoniy baholashni ta’minlash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli xamkorlik aloqalarini o‘rnatish, ularning ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha bergen tavsiyalari va xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ijobjiy tajribasini o‘rganish, tegishli ma’lumotlar bazasini shakllantirish, davlat xizmatchilarining xalqaro reytinglar metodologiyasini qo‘llash bo‘yicha dunyoqarashini shakllantirish zaruratini inobatga olgan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini yaratish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashdan iborat.

“Transparency International”ning 2019-yildagi hisobotida nazorat institutlariga kuchli siyosiy ta’siri, sud xokimiyatining mustaqil emasligi va matbuot erkinligining cheklanganligi mintaqadagi ko‘plab mamlakatlarda hokimiyatning haddan tashqari kuchayishiga olib kelgani ta’kidlangan.

Tashkilot ekspertlari fikricha “agar siyosiy rahbarlar ijtimoiy manfaatlarga ustuvor ahamiyat berib, shaffoflik namunasini ko‘rsatsalar, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin”.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, reytingni yuritishdan ko‘zlangan asosiy maqsad baholanadigan mamlakatlarning siyosiy va huquqiy tizimlarining korrupsiyaga nisbatan sezuvchanlik (qabul qilish) darajasini sifatli va miqdoriy ma’lumotlar asosida aniqlashdan iborat.

Shu bilan birga, mamlakatni baholash bo‘yicha maqsadlar quyidagilardan iborat:

- davlat boshqaruvi sifatini baholash, korrupsiyaga moyil bo‘lgan joylarni aniqlash, biznes tuzilmalar faoliyatiga davlat aralashuvining darajasini aniqlash, korrupsiyaga qarshi amaliyotlar to‘g‘risidagi axborotning mavjudligini ta’minlash;

- sarmoyadorlarga iqtisodiy va siyosiy xavflar, qonun ustuvorligi to‘g‘risida axborot berish;

- jamoatchilikni, mansabdor shaxslarni korrupsiyaviy jinoyatlarga bo‘lgan moyillik darajasini aniqlash, aholining davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchini aniqlash;

- siyosiy barqarorlik sohasida vaziyatni tahlil qilish, huquq tizimining samaradorligi, sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirda O‘zbekiston Respublikasining “Transparency International” “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” xalqaro

reytingidagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning huquqiy poydevori yaratilmoqda.

Jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish, milliy qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4210-son Farmoni qabul qilingan.

Farmonda sohadagi dolzarb masalalarni bosqichma-bosqich bartaraf etib borish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi qayd etilgan. Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishslashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, maqsadida 2020-yil 2-iyunda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash xamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizrini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonga asosan Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta’minlash, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish;

- O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash maqsadida davlat xokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish,

- jamiatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish;

- davlat va jamiat xayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy xujjatlar va ularning loyihibalarini O‘zbekiston

Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatning o‘rniga ta’siri nuqtai nazaridan kompleks baholab borish.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning barcha omillarini oldini olish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”, “Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida”, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2752-son, 27.05.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5729-son qarorlari kamda boshqa dasturiy hujjatlar ushbu yo‘nalishdagi tadbirlarning huquqiy asoslari hisoblanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilishi hamda uni korrupsiyaning darajasini baholovchi Korrupsiyani qabul qilish milliy indeksini tuzishga masul etib belgilanishi bu boradagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab berdi.

Farmon bilan, Agentlikka Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “Pul xaritasi” ishlab chiqilishini hamda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashiga kiritilishini ta’minlash vazifasi yuklatildi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida so‘nggi to‘rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamrarmasining “Iqtisodiy erkinlik” indeksida 52 pog‘onaga, Juhon bankining “Logistika samaradorligi” indeksida 19 pog‘onaga, “Biznes yuritish” indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash” tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko‘tarildi.

2020-yil 23-yanvarda xalqaro “Transparency International” korrupsiyaga qarshi tashkiloti 2019-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston reytingdagi 180 o‘rindan 153-pog‘onani egallab, 2018-yildagiga nisbatan 5 ta o‘ringa yuqoriladi. Umuman olganda, 19 davlatni o‘z ichiga olgan Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi 100 balldan 35 ball to‘pladi. Faqat uchta davlat — Gruziya (56 ball), Belarus (45) va Chernogoriya (45) dunyo bo‘yicha

o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori natijani qayd etdi. Mintaqadagi davlatlarning ko‘rsatkichlari Turkmaniston 19, O‘zbekiston va Tojikiston 25 tadan belgilangan.

Dunyoda 2019-yilda 180 mamlakatning uchdan ikki kismidan ko‘prog‘i o‘rtacha 50 dan kam ball to‘plagan (o‘rtacha 43 ball). Reytingda birinchi o‘rinni 87 ball bilan Yangi Zelandiya va Daniya egalladi. Undan keyin Finlyandiya (86), Singapur (85), Shvesiya (85) va Shveysariya (85) bormoqda.

Reytingdagi sunggi poronalarini esa 9, 12 va 13 ball bilan Somali, Janubiy Sudan va Suriya egallab turibdi. 2012-yildan boshlab “Transparency International” reytingida faqat 20 mamlakat, jumladan Estoniya va Kot-d’Ivuar sezilarli darajada yaxshilangan bo‘lsa, 16 mamlakat reytingi, jumladan Avstraliya, Malta va Chili ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda pasaygan. O‘zbekiston ko‘rsatkichlari

6 pog‘onaga ko‘tarilgan. Sobiq Ittifoq mamlakatlari hisoblangan MAH davlatlari orasida 2020 yilga qadar Armaniston - 42/77 (+7), Estoniya - 74 ball/18, Litva - 60/35 (-1), Latviya - 56/44 (-3), Gruziya - 56/44 (-2), Belarus - 45/66 (+1), Moldova - 32/120 (-1), Ukraina - 30/126 (-2), Qozog‘iston - 34/113 (+3), Qirg‘iziston - 30/126 (+1), Rossiya - 28/137, Ozarbayjon - 30/126 (+5), Tojikiston - 25/153, O‘zbekiston - 25/153 (+2), Turkmaniston - 19/165 (-1)da o‘sish kuzatilgan. Armaniston, Estoniya, Litva, Latviya, Gruziya va Belarus davlat boshqaruv tizimidagi tizimli o‘zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ma’lumotlarni oshkor qilish, sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, davlat xizmatchilarining maqomini belgilash va boshqalar tufayli ushbu natijalarga erishishga muvaffaq bo‘ldi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlardan AQSh reytingi o‘tgan yilga nisbatan 69 ballni tashkil etdi - bu sakkiz yil mobaynida AQShdagi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida samaradorlikni oshirish maqsadida davlatimizda bir qator institutsional o‘zgarishlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi tomonidan 2020 yil 13 iyulda Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejali tasdiqlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 12 yo‘nalish bo‘yicha 96 amaliy choralarini qamrab oladi. Siyosiy-huquqiy sohada ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2 yo‘nalish bo‘yicha 131 amaliy choralarini qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasini “Transparency International” xalqaro nodavlat tashkilotining “Korruptsiyani qabul qilish indeksidagi o‘rnini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, maqsad

va vazifalar, korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash, xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi tavsiyalarni inobatga olgan holda milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadbirlarning bajarilishi ustidan monitoringni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Indeksning manbasi quyidagi 6 ta xalqaro tashkilotlarining ma'lumotlari asosida shakllatiriladi:

1. Bertelsmann Roipbaopning - O'zgarishlar indeksi;
2. Economist Intelligence ning - EIU davlat baxosi;
3. Freedom Housening - O'tish davridagi mamlakatlar reytingi;
4. Jahon bankining - Mamlakat siyosati va institutsional baholash indeksining - CPIA (Mamlakat siyosatini tushunish va institutsional baholash);
5. World Justice ProjecHT - Qonun ustuvorligi indeksi;
6. Varieties of Democracy Rgsning - Demokratik islohotlar indeksi.

Tahlillar, mazkur reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash uchun, eng avvalo, respublikada inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, xususan xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash va aybdor mansabdon shaxslarni javobgarlikka tortgan holda jazo muqarrarligini ta'minlash, korrupsiyaga, ayniqsa maishiy korrupsiyaga qarshi kurash tizimlari samaradorligini oshirish, shuningdek xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan mustahkam aloqalarni o'rnatib, pirovardida respublikada olib borilayotgan islohotlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan o'zaro samarali ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatmoqda (masalan Freedom House "Korrupsiyani tiyib turish" indeksi bo'yicha O'zbekistondagi vaziyatni "0" ballga baholagan).

Davlatda o'tkazilayotgan saylovlarining oshkora ravishda tashkil etilmaganligi, olib borilayotgan islohotlarga nodavlat sektorni keng jalg etilmaganligi, davlat idoralarida hanuzgacha o'z xukmronligini surib kelayotgan tanish-bilishchilik rishtalari, so'z erkinligini qattiq nazoratga olinganligi, shaxsiy mulk daxlsizligi davlat tomonidan yetarli darajada kafolatlanmaganligi O'zbekiston o'rnini yaxshilashga tuganoq bo'lib turgani xalqaro indekslarda o'z aksini topmoqda.

Indeksning maqsadi baholanadigan mamlakatlarning siyosiy va huquqiy tizimlarining korrupsiyaga nisbatan sezuvchanlik darajasini sifatli va miqdoriy ma'lumotlar asosida aniqlash va mamlakatning investitsion jozibadorligi to'g'risida o'zining xulosasini berishdan iborat.

Yuqoridagi qayd etilgan mezonlardan tashqari, mamlakatlar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ham baholanadi:

- jamoatchilikni, mansabdar shaxslarni korrupsiyaga oid jinoyatlarga bo‘lgan moyillik darajasini va aholining davlat muassasalariga bo‘lgan ishonchini aniqlash;
- xokimiyatning yuqori qatlamlarida korrupsiyaning tarqalishi va xukumatning barcha darajalarida maishiy korrupsiyaning mavjudligi;
- mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va korrupsiyaning unga ta’siri;
- import va eksport ruxsatnomalari, davlat shartnomalari, kommunal xizmatlar, soliqlarni baholash va sud qarorlari bilan bog‘liq tartibsiz to‘lovlarning mavjudligi;
- davlat xizmatida nepotizm, kronizm, favoritizm, lobbizm, proteksionizm va boshqa salbiy korrupsiya omillar tarqaganligi;
- korxonalarining soliq va boshqa to‘lovlardan tashqari, yillik daromadining ulushi sifatida poraxo‘rlikning taxminiy qiymati;
- mansabdar shaxslar, chegara va bojxona nazoratchilari, soliq organlari, sudyalar va boshqa davlat xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyaga moyillik darjasи;
- davlatning korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, siyosati va institutlarining sifati va samaradorligi;
- siyosatchilarining moliyaviy holati to‘g‘risida jamoatchilikning ishonchi;
- mahalliy darajada qaror qabul qilish va axborotni oshkor qilishda hisobdorlik va oshkorali kni ta’minalash uchun qaratilgan jarayonlar tashkil etilganligi;
- davlat organlari korrupsiyaning tarqalishini kuzatib borishi va jazolarni shaffof tarzda qo‘llanishi;
- davlat xizmatchilarining manfaatlar to‘qnashuvi va kasb odobi qoidalariiga rioya qilinishi;
- davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkni deklaratsiya qilish tizimi joriy etilgani va jamoat, ommaviy axborot vositalari bundan xabardor bo‘lishi;
- yuqori lavozimdagi xukumat mansabdar shaxslari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklari uchun jazoning muqararligi;
- korrupsiyadan jabrlanganlarni o‘z huquqlarini himoya qilish uchun yetarli mexanizmlar mavjudligi;
- soliq ma’muriyatida samarali ichki audit tizimini shakllanganligi;
- budjet jarayonining shaffofligi va asoslanganligi;
- davlat xaridlaridagi shaffoflik, erkin raqobat ta’milangan;
- korrupsiya holatlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchilarning huquqiy himoyasi ta’milanganligi;
- milliy va mahalliy darajada korrupsiya jinoyatlarini tergov qilishda bosim mavjud emasligi;

- ro'yxatdan o'tish jarayonlarida korrupsiya omillari va byurokratik to'siqlar mavjudligi;

- fuqarolar davlat xarajatlari to'g'risida ma'lumot olish huquqiga egaligi.

Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining xalqaro indekslardagi o'rmini yaxshilash xalqaro maydonda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

Korrupsiya omillari tahlili quyidagilarni ko'rsatdi.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash tizimini yaratish uchun, avvalambor, uning zamonaviy sharoitda namoyon bo'lishiga yordam beradigan asosiy omillar (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy va boshqa)ni aniqlash zarur.

Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sohaga oid qonunlarning nomukammalligi, normalarning qonunga nisbatan qo'llanilganda,

ko'pincha korrupsiyaga oid huquqburzaliklarni sodir etish uchun shart-sharoit yaratadigan holatlarning mavjudligi (yurisprudensiyani yaxshi bilmagan fuqarolarga bunday qonun-qoidalarini to'g'ri tushunish va talqin qilish kiyin);

- davlat va korporativ boshqaruvning yetarlicha shaffof va ochiq emasligi (boshqaruv organlari qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni, eng avvalo fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga taallukli qarorlar qabul qilinganda);

- korrupsiya xavf-xatarlari mansabdar shaxslarning davlat xizmatlarini ko'rsatishda jamoatchilik bilan bevosita aloqasi bilan borlik bo'lib qolmoqda;

- aholining, shu jumladan davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi pastligi (mazkur vaziyat noplari xodimlarning egallab turgan vazifalaridan g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanishga imkon beradi);

- fuqarolar xulk-atvorining korrupsiyaga qarshi modelini va korrupsiyaga qarshi jamoatchilik muhitini shakllantirish bo'yicha keng kamrovli va yo'naltirilgan axborot ishining yetarli darajada emasligi;

- davlat xizmatchilarining ayrim toifalari uchun to'lanadigan ish haqining va davlat xizmatidagi ijtimoiy kafolatlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi.

Qayd etilgan omillarni hisobga olgan xolda, qisqa muddatga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatdan ko'zlangan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat bulmog'i darkor.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida institutsiyaviy halollik tizimini rivojlantirish va lobbizistik harakatlarni huquqiy tartibga solish.

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish borasida xorijiy davlatlar amaliyoti ushbu sohada maxsus va mustaqil vakolatli organlar tashkil etilishi va ularga keng vakolatlar berilishini ko'rsatadi.

Masalan, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlariga ega ko‘p maqsadli agentliklar (Gonkong, Singapur, Latviya, Kozoriston), huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilmalar (Belgiya, Vengriya, Ispaniya, Litva, Norvegiya, Xorvatiya) hamda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi, siyosatni belgilovchi va ushbu sohada muvofiqlashtirish funksiyasini bajaruvchi institutlar (Fransiya, Makedoniya, Albaniya, Malta, Serbiya, Chernogoriya, Hindiston) vakolatiga ega tuzilmalar ko‘rinishida faoliyat yuritadi.

Mazkur organlar mustaqil, ixtisoslashgan, maxsus vakolatga ega hamda mutanosib resurslarga ega bo‘lishlari shart.

Vakolatli organlar korrupsiyaga qarshi siyosatni, tahlil va tadqiqot ishlarini olib borish, korrupsiyani oldini olish samaradorligini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, ta’lim berish, tergov qilish va jinoiy ta’kib qilish bilan shug‘ullanib boradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy tizimlar samaradorligini oshirish, xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy koordinatorlarning o‘zaro hamkorligi, barcha darajadagi davlat organlari, shuningdek, mahalliy davlat xokimiyyati organlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Ayrim davlatlarda bu masalaga qaratilgan maxsus qonunlar qabul qilingan. Moldova “Institutsiyaviy halollik to‘g‘risida”gi Qonunida (2017-y.) har bir davlat idorasi o‘zining korrupsiyaga ko‘proq moyil bo‘lgan sohalarni aniqlash, xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish tizimini tashkil etish belgilangan.

Qozog‘istonda korrupsiyaviy holatlarini oldini olishda davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash yuzasidan KPI tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari bir qator xorijiy davlatlarda korrupsiyaviy harakatlarni oldini olishda “Lobbistik faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlarning ahamiyati muhim hisoblanadi. Bugungi kunga kelib 20 dan oshiq davlatlarda shunday qonunlar qabul qilingan.

2. Davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilish tartibini joriy etish. Daromadlar deklaratsiyasi tizimining umumiy maqsadi asossiz daromad olishning oldini olish va manfaatlar

to‘qnashuvini bartaraf etishdan iborat bo‘lib, davlat xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyani oldini olishning vositasi hisoblanadi. Mazkur talab BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, IXTTning davlat xizmatchilari aktivlarini deklaratsiya qilish (2011 y.) kabi xalqaro normalarida mustahkamlangan.

Xizmatchilar daromadlarini deklaratsiya qilish dastlab Buyuk Britaniyada (1974 y.), AQShda (1977 y.), Italiya va Ispaniyada (1982-y.) qabul qilingan bo‘lib, hozirgi kunda dunyoning 150 dan ortiq davlatlarida mavjud.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar aks ettirilganligini ko‘rish mumkin:

- a) daromadlar hajmi (ish haqi, gonorarlar, foizlar, dividentlar, mulkni sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan daromadlar, sug‘urta pullari, lotereya yutug‘i, meros, pulli sovg‘a va boshqalar hamda ularning aniq manbai);
- b) mol-mulk (ko‘chmas va harakatlanuvchi mulk (transport, kema), qimmatbaxo antikvariat, san’at asari, hayvonlar (Xorvatiya), qurilish mollari (Belarus), qimmatbaho qog‘ozlar, bankdagi omonatlar va naqd pullar);
- v) sovg‘alar, harajatlar, majburiyatlar, daromadlar manbai, boshqa haq to‘lanadigan ish.

Daromadlar deklaratsiyasini taqdim qilmaganlik uchun javobgarlik turlari va qo‘lami:

- jinoiy (AQSh, Gruziya, Italiya, Polsha va Buyuk Britaniya);
- ma’muriy (keng tarqalgan, odatda jarima);
- intizomiy (xayfsan, ish haqini kamaytirish, ishdan bo‘shatish va boshq. (Fransiya, Rossiya);
- fuqaroviylar (deklaratsiya taqdim etmaslik yoki notug‘ri taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lmay, odatda yengillashtiruvchi holatlarda, ya’ni jamiyatga yetkazilgan zarar mavhum bo‘lganda (Latviya), o‘z vaqtida taqdim etilmaganda (Shvesiya, Germaniya) qo‘llaniladi. Korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olishda mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy choralarini qo‘llash keng tarqalgan).

3. Davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaviy huquqbazarliklarni oldini olishga qaratilgan cheklov va ta’qiqlarni qonunchilikda o‘rnatish.

Hozirda mavjud davlat xizmatchilari uchun yagona ta’qiq va cheklovlar o‘rnatilmagan bo‘lib, ular tarqoq holda Mexnat kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 02.03.2016-yildagi “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-son qarori, davlat organlarining intizomiy ustav va qoidalarda nazarda tutilgan.

Qonun darajasida belgilangan ta’qiq va cheklovlarni o‘rnatish tajribasi barcha rivojlangan davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada va boshq.) mavjud bo‘lib, ayrimlarida davlat xizmatchilarining maqomi maxsus qonunlarda belgilangan (Germaniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya). Ularda davlat

xizmatini o'tashning umumiy qoidalari, uni nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolatli organlar maqomi, tanlov asosida ishga qabul qilish, rotatsiya, attestatsiya, kadrlar zahirasini shakllantirish kabi masalalar belgilangan.

Davlat xizmatchilari tomonidan sovg'alar, meros, hadyalar qabul qilishni ta'qiqlash bilan borlik cheklovlarni fuqarolik xizmatini o'tash bilan borliq qonunchilikka kiritish dolzarb masala hisoblanadi.

Deyarli barcha xorijiy davlatlarda va MDHning aksariyat (Belarus, Ozarbayjon, Rossiya, Turkmaniston, Qozog'iston) milliy qonunchiligida davlat xizmatchilariga nisbatan aniq ta'qiq va cheklovlar belgilangan.

Masalan, davlat xizmatchilariga xorijiy davlatlarda hisob-raqamlarni ochish, tadbirkorlik va siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish, qimmatli qog'ozlarga ega bo'lish, sovg'alar, qimmatbaho buyumlarni qabul qilish, xizmat sirini oshkor etish, meros va hadya olish, yaqin qarindoshlarni bir-biriga bo'ysungan holda ishslash, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari bo'lish, kuzatuv kengashlariga a'zo bo'lish, davlat tashkilotlarining moliyaviy, moddiy-texnik ta'minoti vositalarini qonunga xilof ravishda ishlatish, tashkilotni nazorat qilish vakolatiga ega vazifalarni bajarish, qarz olish va x.k.

Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligida davlat xizmatchisi tomonidan qabul qilish mumkin bo'lган sovg'a va hadyalarni aniq miqdori belgilangan (AQSh - 20 AQSh dolları, Fransiya - 35 yevro, Buyuk Britaniyada - 140 funt, Rossiya - 3000 rubl, Kanada - pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilish umuman ta'qiqlangan, Singapur - gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar, mansab, ish va kontrakt, barcha to'lovlar olinishi ta'qiqlangan).

Davlat xizmatini o'tashda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilikka tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslari Mexnat kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish, homiylik to'g'risidagi qonunlarda to'liq hal etilmagan holda aks ettirilgan.

Yevropa davlatlarida davlat xizmatchilarining ishbilarmonlik faoliyati manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi belgilagan. Masalan, Belgiya, Ispaniya, Latviya, Malta, Niderlandiya, Portugaliya, Fransiya kabi davlatlar qonunlarida manfaatlar to'qnashuvi mustaqil jinoyat tarkibini beradi.

Ularda manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uning oldini olish mexanizmlari davlat xizmati to'g'risidagi umumiy qonunlar bilan belgilanadi (Polshada "Davlat xizmati to'g'risida"gi va "Davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishni cheklash to'g'risida"gi Qonunlar, Avstriya va Islandiya – "Davlat xizmati to'g'risida"gi va Jinoyat

kodeksi, “Davlat boshqaruvi to‘g‘risida”gi Qonun, Gresiya — Davlat xizmati to‘g‘risidagi kodeks).

Shu kabi, Sharqiy Yevropa va Sobiq Ittifoqning ayrim davlatlarida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida maxsus qonunlar qabul qilingan (Serbiya, Xorvatiya, Latviya, Moldova, Kirg‘iziston).

Bir qator mamlakatlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan quyidagi choralar mavjud:

- a) qo‘sishimcha faoliyat bilan shug‘ullanishni cheklash;
- b) shaxsiy daromadlar deklaratsiyasi;
- v) oila a’zolarning daromadlar deklaratsiyasi;
- g) shaxsiy mulk deklaratsiyasi;
- d) sovg‘alar deklaratsiyasi;

ye) shartnomani boshqarish bilan borliq shaxsiy manfaatlar to‘g‘risidagi deklaratsiya;

j) qaror qabul qilish yoki ovoz berish bilan borliq shaxsiy manfaatlar to‘g‘risidagi deklaratsiya va siyosatni tayyorlashda yoki maslahat berishda ishtirok etish;

- z) shaxsiy kompaniyalardagi cheklovlar.

4. Korrupsiyaga qarshi maxsus tadbirlarni xususiy sektorga joriy etishga faol ko‘maklashish. Masalan, ichki nazorat choralarini tartib-taomillarini kuchaytirish, davlat xaridlarida ishtirok etish bo‘yicha qat’iy axloq qoidalarini ta’minlash, biznesning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi jamoaviy tadbirlarini rag‘batlantirish, Ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens nazorat” tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish tegishli korruption standartiga muvofiq sertifikatlashtirish tartibini o‘rnatish zarur.

Xususiy sektorda korrupsiyaviy huquqbazarliklarni oldini olishda ichki xavfsizlik va nazorat tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyat idoraviy korrupsiyaga qarshi komplaens xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya) komplaens xizmati vakolatlariga ichki xavfsizlikni ta’minlash, qonun talablariga muvofiqlikni nazorat qilish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish, oldini olish, surishtiruv o‘tkazish hamda javobgarlikka tortish kiradi.

Qozog‘istonning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida (2015 y.) tadbirkorlik sub’ektlari korrupsiyaga qarshi choralarini qabul qilish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, kasb odobiga oid talablarini joriy etish, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida davlat organlari bilan hamkorlik qilishlari belgilangan. Shunga o‘xshash normalar Rossiya qonunchiligidagi xam mavjud.

Xususiy sektorda korrupsiyani oldini olish maqsadida Savdo sanoat palatalar tomonidan anonim elektron tadqiqot o'tkazish tajribasi e'tiborga sazovor. Masalan, Rossiyada 2007 yildan e'tiboran har yarim yilda "Korrupsiya biznes-barometri" deb nomlangan so'rov o'tkaziladi. Tadqiqot mamlakatning 85 ta xududiy sub'ektlarining tadbirkorlari o'rtasida korrupsiya holatlari, qaysi sohada ko'proq to'qnash kelishi, tadbirkorlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashganlik, noqonuniy harakatlar qilganligi, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini cheklashga yoki ularni to'xtatishga sabab bo'lgan asossiz va noqonuniy harakatlar (harakatsizlik), poralarning o'rtacha miqdori kabi savollar bo'yicha o'tkaziladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda bevosita rahbarlarning bo'ysunuvdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaviy jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortish amaliyoti xam e'tiborga sazovor. Ayrim davlatlarda bevosita rahbarlarning bo'ysunuvdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaviy jinoyat sodir etilganligi uchun rahbarni javobgarlikka tortish tartibi mavjud.

5. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida davlat organlariga axborot berish mexanizmlarini takomillashtirish.

Fuqarolarga korrupsiya faktlari to'g'risida davlat organlarini xabardor qilish imkonini beruvchi mobil va boshqa ilovalarni ishlab chiqish, korrupsiya faktlari haqida anonim xabarlarni o'rghanish imkoniyatlari mavjudligi, davlat organlari bilan jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan mahalliy davlat xokimiyati organlarining ishonch telefonlari va Call-markazlari ("tezkor aloqa liniyalari") ish samaradorligi monitoringini ta'minlash, uning natijalarini muntazam nashr etish muhim vazifa hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda keng qo'llanadigan korrupsiyaga qarshi kurashish vositalarini jalb qilish maqsadga muvofiq. Ushbu vositalar davlat xizmatchilarining qonun talablariga rioya etishi, kasb odobi qoidalariga amal qilishi, korrupsiyaviy holatlar to'g'risida xabar berish, davlat budgeti mablag'larini noqonuniy ishlatalishi va boshqa salbiy holatlarni oldini olish maqsadida qo'llanadi. (Masalan, AQSh da - SeeClickFix, Buyuk Britaniyada - FixMyStreet, Vengriyada - K Monitor, Litvada - Manoseimas, Hindistonda - I Paid a Bribe, Keniyada - I Paid a Bribe Kenya, Makedoniyada - Draw a Red Line, Maroqashda - Mamdawrinch, Pokistonda - Citizen Feedback Model, Xitoyda - CCDI Rumyaniyada - Bribe Market, Filippinda - Check My School, Indoneziyada - Lapor onlayn platformalar).

6. Korrupsiyaviy huquqbazarliklarni oldini olishda aholi va davlat xizmatchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda mustahkamlab borish.

Davlat idoralarida (70 dan ortiq) bu borada amalga oshirilgan ishlar davlat fuqarolik xizmatchilarida faoliyatni rejalarashtirish va funksional vazifalarini sifatli bajarishga qaratilgan ko‘nikmalarni egallahsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish, davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy saviyasiga qo‘yilayotgan talablarni hisobga olgan holda, yangi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida davlat fuqarolik xizmatchilariga amaliy ko‘nikmalarini egallah, mavjud bilimlarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Bu borada odil sudlovga oid ta’lim doirasida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish, kasbiy halollik va odob-axloq masalalari bo‘yicha universitet modullari, BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha akademik tashabbusi (ACAD) alohida o‘ringa ega.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish va bajarish jarayoniga aholi va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada ko‘proq jalb qilishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar va qayta aloqani mustahkamlash mexanizmlarini kuchaytirish, ijtimoiy sheriklik doirasida davlat organlari, shuningdek, jamoat kengashlari faoliyatiga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etishning shaffof va obyektiv mezonlariga asoslangan mexanizmlarni belgilash ham zarur.

Xorijiy davlatlarda (Shvesiya, Daniya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Britaniya) bu mexanizmlar nafaqat qonun balki davlat-xususiy sherikchilik asosida mustahkamlangan xamda davlat budgeti mablarlari samarali ishlatilishi ustidan jamoatchilik nazoratini oshirish tizimi yaratilgan.

Bu borada 2016 yilda Ukrainada “Transparency International Ukraina” tashabbusi bilan maxsus jamoatchilik nazorati – “Dozorro” onlayn-platformasi yaratilgan. Platforma 20 dan ortiq xududiy nodavlat tashkilotlarni birlashtirgan bo‘lib, unda davlat xaridlarni o‘tkazish bilan borliq barcha tahliliy raqamli vositalar, xavf-xatarlar ko‘rsatkichlari, ijobiy tajribaga oid hujjatlar joylashtirilgan.

Rossiyada “Transparency International Rossiya” tomonidan “Deklarator” loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihada ommaviy mansabdor shaxslarning daromadlari va mulklari to‘g‘risida ma’lumotlar joylashtiriladi. Fuqarolar va nodavlat tashkilotlari mansabdor shaxslarning deklaratsiyalari haqiqatga muvofiqligi hamda olingan daromadlar qonuniyligini solishtirishadi.

Yuqorida qayd etilgan ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, tegishli tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirilishi mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda davlat hamda jamiyat qurilishining barcha sohalarida korruksiogen omillarga chek qo‘yishga, davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat

xizmatiga xalollik standartlarini joriy etishga, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar bo'yicha korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratishga, pirovardida esa mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidji ni mustahkamlash, xalqaro reyting hamda indekslardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Taqiqlangan yekinlarni yetishtirish qanday harakatlardan iborat?
2. Bunday ekinlarga nimalar kiradi? JK 270-moddasi (Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish)da nazarda tutilgan o'rtacha kattalikdagi va katta ekin maydoni deganda nima tushuniladi?
3. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash qanday usullar orqali amalga oshiriladi? Mazkur jinoyat qachon tugallangan hisoblanadi?
4. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar sirasiga nimalar kiradi? Prekursorlar nima?
5. Shaxsning aql-idrokiga ta'sir yetuvchi boshqa moddalar sirasiga nimalar kiradi?
6. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish deganda nima tushuniladi? Bu tushuncha qaysi jinoiy qilmishlarni o'z ichiga oladi?
7. JK 273-moddasi (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish) bo'yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qanday zaruriy shart mavjud bo'lishi kerak?
8. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish nima?
9. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash nimadan iborat?
10. Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir yetuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb yetish deganda nima tushuniladi? Uning qanday turlari, sodir yetish usullari bor?
11. JK 274-moddasi (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb yetish) uchun jinoiy javobgarlikka tortishning qanday zaruriy shartlari bor?
12. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?

13. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, yegallash, saqlash va boshqa harakatlar nimalardan iborat?

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasini tushuntiring.

15. ISO sertifikati tushunchasi va ahamiyatini tushuntiring.

16. Hozirda O‘zbekiston Respublikasining “Transparency International” “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” xalqaro reytingidagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarning tahlil qiling.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4210-son Farmonini tahlil qiling .

18. 2020-yil 2-iyunda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash xamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli Farmonini tahlil qiling.

19. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonunning mazmun mohiyatini tushuntiring.

20. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” Qonunning mazmun mohiyatini tushuntiring.

21. “Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida” Qonunning mazmun mohiyatini tushuntiring.

22. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun mohiyatini tushuntiring.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2752-son va 27.05.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5729-son qarorlarini mazmun mohiyatini tushuntiring.

## **7-mavzu. Surishtiruv va dastlabki tergovning umumiy shartlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

REJA:

1. Surishtiruv o‘tkazish shartlari.
2. Dastlabki tergovning umumiy shartlari tushunchasi va tasniflanishi.
3. Surishtiruv o‘tkazish tartibi, surishtiruvning boshlanishi va surishtiruv yuritish muddati.
4. Dastlabki tergovning alohida shakli sifatida surishtiruv o‘tkazishning xususiyatlari.
5. Dastlabki tergovning subyektlari va ularning vakolatlariga taalluqli umumiy shartlar.
6. Protsessning boshqa ishtirokchilariga taalluqli umumiy shartlar.
7. Surishtiruvni to‘xtatish va tamomlash.

**Tayanch iboralar:** Jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv, tergovga tegishlilik, dastlabki tergovning umumiy shartlari, maxsus tergovga tegishlilik, muqobil tergovga tegishlilik.

Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv o‘tkazishning o‘ziga xos muayyan shartlari bo‘lib, ularni ikkiga ajratish mumkin: moddiy-huquqiy va protsessual.

1. Surishtiruvning moddiy-huquqiy shartlariga ko‘ra, u faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyatlar bo‘yicha, ya’ni JPKning 381<sup>2</sup>-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat ishlari bo‘yichagina olib borilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi surishtiruv instituti 2017-yil 6-sentabrdagi O‘RQ-442-son “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi-ning ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingunga qadar dastlabki tergovning boshlanish bosqichi sifatida o‘rin egallab, asosiy vazifalari ham shundan kelib chiqqan edi. Ya’ni surishtiruvning vazifalari jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta’minlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat bo‘lgan.

Mazkur qonun qabul qilinishi bilan surishtiruv institutining mazmun-mohiyati o‘zgarib, jinoyat ishini tergov qilishning alohida shakliga aylandi. Surishtiruv ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган va tergov olib borish murakkab bo‘lмаган jinoyat ishlari bo‘yicha o‘tkaziladi va jinoyat ishini tergov qilib sudga oshirishning tezlashtirilgan va soddalashtirilgan shakli hisoblanadi. O‘z o‘rnida bu dunyo miqyosida jinoyat-protsessual qonunchilik rivoji zamonaviy

tendensiyasining namoyon bo‘lishidir. Chunki, tergovni tezlashtirish shaxs huquq-manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan xalqaro huquqning muhim qoidalaridan biri bo‘lgan “o‘z ishining sudda chiqilish huquqi”ning (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 14-moddasi 3-qismi “s” bandi) ro‘yobga chiqaradi.

Surishtiruv shaklida tergov olib borishning tergovga tegishliligi bo‘yicha JKning moddalari asosida tasniflashda ham qonun chiqaruvchi surishtiruv organlarining asosiy faoliyati nimaga qaratilganligiga e’tibor qaratadi. Xususan, surishtiruv organlaridan biri bo‘lmish Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi bo‘linmalarining asosiy vazifalari soliq, valyuta va moliya-iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘lganligi sababli JKning 177-moddasi (Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish), 179-moddasi (Soxta tadbirkorlik), 183-moddasi (Raqobat va tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish), 1841-moddasi (Budget va smeta-shtat intizomini buzish), 189-moddasi (Savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish), 190-moddasi (Faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish), 191-moddasi (Qonunga xilof ravishda axborot to‘plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), 192-moddasi (Raqobatchini obro‘sizlantirish) kabi moddalarda ko‘rsatilgan jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv shaklida tergov olib borib, jinoyat protsessining sudgacha bosqichida jinoyat ishini mazmunan hal qiladilar. Xuddi shu kabi qolgan 3 ta surishtiruv organiga ham o‘zlarining asosiy vazifa va faoliyatları bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv shaklida tergovni olib borish tegishli qilib berilgan.

Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatning ijtimoiy xavfilik darajasidan kelib chiqib garchi u surishtiruv organlarining asosiy faoliyatları bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu jinoyat ishlari bo‘yicha tergovni dastlabki tergov shaklida olib borishni belgilaydi. Jumladan, JKning 184-moddasida ko‘rsatilgan soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovslash jinoyati bo‘yicha moddaning birinchi va ikkinchi qismlari bo‘yicha, ya’ni jinoyat ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lib, ma’muriy jazo qo‘llangandan keyin ro‘y bergen va jinoyat takroran yoki ko‘p miqdorda sodir etilgan holatda tergov surishtiruv shaklida olib borilsa, moddaning uchinchi qismi bo‘yicha, ya’ni jinoyat juda ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, bunda tergov JPKning 345-moddasi bo‘yicha prokuratura tergovchilari tomonidan dastlabki tergov shaklida olib boriladi.

Xorij davlatlarida, jumladan, Rossiya Federatsiyasining Jinoyat-protsessual kodeksida jabrlanuvchining arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi-gan jinoyat ishlari bo‘yicha faqatgina bunday jinoyat ishlari jabrlanuvchi-ning o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyati yo‘q bo‘lgan hollarda prokuror tomonidan

qo‘zg‘atilgan hollardagina olib boriladi. Qolgan hollarda esa jinoyat ishi tergov qilinmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yarashuv sudiga yuboriladi.

2. Jinoyat ishini surishtiruv shaklida tergov qilishning protsessual shartlariga ko‘ra, jinoyat ishini tergov qilish murakkab bo‘lmasligi lozim. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida jinoyat ishini tergov qilish quyidagi hollarda murakkab deb hisoblanmaydi, ya’ni:

- jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror qabul qilish vaqtidayoq ayblilik masalasi to‘g‘risida yetarlicha isbot va dalillarning mavjud bo‘lishi;

- gumon qilinuvchi shaxsnинг aniq va tergovda hozir bo‘lishi (shaxsnинг protsessual harakatlarda ishtirok etishdan va tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazoni o‘tashdan bosh tortmasligi);

- gumon qilinuvchining mazkur jinoyat ishi bo‘yicha tergovning dastlabki tergov shaklida olib borilishini talab qiladigan maxsus huquqiy maqomdagi shaxs bo‘lmasligi (masalan, o‘ta xavfli retsidiivist bo‘lmasligi) yoki jinoyat ishining alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmasligi.

Jinoyat-protsessual kodeksi jinoiy qilmish yuqorida qayd qilingan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda ham prokuror tomonidan jinoyat ishini surishtiruv shaklida emas, quyidagi hollarda dastlabki tergov shaklida tergov qilish uchun dastlabki tergov organiga o‘tkazilishi yoki prokurorning o‘z ish yurituviga olinishi mumkin:

1) ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxsn ni aniqlash uchun dastlabki tergov organlari va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni jalb qilgan holda qo‘shimcha tergov va protsessual choralarни qo‘llash zarur bo‘lganda;

2) Jinoyat-protsessual kodeksining 345-moddasi o‘n birinchi qismi 1–5-bandlarida nazarda tutilgan holatlarda, ya’ni:

- agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo‘lgan organ jinoyatni hisobga olishdan ilgari yashirgan bo‘lsa;

- agar jinoyat ishining tergovi tegishli bo‘lgan organning rahbari yoki rahbarning yaqin qarindoshi ish yuzasidan jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi, fuqaroviy da’vogar yoki fuqaroviy javobgar deb topilgan bo‘lsa;

- aybsizligi ayon bo‘lgan shaxs ayblanuvchi tariqasida jalb etilganda yoki qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi ni qo‘llash to‘g‘risida oldindan bila turib qonunga xilof ravishda iltimosnoma qo‘zg‘atilganda;

- dastlabki tergovni olib borishda qiyonoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlari qo‘llanilganda;

- tergovning natijalariga va ish bo‘yicha qonuniy qaror qabul qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tarzda ushbu Kodeks talablari buzilganda.

Jinoyat-protsessual huquqining o‘ziga xos jihatlaridan biri – uni bir necha bir-biri bilan uzviy bog‘liq, muayyan protsessual shakl va ketma-ketlikda amalga oshiriladigan bosqichlardan iboratligida namoyon bo‘ladi. JPKning 2-moddasida keltirilgan vazifalar jinoyat protsessining barcha bosqichlariga taalluqli bo‘lib, ular nafaqat jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar, balki protsessning barcha ishtirokchilariga taalluqlidir.

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual faoliyat faqat belgilangan shaklda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu shakl JPKning normalarida o‘rnatilgan va jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ularning o‘ziga xosligidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari bilan o‘rnatilgan va JPKning tegishli moddalari bilan yanada aniqlashtirilgan jinoyat protsessining prinsiplari mamlakatimiz hududida jinoyat ishlarini yuritish jarayonida bajarilishi majburiy bo‘lgan asosiy, rahbariy va imperativ qoidalarni tashkil etadi.

Lekin jinoyat protsessining bir qator prinsiplarini – odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, jinoyat ishlarini hay’atda va yakka tartibda ko‘rib chiqish, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi, sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsiplarini dastlabki tergov bosqichida amalga oshirishning imkoniyati yo‘q. Bu esa, o‘z navbatida, jinoyat protsessining dastlabki tergov bosqichida, ya’ni surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishda surishtiruv organlari, tergovchi va prokuror rioya etishi majburiy bo‘lgan huquqiy qoidalarning zarur ekanligi to‘g‘risidagi xulosani keltirib chiqaradi. Bunday qoidalalar jinoyat protsessida – dastlabki tergovning umumiy shartlari deb nomlanadi.

Dastlabki tergovning umumiy shartlari – bu surishtiruv, dastlabki tergov organlari va prokurorlar tomonidan dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida protsessning barcha ishtirokchilariga taalluqli, rioya etishi shart bo‘lgan protsessual-huquqiy ta’riflanuvchi, davlatning majburlov kuchi bilan ta’milangan imperativ xususiyatga ega normativ-huquqiy talablar tizimidir.

Dastlabki tergovning umumiy shartlari JPKning 43-bobida keltirilgan bo‘lib, ularning har biri dastlabki tergov bosqichi davomida yuzaga keladigan protsessual-huquqiy munosabatlarni bir xilda tartibga solinishi va amalga oshirilishini ta’milashga qaratilgandir.

Masalaning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi majburiydir (JPK 345-m. 1-q.). Bu, o‘z navbatida, jinoyat ishining qaysi organ yoki mansabdor shaxs – surishti-ruvchi, tergovchi yoki prokuror qo‘zg‘atishidan qat’i nazar barcha jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazilishi shart ekanligini anglatadi.

Dastlabki tergovning umumiyligi shartlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh – *dastlabki tergovning subyektlari va ularning vakolatlari:*

- dastlabki tergovni olib borishga vakolatli mansabdar shaxslar (344-m.).
  - dastlabki tergovni tergovchilar guruhibiga topshirish (354-m.).
  - tergovchilar guruhi rahbarining vakolatlari (355-m.).
  - guruh a’zolari bo‘lgan tergovchilar (356-m.).
  - tergov harakatining bir necha tergovchi tomonidan bajarilishi (357-m.).

Ikkinci guruh – *tergovga tegishlilik qoidalari:*

- jinoyat ishining tergovga tegishliligi (345-m).
  - hududiy jihatdan tergovga tegishlilik (346-m).

*Uchinchi guruh – dastlabki tergovda ishtirok etuvchi shaxslar va ularga qo‘yiladigan talablar*

- dastlabki tergovda jamoatchilikning ishtiroki (349-m).
  - tergov harakatlarini o‘tkazishda xolislarning ishtiroki (352-m).
  - jinoyat ishidagi ma’lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati m).

To‘rtinchi guruh – *dastlabki tergovning boshlanishi va muddatlari:*

- dastlabki tergovning boshlanishi (350-m).
  - dastlabki tergov muddatlari (351-m).

Beshinchi guruh –*protsessning boshqa ishtirokchilariga taalluqli umumiy shartlar*:

- tergovchining topshiriqlarini bajarish (347-m).
  - jinoyat ishini boshqalarga o‘tkazish (348-m).
  - tergovchining va prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan yuat berish (358-m.).

Surishtiruv dastlabki tergovni o'tkazish qoidalari asosida JPKning 46<sup>1</sup>-bobida belgilangan istisnolarni inobatga olgan holda o'tkaziladi. Mazkur istisnolarni uchta guruhga bo'lish mumkin: 1) surishtiruv muddatining qisqaligi; 2) dastlabki tergovning bir qancha institutlarini qo'llashning o'ziga xosligi; 3) surishtiruvni avblov dalolatnomasi bilan tamomlashning o'ziga xosligi.

Surishtiruv surishtiruvchi tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atish va uni o‘z ish yurituviga olish to‘g‘risida qaror yoki surishtiruvchiga oldin qo‘zg‘atilgan ish berilgan bo‘lsa, uni o‘z ish yurituviga olish to‘g‘risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlanadi va bir oydan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim. Mazkur muddat prokuror tomonidan yigirma kungacha uzaytirilishi mumkin. Jinoyat ishi ayblov dalolatnomasi bilan yoki ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoxud taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama

kiritish to‘g‘risidagi taqdimnomaga bilan prokurorga topshirilgan kuni yoxud ishni tugatish haqida qaror chiqarilgan kuni surishtiruv tamomlangan hisoblanadi.

Jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratishda surishtiruv muddatini hisoblashning alohida tartibi belgilangan bo‘lib, JPKning 381<sup>7</sup>-moddasi-ga ko‘ra jinoyat ishlari birlashtirilayotganda, ya’ni bir necha shaxsning bir yoki bir necha jinoyatni birqalashib sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar yoxud bir shaxsning bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar birlashtirilganda ular bo‘yicha ish yuritish muddati uzoqroq muddat davomida tergov qilingan jinoyat ishi bo‘yicha belgilanadi. Bunday holatda agar surishtiruv organlari tergoviga tegishli bo‘lgan jinoyat ishlari boshqa dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli bo‘lgan jinoyat ishlari bilan bitta ish yurituviga birlashtirilganda prokuror tergovni olib borishni JPKning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalari bo‘yicha dastlabki tergov organiga topshiradi. Bunda muddat hisoblanishi dastlabki tergov organi tomonidan tergovi olib borilayotgan jinoyat ishining muddatidan kelib chiqib belgilanadi.

JPKning 332-moddasiga asosan bir yoki bir necha jinoyatni birqalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo‘yicha zarur bo‘lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning ishni ko‘rib chiqishning to‘liq va xolisona bo‘lishiga ta’sir qilmasa, yo‘l qo‘yiladi. Tergov qilinayotgan jinoyat ishi bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi. Alohida ish yurituviga ajratilgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv muddati, agar jinoyat ishi yangi jinoyat bo‘yicha yoki yangi shaxsga nisbatan ajratilayotgan bo‘lsa, tegishli qaror chiqarilgan kundan e’tiboran hisoblanadi. Qolgan hollarda esa surishtiruv muddati bu jinoyat ishi qaysi jinoyat ishidan alohida ish yurituviga ajratilgan bo‘lsa, o‘scha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan belgilanadi.

Surishtiruv muddatini hisoblashda quyidagilar hisobga olinmaydi:

- 1) ayblanuvchi, himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari ish materiallari bilan tanishib chiqqan vaqt;
- 2) surishtiruv to‘xtatib turilgan vaqt;
- 3) qo‘sishma surishtiruv o‘tkazish uchun prokuror tomonidan qaytarilgan ish surishtiruvchiga kelib tushgunga qadar o‘tgan vaqt.

Prokuror tomonidan jinoyat ishi qo‘sishma surishtiruv o‘tkazish uchun qaytarib yuborilganda, shuningdek to‘xtatilgan yoki tugatilgan ish qayta tiklanganda qo‘sishma surishtiruv muddati mazkur ishni surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e’tiboran o’n kun doirasida belgilanadi.

Surishtiruv dastlabki tergovning barcha vazifalarini to‘liq amalga oshirgan holda jinoyat ishini sudda muhokama qilish uchun barcha harakatlarni to‘liq va xolis amalga oshirishga muddat yetarli bo‘lgan holdagini o‘tkaziladi.

Jinoyat ishi ko‘p mehnat talab etsa, juda murakkab yoki o‘ta dolzarb bo‘lsa, prokuror yoki surishtiruv bo‘linmasining boshlig‘i shu ish bo‘yicha surishtiruv ishlarini yuritishni dastlabki tergovdagi kabi doimiy yoki maxsus tuzilgan surishtiruvchilar guruhiga topshirishi mumkin. Bunda prokuror yoki surishtiruv bo‘linmasi boshlig‘i tomonidan qaror qabul qilinadi, qarorda guruhning rahbari va a’zolari ko‘rsatiladi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror bilan bir vaqtida surishtiruv guruhini tuzish to‘g‘risidagi qaror ham qabul qilinishi mumkin, bunda har ikkala masala bir qarorda ko‘rsatiladi. Surishtiruvchilar guruhi tarkibida o‘zgarish bo‘lsa yoki uning rahbari o‘zgarsa ham alohida qaror bilan rasmiylashtiriladi.

Guruh rahbari bo‘lgan surishtiruvchi jinoyat ishini o‘z yuritishiga qabul qilib oladi va surishtiruv shaklidagi tergovning umumiy yo‘nalishi va pirovard natijasi uchun, shuningdek jinoyat protsessining shu bosqichida bajariladigan har bir harakat va qarorning qonuniy hamda asoslangan bo‘lishi uchun to‘la javobgar bo‘ladi.

Guruh rahbari bo‘lgan surishtiruvchi quyidagi vakolatlarga ega:

- ishni o‘zi rahbarlik qilayotgan surishtiruvchilarga taqsimlab beradi, ularning har biri bajaradigan ish qismi yoki tergov yo‘nalishini belgilaydi, ayrim tergov harakatlari bajarishni topshirib, ularni ijro etish muddatini belgilaydi;
- shaxsan o‘zi tergov harakatlarini bajaradi va rahbarligi ostidagi surishtiruvchilar o‘tkazayotgan ayrim tergov harakatlarida ishtirok etadi;
- qarorlar chiqaradi, shu jumladan shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo‘llash to‘g‘risida iltimosnomalar qo‘zg‘atish, ishni to‘la yoki uning biror qismini tugatish yoxud to‘xtatish haqida qarorlar chiqaradi;
- prokurorning ko‘rsatmalari ijro etilishini ta’minlaydi, agar uning ko‘rsatmalariga rozi bo‘lmasa, ishni o‘z e’tirozlar bilan birga yuqori turuvchi prokurorga yuboradi;
- tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga tergov harakatlarini yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish to‘g‘risida topshiriqlar va ko‘rsatmalar beradi, shuningdek ulardan surishtiruvchilar bajarayotgan tergov harakatlarini o‘tkazishda yordam berishni talab qiladi, o‘z topshiriqlari, ko‘rsatmalari, talablari bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi;
- jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralari to‘g‘risida taqdimnomalar yuboradi;

– ayblov dalolatnomasini tuzadi yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi va tasdiqlash uchun ularni ish bilan birga prokurorga yuboradi yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnama kiritish haqida prokurorga taqdimnomaga kiritadi.

Surishtiruv guruhi a’zolari bo‘lgan surishtiruvchilar guruh rahbari bo‘lgan surishtiruvchi topshiriqlarini, ko‘rsatmalarini bajaradilar va bu to‘g‘rida uni xabardor qiladilar. Ular tomonidan bajarilgan tergov harakatlarining natijalari jinoyat ishini yuritishga qabul qilib olgan surishtiruvchi bajargan harakatning natijalari bilan bir xil ahamiyatga egadir.

Guruh a’zosi bo‘lgan surishtiruvchi guruh rahbari bo‘lgan surishtiruvchining topshirig‘ini, ko‘rsatmasini qonunga xilof yoki asossiz deb hisoblasa, bu haqda u guruh rahbariga o‘z e’tirozlarini bildiradi. Guruh rahbari bo‘lgan surishtiruvchi bu e’tirozlarni ko‘rib chiqib, topshiriqni yoki ko‘rsatmani bekor qiladi yoki uni ijro etish uchun boshqa surishtiruvchiga beradi yoxud o‘zi tegishli tergov harakatini bajaradi. Guruh a’zosi bo‘lgan surishtiruvchi o‘z e’tirozlar bo‘yicha surishtiruv guruhining rahbari qabul qilgan qarorga rozi bo‘lmasa, nazorat olib boruvchi prokurorga o‘z e’tirozlarini yetkazadi, prokuror uzil-kesil qaror qabul qiladi.

Muayyan sharoitlarda va maqsadlarda ko‘zdan kechirish, tintuv, eksperiment yoki boshqa tergov harakatlarini o‘tkazishda uning ishtirokchilari ayni bir vaqtida turli binolarda bo‘lishlari yoki bir-birlaridan ancha masofaga uzoqlashishlari, shuningdek, basharti tergov harakatlarini yuritishda bir qancha ishtirokchilarni yoki hozir bo‘lgan shaxslarni kuzatish ta’milanishi lozim bo‘lib qolsa, tergov harakatlarini bir necha surishtiruvchi yoki surishtiruvchining o‘zi unga yordam berayotgan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ xodimlari bilan amalga oshirishi mumkin. Bunda surishtiruvchilardan biri qolgan surishtiruvchilar va boshqa tergov harakati ishtirokchilari faoliyati ustidan rahbarlik qiladi.

Jinoyat protsessining mustaqil bosqichi bo‘lgan dastlabki tergov jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridan kelib chiquvchi bir qator xususiyatlarga ega. Dastlabki tergov sudga qadar ish yurituv jarayonida amalga oshiriladigan protsessual faoliyat bo‘lib, uning davomida sudning jinoyat ishini to‘la-to‘kis hal qilishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratilishi yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni va vazifalarni belgilab beradi.

JPKning 344-moddasiga ko‘ra dastlabki tergov prokuratura, ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boriladi, shu bilan birga dastlabki tergov prokurorlar tomonidan ham olib borilishi mumkin.

Shu bilan birga, tergov apparati, qaysi idoraga bo‘ysunishidan qat’i nazar, o‘z vazifalari, faoliyatining huquqiy tartibga solinishi va protses-sual shakli

(rejimi) bo'yicha yagonadir. Tergov apparatining faoliyati jinoyat protsessininganiqdoirasida amalga oshiriladi. Tergov organlari-ning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jinoyatlarni tez va to'la ochish;
- aybdorlarni javobgarlikka tortish va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash yoki hukm chiqaril-gandan keyin qoplash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- jinoyatlar sodir etilishining sabablarini aniqlash va bunga yordam beruvchi sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan choralarini ko'rish;
- fuqarolarni qonun-qoidalargaqt'iy rioya etish ruhida tarbiyalash.

Dastlabki tergov mobaynida sud jinoyat ishini puxta o'rganib chiqishi hamda qonuniy va asoslangan qaror qabul qilishi uchun zamin yaratiladi. Shuning uchun muayyan holatlarda dastlabki tergovni olib borish tergovchilar guruhi topshirilishi mumkin (JPK 354-m.). Buning uchun jinoyat ishi ko'p mehnat talab etishi, juda murakkab yoki o'ta dolzarb bo'lishi kerak. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni olib borishni tergovchilar guruhi topshirilishi masalasi prokuror yoki tergov bo'linmasining boshlig'i tomonidan hal etiladi va ular o'z nomidan ish bo'yicha dastlabki tergov yuritishni doimiy yoki maxsus tuzilgan tergov guruhi topshirish haqida qaror chiqarishlari lozim. Qaror uch qismdan – kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Qarorning tavsif-asoslantirish qismida jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni tergovchilar guruhi topshirish masalasi yetarli darajada yoritilishi va asoslantirilishi kerak. Xulosa qismida tergov guruhining rahbari va a'zolari har birining lavozimi, maxsus unvoni familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi kerak. Agarda dastlabki tergovni tergovchilar guruhi topshirish to'g'risidagi qaror jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtida chiqarilayotgan bo'lsa, ikkala masala bir qarorning o'zida bayon etilishi mumkin. E'tiborli jihat shundan iboratki, tergov guruhining tarkibida obyektiv yoki subyektiv asoslarga ko'ra o'zgarishlar bo'lsa, shuningdek tergov guruhining rahbari o'zgartirilgan hollarda ham qaror chiqarilishi kerak.

Jinoyat ishini tergov qilish tergovchilar guruhi topshirilganidan so'ng, guruh rahbari bo'lgan tergovchi jinoyat ishini o'z yuritishiga qabul qilib olish to'g'risida qaror chiqaradi. Tergov guruhining rahbari jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovning umumiy yo'nalishi va pirovard natijasi uchun, shuningdek jinoyat protsessining shu bosqichida bajariladigan har bir harakat va qarorning qonuniy hamda asoslangan bo'lishi uchun to'la javobgar ekanligi protsessual qonunchilikda tartibga solingan.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish uchun guruh rahbari bo'lgan tergovchi quyidagi vakolatlaga ega:

1) ishni o‘zi rahbarlik qilayotgan tergovchilarga taqsimlab beradi, ularning har biri bajaradigan ish qismi yoki tergov yo‘nalishini belgilaydi, ayrim tergov harakatlari bajarishni topshirib, ularni ijro etish muddatini belgilaydi;

2) shaxsan o‘zi tergov harakatlarini bajaradi va rahbarligi ostidagi tergovchilar o‘tkazayotgan ayrim tergov harakatlarida ishtirok etadi;

3) qarorlar chiqaradi, shu jumladan shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnomalar qo‘zg‘atish, ishni to‘la yoki uning biror qismini tugatish yoxud to‘xtatish haqida qarorlar chiqaradi;

4) prokurorning ko‘rsatmalari ijro etilishini ta’minlaydi, JPK 36-moddasining uchinchi qismidanazarda tutilgan hollarda ishni o‘z e’tirozlari bilan birga yuqori turuvchi prokurorga yuboradi;

5) surishtiruv organiga tergov va qidiruv ishlarini olib borish to‘g‘risida topshiriqlar va ko‘rsatmalar beradi, shuningdek undan tergovchilar bajarayotgan tergov harakatlarini o‘tkazishda yordam berishni talab qiladi, o‘z topshiriqlari, ko‘rsatmalar, talablari bajarilishi ustidan nazorat qilib boradi;

6) jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralari to‘g‘risida taqdimnomalar yuboradi;

7) ayblov xulosasini tuzadi yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi va tasdiqlash uchun ularni ish bilan birga prokurorga yuboradi yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnomaga kiritish haqida prokurorga taqdimnomaga kiritadi (JPK 355-m.).

Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni olib borish topshirilgan tergov guruhining a’zolari-tergovchilar tergov guruhining rahbari bo‘lgan tergovchining topshiriqlarini, ko‘rsatmalarini bajaradilar va bu to‘g‘risida uni xabardor qiladilar.

Guruh a’zolari bo‘lgan tergovchilar tomonidan bajarilgan tergov harakatlarining natijalari jinoyat ishini yuritishga qabul qilib olgan tergovchi bajargan harakatning natijalari bilan bir xil ahamiyatga egadir.

Guruh a’zosi bo‘lgan tergovchi guruh rahbari bo‘lgan tergovchining topshirig‘ini, ko‘rsatmasini qonunga xilof yoki asossiz deb hisoblasa, bu haqda u guruh rahbariga o‘z e’tirozlarini bildiradi. Guruh rahbari bo‘lgan tergovchi bu e’tirozlarni ko‘rib chiqib, topshiriqlari yoki ko‘rsatmani bekor qiladi yoki uni ijro etish uchun boshqa tergovchiga beradi yoxud o‘zi tegishli tergov harakatini bajaradi. Guruh a’zosi bo‘lgan tergovchi o‘z e’tirozlarini bo‘yicha tergovchilar guruhining rahbari qabul qilgan qarorga rozi bo‘lmasa, nazorat olib boruvchi prokurorga o‘z e’tirozlarini yetkazadi, prokuror uzil-kesil qaror qabul qiladi. (JPK 356-m.).

Tergov guruhi tomonidan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida bir qator tergov va protsessual harakatlar bajarilishi lozim

bo‘ladi. Bunda umumiy tartibda amalga oshiriladigan dastlabki tergov harakatlaridan farqli ravishda tergov harakatlari guruhning a’zolari bo‘lgan tergovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bu JPKning 357-moddasida tartibga solingan. Jumladan, muayyan sharoitlarda va maqsadlarda ko‘zdan kechirish, tintuv, eksperiment yoki boshqa tergov harakatlarini o‘tkazishda uning ishtirokchilari ayni bir vaqtida turli binolarda bo‘lishlari yoki bir-birlaridan ancha masofaga uzoqlashishlari, shuningdek, basharti tergov harakatlarini yuritishda bir qancha ishtirokchilarni yoki hozir bo‘lgan shaxslarni kuzatish ta’minlanishi lozim bo‘lib qolsa, tergov harakatlarini bir necha tergovchi yoki tergovchining o‘zi unga yordam berayotgan surishtiruvchilar bilan amalga oshirishi mumkin. Bunda tergovchilardan biri qolgan tergovchilar, surishtiruvchilar va boshqa tergov harakati ishtirokchilari faoliyati ustidan rahbarlik qiladi.

Protsessning boshqa ishtirokchilariga taalluqli umumiy shartlar qatoriga – tergovchining topshiriqlarini bajarish (JPK 347-m.), jinoyat ishini boshqalarga o‘tkazish (JPK 348-m.) va tergovchining va prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat berish (JPK 358-m.) larni kiritish mumkin.

Jinoyat ishini tergov qilish davomida tergov harakatlarini boshqa tumanda o‘tkazish zarurati yuzaga keladi. Ushbu holda tergovchi mazkur harakatlarni shaxsan o‘zi o‘tkazishi yoki bu ishni boshqa tuman tergovchisiga yoxud topshiriqni tergovchi aytgan muddatda bajarishi shart bo‘lgan surishtiruv organiga topshirishga haqlidir.

Tergovchining bunday talabi alohida topshiriq deb ataladi. Alovida topshiriq ishni yuritayotgan tergovchining JPK 347-moddasiga muvofiq tergov harakatlari o‘tkazish topshirilayotgan tergovchiga xati shaklida ifodalanadi. Unda tergov qilinayotgan jinoyat ishining asosiy holatlari, bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar ro‘yxati bayon qilinadi.

Har bir tergovchi o‘z yurituvida bo‘lgan jinoyat ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o‘zi bajarishga yoxud uni o‘tkazishni boshqa tergovchiga yoki surishtiruvchiga topshirishga haqlidir.

Tergovchining topshirig‘ida ijro etuvchi uchun majburiy bo‘lgan ijro muddati ko‘rsatiladi. Tergovchining topshirig‘ini bu muddat ichida ijro etishning iloji bo‘lmasa, topshiriq olgan shaxs topshiriq bergen tergovchiga topshiriq qachon bajarilishi mumkinligi to‘g‘risida yozma ravishda, telegramma yoki telefonogramma orqali xabar qiladi va uning ko‘rsatmalariga binoan topshiriqni bajarishni davom ettiradi.

Qonunga ko‘ra tergovchiga jinoyat sodir etgan shaxs aniqlangan jinoyat ishi topshirilganidan so‘ng surishtiruv organi uning yuzasidan faqat tergovchining topshirig‘i bo‘yicha tergov va qidiruv harakatlarini o‘tkazishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Tergovchining surishtiruv organi bilan hamkorligi jinoyatni

ochish va aybdorlarni fosh etish manfaatlari yo‘lida operativ usulda olingen ma’lumotlardan foydalanishni taqozo etadi. Biroq tergovchi ushbu ma’lumotlardan operativ ishda qo‘llaniladigan usul va vositalar oshkor bo‘lmasligi choralarini ko‘rgan holda foydalanishi kerak. Bunday hollarda u jinoyatni tergov qilish davomida operativ xodimlar bilan olingen ma’lumotlardan foydalanish usullari va doirasi yuzasidan maslahatlash-gani ma’qul.

O‘zaro hamkorlik vaqtida tergovchilarning surishtiruv organidan ish bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar, dalillarni aniqlash uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan manbalar haqida operativ qidiruv ma’lumotlarini olishi katta ahamiyatga ega. Operativ qidiruv choralarini ko‘rish qonunda surishtiruv organlarining zimmasiga yuklatilgan. Ayni paytda qonunda tergovchining surishtiruv organlariga operativ qidiruv choralaridan foydalanish zarurati yuzaga keladigan topshiriqlarni berishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan.

Jinoyat ishini bir tergov bo‘linmasi doirasida bir tergovchidan boshqa tergovchiga o‘tkazish shu tergov bo‘linmasining rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishni bir tergov bo‘linmasidan boshqasiga o‘tkazish yuqori tergov bo‘linmasining boshlig‘i tomonidan prokuror roziligi bilan amalga oshiriladi.

Ishni bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o‘tkazishga prokuorning qaroriga binoan yo‘l qo‘yiladi.

Tergovchining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat tergov bo‘linmasi boshlig‘iga va ishni tergov qilishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan prokurorga beriladi.

Prokuorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat yuqori turuvchi prokurorga beriladi.

Dastlabki tergovni to‘xtatish asoslari bilan surishtiruvni to‘xtatish asoslari bir xil bo‘lib, buning uchun surishtiruvchi tomonidan qaror qabul qilinadi va qaror nusxasi nazorat qiliuvchi prokurorga yuboriladi. Shuningdek, bu haqda jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari xabardor qilinadi. Qaror qonunga nomuvofiq bo‘lganda prokuror tomonidan bekor qilinadi va surishtiruv qayta tiklanadi. Surishtiruvni to‘xtatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- ish bo‘yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilinishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmagan;
- ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum bo‘lgan;
- ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta’minalash imkoniyati bo‘lmasa;
- ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda to‘xtatiladi.

Surishtiruvchi jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruvni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilishda oldin ayblanuvchi yo‘qligida bajarish mumkin bo‘lgan barcha tergov harakatlarini bajarishi shart.

Surishtiruvchi tomonidan faqat ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilinishi to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e’lon qilinishi mumkin. Qidiruv surishtiruv o‘tkazilayotganida ham, shuningdek surishtiruv to‘xtatilganidan keyin ham e’lon qilinishi mumkin.

Agar surishtiruv ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum bo‘lganligi sababli to‘xtatilgan bo‘lsa, surishtiruvchi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar orqali ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilinishi lozim bo‘lgan shaxsni aniqlash va uni javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi shart.

Surishtiruvchi surishtiruvni to‘xtatish asoslariga qarab ichki ishlar organlari va boshqa vakolatli organlardan ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni aniqlash, yashirinib yurgan ayblanuvchilarni qidirib topish uchun ko‘rilayotgan chorallardan muntazam xabardor bo‘lib turadi va shu maqsadda o‘zi so‘rov xatlari yuboradi, ma’lumotlar va tushuntiruvlar oladi, jamoatchilikning yordamidan foydalanadi yoxud ayblanuvchining surishtiruvning to‘xtatilishiga sabab bo‘lgan kasalligidan vaqt-vaqt bilan xabardor bo‘lib turadi. Ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan hollarda tergovchi jinoyat sodir etishda ayblanayotgan va boshqa davlatlar hududida yashirinib yurgan shaxslarni ushlab berishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq choralar ko‘radi.

Shuningdek, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalg qilinishi lozim bo‘lgan shaxsni aniqlash uchun dastlabki tergov organlari va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni jalg qilgan holda qo‘shimcha tergov va protsessual chorallarni qo‘llash zarur bo‘lganda prokuror tomonidan jinoyat ishi dastlabki tergov shaklida tergov qilish uchun surishtiruv organidan dastlabki tergov organiga o‘tkazilishi yoki o‘z ish yurituviga olinishi mumkin.

To‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha surishtiruv uni to‘xtatish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilganda, shuningdek ish bo‘yicha ayblanuvchining ishtirokisiz bajarilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha tergov harakatlarini o‘tkazish zarurati tug‘ilganda surishtiruvchining qarori asosida qayta tiklanadi hamda bu haqda prokuror, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari xabardor qilinadi.

Ish yuzasidan surishtiruv qayta tiklanishi bilan bir paytda uning o‘tish muddati ham tiklanadi va JPKning 381<sup>7</sup>-moddasi 8-qismiga asosan surishtiruv muddati mazkur ishni surishtiruvchi qabul qilgan paytdan e’tiboran o‘n kun doirasida belgilanadi.

Surishtiruv jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov dalolatnomasi, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnama kiritish to‘g‘risida taqdimnama tayyorlash bilan tamomlanadi.

Jinoyat ishi JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar, ya’ni reabilitatsiya va shaxsning aybliligi to‘g‘risidagi masalani hal qil qilmasdan turib tugatilishi mumkin.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi bilan jinoyat ishini tugatish JPKning 61 va 62-boblarida, e’lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo‘lsa jinoyat ishini tugatish JPKning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, shuningdek, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Surishtiruvchining jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qarori tavsif va xulosa qismlardan iborat bo‘lib, uning tavsif qismida:

- jinoyat ishini qo‘zg‘atish asoslari va uning sodir etilishiga doir tergov vaqtida tekshirilgan tusmollar;
- gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalg qilingan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ularga qo‘yilgan ayb va ularga nisbatan qo‘llanilgan ehtiyyot choralar, basharti bu shaxslarga qo‘yilgan gumon yoki ayb ilgari chiqarilgan alohida qaror bilan tugatilmagan bo‘lsa;
- jinoyat ishini tugatish asoslari;
- bu asoslarni tasdiqlovchi dalillar, ular ishning qaysi jiddlari va sahifalarida aks ettirilganligi;
- ashyoviy dalillarning ro‘yxati, bu ashyolar saqlanayotgan joy va ularning egalari, shuningdek manfaatdor shaxslar yoki muassasalar tomonidan bu ashyolarni ularga qaytarib berish to‘g‘risidagi iltimoslari, basharti shunday iltimos qilingan bo‘lsa;
- fuqaroviylar da’voni ta’minalash choralar bayon qilinadi.

Qarorning xulosa qismida:

- jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi;
- gumonni yoki ayblovni olib tashlash to‘g‘risidagi;
- ehtiyyot choralarini, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini, shuningdek fuqaroviylar da’voni ta’minalash choralarini bekor qilish to‘g‘risidagi;
- ashyoviy dalillar to‘g‘risidagi qarorlar bayon qilinadi.

Surishtiruvchi ishni tugatish to‘g‘risida qaror chiqargach, bu haqda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, himoyachiga, shuningdek jabrlanuv-chiga, fuqaroviylar da’vogarga, fuqaroviylar javobgarga va ularning vakillariga, xuddi

shuningdek ish korxona, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, shu korxona, muassasa, tashkilot vakiliga yoxud fuqaroga xabar qiladi. Ayni vaqtda ularga ishni tugatish to‘g‘risidagi qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega ekanliklari tushuntiriladi.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxsga nisbatan ish tugatilganda surishtiruvchi bu haqda yetti kunlik muddat ichida yozma tarzda tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limiga xabar qiladi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni kimlar va qaysi vakolatli bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.
2. Surishtiruvchining vakolatlarini sanab o‘ting.
- 3.Jinoyat ishining tergovga tegishliligi bo‘yicha surishtiruvchilar tomonidan olib boriladigan jinoyatlarga doir ishlarga izoh bering.
- 4.Surishtiruvni amalga oshirishda jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining qo‘llanilishi tartibi.
5. Surishtiruvchining topshiriqlarini bajarish qoidalari.
6. Jinoyat ishini o‘tkazish qaysi holatlarda va tartibda amalga oshiriladi.
7. Surishtiruvning boshlanishi qachondan hisoblanadi.
8. Surishtiruv yuritish muddatlarini sanab o‘ting.
9. Surishtiruv muddatiga kirmaydigan holatlarni sanab o‘ting.
10. Surishtiruvni to‘xtatish tartibi va tamoyillari.
11. Dastlabki tergov va surishtiruvning o‘zaro farqini yoritib bering.
- 12.Ayblovni bekor qilish masalasini qonun hujjatlariga asosan tahlil qilib bering.

## **8-mavzu. Birinchi instansiya sudida ish yuritishning umumiy shartlari**

Reja:

1. Sud muhokamasining umumiy shartlari haqida tushuncha uning vazifasi va ahamiyati.
2. Sud muhokamasining bevositaligi, og‘zakiligi va oshkorali.
3. Sud muhokamasining ishtirokchilarining tengligini ta’minlash va ularning huquq va majburiyatlarini kafolatlash.

**Tayanch iboralar:** dastlabki eshituv, sud muhokamasini tayinlash, birinchi instansiya, sud tergovi, taraflar muzokarasi, so‘nggi so‘z.

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining sudloviga harbiy sudlarning sudloviga tegishli bo‘lgan ishlardan tashqari hamma jinoyat ishlari tegishlidir.

Agar bir sudda ko‘rib chiqilayotgan jinoyat ishi bo‘yicha sud muhokamasi paytida sudlanuvchi tomonidan boshqa sud sudloviga tegishli jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlansa, ishni ko‘rib chiqish sud muhokamasini boshlagan sud tomonidan davom ettiriladi.

Harbiy sudlarning sudloviga tegishli ishlar qonunchilik bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyat, Toshkent shahar sudining yoki O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudloviga o‘ta murakkab va ahamiyatli ishlar tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi jinoyat ishini, agar u mazmunan o‘ta murakkab va ahamiyatli bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudiga, viloyat, Toshkent shahar sudiga, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga ko‘rish uchun topshirishga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining raisi, viloyat, Toshkent shahar sudining raislari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raisi jinoyat ishini, agar u mazmunan o‘ta murakkab bo‘lmasa, jinoyat ishlari bo‘yicha tegishli tuman (shahar) sudiga, shuningdek hududiy harbiy sudga ko‘rish uchun topshirishga haqli.

Yuqori sud quyisi sud sudloviga tegishli har qanday jinoyat ishini birinchi instansiya sudi tariqasida o‘zi ko‘rish uchun olishga haqlidir.

Sudya jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasi yoxud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash haqidagi masalani ko‘rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to‘g‘risidagi qaror bilan qabul qilib olgach, quyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

- 1) ishni sudlovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazish to‘g‘risida;
- 2) ishni sudda ko‘rish uchun tayinlash haqida;

### 3) dastlabki eshituv o‘tkazish to‘g‘risida.

Sud muhokamasi jinoyat protsessining markaziy bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda jinoyat protsessining asosoiy vazifalari yuzasidan bir to‘xtamga kelinadi, ya’ni sud jinoyat ishini mazmunan ko‘rib, o‘z hukmida shaxsni aybdor yoki aybdor emasligi, ushbu qilmishi uchun jazolash yoki jazolamaslik masalasini uzil-kesil hal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning sud muhokamasigacha bo‘lgan bosqichlarida dastlabki ayblov yuzaga keladi, jinoyat fakti bo‘yicha dalillar topiladi, tekshiriladi va uni muhokama qilish hamda mazmunan hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Sud muhokamasidan keyingi bosqichlarda esa sud qarori tekshiriladi hamda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar bartaraf etiladi<sup>20</sup>.

Shundan ko‘rinib turibdiki, sud muhokamasiga berilgan vakolat jinoyat protsessining bironta bosqichiga berilgan emas. Sud muhokamasida davlat organi bilan sudlanuvchi o‘rtasidagi kelishmovchilik shaxs va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib hal etiladi. Agar sudlanuvchining aybi sudda tekshirilgan va baholangan dalillarga asosan to‘la tasdig‘ini topsa, uni aybdor deb e’lon qilinadi hamda respublika nomidan qilmishiga yarasha jazolanadi, jazoni o‘tagandan keyin ham ma’lum vaqtgacha sudlangan deb topiladi va aksinchalik sudlanuvchining aybi isbotlanmasa u oqlanadi va ko‘rgan zararlari qoplanadi. Demak bu bosqichga shaxs taqdirini hal qilishdek muhim vazifa yuklatilgan. Shunday ekan bironta xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yimasligi uchun sud muhokamasiga juda katta talablar qo‘yilgan va qonun bilan kafolatlangan.

Sud jazolovchi organ emas, sudga ishonch, hurmat va e’tiqod bo‘lishi uchun u kelishmovchilikni juda katta mahorat vaadolat bilan hal qilishi lozim. Buning uchun ayblov va himoya tarafidagi vakolat mutlaqo tenglashtirilishi va tortishuvchilik asosida, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari ta’minlangan holda, jinoyat ishi mazmunan ko‘rilib, bir xulosaga kelinishi kerak.

Shuning uchun ham qonun sud muhokamasiga bir necha shartlar qo‘ygan. Bu shartlarning birontasini bajarmaslik yoki yetarli darajada bajarmaslik, sud hukmiga shubha bilan qarashga olib keladi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, qonunga xilof, asoslantirilmagan, adolatsiz hukmnинг qabul qilinishi nafaqat sud hokimiyatini nufuziga qolaversa davlat hokimiyati sha’niga ham putur yetkazadi. Shunday ekan, odil sudlovni amalga

<sup>20</sup> Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiyligi qism. Darslik. Mualliflar jamoasi // y.f.d., prof. G.Z.To’laganova, y.f.n., dots. S.M.Raxmonovning umumiyligi tahriri ostida. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 490 bet.

oshirishda yagona organ bo‘lgan sudlar qonunda belgilangan sud muhokamasining umumiy shartlariga qat’iy amal qilishlari shart<sup>21</sup>.

Sud muhokamasining umumiy shartlariga quyidagilar kiradi:

1. Sud muhokamasining bevositaligi, og‘zakiligi va oshkorali;
2. Sudlovga tegishlilik;
3. Sud tarkibining o‘zgarmasligi;
4. Sud muhokamasi ishtirokchilarining tengligini ta’minlash va ularning protsessual holatini kafolatlash;
5. Sud muhokamasi doirasining qat’iyligi;
6. Jinoyat ishini qo‘sishimcha tergovga qaytarish, to‘xtatish va tugatish,
7. Sud majlisining tartibi,
8. Sud majlisining bayonnomasi.

Sud muhokamasining umumiy shartlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u majlis davomida amalda namoyon bo‘ladi.

Sudning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysinishi, asosli ish ko‘rishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va JPK bilan kafolatlangan.

Sud muhokamasidagi dalillarni bevosita tekshirish sharti sud muhokamasi bosqichida markaziy o‘rinni egallaydi. Bevositalikning mazmuni shundan iboratki, suda o‘z oldida turgan jinoiy ish bo‘yicha inson taqdirini tergov organlari tomonidan taqdim etilgan materiallarga qarab emas, balki sud muhokamasi davomida bevosita ma’lumotlarni, ko‘rsatuvlarni eshitish, dalillarni ko‘rish, bilish va tahlil qilish asosida hal qiladi. Bunda ma’lumotni bevosita o‘sha shaxsnинг o‘zidan eshitish, dalillar manbayini asl holatidan bilib olish, tegishli materiallar bilan shaxsan o‘zi tanishish holatlari zarur bo‘ladi. “Dastlabki tergov taqdim etgan yozma materiallar esa sud muhokamasi uchun dastlabki, yordamchi va ko‘makchi xarakterga ega xolos“<sup>22</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 26-moddasida shunday deyilgan: “Jinoyat ishini yuritishni amalga oshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarni bevosita tekshirishlari; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va

<sup>21</sup> Qo’shayev N.M., Fayziyev Sh.F. Jinoyat protsessida o’tkaziladigan tergov harakatlari // Prof. Z.F.Inog’omjonovaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYI, 2007. – 167 b

<sup>22</sup> Qo’shayev N.M. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish. Monografiya. TDYI. – T.: Adolat, 2011. – 172 b.

sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvochlarni so‘roq qilishlari, ekspert xulosalarini eshitishlari, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirishlari, bayonnomma va boshqa hujjatlarni o‘qib eshittirishlari shart”.

Sud muhokamasining bevositaligida qonunga ko‘ra sudyaning ichki ishonchi, huquqiy ongi va qonunga muvofiq jinoyat ishi materiallarini bevosita o‘rganishi, dalillarni tekshirish, protsess ishtirokchilarini so‘roq qilish, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirishi va xulosa qilish talab etiladi. Sudyaga shaxsan uzi sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvochlarni so‘roq qilish, ekspert xulosasini eshitish, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish, bayonnomma va boshqa xujjatlarni e’lon qilib, o‘qib eshittirish majburiyatini yuklaydi. Bunda sudya imkon qadar birinchi manbalardan foydalanadi, ya’ni ko‘zi bilan ko‘rgan guvohni so‘roq qiladi, hujjatlarning asl nusxalari bo‘yicha ularning mazmuni bilan tanishadi. Sud faqat sud majlisida tekshirilgan va o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanib hukm chiqaradi.

Sud muhokamasining bevositaligi uning og‘zakiligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularni chegaralab qo‘yish mumkin emas. Sud sudlanuvchini, jabrlanuvchini, guvochlarni va boshqalarni so‘roq qilish yo‘li bilan ularning og‘zaki so‘zlarini bevosita eshitib qabul qilib, ko‘rsatuvlariga baho beradi. Lekin alohida hollarda sud taraflarning roziligi bilan sud majlisiga kelmay qolgan guvochlarning ko‘rsatuvlarini o‘qib eshittiradi. Bunda og‘zakilikka rioya qilinib, bevositalikdan chekiniladi, boshqa hollarda bevositalikdan chekinishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sud muhokamasining og‘zakiligi bevositalik uchun zarur bo‘lgan dastlabki zamindir. Og‘zaqilik sud muhokamasida, sud muhokamasi ishtirokchilari bilan sudning o‘zaro muloqati ifodasi bo‘lsa, bevositalik esa sud tomonidan shu aloqaning ma’lum ish yuzasidan dalil sifatida qabul qilinishidir. Sud muhokamasida sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar og‘zaki ko‘rsatuv beradilar va ularga og‘zaki shaklda savollar beriladi. Og‘zaki iltimosnomalar bildiriladi, prokuror xulosa beradi, sud muzokaralarida nutq so‘zlanadi.

Sud muhokamasi davomida sud tomonidan qabul qilingan ajrimlar e’lon qilinadi va hujjatlar o‘qib eshittiriladi. Sud muhokamasining og‘zakiligi va bevositaligi to‘g‘risida V. M. Saviskiy shunday deydi: “Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda eshitilishi, ko‘rilishi, tekshirilishi tufayligina sudya va xalq

masalahatchilarida ichki ishonch vujudga keladi, shuning natijasida bo‘lajak hukmga asos yaratiladi”<sup>23</sup>.

Sud muhokamasining bevosaligiga va og‘zakiligidan hamda oshkoraliq qoidalari kelib chiqadi. Sud muhokamasining ochiq, oshkora olib borilishi jinoiy ishlarni ko‘rib hal qilishda uning tarbiyaviy rolini oshiradi. Shuningdek, oshkoraliq sudlarning ish faoliyatini, undagi xato va kamchiliklarni ro‘yobga chiqarib, jamoatchiliikka ham namoyon qiladi.

Oshkoraliq sud muhokamasi ishtirokchilarining protsessual huquq va burchlarini amalga oshirishda to‘la va samarali kafolatdir. Oshkoraliq sud muhokamasida bo‘lgan har bir ish yuzasidan haqiqatni aniqlashga, odil sudlovnii amalga oshirishga yordam beradi. Sud muhokamasida qatnashayotgan protsess ishtirokchilarining huquq va burchlarini to‘la ta’minalash majburiyati shu bilan birga ularga huquq va burchlaridan to‘la foydalanish imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 19-moddasiga ko‘ra quyidagi holatlarda sud muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tqaziladi:

1)“Davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan; ishlar, 2) jinsiy jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar; 3)o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar; 4) fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlarni yoki ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida ish yopiq sud majlisida ko‘riladi; 5) jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek ularning oila a’zolari yoki yaqin-qarindoshlarining xavfsizligini ta’minalash taqozo etgan hollarda sud ularning iltimoslariga ko‘ra ajrim chiqarib, ishni yopiq, sud majlisida ko‘radi.

Sudda qisman yopiq sud majlislari ham o‘tqaziladi. Bunga yozishma va shaxsiy telegraf xabarnomalari kiradi. Sud majlisida bu xat va xabarlarini jo‘natgan hamda olgan shaxslarning roziligi bilan oshkor qilinishi mumkin. Aks holda ular yopiq sud majlisida o‘qib eshittiriladi va tekshiriladi. Ishni yopiq sud majlisida ko‘rish barcha protsessual qoidalarga rioya qilgan holda o‘tkaziladi. Ishni yopiq sud majlisida yoki qisman yopiq sud majlisida ko‘rish uchun sud albatta ajrim chiqarishi lozim. Buning farqi yopiq sud majlisi muhokama boshlangunga qadar, ya’ni sudgacha tayyorgarlik ko‘rishda hal qilinadi. Qisman yopiq sud majlisini o‘tqazish esa iltimosnomaga tushgandan keyin ko‘rib chiqiladi.

---

<sup>23</sup> Хидоятов Б.Б., Рахмонова С.М., Тухташева У.А. Теория доказательств в уголовном судопроизводстве. – Т.: ТГЮИ, 2007. – 128 с.

Bu ajrim sud majlisiga yig‘ilganlarga taalluqli bo‘lib, protsess ishtirokchilariga daxli yo‘q<sup>24</sup>.

Sud sudlanuvchining va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlarini, shuningdek boshqa shaxslarni mazkur majlisda tekshiriladigan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkora qilganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirib, keyin ularning yopiq sud majlisida ishtirok etishlariga ruxsat beradi. Sud zalida tartibni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan hollarda sud ayrim shaxslarning sudning ochiq sud majlislarida qatnashishlarini taqiqlab qo‘yishga haqlidir. Sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga, kinoga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi. Sud hukmlari, ajrimlari va qarorlari barcha hollarda oshkora e’lon qilinadi.

Sudlov faoliyatida oshkorali kni kengaytirish uchun zarur hollarda sudlar ommaviy axborot vositalari xodimlariga, tegishli jamoat birlashmalari va jamoalarga bo‘ladigan protsesslar to‘g‘risida xabar berishi, shuningdek protsesslarni bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o‘tkazishi mumkin. Sud ishni ochiq yoki yopiq sud majlisida ko‘rilishini belgilashda sud muhokamasining tarbiyaviy ta’siriga, ayrim fuqarolarning manfaatlariga, ya’ni ularning hayotidagi intim tomonlarni oshkora bo‘lmasligi, zarar kelib chiqmasligini nazarda tutishi kerak. Jinoyat ishi yopiq sud majlisida ko‘rilgan taqdirda ham sud muhokamasi davomida qonunda belgilangan barcha talab va qoidalarga rioya qilinishi shart. Sud muhokamasida 16 yoshga yetmagan shaxslar sud majlisida ishtirok etish huquqiga ega emasalar. Agar 16 yoshga yetmagan shaxslar jinoyat ishi bo‘yicha sudlanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida o‘tadigan bo‘lsalar, u holda sud majlisida ishtirok etishlari mumkin va ularning ishtiroki chegarasini sudyaning o‘zi belgilaydi<sup>25</sup>.

Sud jarayoni tugab, uning natijalari ommaviy axborot vositalarida, radio, televidenieda namoyish qilinishi mumkin. Ushbu namoyishni chop etish yoki televidenieda ko‘rsatish sudning xukmi qonuniy kuchga kirganidan so‘ng amalga oshirilishi talab qilinadi (agar bu ish yopiq sud majlisida ko‘rilmagan bo‘lsa). Oshkorali prinsipi o‘z mazmunini faqat sud muhokamasida topadi.

Chunki surishtiruv va dastlabki tergovda oshkorali ancha chegaralangan, lekin hozirgi paytda hamma surishtiruv va dastlabki tergovda jamoatchilik ishtirokiga ko‘proq e’tibor berilmoqda. Oshkorali sud muhokamasining tarbiyaviy ta’sirini oshirishda, sudning hurmatini ko‘tarishda muhim omil bo‘lib

<sup>24</sup> To’laganova G.Z. Jinoyat protsessida shaxsiy huquqlarni cheklash mezonlari. Monografiya // prof. G.A. Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYul, 2007. -243 b.

<sup>25</sup> Tuxtashova U.A. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi: tushunchasi va qo’llash tartibi: Amaliy qo’llanma – yuridik fanlar doktori, professor M.H.Rustambayev tahriri ostida. – T: TDYI nashriyoti, 2007, –B.87-126

xizmat qiladi. Sudlar faoliyatida oshkoraliq xalq-hokimiyatini amalga oshirishning asosiy vositasi bo‘lib hisoblanib, u nafaqat ishtirok etuvchi fuqarolarga balki, jamoatchilikka sud tomonidan odil sudlovni amalga oshirish jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

Oshkoraliq sudning ishni ko‘rish bilan bog‘liq barcha harakatlari va chiqarayotgan qarorlari uchun javobgarligini oshiradi, sudlar faoliyatini xalq tomonidan nazorati esa amaliyotda uchrayotgan xato, kamchiliklarini bartaraf etishda, qonunlarni xurmat qilishda va adolatni qayta tiklanishida yordam beradi. Oshkora sud protsesslari orqali huquqiy targ‘ibot olib boriladi, shuning uchun oshkoraliq aholini huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Sudlov faoliyatida oshkoraliknii kengaytirish uchun protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda o‘tkazilishi aholi orasidagi huquqiy tarbiyani kengaytirish imkoniyatini yaratadi va uning samaralari boshqa targ‘ibot-tashviqotlarga nisbatan ancha yuqori va ta’sirli bo‘ladi.

Sudlovga tegishlilik. Sudlovga tegishlilik sud muhokamasining muhim umumiy shartlaridan biri bo‘lib, qonun talabiga rioya qilinmagan taqdirda hukmni bekor bo‘lishiga olib keladi.

Sudlovga tegishlilik jinoyatning tavsifi va uning kvalifikatsiyasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 389-moddasida jinoyat ishlaring sudlovga tegishliliqi qoidasi berilgan. Unga ko‘ra: yuqori sndlarning va harbiy sndlarning sudloviga tegishli bo‘lgan ishlardan tashqari hamma jinoyat ishlari tuman (shahar) sudining sudloviga tegishlidir. Bu masala ushbu darslikning

8-bobida atroficha yoritib berilganligi sababli fikrimizni shu yerda muxtasar qilamiz.

Sud majlisida harakat qiluvchi asosiy shaxs (organ) larga sud (sudya), shuningdek jinoyat sudlov ishlarini yuritish sub’ektlari bo‘lgan va aynan shu bosqichda ayblov tarafida faoliyat ko‘rsatuvchi davlat ayblovini qo‘llovchi-prokuror, jabrlanuvchi, uning vakili, qonuniy vakili, fuqaroviylar da’vogar va uning vakili, jamoat ayblovchisi va ular bilan teng vakolatga ega bo‘lgan himoya tarafidagi ishtirokchilar sudlanuvchi, uning himoyachisi, qonuniy vakili, fuqaroviylar javobgar uning vakili, jamoat himoyachisi kiradi. Bu ishtirokchilar har birining protsessual holati o‘ziga xos hususiyatga ega.

Ayniqsa, barchaning diqqat e’tiborida bo‘lgan sudning (sudyaning) mavqeい alohida o‘rin tutadi. Chunki asosiy ishtirokchi sifatida sud ish yuzasidan oxirgi xulosani berish (ayblov yoki oqlov hukmini chiqarish); ish yuzasidan protsessual tergov hujjatlarini mustaqil hal qilish; sud majlisini keyinga qoldirish

(418-modda); jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytarish (419-modda); jinoyat ishini ko'rishni to'xtatish (420-modda); sud majlisida jinoyat ishini tugatish (421-modda); ehtiyot choralarini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish (422-modda); sud majlisiga manfaatdor shaxslarni qo'yish, qo'ymaslik masalasini sudga taqdim etilgan dalillarni ma'qul yoki ma'qul emasligini hal qiladi, eng muhimi majlisni boshqarishga vakolatli hisoblanadi<sup>26</sup>.

O'zbekiston Respublikasi JPK ning 408-moddasida shunday deyilgan:

"Sud majlisida shu sudning raisi, uning o'rinbosari yoki sudya raislik qiladi. Raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qiladi, ishning barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish hamda haqiqatni aniqlash uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hamma choralarни ko'radi, ko'rileyotgan ishga aloqasi bo'limgan holatlarni sud muhokamasiga kiritmaydi.

Raislik qiluvchi sud majlisi zalida tartibga rioya qilinishini ta'minlaydi. Uning farmoyishlari taraflar va barcha hozir bo'lganlar uchun majburiydir. Taraflardan yoki boshqa shaxslardan birortasi raislik qiluvchining harakatlariga e'tiroz bildirgan takdirda bu e'tirozlar sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi"<sup>27</sup>.

Sud majlisida sudyalarga tajribali sudya rahbarlik qiladi, u barcha sud muhokamasi ishtirokchilarining faoliyatini boshqaradi, sud tergovini rejalashtiradi va amalga oshiradi, odil sudlovnii amalga oshirish uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Tuman (shahar) sudining raisi shaxsan o'zi raislik qilish uchun sudyani tayinlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining sud majlislarida sud raisi yoki uning tanlovi bo'yicha rais o'rinbosari, sud hay'atining raisi yoki uning tayinlovi bo'yicha tegishli sudning sudyasi raislik qiladi. "Sud majlisida raislik qiluvchining rahbarligi sud protsessining tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlab, ish xolatini tartibli ravishda ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi". "Sud muhokamasida raislik qiluvchining aniq harakatlari, xalq masalahatchilarini masalahatlashuvi va taraflar bilan fikrlashuvi protsessual qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda ish olib borishi, qonunga e'tiqod va e'tirof bilan yondashuvi protsess ishtirokchilaridan ham shuni talab qilishi uchun zamin hozirlaydi. Sud tarkibi ishni ko'rishda uni har tomonlama, to'la va holisona tekshirilishini ta'minlash choralarini ko'rishi, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni aniqlashi lozim. Shuningdek ish

<sup>26</sup> Sahaddinov S.M. Yarashuv instituti: ilmiy-nazariy, jinoyat-huquqiy va protsessual asoslari. Monografiya / Mas'ul muharrir: professor Z.F.Inog'omjonova. – Toshkent: TDYI, 2013. – 336 b.

<sup>27</sup> Рахманова. С.М. Рассмотрение уголовного дела в суде первой инстанции. Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2010.

yuzasidan haqiqatni aniqlash uchun faqatgina ishdagi materiallar va dalillar bilangina chegaralanib qolmay o‘z tashabbusi bilan dalillar to‘plashi va tekshirishi lozim.

Sud tarkibi ishni to‘la tekshirish uchun qo‘srimcha dalillar to‘plash, hujjatlarni talab qilib olish, ish yuzasidan sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertni so‘roq qilish, ariza va iltimoslarni qabul qilish, tanaffus e’lon qilish, qidiruv e’lon qilish, ish yuzasidan kelmagan jabrlanuvchi va guvochlarni majburiy keltirish, sud tartibini buzganlarga choralar ko‘rish, sud muhokamasi paytida sudga hurmatsizlik qilganlarga choralar ko‘rish huquqiga ega.

“Sud tarkibiga sud muhokamasida bo‘lgan ishning barcha holatlarini har tomonlama, to‘la va holisona tekshirib xal qilish, iltimos va arizalarni ko‘rib chiqib, sudning qarorini bildirish, tarjimon bilan ta’minalash, qonunga so‘zsiz bo‘ysinish, ob’ektiv haqiqatni aniqlash, sudlanuvchi shaxsni qonun asosida aybdor deb topib, jazo belgilash, sud muhokamasida tilga e’tibor berish, sud muhokamasining bevositaligini, og‘zakilagini va oshkorligini ta’minalash, zarur hollarda yopiq sud majlisi o‘tkazish, sud muhokamasining tarbiyaviy ta’sirini oshirish va sudga bo‘lgan hurmatni oshirish majburiyatlari yuklatiladi”<sup>28</sup>.

Sud muhokamasida raislik qiluvchi boshqa ishtirokchilarga nisbatan alohida vakolatlarga ega: sud muhokamasiga tayyorgarlik bilan bog‘liq harakatlarni bajaradi, sud majlisini kuni, joyi va vaqtini belgilaydi, sud majlisini ochiq deb e’lon qiladi, sud majlisiga kelmay qolgan ishtirokchilarsiz ishni davom ettirish haqida taraflarning fikrini suraydi. Sudlanuvchi shaxsini aniqlagach sud tarkibi va protsess ishtirokchilarini e’lon qiladi. Shuningdek, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, ekspert va mutaxassislarga huquq va burchlarini tushuntiradi.

Sud muhokamasining barcha ishtirokchilari va sud majlisi zalida qatnashuvchi fuqarolar ham raislik qiluvchining barcha farmoyish va talablarini so‘zsiz bajarishlari kerak. Sud majlisini tartibini buzgan guvochlarni va boshqa fuqarolarni ular tartibni takror buzgan taqdirda ogohlantiradi va sud zalidan chiqarib yuborish huquqiga egadir.

Sud muhokamasi paytida raislik etuvchi, tushgan ariza va iltimoslar to‘g‘risida taraflar fikrini so‘raydi, ishga aloqasi bo‘lmagan mazmundagi savollarni chiqarib tashlash huquqiga ega. Sud muhokamasida rahbarlikni raislik qiluvchi sudya amalga oshirsa-da, ish yuzasidan dalillarni tekshirish, o‘rganish va baho berish hay’at ishtirokida hal qilinadi. Ishni muhokama qilishda kelib

<sup>28</sup> Sh.Inomjonov. Jinoyat protsessida dalillar taqdim qilish va foydalanish muammolari. Ilmiy-uslubiy qo’llanma. – T.: “Adolat”, 2003.

chiqqan, hay'atda ko'rishni talab qiluvchi masalalar, ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Agar raislik qiluvchining fikri to'g'risida xalq masalahatchilarining birida ikkilanish paydo bo'lsa, bu masala ham hay'at a'zolari ishtirokida ko'rib chiqib hal qilinadi. Sud (sudya va xalq masalaxatchilari) ning huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi JPK sining 13-moddasida bat afsil o'z ifodasini topgan.

Sud muhokamasining ishtirokchilari hisoblangan xalq masalahatchilari ham o'zlarining huquq va burchlarini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksiga binoan amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 13-moddasida "Ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay'atda ko'rilmaga sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq masalahatchisi kiradi. Odil sudlovni amalga oshirishda xalq masalahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar.

Ular sud majlisida ishni ko'rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egadirlar deyilgan. Sud hay'atida ikki nafar xalq masalahatchilarining ishtirok etishi aholini odil sudlov o'tkazilishiga jalb etish vositasi sifatida tan olinadi. Sud masalahatchilari birinchi instansiya sudi tomonidan jinoyat ishi ko'rilmaga bevosita ishtirok etadilar. Ular sud muhokamidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda, sud bayonnomasiga nisbatan bo'lgan shikoyatlarni yechishda, xilma-xil protsessual savollarni hal qilish va hukmni ijro etishda vujudga keladigan savollarni yechishda bevosita sudya bilan birqalikda ishtirok etadilar

va

o'z

fikr-mulohazalarini sudyaga yetkazib, ushbu savollar bo'yicha kelib chiqqan muammolarni hal qilish huquqiga egadirlar. Agar xalq masalahatchisining fikri raislik qiluvchi sudyaning fikriga to'g'ri kelmasa, raislik qiluvchi sudya unga qaysi qonun talablariga binoan xalq masalahatchisining fikri noto'g'ri bo'lishini tushuntirib berishi shart.

Sud majlisida raislik qiluvchining yakka o'zi hal qiladigan ayrim masalalar ham sud tarkibi nazorati ostida bo'ladi. Masalan, sud muhokamasi paytida sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi tartibni buzganda ularni sud zalidan chiqarish uchun xalq masalahatchisining fikrini surishtirib keyin hal qiladi.

Sud muhokamasining ishtirokchilaridan biri bo'lgan prokuror sudda davlat nomidan ayblovni qo'llab quvvatlaydi. "Prokuror jinoyat protsessining barcha bosqichlarida keng vakolatlarga ega bo'lib xususan sud muhokamasi bosqichida davlat nomidan ayblovni qo'llab-quvvatlovchi mansabdor shaxs funksiyasini bajaradi hamda sudda taraflardan birining mavqeini, holatini, o'rnini egallaydi".

Prokuror sud muhokamasi vaqtida ham qonun buzilishining har qanday ko‘rinishlariga sudning e’tiborini tortadi, sud tomonidan qonun buzilishiga yo‘l qo‘yilganda bu haqda sudga aytish huquqiga ega. Sud muhokamasida prokuror sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarga, ekspert va mutaxassislarga savol berib javob olish, iltimoslar qilish, dalillar keltirish, qo‘sishimcha guvohlar va hujjalalar talab qilish, dalillarga baho berib, o‘z fikrini bayon qilish, aybdor shaxsga jazo turi va muddatini belgilash to‘g‘risida o‘z fikrini bildirish huquqiga ega.

Prokurorning sud muhokamasida ish yuzasidan qilgan iltimos va talablari sud uchun majburiy bo‘lmay umumiy asoslarda hal qilinadi. Shuningdek, prokurorning sudlanuvchiga nisbatan jinoyat qonunini qo‘llash va jazo belgilash haqidagi fikrlari ham sud uchun majburiy emas. Sud ishga ob’ektiv yondoshgan holda sud holatlarini hisobga olib, bir xulosaga keladi<sup>29</sup>.

Sud muhokamasida prokuror protsessning odiy ishtirokchisi u farmoyish berish huquqiga emas, sud muhokamasining ishtirokchilariga ham ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlar bera olmaydi, lekin sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish hamda dalillarni tekshirib, baho berishda faol ishtirok etishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 409-moddasida sud muhokamasida ishtirok etayotgan prokurorning huquq va majburiyatları ko‘rsatilgan. Prokuror birinchi instansiya sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko‘rishda ishtirok etib, davlat ayblovini quvvatlaydi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, sudlanuvchilarga, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va sudga taklif etilgan boshqa shaxslarga savollar beradi.

Jinoyat kodeksining normalarini qo‘llash, sudlanuvchining harakatlarini tavsiflash, unga jazo turini va me’yorlarini tayinlash to‘g‘risida hamda sud hal etishi lozim bo‘lgan boshqa masalalar yuzasidan o‘z fikrini bayon qiladi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar xususida o‘z fikrini bildiradi.

Prokuror davlat ayblovini quvvatlar ekan, ushbu kodeksning, O‘zbekiston Respublikasi boshqa qonunlarining talablariga va ishning barcha holatlarini qarab chiqishga assoslangan o‘z ishonchiga amal qiladi. Sud tergovi ma’lumotlari asosida prokuror sudlanuvchiga qo‘ylgan ayblovni o‘zgartirish zarur degan xulosaga kelsa, u haqda sudga asoslantirilgan bayonot berishi shart. Sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergovi ma’lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi degan qat’iy xulasaga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va voz kechish sabablarini sudga bayon qilishi shart.

<sup>29</sup> Николаева Т.П. Деятельность защитника на судебном следствии. – М.: Саратов: Саратовский университет, 2017. – 548 с.

Prokuror ayblovning mazmunini o‘zgartirish yoki ayblovdan voz kechish sabablari xususidagi fikrini sudga yozma ravishda taqdim etadi. Prokuror fuqarolarning huquqlari va jamiyat manfaatlarini muhofaza etish niyatida da’vo qo‘zg‘atishi yoki jabrlanuvchi tomonidan qo‘zg‘atilgan fuqaroviy da’voni quvvatlash huquqiga ega<sup>30</sup>.

Sud muhokamasida prokurorning ishtirok etishi bevosita prokuror nazoratini amalga oshirishning bir tarmog‘i hisoblanadi. Prokuror ishni har tomonlama, to‘liq, holisona va o‘z vaqtida muhokama qilishda qonun talablarining bajarilishi, asoslangan ajrim yoki qarorlarning chiqarilishi va ularning so‘zsiz ijro etilishi uchun jonbozlik ko‘rsatadi.

Prokuror sud majlisiga kelmay qolsa, jinoyat ishini muhokama qilish keyinga qoldiriladi. Prokuror sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysinishi prinsipiga qat’iy rioya qilgan holda odil sudlovning maqsadlari va sudning vazifalarini amalga oshirishga ko‘maklashadi. “Sudlar tomonidan jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishda prokurorning.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida“gi (yangi tahrirda) gi qonuning 27-moddasida: “Prokuror sud jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi, ularning faqat qonunga bo‘ysinishi prinsipiga qat’iy rioya etishi, o‘z faoliyati bilan odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashishi shart” deb belgilangan.

Prokuror uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmaganligi to‘g‘risida sud tegishlicha yuqori turuvchi prokurorga xabar qiladi. Voyaga yetmaganlarni, davlat siri bilan bog‘liq bo‘lgan, odam o‘ldirish va boshqa og‘ir jinoyatlar sodir qilganlik haqidagi jinoiy ishlar sud muhokamasida ko‘rilayotganda hamda prokuror qatnashishi zarur deb topilgan hollarda prokuror sud muhokamasida albatta ishtirok etishi shart.

Prokurorning ayblovdan voz kechishi, sud tomonidan sud muhokamasini davom ettirishi, sudlanuvchining aybdor yoki aybsizligi masalasini xal qilishi uchun to‘sinqinlik qilmaydi va sudni bu majburiyatdan ozod etmaydi<sup>31</sup>. Prokuror sudning chiqargan noqonuniy va asossiz qaroriga nisbatan ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar protest keltirishga majbur. Sud muhokamasida prokuror umumiyl qoidaga bo‘ysunadi, raislik qiluvchining farmoyish va talablari boshqa ishtirokchilari bilan bir qatorda prokuror uchun ham majburiydir. Sud muhokamasining ishtirokchilaridan bo‘lgan himoyachi (advokat) sudlanuvchiga

<sup>30</sup> Чашин А.Н. Особый порядок судебного разбирательства в уголовном процессе . – М.: Дело и сервис (ДиС), 2016. – 528 с.

<sup>31</sup> kontrol va nazoratning tarixiy, tashkiliy va protsessual jihatlari. Monografiya. T., 2015. – 137 b.

konstitutsiyaviy va protsessual huquqlarni amalga oshirishda, sud muhokamasida uning qonuniy manfaatlarini himoya qilib, zaruriy yuridik yordam beradi.

Himoyachi sudlanuvchining har qanday manfaatlarini emas, balki uning faqat qonuniy manfaatlarini, qonuniy himoya vositalari hamda usullari bilan himoya qilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 53-moddasida himoyasi ishning suddagi muhokamasida taraf sifatida ishtirok etadi va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat keltirish, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish va u haqida o‘z mulohazalarini bildirish, ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish, apellyatsiya, cassatsiya va nazorat instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi deb yozilgan.

Shuningdek, himoyachi sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi, ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtidan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga xaqli emas. Himoyachi sud muhokamasining barcha qismlarida boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Himoyachi sud muhokamasida dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, raddiya beradi, sudlanuvchini oqlovchi yoki uni javobgarligini yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga yordam beradi, yangi dalillarni talab qilib olish va ishga qo‘sishni suddan iltimos qiladi, shuningdek ish yuzasidan har xil iltimoslar qiladi, ishda ishtirok etayotgan boshqa ishtirokchilarning iltimoslari yuzasidan sudlanuvchini himoya qilish nuqtai nazaridan sudga o‘z fikrini bildiradi, sud muzokaralarida ishtirok etib, himoya nutqini so‘zlaydi. Sud muhokamasining boshqa ishtirokchilari kabi himoyachi ham dalillarni o‘zining ichki ishonchi bilan qonun asosida sudlanuvchining manfaatidan kelib chiqib baholaydi.

“Sud muhokamasida bir yoki bir necha himoyachi ishtirok etishi mumkin. Qonunda ishda ishtirok etuvchi himoyachilarning soni belgilanmaganligi sababli bitta sudlanuvchining bir necha himoyachi himoya qilishi mumkin. Shuningdek sud muhokamasida agar ikki va undan ortiq sudlanuvchining manfaatlari bir-biriga zid kelmasa ularni bitta himoyachi himoya qilishi mumkin”.

O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 51-moddasining talabiga ko‘ra sud muhokamasida: voyaga yetmaganlar, soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o‘zini-o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladiganlarning, sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydiganlarning, sudlanuvchilarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo‘lsa, jamoat ayblanuvchisi yoki jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etsa, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi jinoiy ishlari bo‘yicha himoyachining ishtirok etishi majburiydir.

Himoyachi boshqa bir jinoiy ish yuzasidan sud muhokamasida qatnashayotgan bo‘lsa yoki boshqa sabablariga ko‘ra sud majlisiga kela olmasa sudlanuvchining roziligi bilan boshqa himoyachiga almashtirilishi mumkin.

Sud muhokamasida sudlanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan himoyachi uni himoya qilishdan bosh tortishga haqli emas. U qonunda ko‘rsatilgan barcha usul va vositalar bilan sudlanuvchini himoya qilishi shart. “Himoyachi sud muhokamasida qatnashib, ish holatlari unga ma’lum bo‘lgan taqdirda ham guvoh sifatida so‘roq qilinmaydi. Himoyachi sudlanuvchining o‘rnida emas balki u bilan birga sud muhokamasida ishtirok etadi”.

Himoyachi sud muhokamasida faol ishtiroki bilan sudlanuvchiga nisbatan sud tomonidan jinoyat qonunini va jazoni to‘g‘ri belgilashda yordam beradi. Himoyachi jinoiy ishda ishtirok eta turib qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega. Bu O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida” gi 1998-yil 25-dekabr qonunida o‘z ifodasini topgan.

“Sud muhokamasida jinoiy ish yuzasidan sudlanuvchi va jabrlanuvchining ish joyidan, yashash joyidan va boshqa jamoat tashkilotlaridan vakillar qatnashishi mumkin. Ular sud muhokamasida o‘z manfaatini himoya qiluvchi shaxslardan farq qilib, mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti manfaatlarini himoya qiladilar. Albatta, bu manfaatlar sud muhokamasida bo‘lgan jinoiy ish bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda amalga oshiriladi. Bu vakillar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etadilar. Ular korxona, muassasa, tashkilot va xo‘jaliklarning umumiy yig‘ilishlari qarori bilan saylanadilar, shu yig‘ilish bayonnomalarining nusxasi sudga taqdim etilgan taqdirda sudning ajrimi asosida sud muhokamasida qatnashadilar”. Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasida qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Jamoat ayblovchisiga sudlanuvchiga qo‘yilgan aybni isbotlash majburiyati yuklatilmaydi. Ular faqat guruh yoki jamoatchilik fikrini bayon qiladi. Jamoat himoyachisi dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, iltimoslar qiladi, sud muzokaralarida ishtirok etadi, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi, uni oqlovchi holatlar to‘g‘risida, sudlanuvchiga beriladigan jazoni yumshatish, uni jazodan ozod qilish, uni mehnat jamoasi kafilligiga berishni suddan iltimos qilishi mumkin.

Jamoat himoyachisining sud muhokamasida tutagan pozitsiyasi sudlanuvchining va uning himoyachisining pozitsiyasi bilan bog‘liq emas. U jamoa yoki jamoat tashkilotining fikrini bayon etadi. “Jamoat ayblovchisi va

jamoat himoyachisi sud muhokamasida mustaqil bo‘lib, boshqa ishtirokchilar kabi ish yuzasidan dalillarni tekshirish, dalillar keltirish, iltimoslar qilishda teng huquqlardan foydalanadilar”. “Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasiga qo‘yilgan ish materiallari bilan tanishishlari, ulardan ko‘chirmalar olishlari mumkin. Sud muhokamasida sudlanuvchining aybi o‘z tasdig‘ini topmasa, jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishi mumkin”. Bitta sudlanuvchiga nisbatan bir jamoat tashkiloti yoki mehnat jamoasidan ham jamoat ayblovchisi, ham jamoat himoyachisi qatnashishi mumkin emas. Chunki bunda tashkilot yoki mehnat jamoasining fikri aynan ifoda etilmay koladi. Turli jamoat tashkiloti yoki mehnat jamoasidan bitta sudlanuvchiga nisbatan ham jamoat ayblovchisi, ham jamoat himoyachisi sud muhokamasida qatnashishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi JPK 412-moddasining talabiga ko‘ra, “Jamoat ayblovchisi yoki jamoat ximoyachisi sudga kelmay qolsa, ishning holatlariga qarab, sud ishni ular ishtirokisiz ko‘rish mumkinligi yoki muhokamani keyingi qoldirish masalasini hal etadi”. Ularni kelmaganligi to‘g‘risida ularni yuborgan tashkilot yoki mehnat jamoasiga xabar beriladi.

Sud muhokamasida voyaga yetmaganlarning jinoiy ishlari ko‘rilayotganida jamoat vakillari sifatida sud tomonidan uni ish, o‘qish joyi yoki yashash joyidan vakillar, shuningdek voyaga yetmaganlar bilan shug‘ullanuvchi komissiya xodimlari, ota-onalari, qonuniy vakillari, yaqin qarindoshlari hamda homiy va vasiylari chaqirilishi mumkin. Zarur hollarda bu vakillar guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 43-44-moddalarida jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisining huquq va majburiyatları bayon etilgan. Unga ko‘ra, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi ish materiallari bilan tanishishga, dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnomalar berishga, taraflarning muzokaralarida so‘zga chiqib, jamoat ayblovchisi ayblovning isbotlanganligi haqida, jamoat himoyachisi sudlanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlar xususida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishga haqli. Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasida ishtirok etish, jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilish va ishda sudlanuvchining ahvolini yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga ko‘maklashishi shart.

Birinchi instansiya sudlarining sud majlislarida ishlar sudlanuvchilarning ishtirokida ko‘riladi. Sudlanuvchi huquqlarining kafolati jumladan sud majlisida uning ishtirok etishining majburiyligidir. Bu masala JPK ning 410-moddasida ham qayd etilgan. Sudlanuvchi sud majlisiga kelmasa, ishni muhokama qilish

keyingi qoldirilishi lozim. Sudga kelmagan sudlanuvchini sud majburiy keltirishga shuningdek unga nisbatan ehtiyyot chorasi qo'llashga yoki ehtiyyot chorasi turini o'zgartirishga haqlidir. Ishning sudlanuvchining ishtirokisiz muhokama qilinishiga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

1. Sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan va sudga kelishdan buyin tovlagan, uning yo'qligi ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga monelik qilmagan taqdirda;

2. JPK ning 272-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan bo'lsa, yo'l qo'yilishi mumkin.

Dalillarni to'liq va har tomonlama tadqiq qilish va tekshirilishini ta'minlash maqsadida sud ishni sudlanuvchisiz ko'rib chiqish uchun asoslar bo'lgan taqdirda ham, sud muhokamasida sudlanuvchining ishtiroki majburiy deb topishi mumkin. "Sud muhokamasida ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishi va sudlanuvchining himoya huquqini ta'minlash maqsadida sudlanuvchining sud majlisida qatnashishi shartdir".

Sudlanuvchi sud muhokamasida rad javobi berishi, o'zini-o'zi himoya qilish yoki himoyachi olish, ariza va iltimoslar berish, boshqa ishtirokchilarining iltimoslari yuzasidan o'z fikrini aytish, suddagi ishga qo'shish uchun hujjatlar taqdim qilish, qo'shimcha guvohlar chaqirishni va hujjatlarni so'rab olishni talab qilish, ekspertiza tayinlashni so'rash, sud tergovining xohlagan paytida tushuntirish berish, suddan ayrim hujjatlar va ko'rsatuvlari o'qib eshittirishni so'rash, boshqa sudlanuvchilarga, jabrlanuvchi, guvohlar, ekspert, fuqarolik da'vogari va boshqalarga savol berish, dalillar taqdim qilish, voqeа joyini ko'zdan kechirishda qatnashish, agar himoyachi bo'lmasa sud muzokaralarida himoya so'zini hamda oxirgi so'z so'zlash huquqiga ega. Shuningdek sudlanuvchiga sud muhokamasida qatnashish sud majlisi tartibini buzmaslik majburiyati ham yuklatiladi.

Sudlanuvchi sud muhokamasida tartibni buzgan taqdirda raislik qiluvchi tomonidan ogohlantiriladi. Agar takroran tartibni buzsa, sud ajrimi bilan sud zalidan chiqarilib, sud muhokamasi uning ishtirokisiz davom ettiriladi. Lekin sudlanuvchining ishi bo'yicha chiqarilgan hukm uning ishtirokida o'qib eshittiriladi. Sud muhokamasining yana bir ishtirokchisi bo'lgan-jabrlanuvchi sud muhokamasida mustaqil va teng huquqlidir. Sud muhokamasida jabrlanuvchi o'zi yoki vakili orqali qatnashib, u moddiy, ma'naviy yoki jismoniy zarar ko'rgan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida quyidagilar qayd etilgan: "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinlarini sud orqali himoya qilish,

davlat organlari mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi”.

Shunga ko‘ra sud muhokamasida jabrlanuvchilar ko‘rsatuv berish yo‘li bilan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini himoya qiladilar. O‘zbekiston Respubliksi JPK ning 54-moddasining talabiga ko‘ra: “Jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida shaxsga ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo‘lgan taqdirda bunday shaxs jabrlanuvchi deb e’tirof etiladi.

Jabrlanuvchi JPK sining 55-moddasiga ko‘ra:

1)Jabrlanuvchi ko‘rsatuv berish, dalillar taqdim qilish; iltimosnomalar berish va rad qilish; o‘z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish; o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish;

2)Qonunda nazarda tutilgan hollarda yarashuv to‘g‘risidagi arizalar berish hamda yarashuv to‘g‘risidagi ishlari bo‘yicha, birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish,

3)sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat keltirish; shaxsan o‘zi yoki vakili orqali sudda ayblovni quvvatlash; sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va u haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish huquqiga egadir.

4)sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lish; haqqoniy ko‘rsatuvalar berishi; haqiqatni aniqlashga, dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sinqinlik qilmasligi;

5)sudning talabi bo‘yicha dalillar taqdim qilishi;

6)sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart;

7)jabrlanuvchi ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuvalar bergenlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo‘ladi;

Jabrlanuvchining o‘limiga olib kelgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlari bo‘yicha ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarni sud tomonidan marhumning qonuniy vakili deb e’tirof etilgan yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar amalga oshiradilar. Sudga dalillar keltirish, iltimoslar qilish, xujjatlar taqdim qilish, keltirilgan moddiy zararni undirishni talab qilish, shikoyat qilish sudlanuvchiga jazo belgilash to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qilish huquqiga ega.

Jabrlanuvchilarga sud muhokamasida qatnashish, to‘g‘ri ko‘rsatuvalar berish, sud majlisi tartibiga rioya qilish majburiyati yuklatiladi. “Jabrlanuvchi sud muhokamasiga kelmay qolgan taqdirda buning oqibatlari O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 411-moddasida bayon etilgan. Unga ko‘ra: “Jabrlanuvchi sud majlisiga kelmasa, sud jabrlanuvchining ishtirokisiz ishdagi barcha holatlarni to‘la aniqlash hamda uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mumkin yoki mumkin emasligiga qarab, jinoyat ishini muhokama qilish yoki keyinga qoldirish masalasini hal etadi“.

Jabrlanuvchi sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmagan taqdirda sud uni majburiy keltirish haqida ajrim chiqaradi. Jabrlanuvchining ko‘rsatuvi faqat o‘zining huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vositasi bo‘lib qolmasdan, balki, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashda muhim hisoblanadi. Ishni muhokama qilish vaqt va joyi to‘g‘risida jabrlanuvchi oldindan xabardor qilinishi kerak.

Sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchisi bo‘lgan fuqarolik da‘vogari va fuqarolik javobgari ma’lum protsessual huquq va burchlarga ega. Fuqaroviylar bo‘lib sud muhokamasida fuqaro, korxona, tashkilot yoki muassasa vakili qatnashishi mumkin. Agar dastlabki tergovda ish yuzasidan fuqaroviylar bo‘vogari deb topilmagan bo‘lsa, sudda sud ajrimi bilan fuqaroviylar bo‘vogari deb topiladi.

Fuqaroviylar bo‘vogarga ham huquq va burchlari tushuntiriladi. Fuqarolik da‘vosi jabrlanuvchi tomonidan berilsa, jabrlanuvchiga fuqaroviylar bo‘vogarning huquq va burchlari tushuntiriladi. Fuqaroviylar bo‘vogar sud muhokamasida-dalillar keltirish, iltimoslar qilish, sud muhokamasida to‘liq qatnashish, fuqaroviylar bo‘vosini qo‘llab-quvvatlash va uni qanoatlantirishni talab qilish, ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilish huquqiga ega. Fuqaroviylar bo‘vogar sud tomonidan talab qilingan hujjatlarni taqdim etishga majburdir.

Fuqaroviylar bo‘vogar sud majlisiga kelmasa, da‘vo ko‘rmay qoldiriladi. Agar da‘voni uning ishtirokisiz ko‘rish haqida fuqaroviylar bo‘vogarning iltimosi bo‘lsa, prokuror fuqarolik da‘vosini qo‘llab-quvvatlasa yoki sud o‘z tashabbusi bilan da‘voni ko‘rib hal qilishni lozim deb topsa, fuqaroviylar bo‘vo ko‘rib chiqiladi. Agar fuqaroviylar bo‘vo sud muhokamasida hal qilinmay qoldirilsa, manfaatdor shaxs sudga fuqarolik tartibida murojaat qilib, da‘voni qo‘zg‘atish huquqi saqlanib qoladi.

Fuqarolik javobgar ham sud muhokamasida ishtirok etib, ishni hal qilish vaqtida mustaqil va teng huquqlidir. Ko‘pgina hollarda fuqaroviylar javobgar

sudlanuvchi shaxs bo‘ladi. Jabrlanuvchini moddiy manfaatini yaxshiroq ta’minlash maqsadida fuqaroviylar javobgar sifatida sud muhokamasiga sudlanuvchining ota-onasi, qonuniy vakillari, yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar jalgan qilinishi mumkin. Shuningdek sudlanuvchining jinoiy harakatlari tufayli keltirilgan zarar uchun moddiy javobgar bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ham fuqarolik javobgari bo‘lishi mumkin. Voyaga yetmaganlar jinoiy ishlari yuzasidan ularning ota-onasi, o‘quv yurti, voyaga yetmagan shaxs da’volanayotgan tibbiy muassasa, homiy va vasiylar fuqaroviylar javobgar sifatida jalgan qilinishi mumkin.

Fuqaroviylar javobgar: ayblov va fuqaroviylar da’voning mazmunini bilish; da’voga e’tiroz bildirish; tushuntirish berish; o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; dalillar taqdim qilish; iltimosnomalar berish va rad qilish, birinchi instansiya apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudining majlislarida ishtirok etish, sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud hukmi va ajrimining fuqaroviylar da’voga tegishli qismi ustidan shikoyatlar berish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyat va protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Fuqaroviylar javobgar sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviylar da’voga tegishli bo‘lgan dalillar taqdim qilish; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi, sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Fuqaroviylar javobgar yoki uning vakilining sud majlisiga kelmasligi fuqaroviylar da’voni ko‘rishni to‘xtatmaydi. Ishni ko‘rish uning ishtirokisiz davom ettiriladi. Sud muhokamasida fuqaroviylar javobgarlarning nomidan ularning vakillari qatnashishga yo‘l qo‘yiladi. Vakil sifatida ota-onalari, yaqin qarindoshlari, korxona, tashkilot, muassasa vakillari, homiy va vasiylar, advokatlar ham qatnashishi mumkin. Vakillar ko‘rsatuv berishdan tashqari barcha harakatlarni bajaradi. Ular sud muhokamasida o‘z bilganlari yuzasidan guvoh sifatida so‘roq qilinishlari mumkin.

Sud muhokamasi ishtirokchilari bo‘lgan guvohlar va ekspertlar yolg‘on ko‘rgazma yoki xulosa bergen taqdirda hamda ko‘rsatuv yoki xulosa berishdan bosh tortganda O‘zbekiston Respublikasi JKning 238-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Shuningdek tarjimonga nisbatan ham yolg‘on yoki noto‘g‘ri yoxud to‘liq bo‘lmagan holda tarjima qilgan taqdirda guvohlarga qo‘llangan choralar qo‘llanishi mumkin.

Sud muhokamasida maxsus bilim talab qilinadigan hollarda yoki ekspert xulosasi kerak bo‘lib qolganda ekspert chaqirilishi mumkin. Shuningdek ekspert bergen xulosasida kamchilik bo‘lib qolgan taqdirda ekspert sud muhokamasiga chaqirilib so‘ralishi mumkin. Sud muhokamasida ekspert shu holatlarni tekshirish, o‘z xulosasiga aniqlik kiritish maqsadida sudning ruxsati bilan sudlanuvchiga, jabrlanuvchiga va guvohlarga savollar berishi mumkin. Ekspert xulosasini yozma ravishda beradi. Ekspertning xulosasi sud tomonidan o‘qib eshittiriladi. Shu xulosa yuzasidan ekspertga savollar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 69-moddasida sud muhokamasida mutaxassisning ishtiroki to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, shunga ko‘ra mutaxassis sudning chaqiruviga ko‘ra sud muhokamasiga kelishi, sudga dalillar topish, o‘rganish va mustahkamlashda o‘zining maxsus bilimi bilan yordam berishi, sudning diqqatini ish yuzasidan ma’lum bir holatlarni aniqlashga jalg etishi, alohida savollarga tushuntirish berishi kerak. Shuningdek mutaxassislar raislik qiluvchining ruxsati bilan dalillarni tekshirish maqsadida ishtirokchilarga savollar berish huquqiga ega.

Mutaxassisga to‘g‘ri va aniq tushuntirish berish majburiyati yuklatilgan. Mutaxassis o‘z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan yoki bo‘yin tovlagan taqdirda unga nisbatan jamoat ta’siri choralarini yoki sud tomonidan jarima solinishi mumkin. Sud muhokamasida voyaga yetmagan shaxslarni so‘roq qilish vaqtida pedagog taklif qilinishi mumkin.

Sud muhokamasida o‘lim bilan bog‘liq jinoiy ishlar ko‘rilayotganida vrach yoki sud tibbiyot ekspertizasi xodimlari, ishdagi tekshirilayotgan dalillarga qarab O‘zbekiston Respublikasi IIV ga qarashli kriminalistika bo‘limlari xodimlari, sud ekspertiza institutlari yoki labaratoriyalarning xodimlari ham jalg etilishi mumkin.

Sud muhokamasida mutaxassislarning bergen bayonotlari dalillarga baho berishda katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi JPK sining tegishli moddalarida sud muhokamasining ishtirokchilarini bo‘lgan ayblovchi, himoyachi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, fuqaroviylar da‘vogar va fuqaroviylar javobgar, ish yuzasidan dalillar keltirish va tekshirishda, iltimoslar qilishda va boshqa harakatlarda teng huquqqa ega ekanliklari ko‘rsatilgan.

Sud muhokamasi ishtirokchilarining teng huquqliligi sudlarda jinoiy ishlar yuzasidan odil sudlovni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sud muhokamasi ishtirokchilarining teng huquqliligi har bir ishni har tomonlama,

to‘la va xolisona ko‘rib chiqilishiga xizmat qilsa, ularning manfaatdorligi va faolligi, sud tomonidan ishni to‘g‘ri hal qilinishiga yordam beradi.

## **Nazorat savollari**

1. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash yoxud boshqacha qaror qabul qilish tartibi qanday?
2. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash chog‘ida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risidagi qarorda nimalar ko‘rsatiladi?
4. Jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash chog‘ida jinoyat ishini yuritish qaysi tartibda to‘xtatiladi va tugatiladi?
5. Protsess ishtirokchilari jinoyat ishi materiallari qanday tartibda tanishtiriladi?
6. Sud muhokamasi ishtirokchilari sud majlisiga chaqirish tartibi qanday?
7. Sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilishni boshlash muddati qanday hisoblanadi?
8. Jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligi tushunchasi va uning jinoyat protsessida ahamiyatini tushuntiring.
9. Sudlovga tegishlilik institutini tavsiflovchi belgilarni ayting.
10. Jinoyat ishlari birlashtirilganda ularning sudlovga tegishliligi belgilanishining o‘ziga xos jihatlari haqida gapiring.
11. Jinoyat ishining sudlovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazilish mexanizmini tushuntiring.
12. Sudlovga tegishlilik xususida tortishuvga yo‘l qo‘yilmasligi prinsipining amaliy ahamiyatini ayting.
13. Xalq maslahatchisi sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirda kim uning o‘rnini egallaydi va ishni muhokama qilish davom etadi?
14. Prokuror sud majlisiga kelmay qolgan taqdirda nima bo`ladi?
15. Sudda jinoyat ishini muhokama qilish faqat kimga nisbatan olib boriladi?
16. Kim ayblovni o‘zgartirishga haqli?
17. Sud berilgan iltimosnomasi bo‘yicha uni qanoatlantirish to‘g‘risida yoki qanoatlantirmasdan qoldirish haqida nima chiqaradi?
18. Sud kim tomonidan taqdim etilgan materiallar bo‘yicha taraflarning fikrini aniqlaydi va ularni jinoyat ishiga qo‘sib qo‘yish haqida ajrim chiqaradi?
19. Jinoyat ishini ko‘rishi to‘xtatish qanday hollarda bo`ladi?
20. Sudda bayonnomaning to‘liq bo‘lishini ta’minlash uchun nimalardan foydalanish mumkin?
21. Sud majlisining bayonnomasi hukmi necha kunda imzolanishi kerak?

22. Kim sud majlisini ochish huquqiga ega?
23. Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituvni o‘tkazishda qanday masalalar ko‘rib chiqiladi?
24. Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituvni o‘tkazish muddatlari qancha?
25. Jinoyat ishini sudda to‘xtatish mumkinmi?

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

**1-amaliy mashg‘ulot. Xususiy huquq tizimida fuqarolik huquqining o‘rnini aniqlash. Yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllari konstruksiyalarini tahlil qilish**

### **Amaliy mashg`ulot materiallari**

#### **1-amaliy topshiriq**

Fuqaro yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan o‘z uyida pishirgan shirinliklarni avtobus bekatida ko‘chma savdoni tashkil etish yo‘li bilan sotishni yo‘lga qo‘ydi. 1 oydan so‘ng tuman soliq inspeksiysi xodimlari fuqaroni yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tib, belgilangan soliqlarni to‘lashi haqida ogohlantirishdi. Ammo fuqaro pandemiya sharoitida ko‘chma savdoga erkin ruxsat berilganini vaj qilib, soliq organining e’tirozlarini inkor etdi va o‘z faoliyatini hech ikkilanmay davom ettirdi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

#### **2-amaliy topshiriq**

Fuqaro Salimova Malika juda mirishkor ayol. Uyda o‘tirib oilasiga qo‘sishimcha daromad keltirish uchun doim harakat qiladi. Qaramog‘ida 30ga yaqin tovuq va xo‘rozlari, 4ga yaqin sog‘in sigirlari ham bor. 14 sotix hovlisiga poliz ekinlari ekib yetishtiradi. Ro‘zg‘ordan orttirib ko‘cha boshidagi do‘konchaga ham har kuni sut, qatiq, tuxum va poliz mahsulotlarini yetkazib turadi. Fuqaro Salimova Malikani mahalladagilar “tadbirkor ayol” deb maqtaydi.

*Qonun nuqtai nazaridan fuqaro Salimova Malikaning daromad olishi tadbirkorlik hisoblanadimi?*

#### **3- amaliy topshiriq**

“Yulduz” MChJ Ipoteqa ATIB Mirobod filialidan 95 mln so‘mlik kredit olish uchun garov sifatida o‘ziga tegishli bo‘lgan tennis korti binosini garovga qo‘ydi. Oradan bir oy o‘tgach MChJ da ulushga ega bo‘lgan G‘aniev MChJ ning tennis korti binosini garovga qo‘yish masalasi muhokama qilingan umumiyligiga qatnashmaganligi hamda yuqorida nazarda tutilgan summadagi kredit shartnomasi yirik bitim hisoblanganligi tufayli mazkur shartnomani haqiqiy emas deb topish haqida Toshkent shahar Xo‘jalik sudiga da’vo yuilan chiqdi. Toshkent shahar Xo‘jalik sudi tomonidan Yulduz MChJ ning tennis korti binosini garovga qo‘yish masalasi muhokama qilingan umumiyligiga qatnashmaganligi haqiqiy emas deb topilib, mazkur tennis korti

binosini garovga qo'yish haqidagi bank bilan tuzilgan garov shartnomasi ham bekor qilindi. Natijada Yulduz MChJ va ATIB Mirobod filiali o'rtasidagi kredit shartnomasi garov bilan ta'minlanmay qoldi.

*Mazkur vaziyatda yurist sifatida bankka qanday yo'l tutishi mumkinligi haqida maslahat bering.*

*MChJda ulushlarga ega bo'lingan sheriklarning huqulariga to'xtalib, yirik bitimning mohiyatini ochib bering.*

*Mazkur kazusga javob yozishda turli olimlarning mulohazalaridan iqtiboslar keltiring.*

#### **4-amaliy topshiriq**

Fuqaro M.Boltaev o'z oilasi bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun oilaviy korxona tashkil qilgan edi. U shu tumanda joylashgan "Chicken star" MChJ bilan sut va go'sht maxsulotlari yetkazib berish bo'yicha shartnoma imzolagan edi. Shartnoma shartlariga ko'ra M.Boltayev har oyda 2000 litr sut va 1000 kg mol go'shtini yetkazib berishi kerak edi. Go'sht va sut savdosi bilan shug'ullanadigan "Chicken star" MChJ esa bu tovarlar pulini xar oyning boshida va o'rtasida ikkiga bo'lib to'lashi lozim edi. Ammo M.Boltayev shartnoma shartlarini buzib bir necha oy davomida kelishilgan mahsulotni yetkazib bermadi. Natijada "Chicken star" MChJ yetkazilgan zararni undirish uchun sudga murojaat qildi. Sud yetkazilgan zarar M.Boltaevning oilaviy korxonasingning mulkidan undirish, bu mulk yetmagan summa esa oilaviy korxona ishtirokchilari va unda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarning mulkidan subsidiar tarzda undirish haqida qaror chiqardi. Oilaviy korxona raxbari M.Boltayev esa sudning bu qarori ustidan yuqori instansiyaga shikoyat qilib, zarar faqat oilaviy korxonaning mulkidan undirilishi kerakligini aytdi. Yuqori instansiya sudi esa quyi instansiya sudining qarorini qisman o'zgartirib, faqat oilaviy korxonada mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarni mulkidan undirilsin degan qismini bekor qildi. Qolgan qismini esa o'zgarishsiz qoldirdi.

*Vaziyatni qonunchilik asosida tahlil qiling.*

#### **5-amaliy topshiriq**

"CryptoTrade" blokcheyn korporatsiyasi raqamli aktivlar bilan savdo qilish faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan. Kompaniya o'z faoliyatini markazlashmagan tizimda smart-kontrakt orqali amalga oshiradi va barcha qarorlar token egalari tomonidan ovoz berish orqali qabul qilinadi. Kompaniya mijozlari kriptovalyutada sarmoya kiritib, raqamli aktivlar olishgan. Ammo sun'iy intellekt tizimidagi texnik nosozlik tufayli bir necha mijozlarning raqamli

aktivlari yo'qolgan. Natijada mijozlar yetkazilgan zararni qoplash talabi bilan sudga murojaat qilishgan. Sud jarayonida "CryptoTrade" vakillari sun'iy intellekt tizimidagi nosozlik uchun kompaniya javobgar emasligini ta'kidlashdi.

*Vaziyatni qonunchilik asosida tahlil qiling.*

## **6-amaliy topshiriq**

"Digital Assets" kriptokompaniyasi kriptovalyutalar va NFT-tokenlar chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Kompaniya mijizi A.Salimov 50 000 USDT kriptovalyutasini kompaniyaning smart-kontrakti orqali investitsiya qilgan va buning evaziga NFT-tokenlar olgan. Sharhnomalariga ko'ra, A.Salimov har oyda o'z tokenlaridan 10% daromad olishi kerak edi. Ammo kompaniyaning sun'iy intellekt tizimi xatoligi tufayli A.Salimovning tokenlariga aloqador smart-kontrakt bajarilmagan va u 6 oy davomida daromad ololmagan. A.Salimov yetkazilgan zararni undirish va sharhnomani bekor qilish talabi bilan sudga murojaat qilgan.

*Vaziyatni qonunchilik asosida tahlil qiling.*

## **7-amaliy topshiriq**

"BlockChain Solutions" blokcheyn korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt tizimlari yordamida avtomatlashtirilgan tarzda boshqariladigan logistika platformasini yaratgan. "Fresh Fruits" MChJ ushbu platforma orqali o'z mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha smart-kontrakt tuzgan. Ammo sun'iy intellekt tizimidagi xatolik tufayli mahsulotlar belgilangan manzilga o'z vaqtida yetkazib berilmagan va buning natijasida "Fresh Fruits" MChJ katta miqdorda zarar ko'rgan. "Fresh Fruits" MChJ yetkazilgan zararni undirish talabi bilan sudga murojaat qilgan. "BlockChain Solutions" esa zararning asosiy qismi uchun sun'iy intellekt tizimi javobgar ekanligini va kompaniya faqat o'z ustav kapitalidagi mablag'lar doirasida javobgar bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.

*Vaziyatni qonunchilik asosida tahlil qiling.*

## **2-amaliy mashg'ulot. Fuqarolik huquqida bitimlar va yangi sharhnomalarning huquqiy konstruksiyalari**

### **Amaliy mashg`ulot materiallari**

#### **1-topshiriq**

Da'vogar MChJ javobgar AJga nisbatan sudga da'vo arizasi bila murojaat qilib, ko'chmas mulkning oldi-sotdi sharhnomasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan, tomonlar o'rtaida ko'chmas mulkning oldi-sotdi sharhnomasi tuzilgan, unga asosan MChJ o'zining balansida bo'lgan ma'muriy binoni

13.629.818 so‘mga sotishni AJ esa ushbu ko‘chmas mulk uchun oldindan 10 kun muddat ichida bo‘nak to‘lashi, qolgan summani bir yil ichida bo‘lib – bo‘lib to‘lash majburiyatini olgan. AJ to‘lovni qisman amalga oshirgandan so‘ng, qabul qilish dalolatnomasiga asosan bino AJga topshirilgan, bino mazkur shartnoma notarial tasdiqlanmagan hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan, AJ to‘lovni to‘liq amalga oshirmsadan binodan foydalanib kelgan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering? Nizo bo‘yicha sud qanday hal qiluv qarorini qabul qilishi lozim, o‘z xulosalangizni fuqarolik qonun hujjatlari asosida hal eting.**

## **2-topshiriq**

Davlat ta’lim muassasasi tegishli o‘quv dasturlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning ta’lim to‘lovlarni to‘lash shartnomalariga binoan mutaxassislarini tayyorlaydi. Davlat ta’lim muassasasi bilan shunday bitim tuzgan talabalardan biri ushbu shartnomaning huquqiy mohiyati to‘g‘risida savol bilan yuridik maslahatxonaga murojaat qildi. Bundan tashqari, u davlat ta’lim muassasasi tomonidan pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tadbirkorlik faoliyati ekanligini va qanday sharoitlarda ta’lim muassasasi bunday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligini tushuntirishni so‘radi.

**Vaziyatga huquqiy yechim berishga harakat qiling.**

## **3-topshiriq**

Fuqaro Islomov o‘zining yaqin tanishi Baxromovdan “Lasetti” rusumli transport vositasini 10.000 \$ to‘lab ishonchnoma asosida oldi. Oradan 6 oy o‘tgandan so‘ng, boshqa tanishi Usmonovga ushbu transport vositasini sotib yubordi. Usmonov oradan 2 yil 6 oy o‘tgandan so‘ng notariusga borib hujjatlarni rasmiylashtirishni talab qildi. Biroq, notariusga borishganida ishonchnoma muddati o‘tganligi, uni yangilash lozimligi sababli oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilmadi.

Shundan so‘ng fuqaro Usmonov fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudga murojaat qilib, FKning 112-moddasiga muvofiq, agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan bitimni to‘la yoki qisman bajargan bo‘lsa, ikkinchi taraf esa – bitimni notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud bitimni bajargan tarafning talabi bo‘yicha uni haqiqiy deb hisoblashga haqlidir. Bu holda bitimni keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmasligi sababli bitimni tasdiqlab berishni so‘radi.

Agar Islomov tomonidan berilgan ishonchnoma bekor qilingan bo‘lsa vaziyat o‘zgaradimi? Da’vo muddatini qo‘llash haqidagi talabni qo‘yilishi vaziyatga qanday ta’sir ko‘rsatadi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **4-topshiriq**

“Ezgulik uchun” fondi davlat tomonidan e’lon qilingan grantni qo‘lga kiritish uchun AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan “Butun dunyoga ezgulik ulashamiz” nomli notijorat tashkiloti bilan hamkorlik shartnomasi tuzish taklifini yubordi. Shartnomada taraflar ezgulikka oid tarqatma materiallar, risolalar va uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlash hamda onlayon kurslarda o‘qishni tashkil etish, buning uchun davlat tomonidan e’lon qilingan rasmiy grantlarni qo‘lga kiritish shartini belgiladi va grant olingach shartnoma kuchga kirishini belgilashdi. “Ezgulik uchun” fondi davlat granti olish uchun e’lon qilingan tanlovda g‘olib chiqish uchun mazkur hamkorlik shartnomasini ilova qildi. Tanlov shartlarida xorijlik hamkorlar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasi uchun yuqori ball belgilanganligi sababli, “Ezgulik uchun” fondi davlat grantini qo‘lga kiritdi. Shundan so‘ng “Ezgulik uchun” fondining AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan “Butun dunyoga ezgulik ulashamiz” nomli notijorat tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi kuchga kirdi va tegishli hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yila boshladi. Davlat granti shartnomasi tuzilganidan keyin oradan 3 oy o‘tgach, davlat granti mablag‘laridan foydalanish samaradorligi tekshirilganda, “Ezgulik uchun” fondi yolg‘on ma’lumotlar taqdim etib davlat grantini qo‘lga kiritganligi aniqlandi va prokuratura iqtisodiy sudga ushbu bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atdi.

Bundan xabar topgan AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan “Butun dunyoga ezgulik ulashamiz” nomli notijorat tashkiloti ham suddan “Ezgulik uchun” fondi o‘ziga yetkazgan zararni qoplashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **5-topshiriq**

“Smartchain” MCHJ “Raqamli to‘lov” kompaniyasi bilan smart-shartnoma tuzdi. Smart-shartnoma shartlariga ko‘ra, “Smartchain” MCHJ blokcheyn platformasida to‘lov tizimini yaratib berishi, “Raqamli to‘lov” esa buning evaziga 100 000 AQSh dollari miqdorida kriptovalyuta to‘lashi kelishildi. Smart-shartnoma tuzilgach, “Smartchain” MCHJ o‘z majburiyatlarini bajardi, ammo “Raqamli to‘lov” kompaniyasi kriptovalyuta kursi tushib ketganligi sababli to‘lovni amalga oshirmadi. “Smartchain” MCHJ iqtisodiy sudga murojaat qildi.

## **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **6-topshiriq**

"Digital Innovation" MCHJ va "Tech Solutions" AJ o'rtasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha smart-shartnoma tuzildi. Smart-shartnomaga ko'ra, agar "Digital Innovation" MCHJ belgilangan muddatda sun'iy intellekt tizimini joriy eta olmasa, shartnoma avtomatik bekor bo'lishi va "Tech Solutions" AJ to'lagan 50 000 AQSh dollari smart-shartnoma orqali avtomatik ravishda qaytarilishi belgilangan. "Digital Innovation" MCHJ muddatni bir kun kechiktirdi, natijada smart-shartnoma avtomatik bekor bo'ldi va mablag' qaytarildi. Biroq "Digital Innovation" MCHJ texnik nosozlik tufayli kechikish yuz bergenini, tizim to'liq ishga tayyor ekanligini aytib, shartnomani tiklashni so'rab sudga murojaat qildi.

## **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **3-amaliy mashg'ulot. Delikt munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning zamonaviy muammolari. Xususiy mulkka bo'lgan huquqlarning kafolatlari va himoya usullari**

#### **Amaliy mashg'ulot materiallari**

##### **1-topshiriq**

"Bog'ishamol" mas'uliyati cheklangan jamiyat o'z xodimlariga 4 oylik ish haqi to'lashni kechiktirdi. MChJ xodimlaridan biri – A.Toshkanov MChJga nisbatan 4 oylik ish haqini undirish va FKning 327-moddasiga asosan o'zganining pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz to'lash va 10 000 000 so'm ma'naviy zarar undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atdi.

MChJ A.Toshkenovga faqat ish haqinigina to'lashi mumkinligini, bunda hech qanday foiz va ma'naviy zarar xususida gap bo'lishi mumkin emasligini, qolaversa, MChJ va A.Toshkanov o'rtasidagi munosabatlar mehnat-huquqiy xarakter kasb etishini, unga nisbatan fuqarolik qonunchiligi normalari qo'llanilmasligini, ish haqini o'z vaqtida to'lamaganlik bilan bog'liq holatlarda ma'naviy zarar yuzaga kelmasligini bildirdi.

A.Toshkanov ushbu holat yuzasidan advokatga murojaat qilganida advokat unga ushbu holatga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qonun va huquq analogiyasi asosida qo'llanilishini, shu bois A.Toshkanov oylik ish haqi o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun foiz va ma'naviy zarar undirishni talab qilishga haqi ekanligini tushuntirdi.

## **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **2-topshiriq**

“Xislatilla farm” ma’suliyati cheklangan jamiyati va “Tryoxgorka keramika” ma’suliyati cheklangan jamiyati o’rtasida 2015-yil 28-iyunda №14-sonli shartnomaga imzolangan bo‘lib, shartnomaga muvofiq mahsulot yetkazib beruvch sotib oluvchiga har birining bahosi 700 so‘mdan 35 400 dona umumiyligi 24 780 000 so‘mlik shlakablok mahsulotini yetkazib berish majburiyatini, sotib oluvchi esa uni qabul qilish va haq to‘lash majburiyatini olgan. Sotib oluvchi tomonidan 2011-yil 5-iyuldaggi №144-sonli to‘lov topshiriqnomasi bilan 24 780 000 so‘m pul mablag‘i o‘tkazib berilgan.

Shartnomaning 5.2-bandida yetkazib berilmagan tovar (ish)lar uchun sotib oluvchi (buyurtmachi)ga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizi miqdorida penya undirish belgilangan. Sotib oluvchi mahsulot yetkazib berishuvchidan shartnomaga shartlari o‘z vaqtida bajarilmaganligi sababli 5 000 000 so‘m zarar (yurist-maslahatchi uchun qilingan harajatlarni) qilganligini vaj qilib sudga asosiy qarz, penya va zararni undirib berish to‘g‘risida da’vo ariza kiritgan.

O‘z navbatida mahsulot yetkazib beruvchi mahsulotni o‘z vaqtida olib ketmaganligini, odatda mahsulot barcha sotib oluvchilarning o‘zlari tomonidan olib chiqib ketilishini ma’lum qildi va buning uchun o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **3-topshiriq**

14 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan Karimov ota-onasi boshqa respublikada ishlashi sababli o‘zining buvisi Xolmatovalarnikida yashardi. Bir kuni uyida hech kim yo‘qligidan foydalanib, ular buvisining uyida ijarada yashovchi Olimovaning xonasiga kirib pullarini o‘g‘irladi. Vaziyatdan xabardor bo‘lingandan so‘ng ushbu pullar voyaga yetmagan Karimovdan topildi.

Olimova Karimov tomonidan keltirilgan zararni undirish maqsadida Xolmatova ustidan shikoyat qilib sudga da’vo ariza beradi.

Fuqarolik sudi Xolmatovadan voyaga yetmagan bola tarbiyasiga e’tiborsiz qaraganligi va uning tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanmaganligi uchun 5 000 000 so‘mni undirish haqida qaror qabul qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **4-topshiriq**

Fuqaro Axmedov o‘zining farzandi 12 yoshli Davronning tarbiyasida ishtirok etmaganligi va ota-onalik huquqini suiiste’mol qilganligi sababli ota-onalik huquqidan mahrum qilindi. Oradan 2 yil vaqt o‘tgandan so‘ng Davron bezorilik sodir etib fuqaro Maxmudovning mol-mulkiga zarar yetkazdi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra, yetkazilgan zararni qoplash majburiyati fuqaro Ahmedovga yuklatildi. Bundan Axmedov norozi bo‘ldi. Uning fikricha, u ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. FKning 993-moddasi 1-qismiga ko‘ra, o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan (kichik yoshdagi bola) tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiylari, agar zarar ularning aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, javobgar bo‘ladilar.

#### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **5-topshiriq**

Fuqaro Akmalov tomonidan fuqaro Zafarovning sog‘lig‘iga zarar yetkazildi. Ushbu ish fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra, fuqaro Akmalov 25 million so‘m zararni qoplashi belgilandi. Biroq, oradan 2 oy o‘tgandan so‘ng, zarar qoplanmasdan oldin fuqaro Akmalov vafot etdi.

Uning merosxo‘rlari esa, yetkazilgan zarar uchun javob bermasliklarini, zarar yetkazganlik uchun javobgarlik shaxsiy xususiyatga egaligini ma’lum qilishdi.

#### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **6-topshiriq**

“XalqBanki” AJ mijoji Azizov 2023-yil dekabr oyida o‘zining bank hisobidan 50 million so‘m pul o‘g‘irlanganini aniqladi. Tekshiruv natijasida bank tizimiga kiber hujum uyushtirilgani va firibgarlar tomonidan mijozlarning to‘lov kartalaridan ruxsatsiz operatsiyalar amalga oshirilgani ma’lum bo‘ldi. Bank firibgarlar anonim tizimlardan foydalangani va ularni aniqlashning imkon yo‘qligini aytib, zararni qoplab berishni rad etdi. Bunda bank o‘z tizimida xavfsizlik choralarini yetarli darajada ko‘rganini va aybdor emasligini ta’kidladi. Azizov tomonidan o‘tkazilgan mustaqil ekspertiza natijasida bank tizimidagi xavfsizlik protokollari eskirganligi va zamonaviy kiber tahdidlarga qarshi kurashish uchun yetarli emasligini aniqladi. Shuningdek, bank xodimlari mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha tegishli treninglardan o‘tmaganligi ham aniqlandi. Bank o‘z navbatida, mijoz bilan tuzilgan shartnomada “bank mijozning kartasi ma’lumotlari uchinchi shaxslarga oshkor

qilinishi oqibatida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar emas" degan band mavjudligini ta'kidladi. Azizov bunday shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid ekanligini va iste'molchilarining huquqlarini poymol qilishini bildirdi. Shuningdek, u Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga ko'ra tijorat banklari o'z mijozlarining mablag'lari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishlari shartligini ta'kidladi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **4-mavzu: Intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari. Fuqarolik huquqida meros masalalari va huquqiy vorislik bitimlari**

### **Amaliy mashg'ulot materiallari**

#### **1-topshiriq**

Fuqaro Komilovning Toshkent shahrida va Surxondaryo viloyatida uy-joyi bor edi. U vafotiga qadar Toshkent shahrida oila a'zolari bilan birga yashardi.

U 2015-yilda vafot etgani munosabati bilan meros ochildi. Uning birinchi nikohidan tug'ilgan 3 nafar Surxondaryo viloyatida yashaydigan farzandlari va Toshkent shahrida yashaydigan turmush o'rtog'i hamda 2 nafar farzandi merosxo'rlar tarkibiga kiritildi.

Merosni bo'lish yuzasidan kelishuvga erisha olmaganlaridan so'ng, merosxo'rlar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga murojaat qildi. Sud Surxondaryo viloyatidagi uy-joyning  $\frac{1}{2}$  qismdan bo'lib, merosxo'rlar o'rtasida taqsimladi. Toshkent shahridagi uyning  $\frac{1}{5}$  qismi Surxondaryo viloyatida yashovchi merosxo'rlar hissasiga to'g'ri keldi.

Komilovning nabirasi qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi meros huquqi asosida meros berilishini talab qilib sudga murojaat qildi. Biroq, sud ikkinchi navbatdagi merosxo'rlar jumlasiga nabira kirmasligi sababli nabiraning talabini qanoatlantirmadi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **2-topshiriq**

Fuqaro Yaxshiboyev batanik olim sifatida tog'larga ekspeditsiya sifatida moylilik darajasi yuqori bo'lgan yovvoyi chakanda (oblepexa) butazorlarini ko'rdi. Ularning urug'larini va ko'chatlarini o'z laboratoriyasiga keltirib ko'paytirib, moyli chakanda yangi navini yaratganligini ilmiy jamoatchilikka bildirdi va unga patent olish uchun Intellektual mulk agentligiga murojat qildi. Davlat sinovidan o'tganidan keyin Yaxshiboyevga patent berildi.

Yaxshiboev ushbu chakanda navini ekib ko‘paytirib foydalanish uchun O‘zbekiston va Qozog‘istonagi farmasevtika korxonalariga litsenziya berdi. Litsenziya shartlariga ko‘ra, farsevtika korxonalari foydadan olingan ulushning 10 foizini har yili royalti sifatida Yaxshiboevga to‘lab turishi lozim. Litsenziya shartnomalari amal qilgan 5 yil davomida Yaxshiboev O‘zbekiston korxonasidan 1 milliard so‘m, Kozog‘iston firmasidan 350 ming AQSh dollari miqdorida royalti oldi.

Oltinchi yili boshqa bir ekspeditsiya tog‘da barcha xususiyatlari moyli chakandaga mos bo‘lgan yovvoyi chakanda butazorlariga duch keldi. Ushbu ekspeditsiya xodimlari Yaxshiboyev ilmiy natijalarni soxtalashtirganligi sababli chakandaning yangi navini o‘z ijodiy mehnati bilan yaratmaganligi sababli chakandaning yangi naviga berilgan patentni bekor qilishni so‘rab Intellektual mulk agentligiga murojat qildi.

Yaxshiboevdan litsenziya asosida ruxsat olgan O‘zbekiston Qozog‘iston farmasevtika korxonalari Yaxshiboyevga nisbatan e’tirozi yo‘qligini bildirdilar. Intellektual mulk agentligi patentni haqiqiy emas deb topdi. Biroq, Yaxshiboyev sudga murojat qilib chakandani yangi nav sifatida yaratmagan bo‘lsa ham uni laboratoriya sinovidan o‘tkazib ishlab chiqarishga moslashtirganini va uning ijodiy mehnatlari samarasini natijasida chakanda yangi nav sifatida ishlab chiqarishga joriy etilganini bildirdi.

### ***Vaziyatga huquqiy baho bering.***

#### **3-topshiriq**

G‘ijduvonlik G‘ulomov o‘zi mustaqil ravishda “Koka-kola” ichimligi tarkibini, uni ingiridientlari o‘zaro nisbatini topdi va xususiy korxona ochib uni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘ldi. U huquqshunosga maslahat so‘rab murojat qilganda, huquqshunos AQShning Koka-kola kompaniyasiga raqib bo‘lish uchun yuridik asosga ega bo‘lish lozim, shu boisdan eng maqbul yo‘l Koka-kolani “G‘ijduvon sharbati” deb nomlab unga patent olish lozim deb tavsiya qildi. Shunda Koka-kola kompaniyasini tijorat siriga bo‘lgan huquqi va patent asosida himoyalangan G‘ijduvon sharbatini ishlab chiqishga bo‘lgan huquq o‘rtasidagi yuridik nizoda g‘olib chiqish imkoniyati bor deb ko‘rsatdi.

***G‘ijduvon sharbati va koka-kola tarkibi va mazasi bir xil. G‘ijduvon sharbatiga patent berilishi mumkinmi? Vaziyatga huquqiy baho bering.***

#### **4-topshiriq**

“Bizon” firmasi raxbari Smit O‘zbekistonga turist sifatida kelib O‘zbekiston bozorlarida “Bizon” pivosi tunika va shisha idishlarda “Bizon” tovar belgisi bilan sotilayotganini ko‘rdi. U o‘zini ushbu tovar belgisiga nisbatan huquq

egasi ekanligini, O'zbekistonda uning tovar belgisidan uning ruxsatisiz foydalanishayotganini aytib, o'zbekistonlik advokatga murojat qildi. O'zbekistonlik advokat Smitga "Bizon" pivosi Rossiyalik distribyutor orqali kirib kelganligini va tegishli shartnomaga orqali rasmiylashtirilganini, Rossiyalik distibyutor esa, Gollandiya firmasi bilan shartnomaga asosida shisha va tunika idishlarda "Bizon" tovar belgisi bilan mahsulotlar sotib olayotganini, Norvegiyalik firma esa, Smit rahbarlik qilayotgan "Bizon" firmasi bilan litsenziya shartnomasi mavjudligini aniqladi.

*Smit O'zbekistondagi uning tovar belgisidan foydalanuvchilarga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atishga xaqlimi? Vaziyatga huquqiy baho bering.*

### **5-topshiriq**

Mashhur AI dasturchi Akmal Karimov o'zi yaratgan sun'iy intellekt dasturi yordamida san'at asarlari, she'rlar va musiqa asarlarini yaratdi. U vafot etganidan so'ng, uning vorislari - xotini va ikki farzandi o'rtasida AI tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan huquqlar bo'yicha nizo kelib chiqdi. Vorislardan biri AI yaratgan asarlarni to'liq o'ziga tegishli deb hisoblasa, boshqalari bunday asarlarga nisbatan mualliflik huquqi umuman bo'lishi mumkin emasligi haqida da'vo qilishdi. Sud jarayonida AI tomonidan yaratilgan asarlarning mualliflik huquqi masalasi, bunday asarlarni meros tarkibiga kiritish imkoniyati va vorislар o'rtasida taqsimlash tartibi muhokama qilindi. Sud ekspertizasi AI dasturining ishslash printsiplari va yaratilgan asarlarning originalligini tekshirdi. Natijada sud AI yaratgan asarlarni Akmal Karimovning intellektual mulki sifatida tan oldi, chunki u AI dasturini yaratgan va uni boshqargan. Asarlar meros tarkibiga kiritildi va vorislар o'rtasida teng taqsimlandi.

### **6-topshiriq**

IT-tadbirkor Salim Ahmedov ko'plab onlayservislar, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlar va kripto-hamyonlarga ega edi. U to'satdan vafot etdi va rasmiy vasiyatnomaga qoldirmadi. Uning akkauntlarida katta miqdordagi pul mablag'lari, kontentlar va intellektual mulk obyektlari mavjud edi. Marhumning oila a'zolari akkauntlarga kirish huquqini olish uchun sud orqali murojaat qilishdi. Sud jarayonida raqamli aktivlarni meros tarkibiga kiritish, ularga egalik huquqini tasdiqlash va vorislар o'rtasida taqsimlash masalalari ko'rib chiqildi. Sud qarorida barcha raqamli aktivlar meros mulki sifatida tan olindi va vorislар uchun akkauntlarga kirish imkoniyati ta'minlandi. Shuningdek, marhumning onlayservislaridan keladigan daromadlar ham meros tarkibiga kiritildi.

### **7-topshiriq**

Olim Farida Rahimova o'zining ilmiy kashfiyotlari va ixtiolarini kelajakda

foydalinish huquqi bilan birga institutga meros qilib qoldirmoqchi bo'ldi. U institut bilan meros shartnomasi tuzdi, unda barcha intellektual mulk obyektlarini institutga o'tkazish, ulardan foydalinish shartlari va vorislarning huquqlari belgilandi. Shartnomada olimaning vorislari institutdan roylati olish huquqiga ega ekanligi, shuningdek kashfiyotlardan foydalanishda ilmiy etika tamoyillariga rioya qilish majburiyati ko'rsatildi. Olima vafotidan so'ng shartnomaga kuchga kirdi, ammo vorislari va institut o'rtasida roylati miqdori bo'yicha kelishmovchilik yuzaga keldi. Sud jarayonida meros shartnomasi shartlarini talqin qilish, roylati hisoblash metodikasi va tomonlarning majburiyatlari muhokama qilindi. Natijada sud meros shartnomasini haqiqiy deb topdi va roylati to'lovlarining aniq mexanizmini belgilab berdi.

### **5-amaliy mashg'ulot. Bugungi islohotlar bosqichida jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlari. Jinoiy javobgarlikni liberallashtirish sohasidagi jinoyat-huquqiy siyosat**

#### **Amaliy mashg` ulot materiallari**

1. Davlat paydo bo'lib, o'zining ichki va tashqi funksiyalarini bajarishni boshlagan davrlardan jinoyat, jazo va javobgarlik masalalari qo'llanilgan bo'lib, aynan shu davrdan boshlab davlatning jinoyat-huquqiy siyosat yuritishi boshlangan.

*Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini muhokama qiling.*

2. Bugungi kunda mamlakatda jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni axloqan tuzatish bo'yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jinoyat-ijroiya amaliyotini o'rGANISH natijalari mahkumlarning huquqlariga rioya etish, ularning sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta'minlash, kelgusida jamiyatga ijtimoiy moslashtirish uchun axloqan tarbiyalash va mehnatga o'rgatishning shaffof va yanada samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish zarurligidan dalolat bermoqda.

*Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini atroflicha muhokama qiling.*

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-huquqiy siyosat mohiyatida jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatchilikni oldini olishga bir xilda e'tibor qaratilib kelinadi. Mustaqillik yillarida respublikada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks

chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

***Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish.***

**6-mavzu. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog'liq huquqiy masalalar**

### **Amaliy mashg'ulot materiallari**

1. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni oldini olish profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu jinoyatlarga lozim darajada e'tibor qaratmayotganini kuzatish mumkin. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni oldini olish profilaktikasini va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek ushbu jinoyatlarlarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti.

*Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni oldini olish profilaktikasini yo'nalishidagi jinoyat-huquqiy siyosatni muhokama qiling.*

2. Xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli xamkorlik aloqalarini o'rnatish, ularning ayrim yo'nalishlar bo'yicha bergen tavsiyalari va xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ijobiy tajribasini o'rganish, tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, davlat xizmatchilarining xalqaro reytinglar metodologiyasini qo'llash bo'yicha dunyoqarashini shakllantirish zaruratinini inobatga olgan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini yaratish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rnnini yaxshilashdan iborat.

*Korrupsiyaga qarshi kurashish va ISO sertifikati bilan bog'liq huquqiy masalalarni muhokama qiling.*

3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni muvofiq fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish

to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijob etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan esa O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoatchilik nazorati subyektlari ekanligi belgangan.

1. *Sizningcha, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijob etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning ishtiroki qaysi shakllarda amalga oshirilmoxda?*

2. *Davlat organlari va mansabdar shaxslarning qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishini qanday tartibda takomillashtirish mumkin?*

## **7-amaliy mashg‘ulot. Surishtiruv va dastlabki tergovning umumiyligi shartlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish**

### **Amaliy mashg‘ulot materiallari**

1. Jinoyat ishlarini yuritish, jinoyat sodir etilgan joydan qat’i nazar, basharti O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar va bitimlarida o‘zgacha qoidalar belgilanmagan bo‘lsa, ish yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi yuritilayotgan paytda amalda bo‘lgan qonunchilikka muvofiq olib boriladi.

### **Mazkur holatni amaliyot materiallari bilan birgalikda tahlil qiling.**

2. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi o‘z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo‘lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

### **Jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabab va asoslarini muhokama qiling.**

3. Ishni sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanadi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o‘z ichiga oladi.

### **Jinoyat ishining tergovi bo‘yicha amaliy ish materiallarini o‘rgangan holda tahlil qiling.**

4. Prokurorning jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin. Ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorining prokuror tomonidan bekor qilinishi ustidan ham xuddi shunday tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

## **Mazkur holatni amaliyot materiallari bilan birgalikda tahlil qiling.**

**5.** Jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘la olmaydi.

## **Mazkur holatni amaliyot materiallari bilan birgalikda tahlil qiling.**

### **8-amaliy mashg‘ulot. Birinchi instansiya sudida ish yuritishning umumiy shartlari**

#### **Amaliy mashg`ulot materiallari**

**1.** Sudyaning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e’tiboran yetmish ikki soat ichida apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat, xususiy protest berilishi mumkin.

#### *Apellyatsiya shikoyatini tayyorlang.*

**2.** Sud ayblovni o‘zgartirishga haqli. Bunda ayblovning bir qismi yoki jinoyatning tavsifiy alomatlari chiqarib tashlanadi.

#### *Jinoyat ishi materiallari bilan tanishib, ushbu holatni muhokama qiling.*

**3.** Sudlanuvchilardan o‘z ayblariga iqrorliklari yoki iqror emasliklari to‘g‘risida so‘rab bo‘lgach, sud dalillarni tekshirish navbatni to‘g‘risida taraflarning takliflarini eshitadi. Bunday navbatni sud ajrimda aks ettiradi.

#### *Amaliy mashg‘ulot sifatida ushbu sud protsessini sahnalaشتiring.*

**4.** Dastlabki eshituv sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda, taraflar ishtirokida o‘tkaziladi.

#### *Amaliy mashg‘ulot sifatida ushbu sud protsessini sahnalaشتiring.*

**5.** Ayblanuvchi, himoyachi va davlat ayblovchisi jinoyat ishi materiallaridagi har qanday dalilni, agar ularni nomaqbul dalillar deb hisoblasa, chiqarib tashlash to‘g‘risida iltimosnoma berishga haqli.

#### *Jinoyat ishi materiallari bilan tanishib, ushbu holatni muhokama qiling.*

## V. KEYSLAR BANKI

Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovation hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening, “Case-study” va boshqalar kiradi. “Case-study” – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda o‘quvchilarda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish texnikasidir

*Keys* — biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida o‘quvchilardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Ixtiyoriy *keys* o‘qituvchiga, uni ta’lim jarayonining ixtiyoriy bosqichlarida, jumladan, o‘qitish va uning natijalarini nazorat qilish mobaynida foydalanish imkoniyatini beradi.

### 1-masala

SMI MChJ ta’sischisi – Xitoy fuqarosi Xan MChJga ijrochi direktor sifatida O‘zbekiston fuqarosi I.Xvanni tayinladi. MChJning ustav kapitali 450 000 000 so‘mni tashkil etar edi. MChJ xorijdan uskunalar xarid qilish uchun NBU bankning Toshkent shahar boshqarmasidan 1 000 000 dollar kredit olish maqsadida fuqaro D.Magayning Toshkent shahar Qibray tumanida joylashgan uy-joyni garovga qo‘yish maqsadida u bilan shartnomaga tuzdi. Shartnomaga ko‘ra MChJ D.Magayning uyni bank kredit olish uchun 1 yilga garovga qo‘yishi uchun oyiga 30 million so‘mdan haq to‘lab turishi hamda 6 oyda kreditni yopib uy joyni garov ob’ektidan chiqarmasa oyiga qo‘srimcha 10 million so‘m neustoyka to‘lashi lozim edi.

MChJ ijrochi direktori I.Xvan kasal bo‘lganligi sababli ta’sischi Xanning roziligi bilan B.Israilovni o‘z o‘rniga vaqtincha ijrochi direktor sifatida tayinladi. Bu orda Xan o‘z yurti (Xitoy)ga jo‘nab ketdi va MChJ ishlarini B.Israilov yurita boshladi.

B.Israilov ijrochi direktor sifatida tayinlangach fuqaro D.Magay bilan qarz shartnomasi tuzib undan 45 million so‘m pulni 6 oyga qarzga oldi va kafil sifatida SMI MChJni belgiladi va kafillik shartnomasini o‘zi imzolab MChJ muhri bilan uni tasdiqladi.

Oradan 8 oy o'tgach D.Magay MChJni hakamlik sudiga berdi va o'zi garovga qo'yilgan mol-mulkini garov obyektidan chiqarish borasida shartnoma majburiyatini bajarmaganlik uchun to'lovnii hamda neustoykani undirish talab qildi. Hakamlik muhokamasida MChJ nomidan qatnashgan ijrochi direktor B.Israilov D.Magay bilan kelishuv bitim tuzdi va 6 oylik mol-mulkdan garov ob'ekti sifatida foydalanish haqi 180 million so'mni hamda ikki oylik neustoyka – 20 million so'm jami 200 millionni D.Magayga to'lashga rozi bo'ldi va hakamlik sudining qarorini asos qilib MChJning hisob raqamidan pul mablag'ini D.Magayga to'ladi.

Shundan so'ng D.Magay yana hakamlik sudiga murojaat qilib o'zi bilan fuqaro B.Israilov o'rtasida tuzilgan qarz shartnomasiga ko'ra olingan 45 million so'm pulni va qarzni qaytirishni kechiktirganlik uchun foiz to'lashni talab qildi. Hakamlik muhokama jarayoniga kafil bo'lgan SMI MChJni jalb etdi va ijrochi direktor B.Israilov yana D.Magay bilan kelishuv bitimi imzoladi va 45 million asosiy qarz hamda 5 million so'm neustoykani to'lab berdi.

Bundan xabar topgan SMI MChJ ta'sischisi – Xitoy fuqarosi Xan vaqtincha ijrochi direktor B.Israilov qonunga yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq MChJ manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib bormagan deb hisoblab, MChJga yetkazilgan zararni to'lashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **2-masala**

"Bog'ishamol" mas'uliyati cheklangan jamiyat o'z xodimlariga 4 oylik ish haqi to'lashni kechiktirdi. MChJ xodimlaridan biri – A.Toshkanov MChJga nisbatan 4 oylik ish haqini undirish va FKning 327-moddasiga asosan o'zganing pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz to'lash va 10 000 000 so'm ma'naviy zarar undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atdi.

MChJ A.Toshkenovga faqat ish haqinigina to'lashi mumkinligini, bunda hech qanday foiz va ma'naviy zarar xususida gap bo'lishi mumkin emasligini, qolaversa, MChJ va A.Toshkanov o'rtasidagi munosabatlar mehnat-huquqiy xarakter kasb etishini, unga nisbatan fuqarolik qonunchiligi normalari qo'llanilmasligini, ish haqini o'z vaqtida to'lamaganlik bilan bog'liq holatlarda ma'naviy zarar yuzaga kelmasligini bildirdi.

A.Toshkanov ushbu holat yuzasidan advokatga murojaat qilganida advokat unga ushbu holatga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qonun va huquq analogiyasi asosida qo'llanilishini, shu bois A.Toshkanov oylik ish haqi o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun foiz va ma'naviy zarar undirishni talab qilishga haqi ekanligini tushuntirdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

### **3-masala**

“Korzinka” do‘koni va “Alibobo” fermer xo‘jaligi (FX) o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, FX do‘konga 35 tonna kartoshka yetkazib berishi kerak edi. Taraflar o‘zaro kelishuviga ko‘ra, mahsulotni yetkazib berish FXning hisobidan va uning transportida amalga oshirilishi lozim edi. FX mahsulotni o‘z transportlariga yuklab yetkazib bergenida do‘kon ma’muriyati, uni tushirib berish ham transportirovka xarajatlari ichiga kirishi, shuning uchun FX mahsulotni o‘zining kuchi va mablag‘lari hisobidan tushirib berishi lozimligini bildirdi.

Biroq bu holatga nisbatan FX e’tiroz bildirib, hamma holatlarda ham yetkazib berilgan yukni tushirib olish bevosita sotib oluvchi tomonidan amalga oshirilib kelingani, bu qoidani barcha bilishini, bu holat ish muomalasi odatiga aylanib qolganligini shu sababli yukni tushurib olmasa, transport vositalarini bo‘sh turib qolish xarajatlarini ham do‘kon qoplashiga to‘g‘ri kelishi haqida ogohlantirdi.

### **Bu vaziyatga huquqiy baho bering?**

### **4-masala**

“Baraka” aksiyadorlik jamiyatni (AJ) kuzatuv kengashi rais va 4 nafar a’zodan iborat bo‘lib, kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishida AJning zaxira fondidan 500 000 000 so‘m mablag‘ni jamiyatni rivojlantirish hamda uning qarzlarini to‘lashga sarflash masalasi ko‘rib chiqildi. Ushbu masala yuzasidan bir nafar a’zo qarshi ovoz berdi. Natijada zaxira fondidan jamiyatni rivojlantirishga 150 000 000 so‘m va qarzlarni to‘lashga 350 000 000 so‘m sarflanishi xususida qarorga kelindi. Bunda qarz sifatida bankdan olingan kredit va mahsulot yetkazib berish shartnomasi (MEBSh) bo‘yicha kontragentlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar nazarda tutilgan edi.

Qarshi ovoz bergen a’zo MEBSh to‘lanadigan summalarini kontagentlar bilan muzokaralar olib borish yo‘li bilan qismlarga bo‘lib to‘lashni taklif qildi va bunday usul zaxira fondi mablag‘larini saqlab qolish hamda AJning kelgusida olinadigan foydasidan kontragentlarga qolgan summalarini to‘lashni taklif etdi. Biroq bu taklif kuzatuv kengashi muhokamasida inobatga olinmadni va qarzlarni to‘liq to‘lash haqida qaror qabul qilindi.

Ushbu holatdan norozi bo‘lgan a’zo kuzatuv kengashining qolgan a’zolarini jamiyat manfaatlari yo‘lida halol va oqilona ish tutmaganligini, shu sababli ularning javobgarlik masalasini hal etish borasida jamiyat boshqaruvi raisiga murojaat qildi.

Boshqaruv raisi kuzatuv kengashining a’zosi taklifiga asosan ushbu qarorning to‘g‘ri, oqilona va halolligini ko‘rib chiqish hamda jamiyat manfaatlari yo‘lida qabul qilinganligiga baho berish masalasida ekspertlarga murojaat qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **5-masala**

«INTERNFORM-MOBILA» tomonidan mobil telefon egalari hisoblangan turli Provayderlar abonentlariga mutlaq huquqlar egalari - OOO «Tarona Rekords», «O'zbekiston huquq egalari» bilan tuzilgan shartnomalar asosida kontent xizmatlarni ko'rsatish yo'li bilan intellektual mulk ob'ektlarini tarqatish faoliyati amalga oshirib kelangan. «INTERNFORM-MOBILA» o'z faoliyati yuzasidan umumiy asoslarda soliq to'lab kelgan bo'lib, oradan 8 yil o'tgach tuman soliq idorasi tomonidan soliqlar «INTERNFORM-MOBILA» tomonidan noto'g'ri to'langanligini, aslida bu faoliyat vositachilik faoliyati ekanligini, unga nisbatan yuqori soliq stavkasida soliq to'lash lozimligini bildirdi. Soliq idorasi «INTERNFORM-MOBILA»ning rahbarlarini soliq to'lashni yashirish jinoyati bo'yicha prokuratura organlariga murojaat qildi.

Prokuratura «INTERNFORM-MOBILA» tomonidan amalga oshirilgan faoliyat qaysi turdag'i shartnomaga mansubligini aniqlash maqsadida ekspertlarni jalb etdi.

Ekspertlar «INTERNFORM-MOBILA»ning intellektual mulk ob'ektlarini abonentlarga kontent xizmatlari ko'rsatishini huquq egalarining vositachisi sifatida amalga oshirgan degan xulosaga kelishdi. Ushbu holatga nisbatan «INTERNFORM-MOBILA» o'z e'tirozini bildirib, ular faqat xizmat ko'rsatishganini, ular tomonidan tuzilgan shartnomani vorislik sifatida baholanishi noto'g'rilib bildirdi.

**«INTERNFORM-MOBILA» tomonidan ko'rsatilgan kontent xizmatlari va uni amalga oshirish uchun tuzilgan shartnomalarga qonun analogiyasi nuqtai nazaridan huquqiy baho bering.**

## **6-masala**

Yangidan tashkil topgan aksionerlik jamiyati (AJ) asosan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradi. Jamiyat ustav fondidagi aksiyalarining bir qismi ya'ni 15 foizi xorijiy investorlar tomonidan sotib olingan. Ustav fondi sotilishidan oldin baholovchi tashkilot tomonidan baholangan va bu borada shartnoma tuzilgan. Shartnoma yuzasidan baholovchi tashkilot tegishli hisobotni AJga taqdim qilgan. Biroq, ko'rsatilgan xizmatlar haqi baholash tashkilotiga to'lab berilmagan. Bunga sabab qilib AJ direktorining o'rinbosari ko'rsatilgan xizmatlar sifatli bo'limganligini qolaversa, tuzilgan shartnoma bahosi yuqori ya'ni 10.000.000 so'm bo'lganligi sababli AJ Kuzatuv kengashining roziligi olinishi kerakligini ma'lum qildi.

Ushbu holatdan norozi bo'lgan baholash tashkiloti xizmatlar lozim darajada ko'rsatilganligi va xizmatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari imzolanganligini ko'rsatib, iqtisodiy sudiga da'vo ariza bilan murojaat qildi.

Nizo sudda ko‘rilayotgan vaqtda to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilinishi ta’qiqlanishi haqida davlat organining hujjati qabul qilindi. Natijada AJ o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga qiyndi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **7-masala**

Quyida keltirilgan holatlarni fuqarolik-huquqiy munosabat sifatida e’tirof etish va ularga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llash mumkinligini aniqlang:

a) “Elbrus” ishlab chiqarish kooperativ avtotransport korxonasi – “Mars” mas’uliyati cheklangan jamiyatga o‘z mahsuloti – stol ustiga o‘rnataladigan elektron soatlar partiyasini yetkazib berish uchun topshirdi. Yukni tekshirish jarayonida oluvchining omborida ushbu mahsulot yetishmasligi aniqlandi.

b) Ilmiy tekshirishi institutining kompyuter uskunlarini o‘rnatish va tuzatish bo‘yicha ustasi Komilov o‘zining ehtiyojsizligi oqibatida 750 AQSh dollari qiymatidagi printerni ishdan chiqardi, shuningdek unga ta’mirlash uchun berilgan kompyuter xotirasidagi institut jamoasi bir necha oydan buyon o‘tkazib kelayotgan izlanishlari bilan yaratilgan ilmiy eksperent natijalarini o‘chirib yubordi.

v) “Kamolot” mas’uliyati cheklangan jamiyat “Elkori” xususiy firmasi bilan ishlab chiqarish uchun metall kesadigan uskunani tekin foydalanishga berish shartnomasini imzoladi. “Kamolot”ning muassisi – mexanika zavodi – uskunani tekin foydalanishga topshirilishiga e’tiroz bildirib, ijara shartnomasi tuzishni talab qildi.

g) Davlat yo‘l harakati xavfsizligi patrul xizmati xodimi Lazizovning “Kaptiva” rusumli avtomashinasi yo‘l harakati qoidalari buzganligi sababli jarima belgiladi.

### **Yuqoridagi har bir vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **8-masala**

Quyida keltirilgan huquqiy munosabatlarning subyektlari va obyektini, ushbu munosabatlarning mazmuni tashkil etuvchi subyektiv fuqarolik huquq va majburiyatlarini ayting va ular fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qaysi turiga kirishini aniqlang:

**a) Irgashev Samadovga tegishli uydagи xonani 2 oyga ijaraga oldi;**

**b) G‘oziyev va Madiyev magazindan mebellar to‘plamini sotib olishdi va tashish agentligi bilan ularni yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzishdi. Tashish agentligini haydovchisi ikkila mebellar to‘plamini ham G‘oziyevga**

topshirdi, chunki Madiyev mebellar olib kelinganida uyida yo‘q edi. Mebellarni tushirish jarayonida yuk tashuvchilarning aybi bilan G‘oziyev sotib olgan kitoblar joyonining oynasi sindi;

**v)** Serekov Sapayevni uyida ijarada turar edi va uning aybi bilan Sapayevga mulk huquqi asosida tegishil bo‘lgan va sug‘urtalangan uyi yonib ketdi;

**g)** Lochinovni qurilish trestiga tegishli yuk avtomashinasini urib yubordi. Avtomashina qurilish tresti haydovchisi Nasimov boshqaruvida bo‘lib, u bu payti ishlab chiqarish topshirig‘ini bajarayotgan edi. Sog‘lig‘ini yo‘qotish oqibati Lochinov II-guruh nogironi bo‘lib qoldi;

**d)** Aliyev o‘zining dehqon xo‘jaligidagi kartoshka hosilini yig‘ishtirish barobarida qo‘shnisi Yashinovning yer uchastkasidagi kartoshka hosilining bir qismini ham yig‘ib oldi;

**ye)** Nosirov “Aholi uchun yuridik lug‘at” kitobidagi bitta bo‘lim muallifi – Parpievga nisbatan da’vo qo‘zg‘atdi va javobgar Nosirovning bir qator ishlaridan manbasiga havola qilmasdan asarni o‘zlashtirganligini ta’kidladi;

**j)** nashriyot Qorayev bilan uning hikoyalar to‘plami nashr etish to‘g‘risidagi shartnomani tuzdi;

**z)** korxona ixtirochi Qosimov bilan uning korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatida oshirishga oid ixtirosidan foydalanish to‘g‘risidagi litsenziya shartnomasi tuzdi.

### **Yuqoridagi har bir vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **9-masala**

Tashkilot rahbarining birinchi o‘ribbosari Samiev shu tashkilotning yuristi Qarorovga hujjat loyihasi tayyorlashi to‘g‘risida topshiriq berdi va shu haqda tashkilot rahbari o‘ziga vazifa yuklaganligini aytди. Yurist konsult Qarorov esa o‘ribbosar Samiyevga e’tiroz bildirib, o‘ziga faqat tashkilot rahbari Farmonov topshiriq bera olishini, o‘ribbosar unga topshiriq bera olmasligini, shu sababli Samievning topshirig‘ini bajarmasligini bildirdi. Bu masala xususida Samiyev Farmonovning nomiga bildirgi yozib ma’lum qilganida, Farmonov bildirgiga “yurist janobi oliylariga bu mening nomimdan berilgan topshiriq ekanligini aytib qo‘ying” deb viza qo‘ydi va uni yuristga berishdi. Rahbarning “yurist janobi oliylari” jumlasini Qarorov o‘ziga nisbatan “haqorat, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan holat” deb baholadi va da’vo arizasi bilan suddan Farmonovdan 20 million so‘m miqdorda ma’naviy zarar undirishni talab qildi.

Sud jarayonida da'vogar – yuriskonsult Qarorov "janobi oliylari" kinoya bilan, yuristni kamsitish maqsadida yozilganligini, tashkilotning barcha xodimlari unga nisbatan "janobi oliylari" laqabini qo'yishganligini, bu esa uning ruhiy iztiroblari va ma'naviy azoblariga sabab bo'lganligini ma'lum qildi.

Javobgar tarafdan qatnashgan vakil "janobi oliylari" iborasi shaxsni ulug'lash, uning yaxshi sifatlarga ega shaxs ekanligini ko'rsatishi, bu kamsitadigan holat emasligini, yaxshi ma'noda aytiganligini bildirdi va da'voni rad etishni so'radi.

Sud majlisiga ekspert sifatida chaqarilgan o'zbek tili filologiyasi bo'yicha mutaxassis, lug'atshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Lazizzxo'jayev ham "janobi oly" iborasi ilgari zamonlarda kishini ulug'lash maqsadida ishlatilganligini, hozirda ham kishilar bir-birlariga murojaat qilishganda "janob" so'zini ishlatishlarini bildirdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **10-masala**

"Ezgulik uchun" fondi davlat tomonidan e'lon qilingan grantni qo'fga kiritish uchun AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan "Butun dunyoga ezgulik ulashamiz" nomli notijorat tashkiloti bilan hamkorlik shartnomasi tuzish taklifini yubordi. Shartnomada taraflar ezgulikka oid tarqatma materiallar, risolalar va uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash hamda onlayon kurslarda o'qishni tashkil etish, buning uchun davlat tomonidan e'lon qilingan rasmiy grantlarni qo'fga kiritish shartini belgiladi va grant olingach shartnomaga kuchga kirishini belgilashdi. "Ezgulik uchun" fondi davlat granti olish uchun e'lon qilingan tanlovda g'olib chiqish uchun mazkur hamkorlik shartnomasini ilova qildi. Tanlov shartlarida xorijlik hamkorlar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasi uchun yuqori ball belgilanganligi sababli, "Ezgulik uchun" fondi davlat grantini qo'fga kiritdi. Shundan so'ng "Ezgulik uchun" fondining AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan "Butun dunyoga ezgulik ulashamiz" nomli notijorat tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi kuchga kirdi va tegishli hamkorlik ishlari yo'fga qo'yila boshladи. Davlat granti shartnomasi tuzilganidan keyin oradan 3 oy o'tgach, davlat granti mablag'laridan foydalanish samaradorligi tekshirilganda, "Ezgulik uchun" fondi yolg'on ma'lumotlar taqdim etib davlat grantini qo'fga kiritganligi aniqlandi va prokuratura iqtisodiy sudga ushbu bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo qo'zg'atdi.

Bundan xabar topgan AQShning Penselvaniya shtatida joylashgan "Butun dunyoga ezgulik ulashamiz" nomli notijorat tashkiloti ham suddan "Ezgulik uchun" fondi o'ziga yetkazgan zararni qoplashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

## **11-masala**

Fuqaro Ismatov og‘ir kasalligidan (insult olgandan) so‘ng, gapira olmaydigan va yoza olmaydigan bo‘lib qoldi. Shunday bo‘lsada, u o‘z fikrini nabirasi orqali izhor eta oladi. Ya’ni, nabirasi alifbo harflarini noutbukda ko‘rsatadi, kerakli harf kelganda chap ko‘zini yumadi. Shu orqali o‘z erkini izhor qiladi.

Bir kuni fuqaro Ismatov vasiyatnama yozishni izhor qiladi. Fuqaro Ismatovning o‘g‘li notariusni uyga taklif etadi va vaziyatni tushuntiradi. Fuqaro Ismatovning o‘g‘li cholning vasiyatnama tuzish layoqati mavjudligiga shubha bildiradi. Chunki, cholning o‘g‘li agar vasiyatnama tuzilsa, merosdan mahrum etilishidan xavotirda edi.

Taklif qilingan notarius vasiyatnomani tasdiqlashga e’tiroz bildirib, cholning haqiqiy xohishi faqat gapirish yoki yozish orqali ifodalanishini, ko‘z qisish yoki imo-ishoralar orqali erkni ifodalash mumkin emasligini ma’lum qiladi.

Ushbu holat bo‘yicha notarius vasiyatnomani rasmiylashtira oladimi?

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **12-masala**

Fuqaro Boliyev matematika sohasida shu vaqtga qadar fanda o‘z yechimini topmagan, yangi teoremani isbot qildi. Ushbu teoremani jurnallarga yuborishdan oldin notariusga murojaat qilib, teoremani isboti yozilgan qo‘lyozmani tuzilish sanasini guvohlantirishni so‘radi.

Notarius bunga e’tiroz bildirdi va mualliflik huquqi ustuvorligi sanasini guvohlantirish notariat to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilmaganligini ta’kidladi.

Fuqaro Boliyev esa, notariat to‘g‘risidagi qonunda nazarda tutilmagan bo‘lsa ham, notarial guvohlantirish mumkinligi sababli notarial guvohlantirishni talab qildi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **13-masala**

Xususiy korxona mulkdori Olimov vafot etgandan so‘ng, xususiy korxonadagi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati qizg‘in davom etayotganligi, meros qabul qilib olinguncha bo‘lgan davrda korxonani boshqaruvsiz qoldirish mumkin emasligi sababli xususiy korxona egasining merosxo‘rlari notariusga murojaat qilishdi. Merosxo‘rlar notariusdan xususiy korxonani shaxsan boshqarishni yoki bu vazifani merosxo‘rlardan biriga yoxud uchinchi shaxsga yuklashni so‘radi.

Notarius ushbu vazifani amalga oshirish imkoniyati yo‘qligini hisobga olib shaxsan boshqarish talabini rad etdi. Merosxo‘rlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv

bo‘lmaqanligi sababli merosxo‘rlardan biriga topshirish masalasini ham hal etmadi. Shundan so‘ng, notarius xususiy korxonani boshqarishni uchinchi shaxs zimmasiga yukladi.

Oradan bir oz vaqt o‘tgach esa, korxonaning bankrotlik xususiyatlari vujudga keldi. Ushbu holatdan merosxo‘rlar tashvishlanib, o‘z huquqlarini himoya qilishga qaror qilishdi.

Merosxo‘rlar notariusga nisbatan sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, notariuse’tiborsizlik, loqaydlik qilganligi va tadbirkorlik faoliyatini va korxonani boshqarishning iqtisodiy huquqiy asoslarini yaxshi bilmaydigan va undan xabardor bo‘lmaqan uchinchi shaxsga topshirganligi oqibatida yetkazilgan zararni undirishni so‘radi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **14-masala**

Fuqaro Parpiyev vasiyatnama yozish maqsadida notariusga murojaat qildi. Notarial idorada Parpiyev maxfiy vasiyatnama yozishni maqsadga muvofiq deb hisoblab, uni sir saqlanishi va mahfiy vasiyatnama tarzida rasmiylashtirilishini talab qildi. Notarial idorada maxfiy vasiyatnama rasmiylashtirildi.

Keyinchalik fuqaro Parpiyev o‘ziga nisbatan nabiralarining munosabati o‘zgarganligi, oilaviy munosabatlar buzilishiga maxfiy vasiyatnama sabab ekanligini bildi. Unga ma’lum bo‘lishicha, maxfiy vasiyatnama nabirasining notariusda ishlaydigan notarius yordamchisi tomonidan oshkor qilingan hamda o‘zini notariusman deb tanishtirgan shaxs aslida notarius yordamchisi bo‘lgan va imzo hamda notarius muhrini qo‘yib vasiyatnomani rasmiylashtirgan.

Shundan so‘ng fuqaro Parpiyev fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilib, o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **15-masala**

Fuqaro Abrorov 1/20 ulush merosxo‘r sifatida meros guvohnomasini oldi. U ushbu ulushdan norozi bo‘lib, meros qoldiruvchi ya’ni, otasi muomalaga layoqatsiz shaxs bo‘lganligi, bu haqda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning 2013 yil 10 apreldagi qarori mavjudligi sababli vasiyatnomani haqiqiy emas deb topishni so‘radi.

Meros qoldiruvchining boshqa merosxo‘rlari esa, bunga e’tiroz bildirib, vasiyatnama 2013-yil 5-aprelda rasmiylashtirilganligi, meros qoldiruvchining muomalaga layoqatsizligi esa, 5 kun o‘tgach aniqlanganligini ta’kidlashib, qarshi da’vo ariza berishdi. Qarshi da’vo arizada fuqaro Abrorovning ulushi arzimasligi va unga kompensatsiya berilishini talab qilishdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **16-masala**

Fuqaro Mirzayev ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilindi. U o‘z mol-mulklarini tasarruf etishga qaror qildi va shu maqsadda akasiga ishonchnoma bermoqchi bo‘ldi.

Akasi jazoni ijro etish muassasasiga kelib, ishochnama olmoqchi ekanligini rahbariyatiga ma’lum qildi. Biroq, jazoni ijro etish muassasasi rahbariyati fuqaro Mirzayev ishonchnoma berishi uchun notarius zarurligi, notarius qonunda belgilangan notarial harakatlarni amalga oshirish uchun taklif qilinishi zarurligidan kelib chiqib, notariusni chaqirtirib kelishni talab qildi.

Bunga nisbatan fuqaro Mirzayevning akasi norozilik bildirdi va jazoni ijro etish muassasasi rahbarining fikrlari noto‘g‘ri deb hisoblab sudga murojaat qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **17-masala**

Fuqaro Saidov jismoniy kamchiligi – barmoqlari yo‘qligi sababli o‘zining qo‘snnisi fuqaro Pulatovdan uning uchun fuqaro Davronovdan 15 mln. so‘m qarz olganligi to‘g‘risidagi bitimni imzolashni so‘raydi. Belgilangan muddat o‘tgandan so‘ng Davronov qarzni qaytarishni so‘raydi. Saidov esa uning mablag‘lari yo‘qligi sababli talabni qanoatlantirmasligini ma’lum qiladi. Shundan so‘ng Davronov sudga murojaat qiladi.

Sud majlisida Saidovning imzosi hech kim tomonidan tasdiqlanmaganligi va uning hozirda respublika hududidan tashqariga chiqib ketganligi, shuningdek ushbu qarz olingandan 10 kun o‘tgandan so‘ng uning muomalaga layoqatsiz deb topilganligi haqida sud qarori qabul qilinganligi aniqlandi. Shu boisdan fuqaro Saidovning turmush o‘rtog‘i qarshi da’vo bilan muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan bitim tuzilganligi noqonuniy bo‘lganligi sababli ushbu bitimni haqiqiy emas deb topishni so‘radi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering. Agar bitim tuzish jarayonida xorijiy valyuta (AQSh dollarri) qo‘llanilgan bo‘lsa, fikringiz o‘zgaradimi?**

## **18-masala**

Fuqaro Qodirov va “Magistral” MChJ muassisi o‘rtasida Qodirovga tegishli bo‘lgan binoni oldi-sotdi shartnomasi tuzilishga kelishib olindi. Biroq, “Magistral” MChJ direktori bunday shartnomani rasmiylashtirish uchun vaqt topa olmadi. Oradan bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng Qodirov qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlik mahrum qilish jazosiga hukm qilindi. Bundan xabar topgan “Magistral” MChJ muassisi oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish uchun ozodlikdan mahrum qilish muassasasi joylashgan Navoiy shaxridagi UYa-69ga bordi va shartnomani rasmiylashtirib berishni yoki ishonchnoma berishni so‘rab muassasaga murojaat qildi.

Muassasa rahbari “Magistral” MChJ muassisiga shartnomalarni rasmiylashtirish uchun Qodirovning ozodlikka chiqarilishini kutib turishini va shundan keyin notarial idoraga borishni, agar mahbus Qodirovning nomidan ishonchnoma olmoqchi bo‘lsa ishonchnomani rasmiylashtirish notarial idoraning vakolatiga kirishi sababli notarial idoraga borishni maslahat berdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **19-masala**

Fuqaro Nosirov bobo va buvisi bilan notarial idoraga kelib, hadya shartnomasini tuzishni talab qildi. Notarial harakatlarni amalga oshirishdan oldin Nosirov notariusdan bobo va buvisiga tasdiqlanayotgan shartnomani to‘g‘riligini, qonuniyligini va “yaxshi bo‘lishini” aytishni iltimos qildi.

Nosirov bobo va buvisi notarial idoraga kelishganda notarius Nosirovning barcha aytganlarini qildi. Shuningdek, Nosirovning bobo va buvisidan nima uchun shartnoma tuzayotganligini aytayotganda, ular “habiramiz menga qarab turaman” deganligi sababli notariusga borishni iltimos qilganligini va o‘zlariga g‘amxo‘rlik qilayotganligi sababli shartnoma tuzayotganligini bildirdi.

**Notariusningharakatlarida g‘ayriqonuniy elementlari mavjudmi? Bu o‘rinda qanday shartnoma tuzishni maslahat berasiz? Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **20-masala**

2010-yilda fuqaro K.Ashurova vafot etdi. U Toshkent shahridagi kvartira mulkdori edi. Merosxo‘rlar sifatida eri va ikki nafar farzandi bor. K.Ashurova vafot etgan vaqtda uning onasi hayot edi va Samarqand shahrida doimiy yashardi.

K.Ashurovaning ikki nafar farzandi merosdan otasi foydasiga voz kechganligi sababli notarius Toshkent shahridagi kvartiraning 4/5 qismini eri nomiga rasmiylashtirdi. Merosning 1/5 qismini esa ochiq qoldirib, merosni Samarqand shahrida rasmiylashtirish zarurligini aytди.

Oradan bir yil o‘tgach, K.Ashurovaning onasi vafot etdi. Merosning 1/5 qismi uning farzandiga, ya’ni K.Ashurovaning akasiga o‘tishi lozim edi. K.Ashurovaning akasi o‘zining ulushidan voz kechganligi haqida ariza taqdim qildi. Biroq, notarius ushbu arizani qabul qilmasdan, dastlab meros K.Ashurovaning akasi nomiga rasmiylashtirilishi zarurligi, so‘ng merosni tasarruf etish mumkinligini maslahat berdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **21-masala**

“Bog‘ishamol” mas’uliyati cheklangan jamiyat o‘z xodimlariga 4 oylik ish haqi to‘lashni kechiktirdi. MChJ xodimlaridan biri – A.Toshkanov MChJga nisbatan 4 oylik ish haqini undirish va FKning 327-moddasiga asosan o‘zganing

pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz to'lash va 10 000 000 so'm ma'naviy zarar undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atdi.

MChJ A.Toshkenovga faqat ish haqinigina to'lashi mumkinligini, bunda hech qanday foiz va ma'naviy zarar xususida gap bo'lishi mumkin emasligini, qolaversa, MChJ va A.Toshkanov o'rtasidagi munosabatlar mehnat-huquqiy xarakter kasb etishini, unga nisbatan fuqarolik qonunchiligi normalari qo'llanilmasligini, ish haqini o'z vaqtida to'lamaganlik bilan bog'liq holatlarda ma'naviy zarar yuzaga kelmasligini bildirdi.

A.Toshkanov ushbu holat yuzasidan advokatga murojaat qilganida advokat unga ushbu holatga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qonun va huquq analogiyasi asosida qo'llanilishini, shu bois A.Toshkanov oylik ish haqi o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun foiz va ma'naviy zarar undirishni talab qilishga haqi ekanligini tushuntirdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

#### **22-masala**

"Xislatilla farm" ma'suliyati cheklangan jamiyati va "Tryoxgorka keramika" ma'suliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2015-yil 28-iyunda №14-sonli shartnomaga imzolangan bo'lib, shartnomaga muvofiq mahsulot yetkazib beruvch sotib oluvchiga har birining bahosi 700 so'mdan 35 400 dona umumiyligi 24 780 000 so'mlik shlakablok mahsulotini yetkazib berish majburiyatini, sotib oluvchi esa uni qabul qilish va haq to'lash majburiyatini olgan. Sotib oluvchi tomonidan 2011-yil 5-iyuldaggi №144-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan 24 780 000 so'm pul mablag'i o'tkazib berilgan.

Shartnomaning 5.2-bandida yetkazib berilmagan tovar (ish)lar uchun sotib oluvchi (buyurtmachi)ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizi miqdorida penya undirish belgilangan. Sotib oluvchi mahsulot yetkazib berishuvchidan shartnomaga shartlari o'z vaqtida bajarilmaganligi sababli 5 000 000 so'm zarar (yurist-maslahatchi uchun qilingan harajatlarni) qilganligini vaj qilib sudga asosiy qarz, penya va zararni undirib berish to'g'risida da'vo ariza kiritgan.

O'z navbatida mahsulot yetkazib beruvchi mahsulotni o'z vaqtida olib ketmaganligini, odatda mahsulot barcha sotib oluvchilarning o'zлари tomonidan olib chiqib ketilishini ma'lum qildi va buning uchun o'ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **23-masala**

Respublika tez tibbiy yordam markazi" va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatiga tegishli avtomashinalarning to'qnashuvi sodir bo'ldi.

Yo‘l transport hodisasi natijasida piyoda B.Mo‘minov og‘ir jarohat oldi va shifoxonada vafot etdi. “Respublika tez tibbiy yordam markazi”ga qarashli avtotransport vositasi va “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli mashinalar ham shikastlandi va kapital ta‘mirlash talab qilindi. Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining xulosasiga ko‘ra, har ikkala mashina haydovchisi tomonidan ham yo‘l harakati qoidasi buzilgan deb topildi va tergov organi tomonidan jinoyat ishi ochildi.

Dastlabki tergov jarayonida tergovchi Saburov fuqarolar Alimov va Shuxratovlarga nisbatan jinoyat ishi ochdi va ochilgan jinoyat ishi yuzasidan ehtiyyot chorasi sifatida “qamoqqa olish” xususida qaror qabul qildi. Ammo tergov mobaynida Alimov va Shuxratovlarning harakatlarida tegishli huquqbazarlik alomatlari mavjud emasligi aniqlangandan so‘ng, unga nisbatan o‘rnatilgan ehtiyyot chorasini bekor qilish haqida qaror qabul qildi. Fuqarolar Alimov va Shuxratovlar bu o‘rinda o‘zining shaxsiy daxlsizligi buzildi, deb hisobladi va ehtiyyot chorasi sifatidagi “qamoqqa olish” xususidagi qaror o‘ziga nisbatan qonunga xilof qo‘llanishi oqibatida o‘ziga yetkazilgan zararni undirish yuzasidan sudga murojaat qildi.

Bundan tashqari B.Mo‘minovga yetkazilgan zararni to‘lash masalasi ham yuzaga keldi. Natijada uning bir necha merosxo‘rlari meros qoldiruvchi o‘rniga talabni qo‘yishdi. Bunda merosxo‘rlardan biri voyaga yetmagan, qolganlari esa, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli shaxslar edi.

Ushbu holat yuzasidan “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan sog‘liqni saqlash vazirligi ham shikoyat qilib, o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilib chiqdi.

### **Vaziyatni muhokama qiling.**

#### **24-masala**

Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish Respublika ilmiy markaziga qarashli “Tez yordam” va “12-trest” aksiyadorlik jamiyatiga tegishli avtomashinalarning to‘qnashuvi sodir bo‘ldi. Hodisa natijasida piyoda Shokirov og‘ir tan jarohati oldi va shifoxonaga yotqizildi. Bundan tashqari, ilmiy markazga qarashli “Tez yordam” mashinasи va “12-trest” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli mashina ham shikastlandi. Hodisani o‘rganish bo‘yicha yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining xulosasida har ikkala mashina haydovchisi tomonidan ham yo‘l harakati qoidasi buzilmagan bo‘lib, ob-havoning yomonligi va yo‘l usti qismidagi nosozliklar yo‘l-transport hodisasiga sabab bo‘lganligi ko‘rsatildi.

Fuqaro Shokirov shifoxonada davolanib chiqqach, avtotransport vositalari egalari bo‘lgan Respublika ilmiy markaziga va “12-trest” aksiyadorlik jamiyatiga murojaat qilib, o‘ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qildi. Ammo

u o‘z talablariga nisbatan rad javobini oldi. Bunga sabab sifatida ular hodisa o‘zlarining foydalanishida bo‘lgan avtotransport vositalarining qurilmalaridagi nosozliklar tufayli ro‘y bergenligini, avtotransport vositasi shinalari qishda yurishga mo‘ljallanmaganligi va ushbu holat tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashga asos bo‘lishi sababli o‘zlariga yetkazilgan zararni undirish choralarini ko‘rayotganligini bildirib o‘tdi.

Fuqaro Shokirov o‘ziga yetkazilgan zararni qoplatishga ulgurmasdan vafot etdi. Natijada uning bir necha merosxo‘rlari meros qoldiruvchi tomonidan qo‘yilgan talabni qo‘llab-quvvatlashdi va sudga murojaat qilishdi. Bunda merosxo‘rlardan biri voyaga yetmagan, qolganlari esa, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli shaxslar edi.

### **Vaziyatni muhokama qiling.**

#### **25-masala**

12 yoshli Vohid Qodirov qishloqda buvisi Fozilovanikida yashardi. U yerda Vohid 13 yoshli qo‘shni bola Komil Salimov bilan tanishdi. Bir kuni buvisining uyida yo‘qligidan foydalanib, ular buvisining uyida ijara yashovchi O.Norboevning xonasiga kirib noutbukni o‘g‘irlab, noma’lum shaxsga 500 000 so‘mga sotdilar. Bu pul Vohidning uyida saqlanar edi. Shu orada O.Norboevning narsalari yo‘qolgani aniqlandi va bu pullar Vohiddan olib qo‘yildi.

Norboev Vohid va Komil tomonidan keltirilgan zararni undirish maqsadida (500 000 so‘m) Fozilova, Vohidning onasi - Muslimova N.I. (Vohidning otasi yo‘q) va Komilning ota-onasi - Salimov V.I. va Solieva I.I.lar ustidan shikoyat qilib sudga ariza beradi.

Fuqarolik sudi Fozilovadan - Vohid tarbiyasiga e’tiborsiz qaraganligi hamda Komilning onasi - Solieva I.I.dan Komilning tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanmaganligi uchun 500 000 so‘mni birgalikda to‘lashlari lozim deb ajrim chiqardi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **26-masala**

“Nur” ishlab chiqarish korxonasi o‘ziga mulk huquqi asosida qarashli bo‘lgan qo‘shni tumandagi binoni tekin foydalanish shartnomasi asosida nomuayyan muddatga fuqaro Bakaevga beradi. Bakaev xususiy tadbirkor sifatida o‘z faoliyatini ushbu binoda boshlaydi. Olingan daromaddan ma’lum miqdorda korxonaga ham yozma rasmiylashtirishsiz haq berib turdi. Ma’lum vaqt o‘tgach “Nur” ishlab chiqarish korxonasi hech bir ogohlantirishsiz ushbu binoni Bakaevdan olib qo‘yyadi va uning faoliyati to‘xtab qoladi. Natijada Bakaev o‘zining mijozlari bilan tuzilgan shartlarini bajara olmay qolib, olishi lozim bo‘lgan foydadan mahrum bo‘ldi.

Bakaev korxona tomonidan ijara shartnomasini bekor qilish bo‘yicha talabnama berilmaganligi va qo‘qqisdan shartnomasi bekor qilinganligi sababli zarar ko‘rganligini vaj qilib iqtisodiy sudiga yetkzilgan zararni va boy berilgan foydalani undirib berish to‘g‘risida murojaat qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **27-masala**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi agrofirma o‘zining yetishtirgan mahsulotlarini saqlash uchun “Sapfir” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli bo‘lgan 1 000 m<sup>2</sup> joydan iborat bo‘lgan omborxonani ijara shartnomasiga asosan ijaraga oldi.

Ijara shartnomasiga asosan ijaraga beruvchi mahsulot saqlashga mo‘ljallangan omborxonai topshirish, ijaraga oluvchi esa omborxonada maqsadli foydalanish va foydalanilganlik uchun o‘z vaqtida haq to‘lash majburiyatini olgan. Tomonlar o‘rtasidagi topshirish qabul-qilish dalotlatnomasiga asosan omborxona binosi ijaraga oluvchi tomonidan hech qaynday e’tirozlarsiz qabul qilingan. Agrofirma tomonidan ijaraga olingan omborxonaga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari joylashtirilganidan 1 oy o‘tib, uning tom qismidan suv o‘tishi natijasida omborxonada saqlanayotgan mahsulot yaroqsiz holga kelib qoldi. Buning natijasida agrofirma zarar ko‘rdi.

O‘z navbatida belgilangan ijara to‘lovini uch oy davomida ololmagan ijaraga beruvchi omborxonadagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ushlab qolib garov narsasi sifatida sotishga qaror qilgan.

Agrofirma yetkazilgan zararni undirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qaytarish bo‘yicha sudga da’vo ariza bilan murojaat qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **28-masala**

Elektr energiyadan istemol uchun foydalanuvchi fuqaro V. energiya o‘lchovchi uskunani noqonuniy tarzda o‘chirib qonunga xilof ravishda foydalanib kelar edi. Ushbu holatdan xabardor bo‘lgan energiya nazoratchisi kelib, fuqaro V.ning xonardonidagi barcha elektr iste’mol qiladigan uskunalar, yoritgichlarni hisobini olib, eng yuqorida darajada hisob-kitob qilib, abonentni elektr energiyadan uzib tegishli dalolatnomasi rasmiylashtirib ketadi.

Ushbu holat yuz bergenidan so‘ng, fuqaro V.ning xonardonida ijarada yashovchi fuqarolar ham elektr energiyasiz bu yerda yashay olmasliklarini ma’lum qilib, ijara shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilishni talab qildi. Shundan so‘ng fuqaro V. Elektr energiyasi tashkilotiga nisbatan sudga da’vo ariza bilan murojaat qilib, ijara shartnomasi qonuniyligi sababli, ushbu ijara

shartnomasini buzilishiga sabab bo‘lgan energiya nazoratchisidan yetkazilgan zararni undirishni talab qildi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **29-masala**

Uzoq muddatga safarga ketayotgan Keldiyorovlar oilasi qo‘shnisi K.Komilovga chorva mollariga qarab turishni iltimos qilib, chorva mollaridan sut mahsulotlarini sotib ijara haqi sifatida foydalanishi mumkinligini yoki bo‘lmasa kelganlardan so‘ng uning haqini alohida to‘lashni kelishib oldi. K.Komilov qo‘shnisining mollariga yem-xashak olish maqsadida ayrim chorva mollarini sotdi. Ayrim chorva mollari esa, qarovsiz qolishi oqibatida fermer xo‘jaligi yerlarini payhon qilib, fermer xo‘jaligiga zarar keltirdi. Safardan qaytib kelgan Keldiyorovlar oilasi K.Komilov tomonidan qonun talablarini jiddiy ravishda buzgan holda ayrim chorva mollari sotilganligini, ayrimlari esa, fermer xo‘jaligi yerlarini payhon qilganligi uchun go‘sht do‘konlariga topshirilganligini bildi. Shudan so‘ng, qo‘shnisiga chorva mollarini sotishga vakolat bermaganliklarini ta’kidlab, ularni qaytarishni, agar qaytarmasa, da’vo arizasi bilan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat etishlarini bildirdilar.

K.Komilov esa mollariga berishga yem-xashak qolmaganligi bois bu ishni amalga oshirganligini, chorva mollari tomonidan fermer xo‘jaligi yerini payhon qilganligi holati uchun esa uning umuman aybi yo‘qligini chunki, chorva mollari o‘zları qarovsiz qolganligi va oldindan o‘rganganligi bois fermer xo‘jaligi yerlariga kirib ketganligini, ilgari ham shunday holatlar bo‘lganligini ta’kidladi. Yem-xashak yetarli bo‘lganida bunday harakat qilmasligini, kelishuv bo‘yicha uning uyiga, mollariga qarab turganligi uchun haq to‘lashlarini so‘raydi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **30-masala**

Ikki qo‘shni o‘rtasida maishiy nizo kelib chiqdi: A.ning o‘z hududidagi ulkan daraxti soyasi qo‘shnisi V.ning ziroatiga (dehqonchiligiga) zarar yetkazdi. Bu holat yuzasidan A. o‘zini mutlaqo erkin va xotirjam tutdi. “Bu mening mulkim, demak, u daxlsiz”, “xususiy ishimga o‘zgalarning o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymayman”, binobarin, “huquqlarim to‘sinqiniksiz amalga oshirilishini istayman”, deya izoh berdi. Nima deb o‘ylaysiz: ikki qo‘shni o‘rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelganmi?

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

#### **31-masala**

2006-yilda Mansurov Dilmurod va Vohidova Matluba turmush quradilar. Vohidova Matluba turmushga chiqquniga qadar ota-onasidan meros tariqasida hovli-joy, videomagnitofon va bir qancha ro‘zg‘orda ishlatiladigan turli xil

asbob-anjomlar qolgan. Er-xotinlarning to‘rt yilbirgalikda yashashlari davrida Vohidova Matluba dugonasidan 45 million so‘m pul qarz bo‘ladi. Ammo uning qarzi borligini eri Mansurov Dilmurod bilmaydi.

Vohidova dugonasiga olgan pul summasini o‘z vaqtida bera olmaganligi sababli, u Matlubaning uyiga kelib Mansurov Dilmurodni xabardor qiladi. Ushbu olingan pul summasi ro‘zg‘or uchun ishlatalgan edi. Shundan so‘ng Mansurov Dilmurod men ushbu olingan summani to‘lamayman, chunki men pulni olgan emasman va uni to‘lashga majbur emasman deb talabni inkor etadi.

Shundan so‘ng oilada janjal kelib chiqib, er-xotinlar birgalikdagi umumiy mulklari va har biriga tegishli bo‘lgan mol-mulkni bo‘lib berishni so‘rab sudga murojaat qiladilar. Bunga esa asosiy sabab, Vohidova Matluba o‘z qarzini ota-onasidan meros tariqasida qolgan uy-joyni sotib pul summasini qaytarishini bildiradi. Lekin Mansurov Dilmurod bunga rozi bo‘lmaydi. U uy-joyga mening ham egalik qilish huquqim bor va uni tasarruf etishda mening ham roziligidim talab etilishi lozim deb o‘z e’tirozini uyni sotilishi uchun bildiradi. Vohidova Matluba esa uy-joy faqatgina unga tegishli ekanligi, uyga nisbatan erining hech qanday mulk huquqi yo‘q ekanligini bildiradi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering**

#### **32-masala**

Fuqaro Abdullayev tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk davlat kadastro xizmati bo‘limiga murojaat qilib, fuqaro Botirovga tegishli bo‘lgan uy-joy (ko‘chmas mulk)ga nisbatan mulk huquqini tasdiqllovchi guvohnomani rasmiylashtirib berishni so‘radi. Bunga asos qilib, u 30 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzluksiz egalik qilib kelganligi, Botirovning vafot etganligi, uning merosxo‘rlari yo‘qligini ma’lum qildi.

Tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk davlat kadastro xizmati bo‘limi o‘zining javob xatida Fuqaro Abdullaevga uy-joy (ko‘chmas mulk)ga nisbatan mulk huquqini tasdiqllovchi guvohnoma tomonlar o‘rtasidagi oldi-sotdi shartnomasi, hadya shartnomasi, sudning hal qiluv qarori va boshqa mulk huquqini beriuvcchi hujjatlar asosida rasmiylashtirilishini ta’kidlab rad javobini berdi.

Fuqaro Abdullayev tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk davlat kadastro xizmati bo‘limining hatt-harakati ustidan norozi bo‘lib sudga da’vo ariza bilan murojaat qildi.

Ma’lum bo‘lishicha, fuqaro Botirovga tegishli bo‘lgan uy-joy 1980-yildagi tuman ijroiya qo‘mitasi bilan fuqaro Botirov o‘rtasida uy-joy qurish to‘g‘risida shartnomaga tuzilgan. Mazkur shartnomaga tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk davlat kadastro (ilgari BTI)da ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering?**

### **33-masala**

Rossiya Federatsiyasi fuqarosi Korneyev otasidan qolgan Toshkent shahrida joylashgan uy-joyni tasarruf etishga qaror qildi. Shu maqsadda tanishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Rustamovga ishonchnoma berdi. Mazkur ishonchnomada Rustamovga uy-joyni sotish vakolati berilgan edi.

Rustamov Korneevning otasiga tegishli Toshkent shahrida joylashgan uy-joyni 5 milliard so‘mga baholab, oldi-sotdi shartnomasini tuzish uchun notariusga murojaat qildi. Biroq, notarius unga rad javobini berib, uy-joyga nisbatan mulk huquqi hali ham Korneevning otasiga tegishliligi sababli oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishni rad etdi.

### **Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **34-masala**

Fuqaro A. notariusga murojaat qilib, fuqaro B. ga tegishli bo‘lgan uy-joy (ko‘chmas mulk)ga mulk huquqini beruvchi orderni rasmiylashtirib berishini so‘radi. Bunga asos qilib, u 30 yil davomida uy-joyga halol, oshkora va uzliksiz egalik qilib kelganligi, B. ning vafot etganligi, uning merosxo‘rlari yo‘qligini ma’lum qildi. Shu bilan birga 30 yildan buyon u uy-joyning kommunal to‘lovlarini va soliqlarni o‘z vaqtida to‘laganligini, mahalla va qo‘shnilardan tegishli ma’lumot va tushuntirishlar mavjudligini, B.ning merosxo‘rlari yo‘qligi haqidagi ma’lumot ham mavjudligi bildirdi.

Ammo notarius fuqarolik qonunchiligi orqaga qaytish kuchiga ega emasligini bildirib, rad javobini berdi.

### **Fuqaro A. ningtalabio‘rinlimi? Notarius qanday harakat qilishi kerak edi?**

### **35-masala**

“Toshkent-Nukus” yo‘nalishining 185 km.da passajir poezdi halokatga uchrab, bir necha passajir turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari olishdi. Shu halokat tufayli og‘ir tan jarohatlari olishgan er-xotin Qallibekov Tohir va uning turmush o‘rtog‘i Qallibekova Cho‘lponoylar kasalxonaga olib kelindi. Qallibekov Tohir reanimatsiya bo‘limida o‘ziga kelmasdan vafot etdi. Uning xotini Qallibekova Cho‘lponoy esa oradan 10 kun o‘tgandan so‘ng kasalxonada vafot etdi. Er-xotinlarning nikohlaridan birorta ham farzandlari yo‘q edi. Qallibekov Tohirning ota-onasi, aka-ukalari va boshqa qarindoshlari yo‘q edi.

Er-xotin Qallibekovlardan qolgan mol-mulkka vorislik huquqini qo‘lga kiritish uchun Qallibekova Cho‘lponoyning oldingi turmushidan tug‘ilgan voyaga yetgan qizi Sunnatova Saida notariusga onasiga hamda vorislik huquqini talab qiluvchilar bo‘lmaganligi uchun o‘gay otasiga tegishli mol-mulkarga vorislik

huquqini beradigan guvohnoma berish haqida ariza bilan murojaat qilgan. U o‘z arizasida o‘gay otasidan qolgan mol-mulkka vorislik qilish huquqiga ega bo‘lgan onasining o‘gay otasidan keyin bir necha kundan keyin o‘lganligini e’tiborga olishni so‘ragan.

Notarius Sunnatova Saidaga u faqat o‘z onasi Qallibekova Cho‘lponoyga tegishli mol-mulkka vorislik huquqini qo‘lga kiritish haqidagi guvohnoma olishi mumkinligini, o‘gay otasi mulkiga nisbatan vorislik huquqini qo‘lga kiritishi mumkin emasligini bildirib arizaning bir qismini qondirishni rad etgan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering. Notariusning fikri qonun talablariga mos keladimi?**

### **36-masala**

Urganch shahrida yashab kelgan fuqaro Otajonov Qurbonboy uzoq davom etgan kasalligidan so‘ng vafot etdi. Uning o‘limidan keyin bir qancha jamg‘arma banki tarmoqlarida saqlab kelingan pul jamg‘armalari hamda unga tegishli ujoyga egalik qilish huquqi qolgan.

Fuqaro Q.Otajonovning ko‘mish marosimlari, Toshkent shahrida yashayotgan qizi S.Haydarova tomonidan o‘tkazilgan. Ko‘mish marosimlarini o‘tkazib bo‘lib S.Haydarova marhum otasiga tegishli bo‘lgan 2 ta omonat daftarchasi asosida otasini ko‘mish marosimiga ketgan xarajat pullarni undirish maqsadida jamg‘arma bankida 10 million so‘m miqdorda pulni olmoqchi bo‘ldi. Otasining ko‘mishga ketgan xarajatlarini tasdiqllovchi hujjatlari bo‘lmaganligi uchun pul berish rad etdi. Ikkala omonat daftarchalari S.Haydarovada qoldi.

Ertasi kuni Q.Otajonovning qizi S.Haydarova yuragi yomon bo‘lib kasal bo‘lib qolgan. U kasalxonada vafot etgan. Kasalxonaning buyumlar saqlash xonasida saqlab kelingan shaxsiy buyum va narsalar orasida otasining ikkita omonat daftarchasi ham bor edi.

Urganch shahar 1-sonli notarial idorasiga kelgan Q.Otajonovning o‘g‘li R.Otajonov vafot etgan S.Haydarovaning eri R.Haydarovlar ariza bilan murojaat qilishgan. R.Otajonov o‘z arizasida otasi Q.Otajonovni o‘lganligini e’tiborga olib, o‘zini yagona merosxo‘r deb topishni so‘ragan bo‘lsa, R.Haydarov esa, xotini S.Haydarova nomiga meros olish huquqiga ega ekanligini tasdiqllovchi guvohnoma berishni va unga tegishli mulkni o‘ziga berilishini talab qilgan.

Notarius R.Otajonovga R.Haydarov ham merosxo‘r bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib yagona merosxo‘rlik huquqini berishni rad etgan. R.Haydarovga esa Toshkent shahridagi 1-sonli notarial idorasiga murojaat qilishni tushuntirgan.

**Vaziyatga huquqiy baho bering. Notariusning tushuntirishlari to‘g‘rimi?**

### **37-masala**

Fuqaro Allanov Toshkent shahar Mirobod tuman davlat notarial idorasiga O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali murojaat qilib o‘zining vafotidan keyin o‘ziga qarashli bo‘lgan barcha mol-mulkni vasiyat qilish niyatini bildirdi. Mulk sifatida Zebo ko‘chasidagi 7-uyni, Damas rusumli avtomashina, shu tumanda joylashgan savdo do‘konini kichik o‘g‘li S.Majidovga vasiyat qilish istagini bildirdi. Notarius fuqaro Allanovga tegishli bo‘lgan mol-mulkarning tekshirib ko‘rganida Zebo ko‘chasidagi 7-uy xususiyashtirilmaganligini, shuningdek, Damas rusumli avtomashina garov narsasi sifatida qo‘yilganlini aniqladi.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra fuqaroning vasiyatnomasini faqatgina savdo do‘koni uchun rasmiylashtirishini bildirdi hamda uy-joy va avtovtransport vositasini vasiyatnomaga kirita olmasligini bildirdi. Fuqaro Allanov notariusning mazkur qaroridan norozi bo‘lib notariusga vasiyatnomani rasmiylashtirib berilishi xususiyashtirish va garov shartnomalari qoidalariiga zid emasligini, shuning uchun vasiyatnomasi rasmiylashtirishi lozimligini talab qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering va vasiyatnomani rasmiylashtirish tartibini tushuntiring. Garov narsasi va xususiyashtirilgan mulkka nisbatan notarial harakatlar amalga oshirilish tartibiga huquqiy baho bering.

### **38-masala**

Fuqarolar B.Boliyev, S.Boliyev, D.Uktamov va L.Alloyevalar marhum qarindoshlari V.Boliyevdan qolgan mol-mulkarni taqsimlash, ularga nisbatan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomalarini berishni so‘rab Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi davlat notarial idorasiga murojaat qilishdi. Murojaat qiluvchilar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik mavjud bo‘lib, xususan, L.Alloyeva o‘zini marhumning ikkinchi xotini ekanligini, ularning marhum bilan qonuniy nikohi mavjud ekanligini bildirdi. Merosga da‘vogar boshqa shaxslar esa buni inkor etib, ularning nikohi qonuniy emasligini shuning uchun L.Alloyevaning merosga haqqi yo‘qligini bildirdilar. Notarius taraflarni tinchlantirib, L.Alloyevaga o‘z so‘zlariningisboti uchun hujjat keltirishini, ularning marhum bilan nikohlari qonuniy qayd etilganligi asosini taqdim qilishni so‘radi.

L.Alloyeva marhum bilan qonuniy nikohdan o‘tganligini tuman FHDYO bo‘limi tomonidan 2016-yil 29-fevral (dushanba) kuni berilgan nikoh guvohnomasini notariusga taqdim etdi. Bunga nisbatan esa merosga da‘vogar boshqa shaxslar marhumning 28-fevralda vafot etanligi faktini tasdiqlovchi guvohnomani notariusga taqdim etdilar.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **39-masala**

Fuqaro S. “Tong” gazetasiga “Xayr kabutarlar” nomli hikoya yozib yubordi. Gazeta muharririyatida ishlovchi D. hikoya nomini “Poklanish” deb o‘zgartirdi va hikoya oxiriga asar qahramoni kabutarlarni boshqa odamga berib kaptarvozlik illatidan xalos bo‘lishi tarzida berib, xikoyani S.ning muallifligi ko‘rsatilgan holda nashr ettirdi.

S. sudga da’vo ariza bilan murojat qilib tahririyat hikoya g‘oyasini o‘zgartirib yuborganini, bunda u “kaptarbozlik” illat degan fikr aytmaganini va tahririyat “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunni buzganligini, asarni birlamchi matni bo‘yicha qayta chop etishni va o‘ziga yetkazilgan ma’naviy zararni qoplashni talab qildi.

Tahririyat vakili tahririyat “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi” Qonunga muvofiq hikoyani tahrir etib chop etganligini va muayyan xududlarda bolalar o‘rtasida kaptarbozlikka ruju qo‘yilganligi va uni qimor darajasiga yetib borayotganligi sababli ibrat tariqasida “kaptarbozlik” illat g‘oyasini qo‘sghanligini bildirdi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

### **40-masala**

Axmedov laylak ko‘rinishida sharbat siqvchi qurilma yaratdi. Qurilma turli mevalarni siqib sharbatga aylantirib, laylak tumshug‘idan piyolalarga quyulardi. Axmedov o‘z qurilmasini qanday ob‘ekt sifatida huquqiy muhofazaga ega bo‘lishi mumkin deb bir necha huquqshunosga murojat etdi. Birinchi huquqshunos uni ixtiro sifatida rasmiylashtirishga maslahat berdi. Ikkinci huquqshunos “ixtiro patentini olish g‘oyat murakkab jarayon, u butun dunyo bo‘yicha yangilikka ega bo‘lishi lozim, yaxshisi uni foydali model sifatida rasmiylashtir, bu osonroq va mamlakat miqiyosida yangi bo‘lsa kifoya qiladi” deb maslahat berdi.

Uchinchi huquqshunos “qurilmani tashqi ko‘rinishi chiroyli va nafis” ekanligini ta’kidlab uni sanoat namunasi sifatida rasmiylashtirishni tavsiya qildi. To‘rtinchi huquqshunos esa, “sharbat tayyorlovchi qurilmalar juda ko‘p, siz uni yaxshisi mualliflik huquqi ob‘ekti sifatidagi san‘at asari” sifatida taqdim eting deb maslahat berdi.

**Ushbu maslahatlar qay darajada o‘rinli? Ushbu qurilma qanday obyekt sifatida huquqiy muhofazaga mos keladi?**

### **41-masala**

Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha sudi tomonidan fuqaro A. turmush o‘rtog‘i B.ni qasddan o‘ldirganlikda aybdor deb topilib, Jinoyat kodeksining

97-moddasi 1-qismi bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Fuqaro A. jazoni ijro etib chiqqanidan so‘ng, kunlarning birida ishdan qaytayotib sobiq turmush o‘rtog‘i B.ni tirik ekanligiga ishonmadni va uni kuzata boshladi. A.ning kuzatuvlari natijasida turmush o‘rtog‘i B. tirik ekanligiga ishonch hosil qildi va uning uchun 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etib uchun uni uldirdi. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, dastlabki tergov olib borildi va sud jarayonida A.ning himoyachisi sudyaga himoyasi ostidagi fuqaro A. muqaddam turmush o‘rtog‘i B.ni o‘ldirganlikda ayblanib, javobgarlikka tortilganligi Jinoyat kodeksining 8-moddasida (Odillik prinsipi) hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marotaba javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilganligini aytib, suddan A.ga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini tugatishni so‘radi.

**1. A.ning qilmishini JKning 8-moddasi (Odillik prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?**

**2. Ushbu holatda himoyachining talablari to‘g‘rimi?**

#### **42-masala**

Fuqaro K. 2019-yil 22-noyabr kuni fuqaro S.ga nisbatan JK 109-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. K.ga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlari olib borilishi davomida S. bilan yarashib, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilib, amalda pushaymon bo‘lib, yetkazilgan zararni to‘liq qoplaganligi sababli tergovchi A. fuqaro K.ga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini yarashganligi munosabati bilan tugatish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

**1. K.ning qilmishini JKning 10-moddasi (Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?**

**2. Mazkur holatda tergovchi A. Jinoyat kodeksining 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilganmi?**

#### **43-masala**

Fuqaro L. 2020-yil 10-mart kuni Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Qorasu-1 dahasida yolg‘iz ketayotgan 20 yoshli N.ni orqa tomonidan majburlab kiyimlarini yechadi va unga pichoq tirab o‘ldirish bilan qo‘rqitib u bilan jinsiy aloqa qiladi. M.Ulug‘bek tuman tergovchisi K. tomonidan L.ga nisbatan 118-modda 2-qism “g” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi va dastlabki tergov harakatlari olib borilib, ish sudga chiqariladi. Sudda yoshlar ittifoqi ishtiroy etadi va L.ga kafolat xati bergen holda suddan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo berishini so‘radi.

**1. L.ning qilmishini suddda ko‘rish bosqisida yoshlar ittifoqining ishtirokini JK ning 6-moddasi (Demokratizm prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?**

**2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 6-moddasida nazarda tutilgan demokratizm prinsipiga rioya qilganmi?**

#### **44-masala**

Fuqaro N. 2007-yil 25-mart kuni o‘zining turmush o‘rtog‘i L.ni rashk tufayli qasddan o‘ldiradi. Sud uni 12 yil ozodlikdan mahrum qiladi. N. jazoni o‘tab chiqqach, 2019-yil 30-avgustda marhum L.ning akasi bilan janjallahib qoladi va uni oshxona pichog‘i bilan qasddan o‘ldiradi. U O‘z.R JKning 97-moddasi 2-qism “r” bandi bilan aybli deb topadi va 17 yil muddatga ozodlikdan mahrum qiladi.

**1. N.ga nisbatan 17 yil muddatga sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinishini JK ning 7-moddasi (Insonparvarlik prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?**

**2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 7-moddasida nazarda tutilgan insonparvarlik prinsipiga rioya qilganmi?**

#### **45-masala**

2020-yil 12-aprelda fuqaro R. birga maktabda o‘qigan sinfdoshi K. bilan o‘tirib spirtli ichimliklar ichadi. Spirtli ichimliklar ichishi natijasida R.ning sinfdoshi K. uni haqorat qiladi va bir musht uradi. Bundayn g‘azablangan R. uyidan oshxona pichog‘ini olib chiqib K.ning bo‘yin qismi va qorin bo‘shlig‘iga bir necha marta oshxona pichog‘i bilan zorbalar beradi. Natijada K. ko‘p qon yo‘qotadi va voqeа joyini o‘zida vafot etadi. Tergovchi L. tomonidan olib borilgan tergov harakatlari natijalari va dalillar asosida K.ning qilmishida qasddan odam o‘ldirish jinoyat tarkibining barcha belgilari aniqlanadi.

**1. R.ning qilmishini JK ning 10-moddasi (Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi)da belgilangan qoidalar asosida tahlil qiling?**

**2. Mazkur holatda Jinoyat kodeksining 10-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga rioya qilganmi?**

#### **46-masala**

Fuqaro U. boylik orttirish maqsadida 2002-yil 21-mart kuni qo‘shnisi P.ning xonadoniga qurollangan holda niqob ostida bostirib kirib JK 164-moddasi 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. Olib borilgan surishtiruv ishlar natijasida ushbu jinoyat fosh etilma-gan. Bu holatdan foydalangan fuqaro U. jinoiy sheriklari bilan o‘zaro til biriktirib, 2010-yilning 26-iyun kuni «Nafisa» MChJ xususiy firma bosh hisobchisi tomonidan shu

korxona xodimlarining oylik maoshini olib kelayotganda unga nisbatan ochiqdan-ochiq hujum qilib JK 166-moddasi 2-qismi «v» bandi va 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlar.

- 1. Fuqaro U.ning sodir etgan jinoyatlarining javobgarlikdan ozod qilish muddatini aniqlang va asoslab bering?**
- 2. Ushbu U. JK 66-1-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**

#### **47-masala**

Fuqaro J. 2014-yilning 18-noyabr kuni fuqaro P.ga nisbatan JK 111-moddasida nazarda tutilgan va 24-noyabr kuni fuqaro Z.ga nisbatan JK 115-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan. J.ga nisbatan sodir etgan har ikkala jinoyati yuzasidan tergov ishlari olib borilishi davomida P. va Z. bilan yarashib, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida IIBga murojaat qilgan va yetkazilgan zararni to‘liq qoplagan.

- 1. Mazkur holatda fuqaro J. JK 66-1-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**
- 2. JK 66-1-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi Asos va shartlarini ko‘rsating?**

#### **48-masala**

Fuqaro H. ota-onasidan alohida chiqib, turmush o‘rtog‘i va farzandi bilan boshqa uyda yashay boshladi. Sud tomonidan H.ga nisbatan ota-onasini moddiy ta‘minlash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilingan. Ammo H. 4 oy muddat davomida ota-onasidan xabar olmay, ularni moddiy ta‘minlamagan. Buning natijasida H.ning otasi V. sudga da’vo arizasi bilan shikoyat qilgan. Mazkur holat yuzasidan H.ga nisbatan JK 124-moddasi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. H.ning sodir etgan xatti-harakati yuzasidan sud ishi ko‘rilishidan ikki kun oldin uning ota-onasi vafot etgan.

- 1. Mazkur holat yuzasidan H. JK 65-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**
- 2. Mazkur holatda fuqaro J. JK 66-1-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**

#### **49-masala**

«FAZO» xususiy korxonasi rahbari X. bosh hisobchisi bo‘lgan P. va kotibasi A.dan 2014-yil yakuni bo‘yicha hisobotni tayyorlab bo‘lganlaridan so‘ng uylariga ketishlari mumkinligini buyruq sifatida aytadi. Hisobotni tayyorlash vaqtida kechki soat 20:35larda bosh hisobchi P. mineral suv ichib kelish uchun do‘konga chiqib ketadi. Bu holatdan foydalangan korxona rahbari X. kotibasi

A.ning xonasiga kirib eshigini qulflagan holda uning nomusiga tegadi. Korxona kotibasi A. sodir bo‘lgan holat yuzasidan tuman IIBga arz qilib boradi. Korxona rahbari X. sodir etgan harakatidan qattiq pushaymon bo‘lib, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida IIBga murojaat qiladi va kotibasidan uni kechirishini so‘rab unga uylanishga va’da beradi. Bu shartga korxona kotibasi rozi bo‘lib rahbari X.ni kechiradi.

**1. Ushbu holatda korxona rahbari X. JK 66-1-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**

**2. Mazkur holat yuzasidan X. JK 65-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**

### **50-masala**

Fuqaro H. 2008-yil 14-avgust kuni tanosil kasalligi bilan kasallanganligini bila turib, fuqaro U. bilan jinsiy aloqaga kirishib JK 113-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan. H.ga nisbatan tergov ishlari amalgaloshirilishi davomida u o‘z aql-idrokini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qoladi. Sud psixiatriya ekspertiza xulosasiga ko‘ra, u aqli noraso deb topilib, unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llaniladi. 2011-yilning 13-avgust kuni fuqaro H. shifokorlarning bergen xulosasiga asosan sog‘lom deb topiladi.

**1. Fuqaro H.ning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinish muddatini aniqlang?**

**2. Mazkur holat yuzasidan H. JK 65-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinmi?**

### **51-masala**

A davlati 2008-y. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo‘shiladi. Qo‘shilish paytida konvensiya matni bo‘yicha hech qanday bayonot va izohlar qilmaydi. 2017- yilda unga R davlati korrupsion jinoyat sodir etgan Dvang Jvang Ko kompaniyasining rahbari A davlati fuqarosi Nguen Vani qamoqqa olishni so‘rab murojaat qiladi. A davlati rad javobini beradi. Asos R davlatining yurisdiksiyasi A hududida amal qilmasligi.

**1. Xalqaro konvensiyaga qo‘shilish jarayonidagi bayonot va izohlarning huquqiy ahamiyati qanday?**

**2. A davlatining harakatlari asoslimi?**

### **52-masala**

Davlat hizmatchilarining odob-axloqi masalalari milliy hujjatlar bilan tartibga solinmagan taqdirda, ular jamiyatdagi odob va xulq-atvorning umumiy tamoyillari, shuningdek xalqaro huquqning davlat hizmatchilari odob-axloqini tartibga soluvchi umum e’tirof etilgan tamoyillariga amal qiladilar.

**1. Davlat hizmatchilari odob-axloqini tartibga soluvchi umume'tirof etilgan tamoyillari qaysi xujjatlarda belgilangan?**

**2. Davlat hizmatchilarining odob-axloqi masalalarini belgilovchi milliy hujjatlar hamda ularning odob-axloqini tartibga soluvchi umum e'tirof etilgan tamoyillari o'rtasida tafovud paydo bo'lsa qaysi xujjatlarga ustuvorlik beriladi?**

### **53-masala**

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni muvofiq fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga binoan esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoatchilik nazorati subyektlari ekanligi belgangan.

**1. Sizningcha, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning ishtiroki qaysi shakllarda amalga oshirilmoqda?**

**2. Davlat organlari va mansabdar shaxslarning qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning bevosita va to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishini qanday tartibda takomillashtirish mumkin?**

### **54-masala**

Qashqadaryo viloyati Koson tumanida 2021-yil 10-yanvar kuni fukaro Shukurov S., tanishi 40 yoshli Solixova A.ning uyga yashirin ravishda kirib, 5 ta "Samsung A 10" uyali telefon apparatini o'g'irlab, voqeа joyidan yashiringanligi holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi (O'g'rilik) bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Mazkur jinoyat ishi yuzasidan sud tergovi vaqtida sudlanuvchining boshqa bir jinoyatga ham daxldor ekanligi aniqlandi, ya'ni uning xattiharakatlarida JK 168-moddasi (Firibgarlik) tarkibi ham mavjudligi ma'lum bo'ldi. JIB Koson tumani sudi sudyasi muddat o'tib ketishining oldini olish maqsadida zudlik bilan surishtiruv kamchiliklarini bartaraf etishga qaror qildi.

Ishda qatnashayotgan davlat ayblovlisi yangi ayblov jinoyat ishini ko'rishni to'xtatish turish uchun asos bo'lishini ta'kidlab, mazkur yangi holatga dastlabki tergovda aniqlik kiritish kerakligini so'radi.

- 1. Tergovga tegishlilik qoidalariга rioya qilinganmi?**
- 2. Jinoyat ishi to'g'ri qo'zg'atilganmi?**
- 3. Dastlabki tergov bilan sud tergovining farqi?**
- 4. Ushbu xolatda tergovchining jinoyat-protsessual qonunchilik asosidagi xarakatlari?**

## **55-masala**

K. avtobusda C.ning cho‘ntagidan 100 AQSh dollari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatini o‘g‘irlayotganini yaqin atrofda turgan qiz ko‘rib qoladi. Qiz qichqirib, S. ning e‘tiborini K.ning harakatlariga qaratadi. Biroq K. qizning yuziga chuqur kesish orqali shikast yetkazadi va avtobusdan qochishga muvaffaq bo‘ladi.

Oradan bir necha kun o‘tib, K. aybini bo‘yniga olish haqidagi arz bilan jinoyat ishini olib borayotgan tergovchining oldiga keladi. Jabrlanuvchi S. ham K. etkazilgan zararni to‘liq qoplaganini aytib, K.ga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida murojaat qiladi.

- 1. Aybini bo‘yniga olish haqidagi arz nima?**
- 2. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etishga yetarli asos va sabablar mavjudmi?**
- 3. Mazkur holatda tergovchining harakatlari?**

## **56-masala**

Jinoyat ishi bo‘yicha shaxsiy kafillik tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan ayblanuvchi Toshov kafil Sayidov tomonidan o‘z majburiyati talab darajasida bajarilmaganligi sababli qaytadan bezorilik jinoyatini sodir qilib, tergov organidan yashiringan. Tergovchi kafil Sayidovni ayblanuvchining qochishiga yordam bergenlikda ayblab, uni Toshovga sherik sifatida jinoyat ishi qo‘zg‘atdi va jinoyat ishlarini birlashtirdi. Shundan so‘ng dastlabki tergovni JPKning 364-moddasi 3-bandiga asosan to‘xtatib, Toshovga nisbatan qidiruv e’lon qildi. Tekshirishlar natijasida ayblanuvchi Toshovning O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketganligi ham, kafil Sayidovning Toshovning qochishiga yordam bergenligi ham o‘z tasdig‘ini topmasdan Toshov o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloqda ushlangan va dastlabki tergov qayta tiklangan.

**Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling. Tergovchi tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning qonuniyligiga baho bering. Kafillik ehtiyot chorasini qo‘llash asoslari, dastlabki tergovni to‘xtatish va qayta tiklash asoslari, tartibiga to‘xtaling.**

## **57-masala**

2019-yil yanvar oyida Sergeli 2-dahada yashovchi A.Xusanova singlisi, Sergeli 3-dahada yashovchi L.Xusanovaning uyni o‘zining nomiga xadya tarzida rasmiylashtirish uchun singlisining imzosini qalbakilashtirib, o‘zining nomiga rasmiylashtirgan va xonadonni 33 000 AQSh dollari evaziga sotib yuborganligi va pullarini o‘z ehtiyojlari uchun ishlatisib yuborgan.

Sud tergovi jarayonida sudlanuvchi hayoti davomida orttirgan og‘ir kasalligi sababli vafot etdi. JIB Sergeli tuman sudi sudyasi JPK 84-moddasi 1-qismi 3-bandni va JPKning 401-moddasi 1-qismini asos qilib ko‘rsatib, jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida ajrim chiqardi.

Mazkur ajrimga nisbatan tuman prokuraturasi tomonidan protest keltirilib, unda JPKning 421-moddasida agar sud majlisida ushbu Kodeksning 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan asoslar aniqlansa, sud ishni ko‘rishni davom ettirishi hamda aybdor shaxsga jazo tayinlamay, ayblov hukmi chiqarishi zarurligi ko‘rsatilganligini vaj qilib, ajrimni bekor qilish so‘ralgan.

Sud esa o‘z ajrimida sudlanuvchi talab qilmaganligi uchun ishni yuritish umumiy tartibda davom etmaganini ko‘rsatgan (JPK 84-modda 2-qism).

### ***Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling.***

#### **58-masala**

Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi tomonidan sudlanuvchi Umarovni JKning 180-moddasi bilan ayblash haqidagi jinoyat ishi ko‘rib chiqilayotganda uning yana bir qator jumladan, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lash kabi jinoyatlarni sodir etish holatlari aniqlandi. Shundan so‘ng sud yangi ayblov bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qildi. Prokuror tomonidan tegishli materiallar tergov harakatlarini tashkillashtirish uchun tergovchiga topshirildi. Tekshirish harakatlari davomida mazkur holatlar dastlabki ayblov bilan bog‘liqligini va uni alohida ko‘rish imkoniyati yo‘qligini bayon qilib, prokurorga ayblovni to‘ldirish to‘g‘risida sudga iltimosnama kiritish to‘g‘risida fikr bildirdi. Sud tomonidan davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlovchi prokurorning iltimosnomasi rad qilindi va ish ko‘rish umumiy tartibda davom ettirilib, hukm chiqarildi. Sud hukmiga va iltimosnomani rad qilish to‘g‘risidagi ajrimiga nisbatan tuman prokurori tomonidan apellyatsiya protesti keltirildi.

### ***Masalani jinoyat-protsessual qonunchilik asosida tahlil qiling.***

#### **59-masala**

Ayblanuvchi Baratov dastlabki tergov jarayonida bergen ko‘rsatmasida xonadonidagi yo‘lakda osig‘liq turgan kurtkasining cho‘ntaklaridan birida ishga aloqador tilla uzuk borligini ma’lum qilgan. Tergovchi Muslimov ayblanuvchining bergen ko‘rsatmasiga binoan tilla uzukni olib qo‘yish haqida qaror chiqarib, ayblanuvchi bilan birga uning xonadoniga keldi, xolislar sifatida ikkita qo‘shnini ham chaqirdi. Tergovchi avval qarorni o‘qib berdi va ayblanuvchiga uzukni o‘z ixtiyori bilan topshirishni taklif qildi. Ayblanuvchi kiyim ilgichdan charm kurtkani oldi, uning cho‘ntaklarini tekshirdi va ularning biridan qidirilayotgan uzukni topib, tergovchiga taqdim etdi. Ushbu fakt olib

qo'yish bayonnomasida aks ettirildi. Mazkur tergov harakatini o'tkazish jarayonida shu xonadonda yashovchi fuqaro Baratova mulkni bermaslik uchun faol qarshilik ko'rsatdi. Tergovchi uni bu qilmishi uchun javobgarlikka torta olmasada, tinchlanishini so'radi.

Tergov yakunida prokuror ishning Baratovga tegishli qismini o'rganib, jinoyat ishiga uning daxli yo'q, degan xulosaga keldi va JPK 83-modda bilan ishning unga nisbatan qismini tugatdi. Baratov jinoyat ishlari bo'yicha sudga murojaat qilib, asossiz tergov hibsxonasida o'tirgan har bir kun uchun kompensatsiya va ma'naviy zararni undirib berishini so'ragan.

***Mazkur holatga jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida huquqiy baho bering.***

## **60-masala**

Fuqaro Sindorov o'zganing mulkini bosqinchilik yo'li bilan qo'lga kiritish maqsadida, shaxsga o'zi tomonidan oldindan tayyorlangan o'tkir tig'li temir parchasi bilan jaroxat yetkazib, shu yo'l bilan o'zganing mulkini qo'lga kirish maqsadida harakat qilib, 2020-yilning 10-oktabr kuni tungi soat 01:30larda Toshkent shahar, Sergeli tumani, Bog'ishams ko'chasi, 10-uy, 11-xonadonga keladi va xonadon eshigini ochgan jabrlanuvchi fuqaroning ko'krak qafasiga o'zi bilan olib kelgan o'tkir tig'li jism bilan bir necha marotaba tan jarohati yetkazib uni xushsiz holatga keltiradi. Shundan keyin xonadon ichkarisiga kirib uyni ko'zdan kechiradi va uyda boshqa shaxslar bo'limganligi sababli, xonadonning barcha xonalaridagi shkaflarni birma bir ohib ko'rib, shkaflar ichidan umumiy qiymati 15.000.000 so'mlik tilla taqinchoqlar, 1500 AQSh dollari miqdoridagi naqd pul mabalag'larini olib voqeа joyidan yashirinadi. Mazkur holat yuzasidan tuman prokuraturasi tomonidan JKning 164-moddasi tegishli bandlari va 25, 97-moddasi tegishli bandlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Voqeа joyini ko'zdan kechirish jarayonida tergovchi jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan olib kelingan va voqeа joyida qoldirilgan o'tkir tig'li temir jism daliliy ashyo tariqasida oladi.

Jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohat hususiyatini aniqlash maqsadida statsionar ko'rikdan o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy joylashtirildi.

***Mazkur holatga jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida huquqiy baho bering.***

## **61-kazus**

"DataChain" MChJ blokcheyn texnologiyasiga asoslangan yangi turdag'i ma'lumotlar bazasini yaratdi. Kompaniya o'z mahsulotini O'zbekiston Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazdi va unga tegishli guvohnomani qo'lga kiritdi. Ma'lumotlar bazasi noyob arxitekturaga ega bo'lib, blokcheyn texnologiyasi yordamida ma'lumotlarni shifrlash, saqlash va qayta ishlashning innovations usullarini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, tizim sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda ma'lumotlarni avtomatik tarzda tahlil qilish va bashorat qilish imkoniyatiga ega edi. Bir necha oydan so'ng, "InnoTech Solutions" kompaniyasi

aynan shunga o'xhash mahsulotni bozorga olib chiqdi. Ularning mahsuloti ham xuddi shunday funksiyalarga ega bo'lib, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash mexanizmlari "DataChain" MChJ ning tizimiga juda o'xhash edi. "DataChain" MChJ bu holatni mualliflik huquqi buzilishi sifatida baholab, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qildi va 500 million so'm miqdorida moddiy zarar hamda 100 million so'm ma'naviy zarar undirishni so'radi. Javobgar "InnoTech Solutions" o'z himoyasida ular foydalangan algoritm va dasturiy ta'minot mustaqil ravishda ishlab chiqilganini, unda zamonaviy sun'iy intellekt tizimi qo'llanilganini va bu tizim mustaqil ravishda yaratilgan yechimlarni taklif qilganini ta'kidladi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi ochiq manba hisoblanishi va undan har qanday shaxs foydalanishi mumkinligini qayd etdi. Bundan tashqari, ular o'z mahsulotlarida qo'llangan texnik yechimlar "DataChain" MChJ ning mahsulotidan sezilarli darajada farq qilishini va bu farqlar tizimning ichki arxitekturasida, ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarida hamda foydalanuvchi interfeysida namoyon bo'lishini ta'kidlashdi.

## 62-kazus

"CryptoFinance" kripto-aktivlar birjasi va "SmartInvest" investitsiya kompaniyasi o'rtasida smart-kontrakt orqali shartnomalar tuzildi. Shartnomalar shartlariga ko'ra, "SmartInvest" mijozlarining mablag'lari avtomatik ravishda kriptovalyutalarga investitsiya qilinishi kerak edi. Smart-kontrakt shartlari bo'yicha, tizim kriptovalyuta bozorining holatini real vaqt rejimida tahlil qilishi va eng optimal investitsiya qarorlarini qabul qilishi kerak edi. Bundan tashqari, shartnomada investitsiya strategiyasi, risk darajasi, investitsiya limitlari va foyda taqsimoti shartlari batafsil kelishib olingan. Smart-kontrakt dasturlash xatosi tufayli noto'g'ri ishladi va "SmartInvest" ning 500,000 AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'qoldi. Xususan, tizim bozor narxlarining keskin tushishi paytida pozitsiyalarni yopish o'rniga, aksincha, yangi pozitsiyalar ochgan. "SmartInvest" zararni qoplash talabi bilan sudga murojaat qildi va qo'shimcha ravishda boy berilgan foydani ham undirish talabini qo'ydi. "CryptoFinance" esa javobgarlikni rad etib, xato smart-kontraktni yaratgan dasturchi va sun'iy intellekt tizimida ekanligini ta'kidladi. Ular smart-kontrakt kodini uchinchi tomon kompaniyadan sotib olganliklarini va ushbu kompaniya bankrot bo'lib ketganligini ma'lum qilishdi. Shuningdek, ular shartnomada fors-major holatlar ro'yxatida dasturiy ta'minot xatolari ham ko'rsatilganligini ta'kidlashdi. "SmartInvest" esa o'z navbatida "CryptoFinance" smart-kontrakt kodini tegishli darajada testdan o'tkazmaganligini va bu ularning shartnomaviy majburiyatlarini buzish ekanligini qayd etdi.

## **63-kazus**

"BlockTrade" blokcheyn platformasi orqali "Golden Trust" MChJ va "Silver Line" MChJ o'rtasida tovar ayirboshlash amalga oshirildi. Tranzaksiya paytida platformaning xavfsizlik tizimida nosozlik yuzaga keldi va "Golden Trust" MChJ ning raqamli hamyonidan 100,000 USDT (kriptovalyuta) noqonuniy ravishda yechib olindi. Tekshiruv natijasida bu xakerlik hujumi emas, balki platformaning sun'iy intellektga asoslangan xavfsizlik tizimidagi algoritm xatosi ekanligi aniqlandi. Xusan, tizim tranzaksiyani tekshirish paytida noto'g'ri autentifikatsiya protokolini qo'llagan va bu raqamli hamyonga ruxsatsiz kirishga yo'l qo'ygan. "Golden Trust" MChJ "BlockTrade" platformasiga nisbatan zararni undirish to'g'risida da'vo kiritdi. Da'vo talabida yo'qotilgan kriptovalyuta qiymatini va platforma xizmatlaridan foydalanish uchun to'langan komission to'lovlarni qaytarish, shuningdek ishoncli mijozlarni yo'qotish natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash talab qilindi. "BlockTrade" o'z himoyasida ular foydalanuvchilar bilan tuzgan shartnomada xavfsizlik tizimidagi texnik nosozliklar uchun javobgarlikni cheklovchi bandlar mavjudligini ta'kidladi. Bundan tashqari, ular sun'iy intellekt tizimining xatosi uchun platformani javobgar qilib bo'lmasligini, chunki bu tizim mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega ekanligini qayd etishdi.

## **64-kazus**

"Digital Assets" MChJ blokcheyn texnologiyasiga asoslangan ko'chmas mulk oldi-sotdi platformasini ishga tushirdi. Platforma smart-kontraktlar orqali ko'chmas mulk oldi-sotdisini amalga oshirish imkoniyatini berardi. "Green Building" MChJ platformada ro'yxatdan o'tib, 5 ta kvartirani sotuvga qo'ydi va ularning elektron reestrдagi ma'lumotlarini platformaga joyladi. "Comfort House" XK ushbu kvartiralarni sotib olish uchun smart-kontrakt tuzdi va kriptovalyutada to'lovni amalga oshirdi. Biroq, keyinchalik ma'lum bo'ldiki, "Green Building" MChJ tomonidan platformaga joylangan hujjatlar sun'iy intellekt tizimi tomonidan noto'g'ri qayta ishlangan va smart-kontraktda ko'chmas mulkning muhim xususiyatlari (maydon, qavat, manzil) noto'g'ri ko'rsatilgan. "Comfort House" XK bitimni haqiqiy emas deb topish va to'langan mablag'larni qaytarish to'g'risida sudga murojaat qildi. "Digital Assets" MChJ esa o'z navbatida ular faqat texnik platforma taqdim etganliklarini va hujjatlarning to'g'riligini tekshirish majburiyati sotuvchining zimmasida ekanligini ta'kidladi. "Green Building" MChJ esa ayb platformaning sun'iy intellekt tizimida ekanligini va ular hujjatlarni to'g'ri shakllantirganliklarini ma'lum qildi.

## **65-kazus**

"Mega Trading" MChJ "Smart Logistics" kompaniyasi bilan tovarlarni yetkazib berish bo'yicha aralash shartnoma tuzdi. Shartnoma an'anaviy shaklda

tuzilgan bo‘lib, unda tovarlarni yetkazib berish muddatlari, sifati va narxi belgilangan. Shu bilan birga, tomonlar shartnomaga smart-shartnoma elementlarini ham kiritishgan - tovar yetkazib berilganidan so‘ng to‘lov blokcheyn tizimi orqali avtomatik amalga oshirilishi kelishilgan. Biroq tovar belgilangan muddatda yetkazib berilmadi, natijada smart-shartnoma avtomatik ravishda jarima hisobladi va to‘lovnini amalga oshirmadi. "Mega Trading" yetkazib beruvchi aybisiz, fors-major holati (yuk tashuvchi avtomobil yo‘l-transport hodisasiga uchrashi) tufayli kechikish yuz berganini vaj qilib, jarimani bekor qilishni talab qildi. Ammo smart-shartnoma dasturiy kodini o‘zgartirib bo‘lmasligi sababli nizo yuzaga keldi.

**Bu holatda an’anaviy shartnoma va smart-shartnoma elementlari o‘rtasidagi munosabatlar qanday tartibga solinishi kerak? Fors-major holatlari smart-shartnomalarda qanday hisobga olinishi lozim?**

## **66-kazus**

"InnoTech Solutions" kompaniyasi mijoz bilan dasturiy ta’milot yaratish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Shartnomaga ko‘ra, kompaniya mijozning talablari asosida dasturiy ta’milot yaratib berishi, mijoz esa buning uchun 100 million so‘m to‘lashi kelishilgan. Shartnoma an’anaviy tarzda yozma shaklda rasmiylashtirilgan. Keyinchalik tomonlar qo‘srimcha kelishuvga ko‘ra, to‘lovnini kriptovalyutada amalga oshirish va buning uchun smart-shartnomadan foydalanish haqida kelishishdi. Smart-shartnomaga ko‘ra, dasturiy ta’milot taqdim etilgach, to‘lov avtomatik ravishda amalga oshirilishi kerak edi. Biroq dasturiy ta’milot taqdim etilganidan so‘ng kriptovalyuta kursi keskin tushib ketdi va mijoz to‘lovnini milliy valyutada amalga oshirishni talab qildi. "InnoTech Solutions" esa smart-shartnoma shartlariga ko‘ra to‘lov kriptovalyutada amalga oshirilishi kerakligini vaj qilmoqda.

**Bunday holatda an’anaviy va smart-shartnoma shartlari o‘rtasidagi ziddiyatlar qanday hal etilishi kerak?**

## **67-kazus**

"Digital Education" o‘quv markazi onlayn ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzmoqda. Markaz an’anaviy yozma shartnomalar bilan bir qatorda blokcheyn platformasida smart-shartnomalar tuzishni ham joriy etgan. Bunda o‘quvchi smart-shartnoma tuzish orqali kursga yoziladi va to‘lovnini amalga oshiradi, shartnoma shartlariga ko‘ra, agar o‘quvchi mashg‘ulotlarning 80% ida qatnashmasa, unga to‘loving bir qismi qaytariladi. Bir guruh o‘quvchilar smart-shartnoma orqali kursga yozilishdi, ammo texnik nosozlik tufayli ularning mashg‘ulotlardagi ishtiroki to‘g‘ri hisoblanmadidi. Natijada smart-shartnoma avtomatik ravishda ularga pul qaytardi, holbuki ular mashg‘ulotlarda to‘liq

qatnashgan edilar. O'quv markazi dasturiy xato tufayli noto'g'ri qaytarilgan mablag'larni qaytarishni talab qilmoqda.

**Bunday holatda shartnomaning an'anaviy va raqamli shakllari o'rtaсидаги муносабатлар qanday tartibga solinishi kerak?**

### **68-kazus**

"Infinity Bank" mijozlarga yangi xizmat turini taklif qildi - bank omonati shartnomasini ham an'anaviy, ham smart-shartnoma shaklida tuzish imkoniyati. Mijoz Alisher Ibrohimov ikkala shaklda ham shartnoma tuzdi: an'anaviy shartnomaga ko'ra 50 million so'm, smart-shartnoma orqali 10 ming AQSh dollari miqdorida omonat qo'ydi. Smart-shartnomaga ko'ra, foizlar har oyda avtomatik hisoblanib, mijozning raqamli hamyoniga o'tkazilishi belgilangan. Olti oy o'tgach, bank moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi va Markaziy bank tomonidan uning litsenziyasini vaqtincha to'xtatildi. Alisher Ibrohimov omonatlarini qaytarishni talab qildi. An'anaviy shartnoma bo'yicha omonat sug'urtalangani uchun Omonatlarni kafolatlash jamg'armasi tomonidan qoplandi. Ammo smart-shartnoma bo'yicha qo'yilgan omonat uchun jamg'arma javobgarlikni rad etdi, chunki bunday shartnomalar sug'urta qoplamasini obyekti sifatida tan olinmagan.

**Bunday holatda mijozning huquqlari qanday himoya qilinishi kerak?**

### **69-kazus**

"Creative Media" studiyasi yosh rassom bilan uning asarlarini sotish bo'yicha vositachilik shartnomasi tuzdi. Shartnoma an'anaviy tarzda tuzilgan bo'lib, studiya rassomning asarlarini sotish va reklama qilish majburiyatini olgan, buning evaziga har bir sotilgan asardan 20% komissiya olishi kelishilgan. Keyinchalik studiya rasmlarni NFT formatida ham sotishni taklif qildi va buning uchun qo'shimcha smart-shartnoma tuzildi. Smart-shartnomaga ko'ra, NFT sotilganda to'lov avtomatik ravishda taqsimlanishi - 80% rassomga, 20% studiyaga o'tkazilishi belgilangan. Biroq NFT xaridorlaridan biri sotib olgan raqamli asarni o'zgartirib, yangi NFT yaratdi va uni sotuvga qo'ydi. Rassom bunga e'tiroz bildirdi, studiya esa smart-shartnomada bunday holatlar ko'zda tutilmaganini vaj qilmoqda.

**An'anaviy va smart-shartnomalar doirasida intellektual mulk huquqlari qanday himoya qilinishi kerak?**

### **70-kazus**

"Smart Solutions" MCHJ rahbari 2024-yil yanvar oyida o'z serverlariga kiber hujum uyushtirilgani va natijada kompaniyaning mijozlari haqidagi maxfiy ma'lumotlar o'g'irlanganini aniqladi. Tekshiruv davomida hujumni

kompaniyaning sobiq xodimi Yusupov uyushtirganini va bu ma'lumotlarni raqobatchi "Digital Systems" kompaniyasiga sotganini aniqlandi. Yusupov kompaniyadan ishdan bo'shashidan oldin maxfiy kalitlarni nusxalab olgan va ulardan foydalanib tizimlarga ruxsatsiz kirgan. O'g'irlangan ma'lumotlar orasida mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy hujjatlari va tijorat sirlari mavjud edi. "Smart Solutions" MCHJ Yusupovdan va "Digital Systems" kompaniyasidan jami 500 million so'm moddiy zarar (yo'qotilgan mijozlar, tizimni tiklash xarajatlari va boshqa to'g'ridan-to'g'ri zararlar) va 200 million so'm ma'naviy zarar (ishbilarmonlik obro'siga yetkazilgan zarar) undirishni so'rab sudga murojaat qildi. Javobgar tomonlar bunday summani asossiz deb topishdi. "Digital Systems" kompaniyasi o'zлari sotib olgan ma'lumotlarning noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilganini bilmaganliklarini ta'kidlashdi. Shuningdek, ular "Smart Solutions" MCHJning o'zi ham xavfsizlik choralarini yetarli darajada ko'rmanligini va sobiq xodimga bunday imkoniyatni bergenliklarini aytishdi. Yusupov esa o'zi faqat ma'lumotlarni nusxalaganini, hech qanday tizimga zarar yetkazmaganini va shuning uchun moddiy zarar miqdori asossiz ekanligini bildirdi. U kompaniya bilan tuzgan mehnat shartnomasida maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risidagi bandning ham aniq miqdorlar belgilanmaganligini ta'kidladi.

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## VI. GLOSSARY

Nº	O‘zbekcha	Izoh	Ingliz tilida
1.	<b>Fuqarolar (jismoniy shaxslar)</b>	O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar	Citizens of the Republic of Uzbekistan, citizens of other countries, as well as stateless persons
2.	<b>Fuqarolik huquq layoqati</b>	fuqarolarga o‘zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati	the ability to have rights and obligations that give citizens the legal opportunity to enter into diverse legal relationships in order to satisfy their material and cultural needs
3.	<b>Fuqarolik huquqi</b>	yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir	is a set of legal norms that regulate and strengthen property and personal non-property relations between legally equal subjects
4.	<b>Fuqarolik huquqi fani</b>	fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liq tushunchalar, kategoriylar, qarashlar, xulosalar, mulohazalar, fikrlar, konsepsiylar va nazariyalar tizimini o‘zida ifoda etgan yurisprudensiyaning asosiy tarmog‘i	the main branch of jurisprudence that expresses the system of concepts, categories, views, conclusions, judgments, opinions, concepts and theories related to civil-legal relations
5.	<b>Fuqarolik huquqi funksiyalari</b>	mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi	are the main directions of legal influence on property and personal non-property relations, and their content is determined by the essence of law and its social function in the life of society
6.	<b>Fuqarolik</b>	bu mulkiy va shaxsiy	bu mulkiy va shaxsiy

	<b>huquqi metodi</b>	nomulkiy munosabatlar bilan bog‘liq ijtimoiy sohada yuridik usullar yig‘indisi, yuridik ta’sir vositalarini qo‘llashni ifoda etuvchi tartib va qoidalar yig‘indisidir	nomulkiy munosabatlar bilan bog‘liq ijtimoiy sohada yuridik usullar yig‘indisi, yuridik ta’sir vositalarini qo‘llashni ifoda etuvchi tartib va qoidalar yig‘indisidir
7.	<b>Blokcheyn texnologiyasi</b>	ma’lumotlarni taqsimlangan tarzda saqlash va qayta ishlash tizimi bo‘lib, u markazlashmagan, xavfsiz va shaffof tarzda amalga oshiriladi	is a distributed system for storing and processing data that is implemented in a decentralized, secure and transparent manner
8.	<b>Kriptokompaniya</b>	raqamli aktivlar va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan biznes faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs	is a legal entity that carries out business activities based on digital assets and blockchain technologies
9.	<b>Smart kontrakt</b>	blokcheyn tizimida avtomatik ravishda bajariladigan, oldindan belgilangan shartlarga asoslangan raqamli shartnoma	is a digital contract based on predetermined conditions that is automatically executed in the blockchain system
10.	<b>Raqamli aktiv</b>	elektron shaklda mavjud bo‘lgan va muayyan qiymatga ega bo‘lgan mulkiy huquqlar obyekti	is an object of property rights that exists in electronic form and has a certain value
11.	<b>Bitim</b>	fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari	actions of citizens and legal entities aimed at establishing, changing or revoking civil rights and duties
12.	<b>Nizoli bitim</b>	Fuqarolik kodeksida belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bitim	an agreement declared invalid by a court on the grounds set out in the Civil Code
13.	<b>O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim</b>	Fuqarolik kodeksida belgilab qo‘yilgan asoslardan qat’i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadigan bitim	an agreement that is deemed invalid regardless of the grounds set out in the Civil Code
14.	<b>Yanglishish</b>	bitim yuzasidan kelib	misunderstanding of

	<b>ta'sirida tuzilgan bitim</b>	chiquvchi taraflarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish, ya’ni taraflarning haqiqiy xohish-irodasini aks ettirmasdan, bitim tuzilgan vaqtida taraflar tomonidan nazarda tutilmagan huquqiy oqibatlarga olib kelgan bitim	the rights and obligations of the parties arising from the transaction, ie a transaction that did not reflect the real will of the parties, which led to legal consequences not provided by the parties at the time of the transaction
15.	<b>Bitim instituti</b>	bitimlarni tuzish tartibi va shakllarini, ularning turlari va mazmunini, haqiqiy emas deb hisoblash shartlarini, ularni haqiqiy emasligini tan olinishining huquqiy oqibatlarini belgilab beruvchi fuqarolik-huquqiy normalari yig‘indisidan iborat	consists of a set of civil legal norms that determine the procedure and forms of concluding agreements, their types and content, the conditions for considering them invalid, the legal consequences of recognizing them as invalid
16.	<b>Bitim shakli</b>	erkni bayon etish usulidan iborat	consists of the method of expressing the will
17.	<b>Smart-kontrakt</b>	dasturiy ta’midot vositasida avtomatik ijro etiladigan elektron shartnoma	electronic contract executed automatically through software
18.	<b>Blokcheyn platforma</b>	smart-kontraktlarni yaratish va ijro etish uchun ishlab chiqilgan raqamlı muhit	digital environment designed for creating and executing smart contracts
19.	<b>Raqamli identifikasiya</b>	smart-kontrakt ishtirokchilarining shaxsini aniqlash	identification of smart contract participants
20.	<b>Delikt javobgarlik sharti</b>	- zarar yetkazgan shaxs xatti-harakati huquqqa xilofligi; - zarar yetkazuvchining huquqqa xilof xatti-harakati va etkazilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish; - zarar yetkazgan shaxsning aybi	- the behavior of the person who caused the damage is illegal; - causal connection between the wrongful behavior of the person causing the damage and the damage caused; - the fault of the person who caused the damage

<b>21.</b>	<b>Fuqarolik huquqiy javobgarlik</b>	mulkiy tusdagi sanksiyalarni huquqbuzarga nisbatan tatbiq etish tushuniladi	means the application of pecuniary sanctions against the offender
<b>22.</b>	<b>Bosh delikt tamoyili</b>	bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning mavjudligiyoq, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltiradi. Bunda jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatning g‘ayriqonuniy ekanligini, uning aybdor ekanligini isbotlashi talab etilmaydi. Zarar etkazuvchining harakati huquqqa xilof va u aybdor – deb «hisoblanadi»	the existence of damage caused by one person to another person creates an obligation to compensate for the damage caused. In this case, the victim is not required to prove that the harmful action is illegal, that he is guilty. The action of the person causing harm is “considered” as illegal and he is guilty
<b>23.</b>	<b>Delikt majburiyatlar va ulardan kelib chiqadigan delikt javobgarlik shartlari</b>	- zarar etkazgan shaxs xatti-harakati huquqqa xilofligi; - zarar etkazuvchining huquqqa xilof hatti-harakati va etkazilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish; - zarar etkazgan shaxsning aybi	- the behavior of the person who caused the damage is illegal; - causal connection between the wrongful behavior of the person causing the damage and the damage caused; - the fault of the person who caused the damage
<b>24.</b>	<b>Tijoratchi tashkilot</b>	foyda olishni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilot	organization pursuing profit making as the main goal of its activities
<b>25.</b>	<b>Mulk huquqi</b>	egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish	Possession, Use and Disposal
<b>26.</b>	<b>Kiberhujumlar natijasida yetkazilgan zarar</b>	bu kiberjinoyatchi tomonidan axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari va ma'lumotlar bazalariga ruxsatsiz kirish, ularni ishdan chiqarish yoki o'zgartirish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan zarar hisoblanadi	This constitutes material and non-material damage inflicted upon natural and legal persons through unauthorized access, disruption, or alteration of information systems, computer networks, and databases by

			cybercriminals
27.	<b>Raqamli identifikatsiya</b>	bu jismoniy va yuridik shaxslarning elektron muhitda o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tasdiqlash imkonini beruvchi texnologik vositalar va usullar tizimidir	This is a system of technological tools and methods that allows for the identification and verification of the unique characteristics of natural and legal persons in the electronic environment
28.	<b>Sun'iy intellekt javobgarligi</b>	bu sun'iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan harakatlar natijasida yuzaga kelgan zarar uchun yuridik javobgarlik tizimidir	This is a system of legal liability for damage caused by decisions made and actions taken by artificial intelligence systems
29.	<b>Intellektual faoliyat natijalari</b>	<p>1) intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot va san'at asarlari; ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);</p> <p>2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar: firma nomlari; tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari); tovarlar chiqarilgan joy nomi;</p> <p>3) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual</p>	<p>1) results of intellectual activity: works of science, literature and art; performances, phonograms, broadcasts or broadcasts of broadcast or cable broadcasting organizations; programs and databases for electronic computing machines; inventions, utility models, industrial samples; breeding achievements; undisclosed information, including production secrets (know-how);</p> <p>2) means reflecting private signs of participants in civil transactions, goods, works and services: company names; trademarks (service marks); the name of the place where the goods</p>

		faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar. (FKning 1031-moddasi)	were issued; 3) Other results of intellectual activity and means reflecting private signs of participants in civil transactions, goods and services in cases provided for by the Civil Code of the Republic of Uzbekistan or other laws. (Article 1031 of the CS)
30.	<b>Lisenziya shartnomasi</b>	Lisenziya shartnomasi bo'yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (lisenziar) boshqa tarafga (lisenziatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi, lisenziat esa tegishli obyektdan foydalanganligi uchun lisensiarga haq to'laydi. (FKning 1036-moddasi)	According to the license agreement, the party (licensor) who has the exclusive right to the result of intellectual activity or the means of reflecting private signs grants another party (licensee) permission to use the object of intellectual property, and the licensee pays the licensor for the use of the corresponding object. (Article 1036 of the SC)
31.	<b>Mualliflik huquqi</b>	Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. (FKning 60-bobi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun)	Copyright (the right to be recognized as the author of the result of intellectual activity) is a personal non-property right and belongs only to the person who created the result of intellectual activity with his creative work. (Chapter 60 of the SC, Copyright and Related Rights Act)
32.	<b>Turdosh huquqlar</b>	Turdosh huquqlar obyektlari jumlasiga ijrolar,	Subjects of related rights include

	<b>obyektlari</b>	fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi. (FKning 61-bobi, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun)	performances, phonograms, broadcasts or broadcasts of a broadcast or cable broadcasting organization. (Chapter 61 of the SC, Copyright and Related Rights Act)
33.	<b>Vorislik huquqi</b>	fuqaroning vafot etganidan so‘ng mulkining boshqa shaxslarga (vorislarga) o‘tkazilishida vujudga keladigan munosabatlarning tartibga soladigan huquqiy normalar yig‘indisi	a set of legal norms that regulate relations that arise when a citizen's property is transferred to other persons (heirs) after his death
34.	<b>Sun’iy intellekt ijodi</b>	sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan har qanday asar yoki ixtiro	any work or invention created by artificial intelligence
35.	<b>Raqamli meros</b>	vafot etgan shaxsning raqamli aktivlari va hisoblarining huquqiy maqomi	legal status of digital assets and accounts of a deceased person
36.	<b>Meros shartnomasi</b>	meros qoldiruvchi va voris o‘rtasida tuziladigan, meros huquqlarini belgilovchi kelishuv	agreement between the testator and heir defining inheritance rights
37.	<b>Siyosat</b>	davlatni boshqarish san’ati bo‘lib, siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liqdir	being the art of government, politics is concerned with the relations between various socio-political institutions, social strata, classes and groups
38.	<b>Jinoyat-huquqiy siyosat</b>	davlat faoliyat turlaridan biri	one of the types of state activity
39.	<b>Sud hokimiyyati</b>	hokimiyatning alohida turi bo‘lib, u o‘z tabiatni bo‘yicha hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan farq qiladi	is a special type of power, which differs in its nature from the legislative and executive branches of power
40.	<b>Liberallashtirish</b>	ozod, ozodlik ma’nolarini anglatadi	free means freedom

<b>41.</b>	<b>Prinsip</b>	birinchi, biror nimani boshi	first, start something
<b>42.</b>	<b>Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish</b>	ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirish	Illegal planting or cultivation of poppy or oil poppy, cannabis plant or crops containing narcotic drugs or psychotropic substances
<b>43.</b>	<b>Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarini qonunga xilof ravishda egallah</b>	Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarini qonunga xilof ravishda, o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan egallah	Illegal possession of narcotic drugs, their analogues or psychotropic substances by theft or fraud
<b>44.</b>	<b>Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar o'tkazish maqsadini ko'zlamay oz miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun aybdorlar barcha hollarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56-moddasi).</b>	Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar o'tkazish maqsadini ko'zlamay oz miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun aybdorlar barcha hollarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 56-moddasi).	Those guilty of illegally preparing, obtaining, storing, transporting or sending small amounts of narcotic drugs, their analogues, psychotropic substances without the intention of transferring them are subject to administrative liability in all cases (Article 56 of the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan).
<b>45.</b>	<b>Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar o'tkazish maqsadini ko'zlab oz</b>	Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar o'tkazish maqsadini ko'zlab oz miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun aybdorlar barcha hollarda, qilmish JK 273-moddasining birinchi	Those guilty of illegally preparing, obtaining, storing, transporting or sending small amounts of narcotic drugs, their analogues, psychotropic substances for the

	<b>miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish</b>	qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.	purpose of transfer, in all cases, the act is qualified by the first part of Article 273 of the Criminal Code.
<b>46.</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilishi hamda uni korrupsiyaning darajasini baholovchi Korrupsiyani qabul qilish milliy indeksini tuzishga mas’ul etib belgilanishi bu boradagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab berdi.	By the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 29.06.2020 “On additional measures to improve the system of combating corruption in the Republic of Uzbekistan” No. PF-6013 Combating Corruption of the Republic of Uzbekistan The creation of the agency and its designation as the responsible for the creation of the national index of acceptance of corruption, which assesses the level of corruption, started a new stage of reforms in this regard.
<b>47.</b>	<b>Daromadlar deklaratsiyasi</b>	Daromadlar deklaratsiyasi tizimining umumiyligi maqsadi asossiz daromad olishning oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishdan iborat bo‘lib, davlat xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyani oldini olishning vositasi hisoblanadi. Mazkur talab BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, IXTTning davlat xizmatchilari aktivlarini deklaratsiya qilish (2011- y.) kabi xalqaro normalarida mustahkamlangan.	The general purpose of the income declaration system is to prevent unjustified income and eliminate conflicts of interest, and it is a means of preventing corruption among civil servants. This requirement is reinforced in international norms such as the UN Convention against Corruption, the declaration of assets of civil servants of the

			ICTT (2011).
<b>48.</b>	<b>Surishtiruv</b>	jinoyat ishini tergov qilishning shakli bo‘lib	is a form of criminal investigation
<b>49.</b>	<b>Jinoyat ishini qo‘zg‘atish</b>	jinoyat protsessining dastlabki mustaqil bosqichidir	is the initial independent stage of criminal proceedings
<b>50.</b>	<b>Dastlabki tergovning umumiy shartlari</b>	bu surishtiruv, dastlabki tergov organlari va prokurorlar tomonidan dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida protsessning barcha ishtirokchilariga taalluqli, rioya etishi shart bo‘lgan protsessual-huquqiy ta’riflanuvchi, davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlangan imperativ xususiyatga ega normativ-huquqiy talablar tizimidir	This is a system of normative and legal requirements of an imperative nature, provided by the coercive power of the state, which applies to all participants in the process and must be followed by the inquiry, preliminary investigation bodies and prosecutors during the preliminary investigation
<b>51.</b>	<b>Tergovga tegishlilik</b>	jinoyat ishining xususiyati bo‘lib, unga asosan u yoki bu organ yoxud mansabdor shaxs shu ish bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli bo‘ladi	is a feature of a criminal case, based on which one or another body or official is authorized to conduct a preliminary investigation of this case
<b>52.</b>	<b>Maxsus tergovga tegishlilik</b>	maxsus tergovga tegishlilik jinoyat subyektining xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u harbiy prokuratura organlarining tergoviga tegishlilikni belgilaydi	Eligibility for special investigation is related to the characteristics of the criminal subject, which determines eligibility for investigation by the military prosecutor's office
<b>53.</b>	<b>Muqobil tergovga tegishlilik</b>	unga asosan muayyan turdagи jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni jinoyat ishini qo‘zg‘atgan organning tergovchilari tomonidan tergov qilishi belgilab beriladi	Based on it, it is determined that the investigation of certain types of crimes by the investigators of the body that initiated the criminal case

<b>54.</b>	<b>Tergov organlari</b>	Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati olib boradi	Prosecutor's Office, Internal Affairs Bodies and the State Security Service
<b>55.</b>	<b>Yozma dalillar</b>	Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan so‘z, raqam, chizma yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni saqlash, o‘zgartirish, berish uchun mo‘ljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar	A document or other records written by an official or a citizen in words, numbers, drawings or other forms and designed to store, change, or provide information that may be important for work
<b>56.</b>	<b>Jinoyat quroli</b>	Ashyoviy dalil deb e’tirof etilgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki sodir etish uchun maxsus mo‘ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar, shuningdek jinoiy maqsadlarga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk	Items specially designed, prepared or adapted for the preparation or commission of a crime recognized as physical evidence, as well as property directly used in the course of committing a crime to achieve criminal goals
<b>57.</b>	<b>Ashyoviy dalillar</b>	Kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma’lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo‘ldan-qo‘lga o‘tganligi yoki turgan joyi o‘zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta’sir etganligini aniqlash mumkin bo‘lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo‘lgan narsa	It is possible to determine the origin, to whom it belongs, whether it was used for certain purposes or suitable for use, whether it passed from hand to hand or changed its location, whether it was affected by this or that substance, thing, process and event. something that has the physical signs or symptoms of
<b>58.</b>	<b>Mol-mulkni xatlash</b>	Hukmning fuqaroviy da’voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta’minlash uchun	In order to ensure the execution of the part of the sentence related to the civil claim and

		<p>surishtiruvchi, tergovchi yoki sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviylar javobgarning mol-mulkini xatlashi shart. Ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan mol-mulkni o'zlashtirishning, xarj qilib yuborishning, yashirishning, yo'q qilib tashlashning yoki shikastlantirishning oldini olish maqsadida ushbu mol-mulk ham xatlanadi.</p>	<p>other property recovery, the investigator, investigator or court must attach the property of the suspect, the accused, the defendant and the civil defendant. In order to prevent the misappropriation, spending, concealment, destruction or damage of the property recognized as material evidence, this property is also sealed</p>
<b>59.</b>	<b>Xususiy ajrim</b>	<p>Jinoyat ishini ko'rish jarayonida jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanganidan keyin sud xususiy ajrim chiqarib, unda tegishli davlat organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, jamoat birlashmalaridan, jamoalardan yoki mansabdar shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rishni talab qiladi.</p>	<p>After determining the causes of the crime and the conditions that made it possible to commit it during the criminal proceedings, the court issues a private ruling, in which the relevant state bodies, citizen's self-government bodies, public associations, communities or officials require taking measures to eliminate the conditions</p>
<b>60.</b>	<b>Sudlovga tegishlilik</b>	<p>jinoyat-protsessual qonuni tomonidan jinoyat ishining mazmunan u yoki bu sudda ko'rilihini belgilovchi protsessual institut bo'lib, qaysi sud yurituviga qanday ish tegishliligini va yagona sud tizimi sudlari o'rtasida vakolatlar qanday taqsimlanganligini aniqlaydi.</p>	<p>It is a procedural institution that determines the content of a criminal case in one or another court by the law of criminal procedure, determines which case belongs to which court and how the powers are distributed among the courts of the unified judicial system</p>

<b>61.</b>	<b>Turdosh yoki predmetli sudlovga tegishlilik</b>	ishning turi yoki xarakteriga qarab har xil turdag'i sudlarga jinoyat ishlarining tegishli bo'lishi tushuniladi.	depending on the type or character of the case, it is understood that criminal cases belong to different types of courts
<b>62.</b>	<b>Sud hukmi</b>	jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi yoki boshqa ta'sir chorasi qo'llanilishi hamda aybi bo'lmanan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi haqidagi jinoyat sud ish yurituvining asosiy vazifalarini hal etadigan, sud muhokamasiga yakun yasaydigan O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan odil sudlovning muhim hujjatidir.	the verdict of the court is the most important act of justice, issued in the name of the Republic of Uzbekistan, which summarizes the trial and solves the main tasks of criminal proceedings - so that every person who has committed a crime is punished fairly and no innocent person is held accountable and condemned.
<b>63.</b>	<b>Jinoyat ishini yuqori sudda ko'rish</b>	Apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida ishni ko'rishdan iborat instansiya	Court of appeal, cassation, inspection
<b>64.</b>	<b>Adolatsiz jazo</b>	Jazo jinoyatning og'irligiga, mahkumning shaxsiga nomuvofiq bo'lsa yoki jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan doiradan chetga chiqmasdan tayinlangan bo'lsa-da, biroq turi yoki me'yori bo'yicha o'ta yengil yoki o'ta og'ir bo'lsa,adolatsiz hisoblanadi.	Punishment is considered unfair if it does not correspond to the severity of the crime, the personality of the convicted person, or if the punishment was imposed without going beyond the limits provided for in the relevant article of the Special Part of the Criminal Code, but is extremely light or extremely severe in nature or norm.

## **VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi. –T.:“O‘zbekiston”, 2017.B-48

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni//Qonunchilik ma’lumotlari milliybazasi,20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 19-son, 209-modda

4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 49-son, 578-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 49-son, 611-modda

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14.02.2017 yildagi F-4849-son farmoyishi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 7-son, 88-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 06.11.2020 yildagi PF-6108-son Farmoni

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 31.01.2020 yildagi PF-5930-son Farmoni

10. O‘zbekiston Respublikasining Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni/ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03/23/860/0571-son.

12. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2023-y., 03/23/841/0270-son.

13. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03/23/841/0270-son.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Imomov N.F. Yuridik shaxs mohiyatining fuqarolik-huquqiy talqini (nazariy masalalar). Monografiya. Toshkent: TDYU, 2017.

2. Imomov N., Mexmonov Q., Imomniyozov D. Fuqarolik huquqi (kazus va yechim). – Toshkent: TDYU, 2021.

3. Imomov N. Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari. //<https://journals.uz/wp-content/uploads/2019/08/huquq-2019-09/81-93.pdf>.

4. Mekhmonov Kambariddin Miradkhamovich. Protection of industrial property rights in foreign countries. Journal of Law Research. 2022, 8 vol., issue 2, pp.

5. Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich. Classification of types (business models) of electronic commerce and subjects of participants. Journal of Law Research. 2022, 8 vol., issue 2, pp.

6. Имомов Н. Задачи гражданского кодекса: правовое определение или правовое упорядочение социальных отношений //Review of law sciences. — 2018. № . 1.

7. Окюлов О. Гражданский кодекс Республики Узбекистан в новой редакции: каким должен быть IV раздел. 2019.

8. Мехмонов К.М. Правовая защита промышленных образцов по

законодательству Республики Узбекистан. “Young Scientist”. 5 (400). February 2022. Jurisprudence. 193

9. Каражодаева, Д. особенности исполнения договоров в условиях COVID-19: основные риски и правовые механизмы их преодоления //Review of law sciences. — 2020. — Т. 5. — № . Спецвыпуск.

10. Mehmonov, K. M., Musayev E. T. Legal Regime of Digital Rights //Ilkogretim Online. — 2021. — Т. 20. — №.

11. Fuqarolik huquqi. Darslik. – Т.: TDYU, 2017.

12. Ergashev V. Mulk huquq va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish. – Toshkent: TDYuI, 2014.

13. Raxmonqulov X., Ergashev V.Y. O‘zbekiston Respublikasi ashyoviy huquq tizimini takomillashtirish muammolari. – Т.: TDYuI, 2011.

14. Oqyulov O. Intellektual mulk va innovatsiya (Intellektual mulk huquqi institutlarining innovatsiya rivojlanishini ta’minlashdagi ta’sirini oshirishning moddiy va protsessual vositalari: milliy amaliyot va xorijiy tajriba). –Т., Turon zamin ziyo, 2016, 390 b.

15. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – Т.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 441 bet.

16. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas’ul muharrir. X.Ochilov – Т.:Adolat nashriyoti, 2020 yil. 4-9 b.

17. M.X.Rustambaev, Q.R.Abdurasulova, B.J.Axrarov. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi Konsepsiysi va doktrinasini rivojlantirish muammolari. BV-F7-007-016 raqamli davlat granti asosida chop etilgan.–Т.: TDYI nashriyoti, 2011. -166 bet.

18. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Т.: TDYU nashriyoti, 2017. 490 b.

19. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Т. TDYU, 2019,-195 bet.

20. S.Sahaddinov. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. –Т.: Yangi asr avlodi, 2014. -10-54.

21. Абдумажидов F.A. Справедливость как философская, этическая и правовая категория. // Методологические проблемы права. Академия МВД РУ. – Т.: 1995. –С. 16-23.

22. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat-protsessual huquqi fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma -Т: TDYI nashriyoti, 2010. 441 b.

#### **IV. Xorijiy adabiyotlar**

1. Уголовное право. Учебник / А.С.Якубов, Р.Кабулов и др. – Т.Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – ст. 48.
2. Панченко П.Н. Советская уголовная политика. Томск. 1988. С. 74-80; Разгильдиев Б.Т. Уголовно-правовая политика: понятие и содержание // Правовая политика и правовая жизнь. 2000. С. 131-135; Львович Е.В. Уголовно-правовая политика: понятие и содержание // Науч. Труды. РАЮН: В 3 т. Т.2. М., 2004. С.597-598; Воронин М.Ю. Уголовная политика: понятие, история возникновения и развития. М., 2000. С. 4-11; Бойко А.И. Уголовная политика. Ростов н/Д, 2008. С. 7-26.
3. Brian Y.Bix.Washington University, St. Louis, B.A. Harvard University, J.D. Balliol College, Oxford University, D.Phil. Natural Law: Modern Tradition Natural Law: Online publication date: Sep. 2012 Online publication date: Sep. 2012. Edited by Jules L.Coleman, KennehtEinarHimma, and Scott J.Shapiro.
4. Лопашенко Н.А. Уголовная политика. – М.: Волтерс Клювер, 2009. – с. 5-7.
5. Босхолов С.С. Основы уголовной политики. Конституционный, криминологический, уголовно-правовой и информационный аспекты. Монография. Издание 2-е, переработанное. — М.: Центр ЮрИнфоР, 2004. — 7 с.
6. Чубинский М.П. Очерки уголовной политики: понятие, история и основные проблемы уголовной политики как составного элемента науки уголовного права. С.55-56; Лесников Г.Ю. Уголовная политика РФ (проблемы теории и практики). М., 2004. С.3.
7. Уголовная политика Российской Федерации : в 2-х ч. : учебник / под ред. заслуженного юриста Рос. Федерации, д-ра юрид. наук, проф. Л. И. Беляевой. – М. : Академия управления МВД России, 2018. – Ч. 1. – 184 с.
8. Коробова А. П. Правовая политика: понятия, форма реализации, приоритеты в современной России: дис. ... канд. юрид. наук. Самара, 2000; Алексеев С. С. Основы правовой политики в России: курс лекций. М., 1995; Матузов Н. И. Понятие и основные приоритеты российской правовой политики // Правоведение. 1999. № 1; Иса-ков Н. В. Правовая политика современной России: проблемы теории и практики: дис. ... д-ра юрид. наук. Ростов н/Д., 2004; Матузов Н. И. Российская правовая политика: курс лекций / под ред. Н. И. Матузова и А. В. Малько. М., 2003.
9. Гносеология или гнозеология // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрана : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

10. Artificial Intelligence and Intellectual Property: Patents, Copyright, and Data. Oxford University Press, 2023.

#### **V. Elektron ta’lim resurslari**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.senat.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.my.gov.uz>
5. <http://www.parliament.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>

## VIII. TAQRIZLAR